



O.R. AVEZOV

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH



darslik



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O.R. AVEZOV**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH**

*Oliy o'quv yurtlarining 5210203 - Psixologiya (amaliy psixologiya),  
5210204 - Psixologiya (oila psixologiyasi), 5210205 -Psixologiya  
(yoshlar psixologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun  
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**“Durdon” nashriyoti  
Buxoro – 2021**

**УЎК 159.9(075)**

**88я7**

**A 21**

Avezov O.R.

Mutaxassislikka kirish [Matn] : darslik / O.R. Avezov .-Buxoro:  
ООО "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.-220 b.

**КБК 88я7**

Mazkur darslik 5210203- Psixologiya (amaliy psixologiya),  
5210204- Psixologiya (oila psixologiyasi), 5210205- Psixologiya  
(yoshlar psixologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv  
rejasidagi "Mutaxassislikka kirish" nomli fan dasturi asosida  
yaratilgan bo'lib, mutaxassislikka kirish, psixologiyaga tarixi,  
psixologiyaning zamonaviy tadqiqot metodlari, shaxs, kasb,  
motivatsiya, professiogramma, psixologik testlar, psixologiyaning  
sohalari to'g'risidagi materiallarni o'zida mujassamlashtirgan.

**Taqrizchilar:**

**Sh.R.Barotov**, Buxoro davlat universiteti professori, psixologiya  
fanlari doktori.

**E.Z.Halimov**, Buxoro muhandislik texnologiya instituti akademik  
litseyi direktori, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligining 2021-yil 1-martdagи 110-sonli buyrug'iiga asosan  
nashr etishga ruxsat berilgan.**

**Ro'yxatga olish raqami 110-91.**

## **SO‘Z BOSHI**

XXI asrda shaxs o‘rganilishi va tadqiq qilinishi bilan bog‘liq psixologik talablar birmuncha jadallahib bormoqda. Chunki, inson tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois, uning shakllanishi va shaxs sifatida taraqqiyoti eng avvalo unga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv olamning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018- yil 14-avgustdagি PQ-3907-son qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, umumiy o‘rtा va o‘rtа maxsus davlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ilgari surilayotgan qator g‘oyalar amaliy psixologiyaning yuksalishiga keng imkoniyatdir. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda fan dasturi asosida yaratilgan mazkur darslik oliy o‘quv yurtlarining 5210203-Psixologiya (amaliy psixologiya), 5210204-Psixologiya (oila psixologiyasi), 5210205-Psixologiya (yoshlar psixologiyasi) balakavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalardagi psixologik bilim va malakalarни yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Darslik asosan, modulli tizim talablari asosida yaratilgan bo‘lib, har bir modul tarkibiga kiruvchi mavzular psixologiyani to‘liq va batafsil ochib beruvchi tushunchalar, ko‘nikmalar hamda ilmiy mushohadalarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, mazkur fanni to‘liq o‘zlashtirgan har bir talaba Psixologiya fan sifatida (I-bob), Psixologiya kasb sifatida (II-bob), Psixologiya tarmoqlari va psixolog kasbiy faoliyati (III-bob), Psixolog kasbiy faoliyati va psixologiya metodlari (IV-bob), Psixolog faoliyatini nazorat qiluvchi axloqiy me’yorlari va etik tamoyillar (V-bob) kabi fundamental bilimlarga ega bo‘ladi. Tabiiyki, ushbu bilimlar esa talabalarning boshqa psixologiyaga doir mutaxassislik fanlarini yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘ziga xos imkon yaratadi.

Mazkur darslik hozirgi zamon psixologiyasining eng yangi yutuqlari, ilmiy mushohadalariga tayanuvchi nazariy va amaliy bilimlar, tamoyillar asosida yaratilgan.

## I BO‘LIM (MODUL). MUTAXASSISLIKKA KIRISH

### I BOB. PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA

**Tayanch tushunchalar:** *psixolog, psixologik bilimlar, kasb tanlash motivlari, psixologik konsultatsiya, professionallik, amaliy tadqiqotlar, interpretatsiya, individ, shaxs, individuallik, shaxs tuzilishi.*

#### 1.1. Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob’ekti va ahamiyati

Har qanday konkret fan boshqa fanlardan o‘z predmetining xususiyatlari bilan farq qiladi. Psixologiya o‘rganadigan hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash yanada qiyinroq. Bu hodisalarni tushunish ko‘p jihatdan psixologiya fanini egallash zaruratiga duch kelgan odamlarning dunyoqarashiga bog‘liqdir. Qiyinchilik, eng avvalo, shundan iboratki, psixologiya o‘rganadigai hodisalar kishilar aqlida allaqachonlardan buyon alohida hodisalar sifatida bo‘rttirilib va hayotdagi boshqa ko‘rinishlardan ajratilib kelindi. Chindan ham shu narsa mutlaqo ravshanki, mening tikuv mashinkasini idrok etishim qarshimdagи stol ustida turgan tikuv mashinkasining o‘zidan, ya’ni real narsadan mutlaqo boshqa va farq qiladigan narsa hisoblanadi; mening mashinada yurishga bo‘lgan istagim haqiqatda mashinada yurishga nisbatan allaqanday boshqa bir narsadir; mening Yangi yilni kutib olish haqidagi xotiram Yangi yil arafasida real tarzda yuz bergeniga qaraganda farq qiladigan allaqanday bir narsa hisoblanadi va hokazo. Shu tariqa asta-sekin turli xil hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar tarkib topadi va ular psixik hodisalar (psixik funksiyalar, xususiyatlar, jarayonlar, holatlar va boshqalar) deb nomlana boshladi. Bu hodisalarning alohida xarakterga egaligi ularning odamlarni qurshab turgan tashqi olamdagи hodisalardan farq qilishida, insonning ichki dunyosiga tegishli ekanligida ko‘zga tashlanadi. Ularni real hodisalar va faktlarga qarama-qarshi qo‘yiladigan ruhiy hayot («psixika» degan terminning o‘zi yunoncha «psyuxe» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «ruh» degan ma’noni bildiradi) sohasiga taalluqli deb hisoblashardi. Bu hodisalar «idrok», «xotira», «tafakkur», «iroda», «hissiyot» va boshqa shu kabi nomlar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi

birgalikda psixika, kishining psixik, ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ataladigan tushunchalarni hosil qiladi.

Garchi kundalik muloqot davomida boshqa odamlarni kuzatib borgan kishilar xulq-atvorining turli xil faktlari (harakatlar, qiliqlar, ish bajarish va hokazolar) bilan bevosita munosabatda bo‘lsalar ham, amalda o‘zaro birgalikda harakat qilishga bo‘lgan ehtiyoj ularni tashqi xulq-atvor ortida yashirinib yotgan psixik jarayonlarni farqlay bilishga majbur qilgan. Kishining hatti-harakatlari zamirida hamisha unga dastur ul-amal bo‘lgan maqsadlar, mayllar, u yoki bu voqeadan ta’sirlanish zamirida esa xarakteriga xos asosiy belgilar tushunilgan. Uning uchun ham psixik jarayonlar, xususiyatlar, holatlar ilmiy tahlil predmetiga aylanishidan ancha ilgari kishilarda bir-birlari to‘g‘risida sodda psixologik bilimlar to‘plana boshlagan. Bu bilimlar avloddan avlodga o‘tgan holda tilda, xalq ijodiyoti yodgorliklarida, san’at asarlarida o‘z ifodasini topa bordi. U, jumladan, maqol va matallarda mujassamlasha boshladi. «Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan afzal» (ko‘z bilan ko‘rgan holda idrok etish va xotirada saqlab qolishning eshitishga qaraganda afzallikkari haqida); «Odat – kishining ikkinchi tabiatidir» (tug‘ma xulq-atvor turlari bilan raqobat qila oladigan barqaror odatlarning roli haqida) va hokazolar.

Kishining shaxsiy hayot tajribasi ham unga psixika haqida muayyan tasavvur bera oladi: biron-bir matnni qaytadan o‘qib chiqish uning kishi xotirasida yaxshiroq saqlanib qolishiga yordam berishini, garchi «Takrorlash – ilmning onasi», degan maqol unga tanish bo‘lmasa ham o‘z shaxsiy tajribasidan bilib oladi.

Ijtimoiy va shaxsiy tajribada yuzaga kelgan sodda psixologik ma’lumotlar ilmiy psixologiyagacha yaratilgan psixologik bilimlarni tashkil etadi. Ular ancha keng miqyosli bo‘lishi, ma’lum darajada tevarak-atrofdagi kishilarning xulq-atvoriga qarab ish qilishiga yordam berishi, bir muncha to‘g‘ri bo‘lishi va voqelikka mos kelishi mumkin. Lekin, umuman olganda, bu bilimlar tizimlilikdan, teranlikdan, isbotlilikdan mahrumdir va shunga ko‘ra ham bilimlar kishi psixikasi to‘g‘risida odamlar bilan ularning u yoki bu xilda kutilayotgan holatlardagi xulq-

atvorini taxmin qilish imkonini beradigan hamda ilmiy, ya’ni ob’ektiv va ishonarli bilimlarni talab qiladigan jiddiy (pedagogik, davolash, tashkiliy va boshqa shu kabi) ish olib borish uchun mustahkam negiz bo‘la olmaydi.

Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan konkret anatomiq-fiziologik apparatlarning ishlashini taqozo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiatini va harakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, biokimyo, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi.

Shunday qilib, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o‘rganadi.

Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko‘ra pedagogika shaxsni ta’lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o‘rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, psixologiya fanining predmetini – shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil qiladi.

Psixologiya, asosan, psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko‘ra psixikaning yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlar ko‘rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- bilish faoliyatları: diqqat, nutq, faoliyat;
- bilish jarayonları: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- shaxsning hissiy-irodaviy sohasi: hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

## **1.2. Psixologik bilimlar olami**

Psixologiyaga oid bilimlarni rivojlanishini turlicha davrlashtirish mumkin. Davrlashtirish ishiga xronologik jihatdan yondashilsa, XVII asr psixologiyasiga, hududiy jihatdan yondashilsa, Meksika psixologiyasining tarixi, Amerika psixologiyasining tarixi kabilarga ajratish mumkin. Demak, har qanday davrlashtirish nisbiydir. Shuni hisobga olib quyidagi davrlashtirish sxemasini ham navbatdagi variantlardan biri deb hisoblash kerak.

Psixologiya tarixi 2 ta davrga ajratiladi. Ular o‘z navbatida kichikroq davrlarga bo‘linish tamoyiliga asosan tuzilgan.

**I-davr.** Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davri. Bu davrda er.av. VI asrdan XIX asr o‘rtasigacha 2,5 ming yil davom etgan davrdir.

**II-davr.** Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida rivojlangan davri. Bu davr XIX asr o‘rtasidan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan davrdir.

Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti quyidagi bosqichlar asosida namoyon bo‘ldi:

Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha. Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarining paydo bo‘lishi va ularning dastlabki taraqqiyoti;

V-VIII asrlar. Ruh(jon) haqidagi ta’limotning falsafiy ta’limotlar va tibbiy bilimlar bazasida rivojlanishi;

XIV-XVI asrlar. Ruh(jon) haqidagi ta’limotning anatomo-fiziologik bilimlar va XIV-XVI asrlardagi buyuk kashfiyotlar ta’sirida rivojlanishi;

XVII-XIX asrlar o‘rtalarida ongning psixologiya predmeti sifatida ajratilishi, psixologiya nazariy asoslarini shakllanishi.

Psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi taraqqiyotiga quyidagi bosqichlarni kiritish mumkin:

XIX asrning boshidan XIX asrning 60-yillarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tabiiy shakllanishi;

XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirlarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo‘lishi va dastlabki taraqqiyoti;

XX asrning 10-30-yillarining o‘rtalarida. Psixologiyada ochiq krizis;

XX asrning 20-30 yillari. Sobiq sovet psixologiyasining shakllanishi;

XX asrning 30-yillar oxiri-50-yillar. Psixologiyada krizisning pasayishi. Sobiq sovet psixologiyasi nazariy sohasi taraqqiyoti. O‘zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi;

XX asrning 60-yillardan shu davrgacha psixologiyada yangi nazariy yondashishlarni izlash davri.

### **Psixologiyaning falsafa fani tarkibida rivojlanishi**

<i>Xronologiya</i>	<i>Bosqichning mazmuni</i>	<i>Yakuniy natijasi</i>
<i>Er.av. V-VI asrlar</i>	<i>Psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi</i>	<i>Ruh haqidagi fanning paydo bo‘lishi va unda 2 yunalish: materialistik va idealistik yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi. Psixik jarayonlar: sezgi idrok, xotira, tafakkur, affekt, iroda haqidagi ilk empirik bilimlarning paydo bo‘lishi. Tana va ruh munosabatiga har xil yondashish</i>
<i>V-VIII asr</i>	<i>Ruh haqidagi fanning falsafiy ta’limoti doirasida tibbiy bilimlar asosida rivojlanishi</i>	<i>Tomistik psixologiyaning paydo bo‘lishi</i>
<i>XV-XVI asr</i>	<i>Ruh haqida fanning anatomiq-fiziologik bilimlar asosida rivojlanishining davom ettirish</i>	<i>Tadqiqot ob’ekti sifatida ruhni inkoretish, «Psixologiya» terminining kiritilishi</i>

### **Psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi**

<i>Xronologiya</i>	<i>Bosqichning mazmuni</i>	<i>Yakuniy natijasi</i>
<i>XIX asr boshidan XIX</i>	<i>Psixologiya mustaqil fan ekanligini</i>	<i>Asab tizimi va sezgi organi faoliyatini eksperimental metod bilan o‘rganila</i>

<i>asrning 60-yillarigacha</i>	<i>ta'kidlovchi ilk bilimlarning paydo bo'lishi</i>	<i>boshlashi psixofizika va psixogeometriyaning paydo bo'lishi, sezish va idrok etish nazariyalarining kashf etilishi</i>
<i>XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirigacha</i>	<i>Psixologiyaning bevosita mustaqil fan sifatida rivojlanishi</i>	<i>Eksperimental metodlar psixologiyadan mustaqil o'rinn egallashi psixologiyada amaliy- empirk tadqiqotlarni paydo bo'lishi fanda yangi tarmoqlarni vujudga kelishi</i>
<i>20 asrning 10-30-yillari</i>	<i>Psixologiyada ochiq krizis (inqiroz)</i>	<i>Chet el psixologiya maktablari, bixevierizm</i>
<i>30-50-yillar</i>	<i>Inqirozning tugallanishi</i>	<i>Yangi tarmoqlar: genetik psixologiya, shaxs psixologiyasining paydo bo'lishi, yangi maktablar, neobixevierizm, neofreydizmning vujudga kelishi</i>
<i>60-yillar</i>	<i>Yangi nazariy va amaliy qidirish</i>	<i>Yangi yo'nalish: gumanistik psixologiya, logopediya, kognitiv psixologiyaning paydo bo'lishi, psixologiya predmetini tahlil qilinishi, ongsizlik masalasiga katta e'tibor, sotsial psixologiya masalalarini chuqurlashtirish</i>

Umuman, psixologiya fanning rivojlanishida juda ko'plab olimlarning tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tadqiqotlardagi eng muhim tamoyil – tarixiylik tamoyilidir. Bu tamoyil tadqiqotchidan o'rganilayotgan hodisaning shu davrning hamma o'ziga xosliklari, ijtimoiy-madaniy aloqalari, uning butun konkret mazmuni bilan birga

o‘rganib, o‘rganiladigan hodisaning qaytarilmasligi va noyobligini ko‘rsata olishni talab qiladi.

Tarixiylik tamoyilining tuzilishi prezентizm va antikvarizmda namoyon bo‘ladi. **Prezentizm** – tarixiy tadqiqotni o‘rganilayotgan davrdan faqatgina hozirgi zamon tasavvurlariga mos bo‘lgan ko‘rinishlarinigina ajratib olib o‘rganish bilan cheklanishdir. **Antikvarizm** – aksincha, tarixiy o‘tmishni hozirgi zamon talablariga bog‘liq bo‘lmagan, qotib qolgan hodisa sifatida o‘rganadi. O‘tmish hodisalarini tasvirlashdagi har qanday bir yoqlamalik, sxematizm tarixiylik tamoyilidan chekinishdir. Shu bilan tarixiy tadqiqotlar o‘rganilayotgan hodisalarining umumiyligi qonuniyatlarini topishni talab qiladi. Bu talabni bajarishni asosan mantiqiylik va tarixiylikning birligiga tayanish ta’minlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, tarixchi o‘tmish hodisasini shunchaki tasvirlab qo‘ymay, balki uni nazariy jihatdan tasavvur eta olishi kerak, ya’ni bu hodisalarda qandaydir doimiylikni topa olishi kerak. Tarixiy psixologik g‘oyalarni ijtimoiy, siyosiy yo‘nalishni g‘oyaviy mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bunday yondashish ilmiy konsepsiyalarning jamiyatdagi ijtimoiy roldan ajratib o‘rganuvchi ob’ektivizm va sub’ektivizmdan farq qiladi.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarda M.G. Yaroshevskiy ta’kidlaganidek, **determinizm** – sababiylilik tamoyili katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, tarixda determinizmning ko‘plab turlari paydo bo‘lgan. Mexanikadan oldin, mexanik, biodeterminizm, psixodeterminizm, sotsiodeterminizm. Bularning har biri psixik hodisalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi, deb talqin qiluvchi indeterminizmga qarshi turadi (Yaroshevskiy M.G. - 1980).

**Materializm va idealizm kurashi.** Ba’zi ta’limotlarga ko‘ra, ikki dunyoqarash: materialistik va idealistik dunyoqarashlar to‘qnashuviga ta’sir etadi. Psixologiya ijtimoiy fanlar va tabiatshunoslik fani to‘qnashuviga ekan, unda ana shu to‘qnashuv aniq ko‘rinadi. Ijtimoiy rivojlanishni bir davrda odamlar reflekslariga ega bo‘lishdi, o‘z xulqini analiz qila olgach, idealizm fikrini maxsus birlamchi haqiqat deb qabul qildi. Psixika xususiyatlarini idealizm boshlang‘ich, hech nima bilan aniqlanmaydigan, boshqa hamma narsani tushuntira oladigan, deb

qabul qildi. Materializm ong va ob'ektiv haqiqat o'rtasida umumiylikni izlab, ongni ob'ektiv haqiqatdan chiqqan deb o'rgatadi.

Uzoq vaqt burjuaziya tarixshunoslarida ikki xil yondashish hukmronlik qilgan: «personalistik» va «kontekstik».

### ***Personalistik yondashish.***

Ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, adashishlar o'z mualliflariga ega, ularning nomlarini tarix saqlab qoladi, shuning uchun psixik dalil (fakt) rivojlanishining oxirgi nuqtasi ayrim shaxslarni aql-idrokiga bog'liq, degan fikr paydo bo'ldi.

### ***Kontekstik yondashish.***

Ko'pgina ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ilmiy g'oyalarning yo'nalishi ob'ektiv qonunga tobe, yakka omil – o'z zamonining namoyondasi, u o'z zamonining intellektual iqlimida chegaralanib qolgan. Kashfiyot – uni tayyorlovchi g'oyalarsiz bo'lmaydi.

“Juftlarni qarama-qarshiligi” tamoyili.

Psixologik g'oyalar harakatini umumiyligi chiziqlarini aniqlashda sxemalarga asoslanilsa, harakat qarama-qarshilikka ega deyiladi. Buni amerikalik tarixshunos “qarama-qarshilik jufti” deb atadi. Bu borada bir qancha nazariyalar taklif qilindi. G. Merfi psixologik o'r ganishlarni XX asrning 10-20-yillarida to'rt «qarama-qarshilik juft»larga bo'ldi:

- 1) “struktura – funksiya”;
- 2) “qisman butun”;
- 3) “sifat – son”;
- 4) “eksperimental – statistik”.

XX asrning 10-yillarida birinchisi hukmronlik qilgan, 20-yillarda ikkinchisi deb hisoblangan Amerika psixologiya jurnalining 50 yil davomida bosilib chiqqan ma'lumotlarini analiz qilib D. Bruner va G. Olbert nazariyalarini umumlashtirib:

- 1) “ratsional – empirik”;
- 2) “teologik – mexanik”;

3) “sifat – son” deb ajratdilar. Ular har bir juftni ikkinchi qismini hajmi bosib chiqishini xulosa qildilar. Keyinchalik, G. Olbert nazariyalarni ikki guruhga ajratdi:

- a) determinizm tamoyiliga amal qiluvchilar;
- b) shaxsni kelajagiga orientatsiya qilishga aksentuatsiya qilganlar.

**Psixologik tizimlar supernazariya sifatida.** Psixologiyani rivojlantirishda olimlar alohida bir xususiyatni aniqlab, uning faktini va xarakteristikasini tasvirlash bilan birga tizimlar to‘g‘risidagi tushunchani kiritish kerak, deb hisoblashdi. Psixologik tizimlar “supernazariya” deb nomlanadi. Ularning paydo bo‘lishini bir qator mualliflar psixologiyaning g‘oyaviy yetilmaganligi bilan bog‘laydilar.

**Paradigmal yondashish.** Kun Tomas “Ilmiy revolyusiyalar strukturasi” kitobida ko‘pchilikni o‘ziga jalb qilgan ilmiy g‘oyalarni tabiiy harakati tizimini ko‘rsatdi, unda harakat bir necha davrga bo‘lingan. Boshlang‘ich davrda ba’zi omillar chegarasi, muammosi usulida umumiyligi kelgani yo‘q. Ammo fan ong yuqori yetilish darajasiga borganda paradigma paydo bo‘ladi, bu paradigmani aktual ilmiy amaliyotini umumqabul qilgan namunasi deb taniladi. Paradigma, Kun Tomasning aytishicha, yetarli kuchga ega, shuning uchun uzoq vaqt olimlarning aqlini asir qiladi, olimlarning alternativ yo‘nalishlarini axtarishda adashtiradi. Pedagogika o‘zga qonunlarni, g‘oyaviy xulosalarni va ularning yangi masalalarini kiritadi. Ma’lum muddat shu fan bo‘yicha ishlamayotganlar ushbu paradigmaga amal qilib keldilar. To‘g‘ri kelmaydigan fikrlarni e’tirof etadilar yoki shu qonunga moslashtiradilar.

Klassik bixevoirizm (psixologiya predmetini stimullarga harakat reaksiyasi deb hisoblovchi) “proksimal stimullar – proksimal reaksiyalar” bog‘lanish bilan chegaralanadi (a-A). Freydizm organizmni uzoq o‘tmishga bog‘liqligi bilan chegaralanadi (S-0). Funksionalizm muhit ob’ektlarini ular bilan operatsiya qilish munosabatini nazarga oladi (v-A). Bu sxemani e’tiborga olib Brunevik har bir sanalgan nazariya butun jarayonni bir fragmenti deb hisoblaydi, ammo psixologiya

tarixini anglash uchun Brunevik sxemasi talabga javob bermaydi: genetik sababi va nazariyalar buzilishini tushuntirib bermaydi.

“Sistematologiya” daniyalik olim K. Madsen fanni o‘zini ilmiy analiz qilish kerakligini gapirib, psixologik nazariyalarini solishtirib o‘rganish kerakligini, uni “Sistematologiya” qilishni taklif qiladi. Nazariya deb, u shved faylasufi G.Gernebodan so‘ng “ilmiy matn” yoki fikrlash (yozma, og‘zaki), metonazariya deb - shu matnni nazariy analizini tushunamiz deydi. Matnni yaratganda bir necha darajani taklif qiladi:

- a) diskriptiv (tasvirlovchi);
- b) gipotetik (tushuntiruvchi);
- v) metastrata, bunda matnning muallifi bilim, haqiqat, metod, model to‘g‘risida o‘z fikrini bildiradi.

“Sistematologiya” asosiga Madsen “fikrlash ekanomikasini” qo‘ydi. Bu adashtiruvchi ishonch, chunki ko‘z bilan ko‘rilgan haqiqatni bildiradi, haqiqat ilmiy bilimning mazmunini tashkil qiladi, deb adashtiradi. Materialistik dialektika pozitsiyasidan psixologik o‘rganishni ilmiy kategorial analiz qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Kategoriylar – fikrni eng umumiy buzilmas, o‘zaro bog‘langan ish tashkilotchilari hisoblanadi. Ular haqiqatni faol tasvirlanishidir. Falsafiy kategoriylar ilmi (forma va mazmun, son, sifat va boshqalar) grammatic kategoriyalarga o‘xshab uzoq tarixga ega.

**Mazmunan- formal.** Olimning o‘z ulushini ilmga qo‘sishi qaytarilmas bo‘lganligi uchun tarixchini vazifasi bu ulushning maxsus xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Konkret voqealarni qaytadan o‘zgartirib tarixchi ularni boshqalar bilan solishtirmay, razryadga taqsimlamay baholay olmaydi. Bu ikki bo‘linmas tarixiy fikrni operatsiya qilish nazariyalarda o‘xshash emasliklari bilan aks ettirilgan. Nazariyalarda mazmuniga yoki “formasiga” e’tibor kuchaytirilgan. Bularda mazmun tarixiy qaytarilmas voqealarni moslashtirgan, formal esa tamoyillar va konstruksiylar bilan moslashtirgan.

**Individual- sotsial.** Ilmiy o‘rganish boshidan sotsialdir. Shu bilan birga har bir o‘rganuvchi shaxs o‘z dasturiga ega va hech kim yetolmagan maqsadga intiladi.

Ammo, hammaning boshqachaligini tan olish ma’nosiz bo‘lar edi, agar umumqabul qilingan hisobot tizimi bo‘lmasa kategoriya tizimi jamoani ijodi va boyligidir. Nazariyalar muallifini sanab borishi mumkin, ammo kategoriylar “tilga” o‘xshab nomsiz, ular butun olimlar tomonidan qabul qilinib har birini faoliyatiga rahbarlik qilib turgan tamoyil tarkibiga va tushuntirish nuqtasiga kiradi.

Fan kategoriysi tarixiy natijadir. Ularning mazmuni asrdan asrga o‘zgaradi. Kategorial qurilish o‘z rivojlanishida qator davrlarni o‘tadi.

**Psixologiya tarixining manbalari.** Psixologiya tarixining manbalari bo‘lib psixologik bilimlarni to‘plashning aks ettiruvchi barcha materiallar eng avvalo o‘tmish psixologlarning, faylasuflarning asarlari hisoblanadi. Tibbiyotga ayniqsa, psixiatriya sohasiga oid bilimlar, shuningdek boshqa fanlar tabiatshunoslik, jumladan fizika, kimyo, astronomiya, tilshunoslik, etnografiya, antrapologiya kabi fanlarning ma’lumotlari ham psixologiya tarixining manbai hisoblanadi.

XX asrda psixologiyaning o‘tmishiga bir necha bor qiziqish kuchaydi. XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida qiziqish tobora kuchayib bordi. Bu yillar psixologiyaning uyg‘onish davri deb hisoblanadi.

XX asrning 10-yillarida psixologiyaning o‘sha paytda hukmron bo‘lgan metod va fan sifatida o‘rganish tizimi qattiq tanqid qilingan. Bu fanning predmeti sifatida fenomenlar yoki ong aktlari, metodi esa o‘z-o‘zini eksperimental nazorat qilish to‘g‘risidagi tushunchadan iborat bo‘lgan.

### **1.3. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi**

Psixologiyaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga tabiat hodisalarining tajribalari va determinik tadqiqot muvaffaqiyati orqali zamin tayyorlangan. Psixologiya tarixchisi Nordenshelning aytishicha, o‘sha paytda ko‘p organik hodisalarga yangi tushunchani qo‘llashga shoshilishar edi. Shu yangi tushunchani ma’nosi shunday iborat ediki, butun borliq jonlimi, jonsizmi bitta yagona sodda aniq bir sabab bog‘lanishidir, bunga tayanib murakkab hayotiy ko‘rinishlarini soddaga aylantirish mumkin, deb aytgan. 40 - yillarda vitalistik qarashning

tarafdori I. Myullerning boshchiligidagi yosh olimlar guruhi o‘z ustoziga qarama-qarshi chiqishdi. Shu o‘quvchilar, jumladan, Gelmgols va Dyuba Reyman tomonidan «yashirinchalik kollej» tashkil qilindi, keyinchalik u tarixga fizika-ximiyaviy maktab deb kiritilgan edi. Bu maktabning dohiylari - Gelmgols, Dyuba Reyman va boshqalar psixologiyani tajribali fan qilib ko‘rsatdi. Gelmgols, Dyuba Reyman va boshqalar ongni materiya sabablari orqali tushuntirib bo‘lmaydi, degan fikrga kelishgan. «Bu jarayonda insonning aqli» jahon siriga duch kelib, uni hech qachon yengib bo‘lmaydi” -dedi Dyuba. Tabiat hodisalari ustidagi juda ko‘p izlanishlar va muvaffaqiyatli tajribalar psixologiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga katta omil yaratadi. Psixologiya fanining rivojiga har xil fanlar, yo‘nalishlar olimlarning hissasi juda kattadir. Masalan: tabiiy hodisalarga fizikaviy matematiklar ko‘zi bilan qarash, ya’ni energiyani saqlanish qonuni hech qanday o‘zgarishsiz tirik organizmga tadbiq qilishni avvaldan fan tasdiqlab bergen bo‘lsa, keyinchalik undan voz kechildi, bunga sabab Ch. Darwin ta’limotlarini psixologiya faniga qo‘shgan hissasi va boshqalardir. Ch.Darwin 1970 yilda o‘zining «Odamning paydo bo‘lishi» nomli asarida odamdagagi va hayvondagi emotsiyal holatlarni taqqoslab ko‘rdi va bu holatlardagi harakatlar mimikani kelib chiqishi va bularni ma’nosи haqida fikr yuritdi. Ch.Darvinning fikricha, bu harakatlar va mimikalar insoniyat tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kerak bo‘lgan, ya’ni hayotiy zaruriyati bo‘lgan hayvonlar o‘ljasiga tashlanishdan oldin og‘izlarini katta ochib o‘kirgani singari odam ham ov paytida bu harakatlari bilan o‘zini himoya qilgan va hokazo. Ch.Darvin hozirgi turli mimika va harakatlarni ana shu ibtidoiy odamdan qolgan rudimentlar deb fikr bildirgan. Bularga odam o‘rganmaydigan, balki insonga instinct sifatida tabiat tomonidan beriladi, deb aytgan. Bu bilan Ch.Darvin odamning emotsiyal holatini hech qanday odam psixologiyasiga bog‘lamay, balki uni hech qanday hissiz, fikrlamasdan bajariladigan bir fiziologik harakat deb ta’riflaydi. Bu bilan Ch.Darvin katta xatoga yo‘l qo‘ygan edi. Insondagi bu harakat va mimikalar, intonatsiya bu - jamiyat rivojlanishining mahsulidir. Jamiyat rivojlanishi bilan biologik formalar ham o‘sib, rivojlanib boradi. Bora-bora refleks haqidagi ta’limotlar ham o‘zgardi. Masalan, Xoll va

Myuller reflektor yoyini hech qanday o‘zgarmaydigan yo‘llarini bog‘lanish deb odamdagи turli reaksiyalar tashqi muhit o‘zgarishida ongning ta’siri deb tushuntirganlar. Ular reflektor harakatlarida psixik ta’sirni umuman inkor etdilar va bu harakatga faqat fiziologik ma’no berdilar, xolos. Ularning bu ta’limotini 1853-yili nemis fiziologi Aflyuger inkor etdi, buning uchun u bitta baqani boshini olib, unga ta’sir qilganda uning qolgan qismi xuddi bir butun organizm, psixologik jarayon ekanligini tasdiqlab berdi. Myullerning fikricha, har bir sezgi organi bu alohida maxsus energiya bilan zaryadlangan apparatdir. Sezish esa ma’lum bir harakat sababli bu energiyaning apparatdan chiqishi bilan hosil bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Gelmgols esa buni ya’ni sezishni psixologiya bilan bog‘laydi. Shunday qilib, psixologiya fani juda ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Psixofiziologiya deb nom olgan yo‘nalishda esa hamma psixik hodisalar ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysunadilar va buni matematik hisoblash yo‘li bilan o‘rganish mumkin deyiladi. Bu yo‘nalishda nemis olimi Gustav Fexner ish olib bordi. U 1820-1830-yillarda Leypsigda fizika fanini olib borar edi va elektr sohasida ko‘p tajribalar o‘tkazar edi. Shunda u psixologiya bilan qiziqib qoladi. Uning fikricha, ong butun koinot bo‘ylab sochilib tarqatilgan, koinotdagi turli jismlarga esa jon berilgan, materiya esa psixikani teskari tomoni, aniqrog‘i, soyasi xolos deydi. Buni esa matematik hisoblashda tasdiqlashga harakat qilgan. XIX asr o‘rtalariga kelib nerv harakatlari juda ham katta tezlikda o‘tadi, hatto yorug‘lik tezligiga teng deb hisoblanar edi va buni hisoblash mumkin emas, deb kelinar edi. Lekin 1850-yilda Gelmgols bu muammoni yechdi. Hisobiga ko‘ra, bu harakat uncha katta emas, sekundiga bir necha o‘n metr edi xolos. Bu tadqiqotiga ko‘p olimlar hatto Gelmgolsning o‘z ustozи Myuller ham ishona olmadи. Gelmgols tajribasi faqatgina fiziologiya bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki psixologiyaga ham taalluqli edi. Bu bilan u nerv sistemasidagi jarayonlar fiziologik jarayonlar kabi ma’lum. Psixologiyaning alohida fan sifatida ajralib chiqishida faqatgina fiziologik tajribalar sababchi bo‘lmasdан, balki falsafaning ham roli kattadir. Bu yo‘lda ingliz faylasuflari Djon Mill, Spenser va boshqalar ko‘p tadqiqotlar olib borganlar. Ota-bola Millar «psixologik ximiya», «psixologik fizika» yo‘nalishlarini yaratdilar. «Psixologik

ximiya» yo‘nalishida ongi bir necha mayda elementlarga bo‘lish mumkin deb hisoblar edilar. Ongi sintez qilib xuddi kimyoviy reaksiyalardan yangi modda olingani kabi, yangi natijalarga erishish mumkin deb hisoblanar edi. Ongi mayda atomlarga bo‘lib, kimyoda Mendeleev jadvalidagi kabi yangi atomlar olish mumkin. Millning bu yo‘nalishi keyinchalik psixologizm deb nom olgan. Aleksandr Ben o‘zining ko‘p yillar mobaynida mashhur bo‘lgan ikki asarida, ya’ni «Emotsiyalar va erk», «Sezgi va intellekt» asarlarida psixologiya bilan fiziologiyani yaqinlashtiradi. U o‘zining bu asarlarida psixologiyani ko‘zda ko‘rinarli tomonlari: reflekslar, instinktga va odatga ko‘proq e’tibor berdi. Refleks organizmning tashqi muhit ta’siriga stereotiplar bilan javob beradi, xulq-atvor turli-tumanligini tushuntirishga javob bera olmas edi. Harakatning xohishi va erki bilan Ben o‘zining ta’limotida ongi faoliyatini organizm faoliyati bilan yakdil deb biladi, psixologiya va shunga o‘xshash boshqa yo‘nalishlarni inkor etadi. Biologik evolyusiyani psixologiya bilan bog‘lash davr talabiga aylanib bordi. Gerberd Spenserning «Psixologiya asoslari kitobi» bunga javob edi. Lekin bu asar ko‘p vaqt e’tibordan chetda qoldi. Darvinnin evolyusiya ta’limotidan keyin esa Spenser evolyusion psixologiya asoschisi deb e’lon qilindi. Uning fikricha, ong bu yashash uchun kurashning muhim qurolidir. Psixologiya bu ichki hodisalarini o‘zaro munosabati yoki tashqi hodisalarini o‘zaro munosabati emas, balki bu ikki harakat hodisaning ta’siridir. Shunday qilib, psixologiya fanining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga, uning rivojlanishida hech qaysi fan yo‘nalishi chetda qolgani yo‘q. Psixologiya alohida fan sifatida o‘rganilayotganligiga yuz yillar bo‘ldi. Ungacha uzoq vaqt davomida bu falsafa, diniy bilimlar qatorida edi. Psixologiya boshqa nomlar bilan ham o‘rganilar edi. Masalan, pnevmatologiya, mental falsafasi va hokazo. Psixologiya tarixini biz faqatgina falsafada emas, balki yuqorida aytganimizdek biologiya, meditsina, pedagogika, sotsiologiyada ham ko‘rishimiz mumkin. 1873-yilda Sechenovning psixologiyani qayta ishlab o‘rganishni ob’ektiv fan sifatida taklif etadigan «Psixologik etyudlar» asari nashr qilindi. Bu asarning asosini materialistik metodologiya tashkil etar edi. Sechenov pomeshchiklar oilasida katta bo‘lgan. U Peterburgdagagi harbiy injenerlar bilim

yurtini tamomlab, oliy texnika injeneri ma'lumotini olgandan so'ng Moskva universitetining meditsina fakultetiga o'qishga kirdi. III kursdan boshlab falsafa fanining tarkibida bo'lgan psixologiya bilan shug'ullana boshladi. Uning ta'bıricha, «falsafaga moskvachasiga ishtiyoq» ijodida keyinchalik muhim rol o'ynaydi. Universitetni tamomlab, Germaniyadagi Gelmgols Dyuba-Reyman laboratoriyasiga ilm o'rganish maqsadida bordi. 1860-yilda Germaniyadan vataniga qaytgan Sechenov Peterburgda medikaxirurgik akademiyasining 1-rus fiziologik mактабини ташкил қилинди. Бу мактаб физика-химияни ю'налышда эди. Бу даврда келиб Rossiyada eski iqtisodiy taraqqiyot yemirilayotgan, sinflar orasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar rivojlanayotgan edi. Bu ziddiyatlar bilan bir paytda odam tanasining tuzilishi, uning organizmi va psixik funksiyaning o'zgarishi masalasi ham mavjud edi. Sechenov va Chernishevskiyning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan P.D. Yurkevich shunday yozgan edi: hozirgi zamonda fiziologlari kundalik hayotidagi o'zgarishlarni hamda bu o'zgarishlarni paydo bo'lishi va sabablarini ortiqcha o'r ganmoqda. P.D.Yurkevich va uning tarafdarları fikrini «Sovremenik» jurnali xodimlari qoralashib chiqdilar. Ular fiziologik va psixologik hodisalarining materialistik dunyoqarash nuqtai-nazaridan yoqlab chiqdilar. I.M.Sechenov revolyusion demokratik intellegensiya bilan yaqin aloqada bo'lib «Nima qilmoq kerak?» asarini yaratgan. Jon haqidagi bahslar keskinlashgan paytda Sechenov miya ustida olib borgan ekperementlarida tormoz markazlari, ya'ni harakat aktivligini ushlab turadigan qo'zg'alish, «lokalizatsiya» qilingan nerv markazlarini ochib beradi. Bu buyuk kashfiyat edi. Bu bilan u nafaqat bosh miya fiziologiyasida yangi bo'lim ochdi, balki bu organizmning funksiyalari haqidagi tasavvurlarni umuman o'zgartirib yubordi. Bu kashfiyat fiziologik ongga tormozlanish haqida yangi tushuncha olib kirdi. Olim bu bilan esa tormozlanish va qo'zg'alish o'rtasidagi o'zaro munosabatga aloqador bo'lgan neyrodinamik muammolarning keng kompleksini ochib berdi. Lekin bu keyinroq sodir bo'lgan edi. O'sha vaqtda Sechenov uchun muhim narsa shu ediki, u tajriba yo'li bilan miya moddasini kichkina bir bo'lagidan chiqayotgan iroda asrlar bo'yli yurakdan chiqadi deb hisoblanib kelinayotganligi noto'g'ri ekanligini isbotlab berish kerak

edi, ya’ni inson irodasi faqat ruhga emas, balki inson organizmining bir bo‘lagi hisoblangan miya faoliyatiga bo‘ysunishini isbotlashi kerak edi. Axir iroda fe’l-atvorning eng ishonchli belgisi qo‘zg‘ovchilarga qarshi tura olishni bilish, shartsiz impulslarni ushlab qolish edi. Bu belgilarning hammasi eksperiment guvohlik bergani kabi markazdan miyaga tortiladi. Bu kashfiyotdan foydalanib, Sechenov 1863-yil «Sovremennik» jurnaliga o‘zining «Inson miyasining reflekslari» nomli birinchi psixofiziologik traktatini yozadi. Sechenov maqolasidagi g‘oyalar rus zamini bo‘ylab uzoqlarga tarqaldi. Sechenov 1866-yilda «Nerf sistemasining fiziologiyasi», 1867-yilda «Sezgi organining fiziologiyasi» nomli asarini yozdi. Sezgi organining fiziologiyasi ustida ish olib borish jarayonida Sechenov psixologiyaga ham to‘xtalib o‘tdi. Kavelinning asariga javobida hamda «Kim va qanday psixologiyani o‘rganadi?» (1872) nomli maqolasida Sechenov psixologiyani maxsus fan sifatida tan oladi. Uning fikricha, psixologianing fiziologlar yaxshi o‘rgana oladilar. 1870-yillarning boshlarida hali psixologiya fan sifatida tan olinmagan edi, shuning uchun faylasuflarda uni tushunadigan g‘oyalar yurar edi. Inson psixikasi haqida Sechenovga Leybnis, Shopengauer, Gelmgols va boshqalar o‘z fikrlarini bildirgan edilar. Sechenov ta’limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning mahsulidir. Odatda, psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasida bevosita ta’sir etish asosida vujudga kelib, bilish jarayonlari, shaxsning xususiyatlari, holatlari, diqqati, his-tuyg‘usi, xarakter xislatlari, qiziqish va ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarimsharlarida vujudga keladigan muvaqqat bog‘lanishlarni psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta’sirining natijasida hosil bo‘ladi. Muvaqqat nerv bog‘lanishlari nerv jarayonlarining irraditsiyasi, konsentratsiyasi hamda o‘zaro induksiyasi qonunlari zamirida ro‘y beradi. Bu qonunlar yig‘indisidagi muvaqqat bog‘lanishlar assotsiatsiyalari qanday yuz berayotganini, qanday shart-sharoitda tormozlanishi muvaqqat bog‘lanishlarning yo‘qolayotganini yoki paydo

bo‘layotganini tushuntirish imkonini beradi. Psixofiziologik qonuniyatlariga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashishi mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta’sirida hosil bo‘ladi. Psixikani tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini uning ham nazariy, ham amaliy hayot faoliyatini o‘rganishdir. Sechenov ham o‘zining «Bosh miya reflekslari» asarida o‘sha zamon fiziologiyasining ilg‘or yutuqlariga va shaxsiy tekshirishlariga asoslanib turib, odamning psixik faoliyati qandaydir moddiy bo‘lman ruhning namoyon bo‘lishi emas, balki faqat miyaning faoliyatidir xolos, deb dadillik bilan aytadi. Sechenov psixik jarayonlarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta’limotni ilgari suradi. «Ongli va ongsiz psixikaning barcha harakatlari, - deb yozadi u, - o‘zining kelib chiqishi jihatidan reflekslardir». U ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi bosh miya funksiyalari bo‘lgan psixik jarayonlarning kelib chiqishini o‘rganishdan iborat deb hisoblaydi. U yana shunday deydi: «Psixik hodisalarning ilmiy jihatdan haqiqiy analiz qilib berishning kaliti fiziologiyaning qo‘lidadir». Sechenovning psixik jarayonlarni mohiyatini tushuntirib beradigan asosiy qonun - qoidalari mana shulardan iborat edi.

#### **1.4. Psixologik maktablar**

Psixologiya tarixchisi Nordenshel aytishicha, o‘sha paytda ko‘p organik hodisalarga yangi tushunchani qo‘llashga shoshilishar edi. Shu yangi tushunchani ma’nosi shunday iborat ediki, butun borliq jonlimi, jonsizmi – bitta yagona sodda aniq bir sabab bog‘lanishidir, bunga tayanib murakkab hayotiy ko‘rinishlarini soddaga aylantirish mumkin, deb aytgan.

XX asrning 40-yillarda vitalistik qarashning tarafdoi I. Myullerning boshchiligida yosh olimlar guruhi o‘z ustoziga qarama-qarshi chiqishdi. Shu o‘quvchilar, jumladan Gelmgols va Dyuba Reyman tomonidan «yashirinchalik kollej» tashkil qilindi, keyinchalik u tarixga fizika-kimyoviy maktab deb kiritilgan edi.

Bu maktabning dohiylari – Gelmgols, Dyuba Reyman va boshqalar psixologiyani tajribali fan qilib ko‘rsatdi.

Gelmgols, Dyuba Reyman va boshqalar ongi materiya sabablari orqali tushuntirib bo‘lmaydi, degan fikrga kelishgan.

«Bu jarayonda insonning aqli» jahon siriga duch kelib, uni hech qachon yengib bo‘lmaydi”, – dedi Dyuba. Tabiat hodisalari ustidagi juda ko‘p izlanishlar va muvaffaqiyatli tajribalar psixologiyaning alohida fan bo‘lib ajralib chiqishiga katta omil yaratadi. Psixologiya fanining rivojiga har xil fanlar, yo‘nalishlar olimlarning hissasi juda kattadir. Masalan: tabiiy hodisalarga fizik-matematiklar ko‘zi bilan qarash, ya’ni energiyani saqlanish qonuni hech qanday o‘zgarishsiz tirik organizmga tadbiq qilishni avvaldan fan tasdiqlab bergan bo‘lsa, keyinchalik undan voz kechildi, bunga sabab Darwin ta’limotlarini psixologiya faniga qo‘shgan hissasi va boshqalardir.

Myullerning fikricha, har bir sezgi organi bu alohida maxsus energiya bilan zaryadlangan apparatdir. Sezish esa ma’lum bir harakat sababli bu energiyaning apparatdan chiqishi bilan hosil bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Gelmgols esa buni ya’ni sezishni psixologiya bilan bog‘laydi. Shunday qilib, psixologiya fani juda ko‘p tortishuvrlarga sabab bo‘ldi.

Psixofiziologiya deb nom olgan yo‘nalishda esa hamma psixik hodisalar ma’lum bir qonuniyatga bo‘ysunadilar va buni matematik hisoblash yo‘li bilan o‘rganish mumkin deyiladi. Bu yo‘nalishda nemis olimi Gustav Fexner ish olib bordi. U 1820-1830-yillarda Leypsigda fizika fanini olib borar edi va elektr sohasida ko‘p tajribalar o‘tkazar edi. Shunda u psixologiya bilan qiziqib qoladi. Uning fikricha, ong butun koinot bo‘ylab sochilib tarqatilgan, koinotdagi turli jismlarga esa jon berilgan, materiya esa psixikani teskari tomoni, aniqrog‘i soyasi xolos deydi. Buni esa matematik hisoblashda tasdiqlashga harakat qilgan.

XIX asr o‘rtalariga kelib nerv harakatlari juda ham katta tezlikda o‘tadi, hatto yorug‘lik tezligiga teng deb hisoblanar edi va buni hisoblash mumkin emas deb kelinar edi. Lekin 1850- yilda Gelmgols bu muammoni yechdi. Hisobiga ko‘ra, bu harakat uncha katta emas, soniyasiga bir necha o‘n metr edi, xolos. Bu tadqiqotiga ko‘p olimlar hatto Gelmgolsning o‘z ustozi Myuller ham ishona olmadi. Gelmgols tajribasi faqatgina fiziologiya bilan bog‘liq bo‘lib qolmay, balki

psixologiyaga ham taalluqli edi. Bu bilan u nerv tizimidagi jarayonlar fiziologik jarayonlar kabi ma'lum.

1860-yilda Germaniyadan vataniga qaytgan Sechenov Peterburgda medika-xirurgik akademiyasining birinchi rus fiziologik maktabini tashkil qildi. Bu maktab fizika-kimyoviy yo'nalishda edi. Bu davrda kelib Rossiyada eski iqtisodiy taraqqiyot yemirilayotgan, sinflar orasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar rivojlanayotgan edi. Bu ziddiyatlar bilan bir paytda odam tanasining tuzilishi, uning organizmi va psixik funksiyaning o'zgarishi masalasi ham mavjud edi. Sechenov va Chernishevskiyning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan P.D. Yurkevich shunday yozgan edi: "Hozirgi zamonda fiziologlari kundalik hayotidagi o'zgarishlarni hamda bu o'zgarishlarni paydo bo'lishi va sabablarini ortiqcha o'rjanmoqda". P.D. Yurkevich va uning tarafdorlari fikrini «Sovremenik» jurnali xodimlari qoralashib chiqdilar. Ular fiziologik va psixologik hodisalarining materialistik dunyoqarash nuqtai-nazaridan yoqlab chiqdilar. I.M.Sechenov revolyusion-demokratik intellegensiya bilan yaqin aloqada bo'lib «Nima qilmoq kerak?» asarini yaratgan.

Jon haqidagi bahslar keskinlashgan paytda Sechenov miya ustida olib borgan ekperimentlarida tormoz markazlari, ya'ni harakat aktivligini ushlab turadigan qo'zg'alish, «lokalizatsiya» qilingan nerv markazlarini ochib beradi. Bu buyuk kashfiyat edi.

Bu bilan u nafaqat bosh miya fiziologiyasida yangi bo'lim ochdi, balki bu organizmning funksiyalari haqidagi tasavvurlarni umuman o'zgartirib yubordi. Bu kashfiyat fiziologik ongga tormozlanish haqida yangi tushuncha olib kirdi. Olim bu bilan esa tormozlanish va qo'zg'alish o'rtasidagi o'zaro munosabatga aloqador bo'lgan neyrodinamik muammolarning keng kompleksini ochib berdi. Lekin bu keyinroq sodir bo'lgan edi.

O'sha vaqtida Sechenov uchun muhim narsa shu ediki, u tajriba yo'li bilan miya moddasini kichkina bir bo'lagidan chiqayotgan iroda asrlar bo'yli yurakdan chiqadi, deb hisoblanib kelinayotganligi noto'g'ri ekanligini isbotlab berish kerak edi, ya'ni inson irodasi faqat ruhga emas, balki inson organizmining bir bo'lagi

hisoblangan miya faoliyatiga bo‘ysunishini isbotlashi kerak edi. Axir iroda fe’l-atvorning eng ishonchli belgisi qo‘zg‘ovchilarga qarshi tura olishni bilish, shartsiz impulslarni ushlab qolish edi. Bu belgilarning hammasi eksperiment guvohlik bergani kabi markazdan miyaga tortiladi. Bu kashfiyotdan foydalanib, Sechenov 1863- yil «Sovremennik» jurnaliga o‘zining «Inson miyasining reflekslari» nomli birinchi psixofiziologik traktatini yozadi. Sechenov maqolasidagi g‘oyalar rus zamini bo‘ylab uzoqlarga tarqaldi.

Sechenov 1866-yilda «Nerf tizimining fiziologiyasi», 1867-yilda «Sezgi organining fiziologiyasi» nomli asarini yozdi. Sezgi organining fiziologiyasi ustida ish olib borish jarayonida Sechenov psixologiyaga ham to‘xtalib o‘tdi.

Eksperimental psixologiya avvalo “Vundt” dasturi bo‘yicha ishlab chiqildi. Birinchi bo‘lib elementlarga bo‘lish va strukturaga munosabatlarini topish talab qilinar edi. Bu strukturaga funksiya qarama-qarshi qo‘yilgan edi. Bu qarama-qarshilik Yevropada ham, Amerikada ham katta isyon, qarshilikka sabab bo‘ldi.

Yangi psixologiyaning metodlarini o‘rgangan yoshlar hammasi funksionalistlar edilar.

Vilyam Jeyms ta’limoti yangi psixika ta’limotiga o‘tishda salmoqli xissa qo‘shti. Rodjerning fikriga asosan Jeyms qarama-qarshi turdi. Uni shaxsning kuchli psixofizik bog‘lanishlari qiziqtirar edi.

Jeyms 1870- yillardayoq psixologiyaga murojaat qildi. U Garvard universitetida dars berish davomida fiziologiyaning psixologiyaga ta’siri haqida ma’ruzalar o‘qidi. 1880-yillarda u jurnallarda psixofiziologik savollar bilan murojaat qildi, 1890- yilda esa unga katta shuhrat keltirgan «Psixologiya negizlari» kitobi nashrdan chiqdi. U psixologiyaning o‘quv dasturiga aylandi. Jeyms o‘qituvchilar bilan psixologiya haqidagi suhbatlarida Vundtning mifikini tanqid qildi. U o‘zining fiziologiyaning psixologiyaga ta’siri kursini Vundt fikri bo‘yicha emas, Spenser fikri bo‘yicha o‘qidi. Uning ta’kidlashicha, psixika funksiyasining qimmati faqat evolyusion ta’limotining (o‘qishning) negizidagina ko‘rinishi mumkin. Vundt psixologiyani alohidalik ob’ekti bilan qo‘shib ko‘rsatdi. Jeyms esa

sub'ektni ajratish yo'llarini axtardi. Jeymsning diqqat markazida shaxsning integratsiyasi, o'zini tutishi irodaga bog'liq xususiyatlari kiradi.

Ongdan tashqari, individ organizm bilan mujassamlashgan. Jeyms "Emotsiya nima bu?" maqolasida emotsiya – bu odam o'zini-o'zi his qilishi deb aytadi. Keyinchalik hamma ong motorlidir deb xulosa qiladi. Bu xulosa «progrmatizm» bilan bog'liqdir.

**Mistitsizm.** Jeyms boshqa bir tomondan mistik tajribani o'rghanadi. Uning ta'limoti bo'yicha ong aniqlangan paytda shaxs bilan birga bo'ladi.

Ongning yo'qolishi va neorelizmning paydo bo'lishi. Ong alohida hisoblansa-da, unga bog'liq bo'limgan ob'ektdan ajralgan holda emas, Jeyms individual ongning turliligi, uni qaytarilmasligini tushunib yetgach, ong to'g'risidagi «obrazlar yig'indisi joylashgan bir idish», degan g'oyani rad etadi.

Xo'sh, «Obrazlar yig'indisi» qayoqqa yo'qoldi? Bu savolga Jeyms 1904-yil "Ong mavjudmi?" degan maqolasida javob berdi. U o'z maqolasida ong ichida mavjud deb hisoblangan narsalar undan tashqarida ekanligini tushuntirib berdi. Ong ob'ekt bilan muomalada va aloqada bo'lishi mumkin, lekin ular bundan hech narsa olmaydilar ham, yo'qotmaydilar ham. Ong alohida mavjud narsadir.

Neorealizm tushunchasini yuzaga keltirgan Jeyms sub'ektivizm ustidan g'alaba qilishiga, ongning realligini isbotlashga va bu bilan fenomenlar ma'lumotlarini tugatishga urindi. Bu urinishlar ongning realligiga shubha bilan yakunlandi.

Jeyms dunyoqarashi traditsiyasi juda idealistik edi. Uning ongi real ekanligi, unga, predmetga, shaxsga qaragandek qarash kerakligini isbotlash uchun qilgan harakatlari zoe ketdi, u fenomenalizm doirasini yenga olmadi. Jeymsning psixik tushunchalar izlanishi ikki yo'nalishda bordi, ya'ni tabiiy ilmiy va mistik yo'nalishlarda ko'proq izlanishlar olib bordi.

Funksional psixologiyaning tarafdarlaridan biri Djon Dpyuidir. U o'zining "Psixologiyada reflektor akt haqida tushuncha" nomli maqolasi bilan taniladi. Amerika psixologiya tarixi adabiyotida bu maqolani funksional psixologiyaning Vundt Titchener struktural maktabi bilan chegara uchun sabab qilib ko'rsatiladi.

Lekin qanday qilib reflektor akti haqidagi tushuncha strukturalistlar bilan kurash va turli qarashlar uchun asos bo‘la oladi? Axir strukturalizmning dohiylari Vundt va Titchener nerv hodisalari haqida bilim psixologiya uchun foydali, lekin u psixologik hodisalar haqidagi bilimni kengaytira olmaydi, deb hisoblaydilar. Ular Dpyui o‘z maqolasida «elementalizm» butunlikni ayrim bo‘laklarga bo‘lib tashladi, deb tanqid qiladilar.

Dpyui o‘z maqolasida psixologik faoliyat u oqimdir, lekin ong emas, aktivlik esa butun organizmni uning nerv strukturasi bilan va muhit bilan ekanligini ko‘rsatib beradi, deydi

Dpyui aniq faktlar asosida izohladiki, harakatdan sezish bog‘liqligi va sezishdan harakat bog‘liqligini mavjuddir. Harakat haqiqatdan ham sezgining rivojlanishida bevosita ishtirok etadi. Lekin obraz va qo‘zg‘ovchi ob’ekt bir xil emas.

**Chikago maktabi.** Jeyms va Dpyuilar funksional psixologiyaning Chikago maktabi dasturini tayyorlashadi. Bu dastur 1906-yilda D.N. Enjelo tomonidan Amerika psixologiya assotsiatsiyasiga taqdim qilinadi. Unda funksional psixologik jarayonlar haqida belgilanadi. Jarayon ehtiyoj bilan muhit o‘rtasidagi birlamchi vazifani bajaradi. Ongning asosiy belgilanishi «yangicha nisbatan akkomodatsiya»dir. Organizm psixofizik butunlik sifatida harakat qiladi. Shuning uchun psixologiya ong bilan chegaralanib qolmaydi. Bu sohada Enjelo struktural psixologiyaga hujum qiladi.

Agar Titchener psixologiyani boshqa fanlardan qat’iy chegaralanishini talab qilsa, funksionalistlar uning nevrologiya, sotsiologiya, antropologiya bilan hamkorligini tarafdarlari bo‘lishdi. Chikago maktabida mushaklar tuzilishi va ehtiyoj faktoriga katta ahamiyat berilgan.

Ongning va xulqning faoliyatini o‘rganuvchi psixofizik tartib Amerika funksionalizmida tabiiy-ilmiy bo‘yoqqa ega bo‘lib Yevropa yo‘nalishidan keskin farq qiladi. Lekin ularni umumiylit tomonlari ko‘p bo‘lgan.

Qisqa vaqt mobaynida gullab yashnagan funksional maktabning teologizmi strukturalizm singari parchalanib ketdi, boshqa oqimlar tomonidan siqib chiqarildi.

Shu oqimlar funksionalizm muammolarini «yutib» yuboradi. Funksionalizmning falsafiy loyihalarining bir narsa ekanligini ko'rsatdi.

XIX va XX asrdagi psixologiya – bu asosan empirik psixologiyadir. Psixologiyada XVII asrda paydo bo'lgan bu yo'nalish XIX va XX asrning boshlarida o'z taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining tatbiq qilinishi edi. Uning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytildiganday, psixologiya fanining maxsus o'z vazifalari va metodlariga ega bir qancha shaxobchalari maydonga keldi.

Empirik psixologiya bir butun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo'nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bulardan ancha mashhur va muhimlari assotsionizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshtalpsixologiya va freydizmlar edi.

**Intellektual psixologiya** – bu psixikaning asosiy elementi va psixologik faoliyatning asosiy funksiyasi aql – intellektdir, deb hisoblaydigan yo'nalish. Intellektual psixologiya tarafdarlarining fikricha, turli-tuman psixik jarayonlar, shu jumladan emotsional va iroda jarayonlari ham sezgi, tasavvur va tushunchalarining qo'shilishidir, deb tushuntiriladi. Assotsiativ psixologiyaning vakillari ham intellektualistlarga kiradi, chunki ular ham birlamchi va asosiy element tasavvurlardir, deb hisoblaganlar. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko'zga ko'ringan vakili Gerbart hisoblanadi.

**Volyuntaristik psixologiya** intellektualizmdan farq qilib, psixik hayotning asosi sifatida shaxsning irodasini, aktivligini, faolligini ilgari suradi. Barcha murakkab psixik jarayonlar, xususan, tafakkur ham insonning irodaviy aktivligi, deb talqin qilingan.

Volyuntaristik psixologiyaning vakillari G.Linne (1889-1941) va G.Myunsterberg (1863-1916) edilar. Vilgelm Vundt ham garchand irodaning asosiy hislardir deb hisoblagan bo'lsa ham volyuntarist edi.

**Freydizm** – bu avstriyalik psixiatr va psixolog Zigmund Freyd (1856-1939) nomidan olingan bo'lib, psixologiya va nevropotologiyadagi alohida yo'nalishdir.

Freyd ta’limotiga ko‘ra, shaxs psixologik hayotining asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan, tug‘ma ongsiz mayl(instinkt)dir. Lekin tarixan tarkib topgan odat, axloqiy tamoyillar tufayli, ijtimoiy «senzura»ning mavjudligi tufayli bu mayl to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siladi. Shuning uchun ham ba’zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayl bilan anglab turilgan vaziyat o‘rtasida ichki ruhiy konflikt (to‘qnashuv) paydo bo‘ladi. Bu to‘qnashuvlar ba’zan asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

**Geshtaltpsixologiya** yoki boshqachasiga struktura, yaxlit psixologiya. Bu yunalishning asosiy vakillari X.Erenfels (1859-1932), V.Keller (1887-1967), K.Kofka (1886-1941) lardir. “Geshtalt” tushunchasini fanga Erenfels kiritgan. Bu psixologlar barcha murakkab psixik jarayonlar elementlar hodisalardan – sezgilardan tarkib topadi, deb hisoblangan assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Geshtaltpsixologiyaning vakillari bu ta’limotga qarama-qarshi o‘laroq, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig‘indisiga nisbatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig‘indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism elementlarning hususiyatlarini belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo idrok faktlari, asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok – bu sezgilarning yig‘indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta’kidlanardi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta’limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tadbiq qilingan edi.

Bu alohida-alohida yo‘nalish va oqimlar, bir qancha umumiy hususiyatga ega bo‘lgan holda «Empirik psixologiya» degan umumiy nom ostida birlashdilar.

Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlarning birlashuviga sababchi bo‘ldi.

**Empiriklar** psixologiyani ruh haqidagi fandir, deb emas, «ruhiy hodisalar» yoki «ong hodisalari» yoki bo‘lmasa faqatgina ong hakidagi fandir, deb ta’kidladilar. Bu «ruhsiz» psixologiyadir (N.N. Lange), «hech qanday metafizikasiz psixologiyadir» (A.I. Vvedenskiy).

Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o‘rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni

psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan holi bo‘lish yo‘lidagi katta qadami deb hisoblash mumkin.

Ekzistensializmning asoschisi bo‘lmish nemis faylasufi **Martin Xaydeger** (1889-1978) “tushunish uchun o‘z diqqatimizni qarata olsakkina biz fikrlashga o‘rganamiz”, - deb yozadi. Uning fikricha, narsa va voqealarning mohiyatini tushunish, anglab yetish, inson fikrlash jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa insonni fikrlashga undaydi. Tushunishni talab qiladigan narsa hech qachon biz tomonimizdan yaratilmaydi.

Xaydegerning fikricha, tafakkur mavjudligining asosiy xislati bu tasavvurdir. Tafakkur haqidagi ta’limotga asosan tasavvur fikrda ifoda etiladi. Shuning uchun ham tafakkur haqidagi ta’limotni logika, mantiq deb ataydi.

**K.R.Megrelizening** ta’kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to‘g‘ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa, birinchi navbatda, tafakkurga taalluqlidir. Tafakkurning ijtimoiy hayotning boshqa ko‘rinishlarisiz o‘rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o‘ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo‘llaydigan ijtimoiy sharoitdadir.

Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo‘ladi. Bu haqda K.R. Megreliuze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo‘yicha emas, balki ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar yo‘lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli, avvalo, ijtimoiy hodisadir. Fikr hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo‘lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo‘lishi mumkin emas. Tafakkurning funksiyasi miya faoliyati jarayonida kechadigan sub’ektiv psixologik jarayonlar bilangina chegaralanmaydi:

**Birinchidan**, ongning sub’ektiv holatinigina ifodalamasdan, balki ob’ektga ham tegishli bo‘ladi va narsalar munosabatini ifodalaydi.

**Ikkinchidan**, yangi fikrning vujudga kelishi bilan bilish jarayoni tugallanmaydi, balki faqatgina boshlanadi. Bu bilishning boshlang‘ich bosqichi

bo‘lib, g‘oyaning sub’ektiv holatidir, endi fikrni amalga oshirish bosqichi boshlanadi.

***Uchinchidan***, alohida individning fikri ijtimoiy yetilgan fikrlarning xususiy ko‘rinishidir.

Har bir alohida shaxs ijtimoiy tushunchalar, tasavvurlar yordamida fikrlaydi. K.R. Megrelijze inson fikrining ijtimoiy ekanligini qayta-qayta ta’kidlaydi. Fikrlar va g‘oyalilar erkin individual ijodning mahsuli emas, balki individning o‘zi kabi jamiyat va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. Shuning uchun inson tafakkuri tafakkur bosqichlari, inson tafakkurining shakllari va usullari haqidagi jumboqning yechimini mantiqiy izlanishlardan an’anaviy psixologiyadan emas, balki avvalo bu g‘oyalarning ijtimoiy kelib chiqishidan izlash kerak. U yoki bu individ jamiyatda yetilgan ijtimoiy g‘oyalarning tasodifiy ifodalovchisi bo‘lib qoladi.

**Vyusburg maktabi.** Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muhim o‘rinlardan birini egallaydi va asrimizning boshlarida Germaniyada Vyusburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo‘nalishiga ega bo‘lgan psixologik oqim paydo bo‘ldi. Mazkur yo‘nalishning yirik vakillari sifatida **O.Kyulpe** (1862-1915), **K.Byuller** (1879-1922), **A.Messer** (1837-1937), **A.Narsis** (1871-1946) va boshqalarni sanab o‘tish lozim. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma’lum darajada hissa qo‘sha oldi. Vyusburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya’ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o‘rganishda rasional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo‘l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o‘zlarining ustilarida o‘tkazib, natijalarni ob’ektiv bo‘lishiga kamroq e’tibor bergenlar.

Vyusburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkur bu ichki harakat aktidir, deb qaray boshlaydilar. O‘z-o‘zini kuzatish metodidan foydalanib, ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma’nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatlici, shunga qaramay ko‘pchilik shunchaki hukm chiqarishni ma’qul ko‘radilar. Shuningdek, ular oldida munosabatlarni

o‘rnatish qism, yaxlit, tur, jins ob’ektning nisbati va o‘zaro munosabatlarini ushbu munosabatlarning aniq a’zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. Shuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari ob’ektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi. Jumladan, A.Narsis tomonidan sun’iy tushunchalarning shakllanishi bo‘yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog‘lab, tafakkurni munosabatlarning birlamchi qarab chiqish, yoinki birlamchi ma’lumot berish manbai sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini ko‘tarib chiqib, o‘sishning fikrlarni faollashtirish orqali amaliy faoliyatdan tafakkurni mutlaqo ajratib qo‘ydilar. Tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi – bu o‘z-o‘zini kuzatish ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammo gnoselogik nuqtai-nazardan olib qaralganda ushbu pozitsiya idealizm izmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyursburg maktabi namoyondalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyatida aniqko‘rsata bildi. Biroq tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat’iy ajratib tashladilar.

Vyursburg psixologiya maktabi namoyondalaridan biri **O.Zels** tafakkurni intellektual operatsiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o‘z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki bu jihatlari qay yo‘sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko‘rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko‘rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo‘ydi. O.Zels masala yechish jarayonini o‘rganishda umumiylikka ega bo‘lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e’tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko‘rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo‘ladi. Kompleks o‘z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan: a) ma’lumning tavsifnomasini bo‘laklarga ajratish; b) qidiriluvchi noma’lumning o‘rnini aniqlash; v) noma’lum qidiriluvchi bilan ma’lum o‘rtasidagi munosabatlarni ajratib ko‘rsatish.

Shunday qilib, Vyursburg psixologiya maktabining namoyondasi O.Zels psixologiya tarixida birinchi bo‘lib tafakkurni jarayon sifatida eksperimental

metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operatsiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta’riflab bergen, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o‘rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir. Germaniyada psixologiyaning geshtaltpsixologiya yo‘nalishi vujudga keldi. Uning, ko‘zga ko‘ringan namoyondalari qatoriga **X.Erenfels** (1859-1932), **V.Keller** (1887-1967), **K.Kofka** (1886-1941) va boshqalar kiradi. Geshtaltchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birgalikda aks ettirishdan ko‘lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtaltchilarning aksiomatik xarakterga ega bo‘lgan ushbu fikrlari mazkur ta’limot g‘oyasini olib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig‘indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera olmaydi, aksincha, yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari va xossalari belgilab berishga qurbi yetadi.

### **1.5. Psixologiya rivojiga hissa qo‘shgan ulug‘ olimlar**

Hozirgi kunda aynan psixologik xizmat muammosiga bag‘ishlangan va uning barcha yo‘nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo‘lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida psixologik xizmat muammosining zarurligini ko‘rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin.

Mazkur adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik xizmat metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy psixologiya fani nuqtai nazaridan tadqiq qilishimizga to‘g‘ri keladi.

Chunonchi, barcha tadqiqotchilar ham ijtimoiy, psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan u yoki bu jihatni nazariy-ilmiy tarzda asoslab beradilar. Bular ichida psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazafalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarni Andreeva G.M., Davletshin M.G., Zabrodin Yu.M., Karnegi D., Karimova V.M., Parigin B.D.,

Snigireva T.V., Filippov A.V., Shixirev P.N., Shoumarov G'.B., Yadov V.A., G'oziev E.G'; shaxs faolligi bilan bog'liq tadqiqotlarni Abulxanova-Slavskaya K.A., Anufriev E.A., Grimak L.P., Lomov B.F., Leytes N.S., Golubeva E.A., Qodirov B.R., Lipkina A.I., Petrovskiy V.A., Rubinshteyn S.L., Qodirov B.R.; ijtimoiy ustanovka bilan bog'liq tadqiqotlarni Asmolov A.G., Nadirashvili Sh.A., Uznadze D.N., Shixirev P.N., Allport G.V., ijtimoiy ehtiyojlar va faoliyatdan qoniqish bilan bog'liq tadqiqotlarni Bojovich L.I., Bratko A.A., Vilyonas V.K., Dodonov B.I., Kitvel T.A., Maslov A.H; shaxsga individual yondashuvning ta'minlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni Klimov E.A., Merlin B.S., Nebilitsin V.D., Peysaxov N.M., Rusalov V.M., Siavina L.S., Strelyau A., Teplov B.M.; shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollariga bag'ishlangan tadqiqotlarni Zdravomislov A.G., Kuzmin E.S., Lazurskiy A.F., Muksinov R.I., Myasisev V.N., Stolin V.V., Serbakov A.I., Bogoslavskiy V.V.; shaxsga hissiy-irodaviy sifatlar asosida yondashuv istiqbollarini tadqiq qiluvchi tadqiqotlarni Bassin F.V., Vasiliuk F.Ye., Gissen L.D., Zilberman P.B., Konopkin O.A., Majidov N., Naenko N.I., Prixojan A.M., Rozelnblat V.V., Xekhauzen X., Eberley G., Nevv D.O.; talim muassasalarida psixologik xizmat modelini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni Breinshteyn M.S., Dubrovina L.V., Kala U.V., Rudik V.V., Leymes X.O., Mattes G.O., Pratuivich Yu.M., Sierd Yu.L.; mehnat jamoalarida psixologik xizmat vazifalarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlarni (Gerchikov V.I., Zotova O.I., Izard.K., Ishutina G.A., Kovalev G.A., Leonova A.B., Loos V.G., Popova I.I., Parigin V.D., Saksakulm T.I., Saylus S.M.) va nihoyat oilaviy hayotni tashkil etishdagi psixologik xizmat uchun muhim jihatlarni asoslashga qaratilgan tadqiqotlarni (Argoy M., Bodalev A.A., Stolin V.V., Karimova V.M., Kovalev S.V., Sog'inov N.A., Shoumarov G'.B.) alohida ta'kidlash joiz. Qolaversa, bugungi kungacha yaratilgan barcha ijtimoiy psixologik prinsiplarning asosiy mezonlari bo'lgan "shaxs va faoliyat birligi", "ongning faoliyatda taraqqiysi", "muomala", "individual yondoshuv" "munosabat", "turmush tarzi", "ijtimoiy ustanovka", "borliqni ob'ektiv va sub'ektiv aks ettirish", "jamoa", "ijtimoiy qoniqish", "ijtimoiy xulq-atvor" kabilarning jamiyatdagi amaliy o'rni va

istiqbolini psixologik xizmat tadbiqisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, olimlar tomonidan bugungi kunda ijtimoiy-psixologik hodisalarga inson taraqqiyoti va qadriyatlari asosida yondoshuv muammosining (G.M.Andreeva, Yu.M.Zabrodin, D.Karnegi, E.G‘oziev, V.M.Karimova, I.S.Kon, C.I.Koralev, B.D.Parigin, Ye.V.Shoroxova, G‘.B.Shoumarov) shaxs va faoliyat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvni ta’minlash muammosining (Abulxanova-Slavskaya, J.Bruner, L.S.Vigoskiy, M.G.Davletshin, U.Djems, A.G.Kovalev, A.N.Leontev, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, V.A.Tokareva, D.I.Feldishteyn, E.Fromm, B.R.Qodirov) o‘rtaga tashlanishi psixologik xizmat metodologiyasi haqida jiddiyroq o‘ylashni va mulohaza yuritishni taqozo etmoqda.

Bugungi psixologiya fani taraqqiyoti an’analari bilan bog‘liq insonning iqtidorini, uning jamiyatdagi ijtimoiy faolligi va ijtimoiy tabiatidan ajratib bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, inson omillarini va uning jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarini to‘g‘ri va samarali boshqarish jarayoni jamiyatga va jamiyat a’zolariga psixologik xizmat ko‘rsatish muqarrarligini talab qiladi. Vaholanki, iqtisod, huquq, etika, etnografiya, tarix, sotsiologiya va shu kabi barcha fanlarning o‘zaro mustahkam hamkorligi natijasida inson psixologiyasining amaliy muammolari hal etilishi lozim.

Hozirgi zamon ijtimoiy psixologik tadqiqotlar masalasi, ayniqsa, uning amaliy vazifalari sotsial psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo‘nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g‘arb davlatlarida ikki xil ijtimoiy psixologiya: "psixologik ijtimoiy psixologiya" va "sotsiologik ijtimoiy psixologiya" mavjud. Bu yo‘nalishlar bir-biriga o‘xshasa-da, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud, ya’ni psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan ijtimoiy ustakovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruhiy kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo‘lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko‘pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish xalqlar psixologiyasi,

ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruhlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urg‘u beriladi. Psixologik xizmat metodologiyasi esa ko‘proq bиринчи yo‘nalish - "Ijtimoiy psixologiya" asoslari zamirida tarkib toptiriladi. Gap shundaki, har bir fanning rivojlanishi yangi dalillar asosida ilmiy yo‘nalishni ochib beruvchi metodik qurilmalarning tuzilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki, aniq metodologiya bo‘lmagan sohada aniq amaliy natijalar ham bo‘lmaydi. Zero, ijtimoiy psixologiya fanining yana bir muhim yangi vazifasi psixologik xizmat metodologiyasi bilan bog‘liq nazariy, amaliy va empirik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lамини belgilashning bugungi kungacha nechog‘lik hal qilinayotganligini tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Bu borada psixologiya olamida hanuzgacha aniq va mukammal tarzda ishlab chiqilgan va rasmiy tarzda tan olingan yagona ilmiy yo‘nalish yoki konsepsiyaning qabul qilinmaganligi ayon bo‘lsa-da, ilg‘or g‘arb psixologlari, Markaziy Hamdo‘stlik Davlatlari psixologlari va O‘zbekiston psixologlari tomonidan olib borilgan va olib borilayotgan fan olami uchun o‘ziga xos salohiyatga va nufuzga ega bo‘lgan tadqiqotlar mavjudki, ular qaysidir jihat bilan psixologik xizmat modeli va uning psixologik himoya vositasi sifatidagi mohiyati, ahamiyati va ijtimoiy istiqbollari haqidagi ilmiy-amaliy tasavvurlarimizni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlardan bizga ayon bo‘lishicha, ijtimoiy psixologik xizmat metodologiyasining umumiyo yo‘nalishlari G‘arb ijtimoiy psixologiya namoyondalari tadqiqotlarini quyidagicha izohlash mumkin: V.Vundtning 1900-yilda chop etilgan "Xalqlar psixologiyasi" nomli yirik (o‘n tomlik) epik asari ijtimoiy psixologiya yo‘nalishlarini yorqinlashtirishga xizmat qilib, inson ma’naviyati, madaniyati va mafkurasini o‘rganishning murakkab tomonlarini ochib berdi. Taniqli ingliz psixologi Vilyam Makdugallning 1908-yilda yozilgan "Ijtimoiy psixologiyaga kirish" asaridagi "ijtimoiy xulq-atvor instinktlari" nazariyasi freydizmga qarshi o‘laroq inson instinktlari va faoliyat uyg‘unligini ta’minlash muammosini yoritishga ilk bor asos bo‘lib xizmat qildi. Binobarin, E.Fromm, J.Saliven, V.Shuts, G.Sheparde, V.Bayon kabi olimlar tomonidan guruhlar psixologiyasi nazariyasini yaratishga asos solindi. Bunda turli xil ijtimoiy

psixologik treninglar orqali guruhdagi shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq psixologik iqlimi kamol toptirish yo'llarining ilk bor ko'rsatilishi mehnat jamoalaridagi ijtimoiy psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun darajadagi empirik ma'lumot sifatida xizmat qilishi mumkin.

G'arbda yaratilgan kognitivizm doirasidagi nazariyalar psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, L.Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi (insonning faoliyat ob'ektiga nisbatan xulq-atvori yoki munosabatini ongli ravishda o'zgartirishga asoslangan), T.Nyuxomning hamkorlik kommunikativ nazariyasi (o'zgalarga va umumiylar faoliyat ob'ektiga ijobjiy munosabatlarni tarkib toptirishga asoslangan), Ch.Osgud va P.Tanenbaumaning "kongruentlik" (inson kognitiv tuzilishi asosidagi ob'ektni baholashga qaratilgan) nazariyasi, G.Olport, A. Maslou, K.Rodgers kabi ijtimoiy psixologlarning gumanistik doiradagi qator tadqiqiy izlanishlari shular jumlasidandir. Yana shuni qayd etish kerakki, amerikalik taniqli psixolog Abraham Maslouning "Insonga bir butun yondashuv konsepsiysi" psixologik xizmat jarayonida insonni tushunish va ijtimoiy motivatsion rivojlantirish muammosi ustida tadqiqotlar olib borilishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maslouning fikricha, insonning barcha tug'ma potensial imkoniyatlari faqatgina ijtimoiy shart-sharoitning yaratilishi bilan ro'yobga chiqishi va kamol topishi mumkin. Albatta, mazkur fikrlarning ne chog'liq haqiqat ekanligini bugungi kunda har bir insonning o'ziga xos va uning ijtimoiy - taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi imkoniyatlari ko'lalmini o'rganish va tarbiyalashni asosiy vazifa qilib olgan psixologik xizmatning tashkil etilishini muntazam kuzatishlarimiz natijalari tasdiqlab turibdi.

A.Maslou fan olamida o'ziga xos "motivatsion tizimning ierarxik modeli" ni yaratdiki, unga muvofiq individ xulq-atvoridagi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yuqori ehtiyojlarning yo'nalishi quyi ehtiyojlarning qay tariqa qondirilishi asosidagina tarkib topishi mumkin. Bu jarayon quyidagi tartibga ega:

1. Fiziologik ehtiyojlar.
2. Xavfsizlik ehtiyojlari.

3. Mehr va sadoqat ehtiyojlari.
4. Tan olish va baholash ehtiyojlari.
5. O‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirish ehtiyojlari.

Darhaqiqat, mazkur ierarxik tizim motivatsiyasining ilmiy jihatdan asoslab berilishi, birinchidan, ijtimoiy psixologiyadagi ehtiyojlar va motivlar bilan bog‘liq qator tadqiqotlarga hamohang bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur yo‘nalishdagi psixologik xizmat metodologiyasini yaratish uchun alohida istiqbolga ega. Chunki, psixologik xizmatda insonning ijtimoiy ehtiyojlar muammosi ilmiy jihatdan to‘g‘ri talqin qilinishi va to‘g‘ri yo‘naltirilishi lozim. Bu borada qator taniqli sotsiolog, psixolog va faylasuflar tomonidan e’tirof etilgan ilmiy mulohazalarga tayanish mumkin. Masalan, D.N. Uznadzening "ehtiyoj tushunchasi tirik organizm uchun zarur bo‘lgan va ayni paytda qo‘lga kiritilmagan barcha narsalarga taalluqli" va M.S. Kagan, A.V. Margulis, Ye.M. Etkindlarning "ehtiyoj bu-kerakli narsalarning yetishmaslik oqibati", V.A. Yadovning "ehtiyoj-inson shaxsi va organizm faoliyati uchun kerak bo‘lgan zarurat va yetishmovchilik mahsuli", L.I. Bojovichning "ehtiyoj-individ organizmi va u shaxs taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan zarurat", A.V. Petrovskiyning "ehtiyoj – jonli hayot kechirishining konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir" kabi fikrlari shaxs taraqqiyotini ta’minalash yo‘lida ehtiyojlarning biologik va ijtimoiy uyg‘unligini hisobga olgan holda psixologik xizmatning navbatdagi vazifalarini belgilash imkonini beradi.

Psixologik xizmat metodologiyasini yaratishda insonning hissiy holatini tushunish va uning o‘z mehnati mahsullaridan ijtimoiy qoniqish jarayonini tahlil qilish va rivojlantirishga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarning o‘rni va istiqboliga ham alohida e’tiborni qaratish lozim, deb o‘ylaymiz. Masalan, F.Xersberg va uning izdoshlari tomonidan mehnat faoliyatini tashkil etishdagi emotsiogen farqlanish mexanizmlari tadqiq qilindi. Mazkur izlanish mahsuliga ko‘ra mehnat faoliyatini tashkil etishda ijodiylilik, mustaqillik, o‘z-o‘zini bilish, rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarga e’tibor berilsa shaxs faoliyati unumdarligiga ijobiy ta’sir etuvchi hissiy

kechinmalarni va aksincha, faqat texnik jarayondangina iborat bo‘lgan mehnat sharoiti yaratilsa shaxs faolligiga salbiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, faoliyatning bajarilishiga nisbatan ijobiy-hissiy kechinmalar shakllantirilmas ekan, faoliyat mahsuli ham insonning o‘z faoliyatidan ijtimoiy ma’nodagi qoniqishi ham nihoyatda past saviyada bo‘ladi. Psixologik xizmat esa, bizningcha, xuddi ana shu yerda o‘z ta’sirini, ya’ni faoliyatdan ijtimoiy qoniqish jarayonini darajada yuqori saviyaga ko‘tara olish san’atini ko‘rsatishi lozim.

Ishchi-xodimlarning mehnatdan qoniqish muammosi ustida olib borilgan ayrim tadqiqotlar natijasi psixologik xizmatning metodologik modelini loyihalashtirishga xizmat qilsa ajab emas. Masalan, sobiq sovet psixologiyasi olimlari (N.F. Naumova, A.G. Zdravomislav, V.A. Yadov, V.P. Rojin, T.P. Boganova, E.A. Klimov) mehnatdan qoniqish jarayonini shaxsning munosabatlari motivlari, o‘z-o‘zini baholash ustanovkasi kabi ijtimoiy psixologik mezonlar bilan belgilanishini tavsiya etadilar va buni o‘zlarining qator empirik tadqiqotlarida asoslab beradilar. G‘arb ijtimoiy psixologiya olamida, ayniksa, Amerika psixologlari nazdida esa mehnatdan qoniqish "qator ijtimoiy ustanovkalarining o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘liqligi", "mehnat jarayonini sub’ektiv baholash bilan bog‘liq emotSIONAL holatlarning namoyon bo‘lishi" sifatida talqin qilinadi va mehnat faoliyatining ijtimoiy qimmatini oshirishga qaratilgan psixologik xizmat uchun muhim ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Vengriyalik psixologlar Balint va Muraning tadqiqotlarida psixologik xizmat vazifasini aniqlashga qaratilgan shaxslarning o‘z ishidan qoniqishini ta’minalash va o‘z ishidan (ya’ni o‘z faoliyatidan) qoniqmaslik holatini bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatiladi. Shuningdek, bu olimlarning ilmiy talqinicha, har bir ishchi-xodimning o‘z ishidan qoniqishi uning kayfiyatini, faolligini ta’minalasa, ishdan qoniqmaslik esa korxonada yuz beruvchi ayrim favqulotda baxtsiz hodisalarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Darhaqiqat, bugungi kunda deyarli barcha korxonalarda baxtsiz xodisalar juda ko‘p uchramoqda. Uni kamaytirish va oldini olish esa, hamisha ham muvaffaqiyatli hal qilinayotgani yo‘q. Buning uchun esa

muammoning ijtimoiy psixologik ildizlari haqida chukurroq o‘ylansa yuzlab, balki minglab odamlar hayoti, salomatligi va ijtimoiy- ruhiy mavqeい saqlab qolinishi mumkin. Bu o‘rinda aytish mumkinki, psixologik xizmatning tashkil etilishi eng birinchi navbatda korxonalarda yuz beruvchi baxtsiz xodisalardan saqlanish-himoyalanish vositasi sifatida o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bunday xizmatni tashkil etish juda ko‘pgina mehnat muassasalarida xozirgacha ijtimoiy muammo bo‘lib kelmoqda.

Psixologik xizmat metodologiyasi uchun individual psixologik farqlanish nazariyasining yaratilishini va bu borada o‘nlab yirik tadqiqotlarning mavjudligini muhim manbalardan biri cifatida hech mubolag‘asiz e’tirof etish mumkin. Differensial psixologiyaning mahsuli bo‘lgan bu yo‘nalish, dastavval, nemis psixologi V.Shtern nomi bilan bevosita bog‘liqdir, U o‘zining 1901- yilda yozgan "Individual farqlanish psixologiyasi haqida" nomli asarida har bir individning o‘ziga xos psixologik olami mavjudligini eksperimental tarzda tadqiq qiladi.

F.Galton, A.Bine, F.Lazurskiy, D.Kettell kabi olimlar bu sohada yangi bir yo‘nalishni kashf qildilar. Shundan so‘ng differensial psixologiya har bir individ, yoki guruxdagi qiziqishlar, ustakovkalar, hissiy qo‘zg‘alishlarni farqlash ob’ekti sifatida maydonga chiqdi va uning bugungi psixologik xizmat metodologiyasi uchun ahamiyatli tomoni shundaki, har bir individ yoki shaxsning o‘zigagina xos psixologik imkoniyatlarini aniqlash va tegishli ilmiy mulohaza yurita olishga xizmat qiluvchi kompleks testlar, usullar va metodikalar majmuasi yaratildi.

Binobarin, chet el ilg‘or psixologiyasida psixologik xizmat metodologiyasi uchun muhim o‘rin tutuvchi quyidagi yo‘nalishlarga asos solindi:

Ch.Spirmen tomonidan "ikki omil" nazariyasi yaratildi. Bu nazariyaga muvofiq, insonning har bir faoliyatida barcha faoliyatlar uchun umumiy bo‘lgan va aynan mazkur faoliyatga mos bo‘lgan barcha xususiyatlar o‘zaro bog‘liqlikda tadqiq qilinadi. Tadqiqotchi ushbu omillarning inson va faoliyat uyg‘unligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan psixologik moxiyati va mazmunini ochib beradi

L.Terston, Dj.Gilford tomonidan yaratilgan "Multi-faktor" nazariyasiga binoan birlamchi aqliy qobiliyatlar (idrok tezligi, xotira assotsiatsiyalari va

hokazo)ning har bir individdagi tarkib topganlik ko‘lami tadqiq qilindi va shu asosda har bir shaxs faoliyatiga alohida yondashuvni taqozo etuvchi psixologik xizmatning metodologik prinsiplari ishlab chiqildi. Umuman, psixologiyada individual farqlanishning 56 xil yo‘nalishidagi tipi va mashhur. Masalan, ob’ektiv va sub’ektiv tip (A.Bine tajribalarida qayd etilgan) fikrlovchi faol tip, ratsionalistlar va empiriklar (Djems tadqiqotlari bo‘yicha) "chuqur-tor" va "mayda-keng" tip, (G.Gross, nazariy, iqtisodiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, tiplar (Ye.Shrpranger tadqiqotlari bo‘yicha); shizoid va sikloid tiplar (Ye.Krechmer tadqiqotlari bo‘yicha); ekstrovert va introvert tiplar (K.T. Yung va G.Yu. Ayzenk) haqidagi empirik ma’lumotlarning qayd etilishi shular jumlasidandir.

B.M. Teplov, V.S. Merlin, V.D. Nebilitsin, B.R. Qodirov va ularning shogirdlari tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar mazmuni ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan har bir shaxsning (individning) tabiiy va tug‘ma sifatlarini, oliv nerv faoliyatining o‘ziga xos qobiliyat elementlarini va unga ta’sir etuvchi ta’lim-tarbiya, tashqi muhit va faoliyatning nechog‘lik tashkil etilish jarayonini mukammal o‘rganish va uni ijtimoiy maqsadlar asosida rivojlantirish yo‘llarini belgilash uchun katta imkoniyat yaratdi. Mazkur imkoniyatlar insondagi u yoki bu faoliyatni bajarishga bo‘lgan iqtidor kurtaklarini o‘rganishni va shu asosda shaxs faolligini kamol toptirish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Shunga muvofiq maxsus tadqiqotlar shuni tasdiqlayaptiki, faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun individual xususiyatlar, — ayniqsa, har bir shaxs temperamenti va individual uslubiga ham bog‘liq. Ayniqsa, mehnat va o‘kuv faoliyati jarayonida ushbu holatni kuzatish, tahlil qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq usullar majmuasining ishlab chiqilishi psixologik xizmatning muhim vazifasi ekanligidan dalolatdir.

## **1.6. Psixologiya tarmoqlari**

Hozirgi zamon psixologiya sohalari hozirgi kunga kelib 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Bu sohalar o‘ziga xos ob’ektga ega bo‘lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois fan sohalarini o‘rganish qulay bo‘lishi uchun tarmoqlarni ma’lum tizimga keltirish

maqsadida ma'lum guruhlarga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor **A.V. Petrovskiy** psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari surdi:

- *Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.*
- *Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.*
- *Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalari.*

**Aniq faoliyat turiga ko'ra psixologiyaning quyidagi turlari mavjud:**

**Mehnat psixologiyasi:** inson mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning psixologik tamoyillarini o'rganadi. Mehnat psixologiyasining bir nechta bo'limlari mavjud;

- a) **muhandislik psixologiyasi** – inson bilan mashina o'rtaсидаги vazifalarni taqsimlash masalalalarini hal qiladi va asosan operatorlarning faoliyatini o'rganadi;
- b) **aviatsiya psixologiyasi** – uchishga o'rganish jarayoni va uchish moslamalarini boshqarishda inson faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o'rganadi;
- v) **kosmik psixologiya** – vaznsizlik holati, fazoviy tasavvurlar chalkashib ketgan vaqtda va organizmga juda ko'p ortiqcha ta'sirlar yuklangan paytda asab va ruhiy zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda odam faoliyatining xususiyatlarini o'rganadi.

**Pedagogik psixologiya** – uning predmeti o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, o'quvchilar tafakkurini taraqqiy topishi, intellektual faoliyat malakalari va usullarini o'zlashtirish jarayonini boshqarish masalalarini o'rganadi. Pedagogik psixologiya bo'limlari quyidagilardir:

- a) *ta'lim psixologiyasi;*
- b) *tarbiya psixologiyasi;*
- v) *o'qituvchi psixologiyasi.*

**Tibbiyot psixologiyasi** – shifokor faoliyatining va bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi. Uni quyidagi tarmoqlari mavjud:

- a) **neyropsixologiya** – psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilishlar o'rtaсидаги nisbatni o'rganadi;

**b) psixofarmakalogiya** – dorivor moddalarning shaxs ruhiy holatiga ta’sirini o‘rganadi;

**v) psixoterapiya** – bemorni davolash uchun ruhiy ta’sir vositalarini o‘rganadi.

**Yuridik psixologiya** – huquq tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik masalalarni o‘rganadi.

*Uning quyidagi tarmoqlari mavjud.*

**a) sud psixologiyasi** – jinoiy jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini, ruhiy xususiyatlarini tahlil qiladi;

**b) kriminal psixologiya** – jinoyatchining xulq-atvori, shaxsining shakllanishiga doir psixologik masalalar, jinoyatning motivlari bilan shug‘ullanadi.

**Harbiy psixologiya** – kishining harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog‘liq hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarini, psixologik targ‘ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o‘rganadi.

**Sport psixologiyasi** – sportchilar shaxsi va faoliyati xususiyatlarini, ularning psixologik jihatdan tayyorligining shart-sharoitlari, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik omillarni o‘rganadi.

**Savdo psixologiyasi** – asosan, rivojlangan mamlakatlarda keng taraqqiy etgan bo‘lib, kishilar ruhiyatiga tijorat ta’sirini psixologik shart-sharoitini, xaridorlarga xizmat ko‘rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Modalar psixologiyasini tadqiq qiladi.

**San’at psixologiyasi** – san’at asarlarining yaratilishida faoliyat-ning psixologik tomonlarini, inson tomonidan badiiy asarlarni idrok etilishi, turli hodisalarni paydo bo‘lishi va estetik tarbiya muammolari, musiqaviy, badiiy, adabiy qobiliyatlarni shakllantirish va tarbiyalash muammolarini o‘rganadi.

**Ilmiy ijodiyot psixologiyasi** – ilmiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, ijodiyotda intuitsiya va ilhomni tadqiq qiladi.

*Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o‘rganuvchi sohalar.*

**Yosh davrlari psixologiyasi** – inson shaxsining psixologik xususiyatlari va bilish jarayonlarining ontogenetika rivojlanishini o‘rganadi. Yosh psixologiyasi bolalar

psixologiyasi, o'smirlar psixologiyasi, kattalar psixologiyasi, gerontopsixologiya kabi tarmoqlarga bo'linadi.

**Patopsixologiya** – miya faoliyati buzilishlari natijasida kelib chiqadigan turli shakldagi ruhiy rivojlanishdan chetlanishni o'rganadi.

**Oligofrenopsixologiya** – miyaning tug'ma kamchiliklari tufayli paydo bo'ladigan bo'limlarni o'rganadi.

**Surdopsixologiya** – eshitish faoliyatida jiddiy nuqsonlari bo'lgan bolalarining rivojlanishini o'rganadi.

**Tiflopsixologiya** – ko'rish qobiliyati past yoki umuman ko'rmaydigan kishi faoliyatini o'rganadi.

**Qiyosiy psixologiya** – hayotning filogenetik shakllarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, inson va hayvonlar psixologiyasini solishtirish orqali o'xshashlik va farq qiluvchi tomonlarini aniqlaydi.

**Akmeologiya**- yetuklik darajasiga erishgan shaxs rivojlanishining yuqori darjasini ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini, ayniqsa rivojlanishining eng yuqori cho'qqiga erishish xususiyatlarni o'rganadi.

***Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning psixologik tomonlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari.***

**1. Ijtimoiy psixologiya** – uyushgan va uyushmagan ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo o'zaro tasir jarayonida paydo bo'ladigan psixologik hodisalarini o'rganadi.

**2. Differensial psixologiya** – shaxs shakllanishining individual psixologik yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarni o'rganadi.

**3. Din psixologiyasi** – inson ongiga diniy qarashlarning ta'siri masalalarini o'rganadi.

**4. Etnopsixologiya** – inson psixologiyasining etnik xususiyatlari, milliy xarakter, milliy tuyg'u, milliy g'oya, o'z-o'zini anglash, etnik stereotip, ularning qonuniyatlari va vujudga kelish xususiyatlarini o'rganadi.

**5. Boshqaruv psixologiyasi** – bu psixologiya fanining shunday sohasiki, unda inson tomonidan - boshqarishning psixologik tomonlarini o'rganadi.

**6. Marketing psixologiyasi** – yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish korxonalari va firmalarni boshqarishni va ular faoliyatini tashkil etishning psixologik muammolarini tadqiq qiladi.

### **1.7. Psixologiya fani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari**

Professorlar: E.G'oziev, L.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e'tibor berish zarurligi uqtiriladi:

- inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);
- insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki konuniyatları, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyusiya;
- inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi.

Darhaqiqat, har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbollariga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o'rtaсидаги ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda.

Insonning individuallik darajasi yana shu bilan ifodalanadiki, undagi faoliyatning usullari va vositalari hech qachon tayyor holdagi barcha uchun bir xil umuminsoniy tajribalardan iborat bo'la olmaydi. Har bir inson o'z individual sifatlari va filogenezdagi xususiyatlari asosida ijtimoiy faoliik taqozo etgan faoliyatning mustaqil sub'ektiga aylanib boradi. Bu bilan jamiyat har bir individning o'z hayotiy poydevori uchun muhim bo'lgan "g'ishtni o'zi barpo etishida ijtimoiy shart-sharoit yaratib beradi". Bunday shart-sharoit esa har bir

shaxsning umumiy va maxsus individual imkoniyatlari ko'lamini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish va tobora kamol toptira borish yo'llarini izlash asosidagina qaror toptirilishi mumkin.

Yana shuni qayd etish kerakki, psixologik xizmat metodologiyasi vazifalarini tadqiq qilinar ekan, ijtimoiy psixologiyada va mashhur bo'lgan "Ustanovka", "Ijtimoiy ustanovka" muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Chunki, psixologik xizmat jarayonining psixologik himoya vositasi sifatidagi asosiy vazifalarini ijtimoiy ustanovka tadqiqisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Binobarin, ustanovka (psixologiyada) shaxsning muayyan faolligini (idrok, tafakkur, maqsadga muvofiq harakatlar va hokazo) bajarishga qaratilgan, avvalgi tajribasi bilan belgilangan tayyorgarligi kishining uni muayyan tarzda harakatga undovchi tayyorgarlik formasi hisoblanadi.

Psixologik xizmatning nazariy va metodologik asoslari haqida gap borganda psixologik xizmat ob'ekti va sub'ekti hisoblangan shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollarini ko'rsatib beruvchi tadqiqotlarga ham alohida to'xtalishga to'g'ri keladi.

Chunki, shaxsning psixologik xizmat jarayonida namoyon bo'luvchi va rivojlantirib borilishi muqarrar bo'lgan o'z-o'ziga, o'zgalarga (shaxslararo) va faoliyatga nisbatan tarkib topayotgan munosabatlarning ijtimoiy saviyasini o'rghanmay, tahlil qilmay turib uning o'z-o'zidagi noxush hislardan, o'zgalar bilan hamkorlik o'rnatishi bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlardan, faoliyatdagi muvaffaqiyatsizliklardan psixologik muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar ko'lamini belgilab bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, munosabatning turli sohalaridagi ijtimoiy psixologik mezonlari bo'yicha tadqiqot olib borgan faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, psixofiziologlar va pedagoglar (B.G. Ananev, G.M. Andreeva A.A. Bodalev, Ye.V. Shoroxova, F.V. Bassin, L.S. Vigoskiy, A.V. Vedenov, Yu.M. Zabrodin, A.G. Kovalov, I.S. Kon, T.A. Kitvel, E.S. Kuzmin, M.S. Kagon, I.T. Levikin, V.S. Merlin, V.N. Myasishev, V.S. Magun, I.P. Pavlov, K.K. Platonov, B.D. Parigin, S.L. Rubinshteyn, V.V. Stolin, V.A. Yadov kabi olimlarning barchasi munosabatning sohalarini ilmiy jihatdan asoslab beradilar.

Masalan, mazkur munosabat mezoni faylasuflar talqinida shaxs va borliq o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, psixologlar talqinida shaxsning "ichki" va "tashqi" faoliyati o‘rtasidagi emotsional, kognitiv va xulq-atvor komponentlari asosida namoyon bo‘luvchi intilishlarning mahsuli sifatida, sotsiologlar talqinida shaxsning ijtimoiy iqlimiga nisbatan xayrixohlik yoki norozilikning ifodalanishi sifatida, psixofiziologlar talqinida shaxs oliv nerv faoliyatining aks ettirish vositasi sifatida, pedagoglar talqinida esa o‘quvchining o‘quv topshiriqlarini "bajonidil" (ixtiyoriy qiziqish orqali) yoki majburan (yuzaki) bajarishga bo‘lgan intilishlarning mahsuli sifatida e’tirof etiladi. Psixologik xizmat jarayoni esa xuddi shu tadqiqiy yo‘nalishlarga tayangan holda shaxsning faoliyat jarayonida tarkib topayotgan munosabatlarini o‘rganishni tahlil qilishni va shu asosda tegishli tadbirlarni belgilay olishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Bu o‘rinda professor E.G‘ozievning nazariy-metodologik qimmatga ega bo‘lgan quyidagi fikrlarini qayd etish o‘rinlidir: "Hozirgi kunda shaxsga sub’ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun: odam-inson-shaxs-individuallik-sub’ekt-komillik ierarxiyasiga rioya qilish; shaxsga sub’ektiv munosabat, ya’ni unda robot sifatida barcha xususiyatlarini bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, "sub’ekt-sub’ekt" aloqasini vujudga keltirish; har qanday sub’ekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs sub’ekt emasligi muammosini yechish; shaxs sub’ekt bo‘lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozitsiya, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish" kabi muammolarning bartaraf etilishi shaxsning ijtimoiy munosabatlar majmuasini kamol toptirishga xizmat qilishi tayin.

Zero, inson munosabatlari uning xulq-atvorida ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhim boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi (V.N. Myasishev-1957). Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan psixologik himoyalanish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Demak, munosabat psixologiyasi bo‘yicha qayd etilgan yuqoridagi mulohazalarning o‘ziga xos metodologik asoslari "Munosabatlar tizimini"

psixologik xizmat jarayonida jiddiy o'rganish va uni har bir shaxsda takomillashtirish lozim bo'lgan ijtimoiy psixologik muhofaza omili (ko'rsatkichlari) sifatida amaliy jihatdan tadqiq qilishga da'vat etadi.

Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining 2-yo'nalishiga individual-tipologik xususiyatlarga asoslangan harakatlarning namoyon bo'lishi kiradi. Chunki, har bir inson u yoki bu ijtimoiy topshiriqni bajarar ekan, avvalo, ushbu topshiriqni qanchalik tez, oson va sifatli qilib bajarish imkoniyatiga ega bo'lsagina, mazkur topshiriq shaxs kamolotiga xizmat qila olishi mumkin. Mazkur yo'nalishdagi psixologik muhofazaning mohiyati shundaki, har bir shaxsning faoliyatga nisbatan keragidan bir necha barobar ortiq kuch sarflashga va osongina turli muvaffaqiyatsizliklarga uchramaslikka qarshi o'laroq shaxs istiqbolini ko'zlashga qaratilgan tadqiqotlar va tadbirlar ko'lami oldindan belgilanadi. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining uchinchi yo'nalishi esa faoliyatga nisbatan faol ijobiy munosabatning tarkib topishi va namoyon bo'lishidir. Bunda shaxsning faoliyatdan qoniqishi, xulq-atvoridagi motivatsion tizimning ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan boshqaruvchilikka taalluqli sifatlarini yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi. Zero, har jihatdan ijtimoiy faollikka xizmat qiluvchi sifatlar namoyon etilmagan joyda shaxs va jamiyat uyg'unligining ta'minlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha imkoniyatlar qo'ldan boy beriladi. Vaholanki, bunday "imkoniyatlar"ni hamisha "muhofaza" qilish nafaqat ijtimoiy tashkilotlarning, balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan mazkur fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi:

Psixologik tahlil - bu nafaqat psixologik tekshiruv natijalariga asoslanibgina qolmay, balki aniqlangan xususiyatlar hayotiy vaziyatlarda qanday namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqlikni ham o‘z ichiga oladi.

Yakuniy bosqich - tavsiyalarni ishlab chiqish.

### **3.2. Kasbiy muhim sifatlar**

Turli sohalarda faoliyat yuritar ekanmiz, albatta, kasbiy sifatlar psixologning kasbiy jarayonini to‘ldirib turuvchi muhim jabha hisoblanadi. Bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari zarur:

-har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish, hamda har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minlash;

-har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘z-o‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash, shuningdek, har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida

o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo‘llash;

-o‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta’minlash va o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasidagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borishni muntazam nazorat ostiga olish;

-o‘quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajari-lishini ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quvchi shaxsi faolligi bilan bog‘liq individual uslub imkoniyatlarini o‘rganish va qaror toptira borish, hamda har bir o‘quvchini maktabga qabul qilishda u yoki bu fan bo‘yicha chuqur o‘zlashtiruvchi sinflarga jalb etish orqali kasb tanlashga yo‘llashda tegishli ilmiy amaliy tavsiyalar berib borish;

-umumiylis psixologik xizmat Nizomi asosida psixoprofilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Maktab amaliyotchi psixologlari faliyati muayyan talab asosida ishlab chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri haqida qisqacha izoh berish mumkin:

I. Ilmiy – nazariy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha amaliyotchi psixologning quyidagi vazifalarni bajarish talab qilinadi:

- psixologik xizmatning metodologik asoslari haqida bilim, tushuncha va tassavurga ega bo‘lish;
- o‘quvchi shaxsiga psixologik yondashuv uchun samarali foyda bera oluvchi psixologik usullar, prinsiplar va metodikalarni ajrata olish;
- umumiylis psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya fanlari bo‘yicha tegishli bilimlarni o‘zlashtirish;
- O‘zbekistondagi psixologik xizmat konsepsiysi haqida axborotga ega bo‘lish;
- o‘z-o‘zini ilmiy nzariy jihatdan takomillashtirish bilan bog‘liq kunlik, haftalik, oylik va yillik ish rejalarini tuzish va bajarish.

II. Ilmiy – tashkiliy foliyat yo‘nalishlari quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi:

- har kunlik, haftalik, oylik va yillik taqvimiylar ish rejasi tuzish, uni hududiy psixologik xizmat markazi tomonidan tasdiqlatish;
- psixologik xizmat xonasini kerakli jihozlar, ko‘rgazmalar va boshqa barcha materiallar bilan to‘ldirish;
- mактабдаги har bir o‘quvchi uchun “Shaxs psixologik kartasi”ni tuzish va shu ma’lumotlar (ko‘rsatkichlar) asosida tegishli psixologik tadbirlarni belgilash;
- ota – onalar, sinf rahbirlari, fan o‘qituvchilri va mакtab rahbarlari bilan bajarildigan ishlar rejasini tuzish;
- har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, alohida referent, rasmiy va norasmiy guruhlar, liderlar va ayrim “ajralib qolgan ” o‘quvchilar bilan individual ish olib borish rejasini tuzish;
- o‘quvchilarni mакtabga qabul qilish va kasbga yo‘llash bilan bog‘liq psixologik ishlar ko‘lamini belgilash.

III. Ilmiy – tadqiqiy yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi vazifalarning bajarilishi nazorat qilinadi:

- mакtab amaliyoti uchun zarur psixologik usullarni qo‘llash va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqara olish;
- psixologik qonuniyatlarni bilish va shu asosda namoyon bo‘luvchi yosh xususiyatlari, individual xususiyatlar va o‘quv mativlariga xos jihatlarning muntazam o‘rganib borish, tadqiq qilish fikr-mulohzalar yuritish;
- o‘quvchi faolligiga, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini himoya qilishga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillarni obdon o‘rganish , tadqiq qilish va tadbirlarni belgilash;
- o‘quv faoliyati samaradorligini aniqlashga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash v tadqiq qilish;
- psixologik yondashuv samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi mavzular, kuzatishlar asosida izlanishlar olib borish , u yoki bu o‘quvchida yuz berayotgan o‘zgarishlar sababini o‘rganib borish;

— o‘z kuzatishlari va amaliy faoliyat natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar uchun ma’ruzalar taylorlash.

IV. Ilmiy – uslubiy yo‘nalish vazifalarini quyidagi tartibda belgilash ko‘zda tutiladi:

- psixologiya fanida tan olingan va muayyan talablar asosida modifikatsiya qilingan usullarni qo‘llay olish va ulardn ilmiy maqsadlar yo‘lida umumiyl foydalanishni ta’minalash;
- har bir o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos individual-psixologik imskoniyatlariga mos yondashuv yo‘llarini to‘g‘ri belgilay olish;
- shaxs va shaxslararo munosabtlar qaror topishi bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik muhitni to‘g‘ri tashkil qilish va yo‘naltira olish;
- psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar ko‘laminil ilmiy jihatdan puxta va samarali tarzda rejalashtirish.
- qo‘llanilgan va qo‘llanilishi lozim bo‘lgan usullar samaradorligini muntazam nazort qilish.

V. Ilmiy - amaliy yo‘nalishdagi vazifalar ko‘lami quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bolalarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish;
- har bir bola iqtidorini aniqlash va unga mos ta’lim tarbiya yo‘nalishlarini belgilash;
- o‘quvchining kasbga yo‘nalishini belgilash va maqsadli psixologik yondashuv asosida uni rivojlantirish.
- har bir sinfdagi shaxslararo munosbtlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar berish.
- har bir bolaning yosh, individual-psixologik, hissiy – irodaviy xususiyatlarini aniqlash asosida tegishli tadbirlar belgilash va uni amalga oshirish;
- differensial (tabaqlashgan) ta’limga, to‘garaklarga jalb qilinuvchi o‘quvchilarni belgilashda faol ishtirk etish;

- darsning psixologik tahlili asosida ayrim o‘quvchilarga, sinf rahbarlariga va fan o‘qituvchilariga tegishli maslahatlar berish;
- ota-onlarning psixologik savodxonligini oshirishida faol ishtirok etish;
- aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bor bolalar bilan individul ishlar olib borish;
- maktab tomonidan qabul qilingan qo‘sishimcha o‘quv dasturlarini tuzishda faol ishtirok etish;
- har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashi asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga nisbatan namoyon bo‘luvchi individual ish uslubini o‘rganish va rivojlantira borish;
- o‘quv faoliyati jarayonida namoyon bo‘luvchi har bir o‘quvchidagi me’yoriy hissiy holatning yaratilishini ta’minalash va uni nazorat qila borish;
- o‘quvchining o‘z-o‘ziga o‘zgalarga va faoliyatning ijtimoiy qimmatiga nisbatan muvaffaqiyatli munosabatlarning o‘rnatalishini nazorat qila borish;
- sub’ektiv ijtimoiy ehtiyojlrning anglanishi va qondirilishini nazorat qila borish;
- har bir o‘quvchidagi faoliyat va individual imkoniyatlar mutanosibligining ta’milanishini kuzatib borish;
- faollik va ijtimoiy ustanovka adekvatligining ta’milanishini nazorat qila borish.

Yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasi maktabda psixologik xizmat tizimini amalga oshiruvchi amaliyotchi psixologlar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning bajarilish jarayoni “Nizom” da belgilangan umumiyl amaliy vazifalar – psixodiagnostik, psixologik maorif, psixoprofilaktik, psixokorreksion va psixologik maslahat kabi amaliy ishlar ko‘lamingyuqori saviyada olib borilishini ham taqozo etadi.

### **3.3. Psixologning faoliyat ko‘rinishlari**

Boshqa fanlarni o‘rganish kabi, psixologiyaning o‘rganishni ham, avvalo, bilish, ma’lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o‘rganib,

voqe'likning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi,- psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatları qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi.

Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi:

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo'naltirish.

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

*a) psixologik ma'rifat va tashviqot yo'nalishida:*

pedagogik jamoa, sinf rahbarlari va ota-onalarning psixologik savodxonligi va kompetentligini oshirishda dastlabki psixologik-pedagogik bilim va tushunchalar, har bir o'quvchiga individual yondashuv orqali oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush bo'yicha tavsiyalar berish;

o'quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish, turli xil yig'ilishlarda ma'ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni berib borish;

*b) psixologik-pedagogik tashxis yo'nalishida:*

-o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqeja va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisiga oid yangi metodikalar asosida o'rghanish, tahlil etish va zarur ko'rsatmalar berish;

-o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, iste’dodi va iqtidorigagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlash;

-ta’lim muassasasiga qabul qilingan o‘quvchilarning psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, o‘quvchilarning o‘qishga tayyorgarlik holatlari, o‘zlashtirishi va rivojlanishiga to‘sinqilik qilayotgan omillarni aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

-ta’lim muassasasining keyingi bosqichlariga o‘tgan o‘quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o‘quv faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatlari, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish;

-psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalari, suhbatlar orqali o‘quvchilarning kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlari va fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish uchun o‘quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo‘naltirish;

-ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalari, suhbatlar o‘tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish;

v) *psixologik profilaktika yo‘nalishida:*

-o‘quvchilardagi barcha salbiy holatlar va moyilliklarning oldini olish bo‘yicha pedagog xodimlar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

-o‘quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko‘rsatish;

-o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha olib boriladigan profilaktika ishlarida ishtirop etish;

-o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotSIONAL kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish;

-salomatligi jihatidan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog‘liqni saqlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ota-onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, seminar-treninglar, munozaralar va ochiq muloqotlar tashkil etish, taqdimotlar va videofilmlar namoyishlarini o‘tkazish;

*g) psixologik korreksiya yo‘nalishida:*

-ta’lim olish va kasb-hunar tanlashda qiyalayotgan o‘quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog‘liq muammolarni hal etish borasida individual va jamoaviy korreksiya ishlarini olib borish;

-yetim va ota-onal qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning psixologik reabilitatsiyasini ta’minlash;

-mutaxassis sifatida o‘quvchining psixologik holatiga oid ma’lumotlarga munosabat bildirish, tarbiyasida salbiy holatlar mavjud bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish;

-ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlanТИRISH, ularning intellektual passivligini korreksiyalash;

-individual yoki jamoaviy tartibda ota-onalar va pedagog xodimlarni jalg etgan holda o‘yin, muloqot, suhbat, trening, mashq va mashg‘ulotlar shaklida tadbirlar tashkil etish;

*d) psixologik maslahat yo‘nalishida:*

-o‘quvchilarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo‘yicha barcha ta’lim jarayoni qatnashchilariga maslahatlar berish;

-o‘quvchilarga ta’lim olish, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va yoshi kattalar bilan munosabatlaridagi muammoli holatlar yuzasidan maslahatlar berish;

-o‘quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, shaxslararo munosabat maqomi, ularning yosh, jins, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo‘yicha amaliy maslahatlar tashkil etish;

*ye) kasb-hunarga yo‘naltirish yo‘nalishida:*

-o‘quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallah mumkin bo‘lgan ta’lim muassasalari hamda kasbning

insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma’lumotlar berish;

-o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

-o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta’lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta’lim muassasasini tanlashga ko‘maklashish;

-o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas’uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

Pedagog o‘quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan shu materialni bolalar qanday o‘zlashtirayotganini – ko‘rvuchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat – e’tibor, hissiyat qanday namoyon bo‘layotganini, bolalarning yosh hususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro‘y berayotganini bilish lozim.

Ulug‘ rus pedagogi va psixologi K.D. Ushinskiy: «Agar pedagogika odamni har jihatidan tarbiyalamoqchi bo‘lsa, u oldin o‘sha odamni ham har jihatidan bilib olishi kerak»<sup>1</sup>, degan edi.

O‘quvchini bilib olish – shu o‘quvchining darslarni o‘zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o‘quvchining psixik hususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e’tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo‘lishini bilish demakdir.

Ta’lim – tarbiya ishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko‘nikma va malaka berish bilangina kifoyalananib qolmay, shuningdek, o‘quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o‘zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq kerak.

---

<sup>1</sup> К.Д.Ушинский, собрание сочинений, 8-том, РСФСР педагогика фанларининг академиясининг нашри, 1950, 23-бет

Har bir pedagog – o‘qituvchi, tarbiyachi, maorif ishining rahbari – psixologiyani nima uchun bilishi kerakligi yuqorida aytilganlardan ravshan ko‘rinib turibdi.

### **3.4. Ta’lim tizimida psixologik faoliyat**

Ta’limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o‘quv faoliyatining har bir o‘quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas’uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o‘quvchilarni u yoki bu kasbga yo‘naltirishdagi o‘ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularni o‘z-o‘zini anglashlarida, o‘quv jarayoni, o‘quvchilar jamoasi, o‘quvchi-o‘qituvchi faoliyati bilan bog‘liq barcha muammolarni bartaraf etish yo‘llarini izlashdagi psixolog –olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V. Dubrovina tadqiqotlarida mакtabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarning asoslanishi, L.I. Bojovichning o‘quvchi shaxsi va uning mакtab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma’lumotlari, A.G. Asmolovning o‘quvchi faoliyati va ustakovka uyg‘unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I. Feldshteynning ontogenezda rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy–tadqiqiy ko‘rsatmalari, Ye.A. Klimovning o‘quvchini kasbga yo‘naltirishdagi individual uslubni o‘zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S. Merlinning o‘quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G. G‘ozievning ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag‘ishlangan ko‘rsatmalari, M.G. Davletshinning O‘zbekistonidagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy- amaliy fikr-mulohazalari, G‘.B. Shoumarovning Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog‘liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag‘ishlangan

nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, Sh.R. Barotovning ta’limda psixologik xizmat amaliyotiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R. Qodirovning O‘zbekistondagi iqtidorli va iste’dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, bugungi kunda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12- iyuldagagi 577-son qaroriga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta’limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi “Nizom”ning ishlab chiqilishi va uni Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O‘zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda “jonlanishi” va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu “Nizom” ta’lim muassasalarida tadbiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun o‘ziga xos qo‘llanma va yo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi ana shu “yo‘llanma” asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o‘quvchi shaxsini har tomonlama tushunish tahlil qilish va rivojlantirish borasida o‘ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero hamma rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalinish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o‘quv maskanlaridagi har bir o‘quvchi shaxsiga, o‘quvchilar jamoasiga bo‘lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan psixologik xizmat tizimi uchun mo‘ljallangan “Psixologik xizmat Nizomiga” kiritilgan barcha vazifalar ma’noda o‘quvchisining psixologik himoyalanishini shakllantirishga qaratilgan vazifalar sifatida talqin qilish mumkin. Chunki, psixologik xizmat jarayonida har bir

o‘quvchini o‘zini-o‘zi anglashga, o‘zidan-o‘zi unumli foydalanishga, o‘z individual imkoniyatlarini namoyon qilishga va rivojlantirishga, faoliyat jarayonida sodir etilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarga va ayrim tanglik holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan tadbirlar ko‘lami muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi. Bularning barchasi esa ayni paytda, psixologik muhofaza imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan uslubiy vositalar bilan ham xarakterlanadi.

Demak, ta’lim muassasalarida yuqoridagi vazifalarni muntazam ravishda bajarib borish uchun qo‘yilgan talablardan kelib chiqib amaliyotchi psixologlar tegishli darajada psixologik bilim va tajribalarga ega bo‘lishlari shart va zarurdir.

### **3.5. Tibbiyot sohasida psixologik yordam**

Sog‘lijni saqlash tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyoti o‘zining boy tarixiga ega. Mazkur xizmat o‘z navbatida quyidagi yo‘nalishlar asosida amalga oshirilib kelinmoqda:

1. Boshqaruv tizimida kadrlarni tanlash va ishga joylashtirish, ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik qobiliyatlarini aniqlash hamda lavozimlariga tavsiya qilish yoki layoqat darajasiga binoan egallagan mansabidan ozod etishga ma’lumotlar to‘plash.
2. Vazirlik va sog‘lijni saqlash ma’muriyatlarida shaxslararo munosabat, barqaror ishslash muhitini yaratish uchun izlanishlar olib borish, illatlarni bartaraf qilish, vujudga kelayotgan xavf-xatarning oldini olish bilan shug‘ullanish.
3. Xodimlar o‘rtasida kasbiy malaka va mahorat bo‘yicha diagnostik ishlarni uzluksiz ravishda tashkil etish.
4. Tibbiyot maorifi, ma’rifatini fuqarolarga ta’sir doirasini o‘rganish.
5. Malaka oshirish institutlari va kurslarida ularni psixologik tayyorgarlik darajasining yuksalishiga yordam berish.
6. Muassasalarda vujudga kelishi ehtimoli bo‘lgan psixologik muammolarni tadqiq qilish.
7. Jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish uchun muayyan tadbirlar ishlab chiqish.

8. Poliklinika va ambulatoriyalarda psixoterapevtik mashg‘ulotlar uyushtirish va autogen trenirovka metodlarini qo‘llash.
9. Ko‘p tarmoqli sohaga oid mahalliy matbuotda psixogigiena, psixoprofilaktika, psixodiagnostika bo‘yicha maqolalar bosib chiqarish.
10. Musiqaterapiya, funksional musiqa haqida eshittirishlar tashkil qilish.
11. Psixologik xizmat xonasini tashkil qilish va uni texnikaviy jihozlash, patsientlarni maxsus metodikalar orqali saralash.
12. Kasallik turiga qarab mijozlar bilan maxsus psixologik tadbirlar o‘tkazish.
13. Operatsiyalarga bemorlarni psixologik jihatdan tayyorlash, qo‘rqinch hislarini yo‘qotish.
14. Patsientlar va vrachlar o‘rtasida muomala maromini maqsadga muvofiq amalga oshishini ta’minlash, o‘zaro ishonch hissini uyg‘otish.
15. Bezovtalanish, hadiksirash, hayajonlanish singari his-tuyg‘ularining oldini olish uchun maxsus metodlarni qo‘llash.
16. Bemorlarni o‘ziga-o‘zi buyruq berishga, o‘zina-o‘zi tetiklashtirishga, optimistik tuyg‘u bilan qurollanishga uzlucksiz ravishda tayyorlash.
17. Bemorlarga ta’sir o‘tkazish va gipnoz yordamida ularni inqirozli holatdan chiqarish, kasallik genezisini aniqlash.
18. Davolashda harakat, mimika, verbal, noverbal va boshqa texnologiya samaradorligini belgilash.
19. Guruhiy davolashda o‘zaro moslik bosqichlariga e’tiborni qaratish.
20. Psixoterapiya bilan bemorlarni davolash imkoniyatini tekshirish individual va guruhiy ta’sir o‘tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish:
  - a) g‘ayritabiyy jarayonlarni shakllantirish: har bir shaxsda xotirjamlik, rohatlanish, maroqlanish, o‘ziga ishonch tug‘ilishi, faollik paydo bo‘lishi, doimo o‘zini kamol toptirish tuyg‘usining uyg‘onishi;
  - b) o‘ziga xos maxsus xususiyatlar shakllanishi: o‘zini-o‘zi nazorat qilish; mutolaa, qiroat, mashq qilishga intilish, nizoli vaziyatlarni yechishga xayrihohlik va boshqalar.

21. Bemorlarni davolashdagi psixoterapevtik mexanizmlarini diqqat markazida tutish:

- a) katarsis, maxfiy kechinmalarga nisbatan emotsional aks ta'sir mexanizmi;
- b) guruhdagi “emotsional yuqish” emotsional konsonans mexanizmi sifatida;
- v) suhbatning emotsional bo'laklarga boyligi, hamdardlik, xayrixohlik tuyg'ulariga moyilligi bo'yicha mexanizmi shaxs xususiyatlarini aniqlash;
- g) bemorning vrachga nisbatan shaxsiy emotsional munosabatini ijobiy omillar asosida shakllantirish;

Ushbu yo'nalishlarda psixologik xizmatning olib borilishi sog'liqni saqlash tizimidagi muvaffaqiyatlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda, psixologik xizmat amaliyoti eng avvalo insonga, uning salomatligiga yordam bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki, sog'lom ruhiyat ustuvorlik qilgan odamda hamisha o'z kasbiga, hayotga va o'z taraqqiyotiga bo'lgan ijobiy munosabatlar bevosita namoyon etiladi. Natijada insonning o'z hayotidan mammunligi ta'minlanadi. Bu esa uni yanada ko'proq muvaffaqiyatlarga chorlayveradi. Shu ma'noda, barcha tibbiyot muassasalarida muayyan psixologik qoida va talablarga riosa qilinishi juda muhimdir. Qolaversa, sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining muayyan psixologik ko'nikma va malakalar asosida olib borilishi, bu tizimda inson omilidan yanada unumliroq foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Butun jahon amaliyotidagi tahlillarga tayanib, shuni aytish mumkinki, mazkur tizimdagи psixologik xizmat amaliyoti bir-birini to'ldirib turuvchi 3 ta yo'nalish asosida tashkil etilganligi bilan harakterlanadi.

1. Tibbiyot xodimlarning psixologik kompitentligini rivojlantirishga qaratilgan amaliyot.
2. Bemorlarga muayyan psixologik usullar orqali bevosita va bavosita ta'sir etish amaliyoti.
3. Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish amaliyoti.

**Birinchi yo'nalishda** har bir tibbiyot xodimining psixologik ko'nikma va bilimlarini rivojlantirish uchun muayyan ishlar olib boriladi. Shuningdek,

xodimlarga psixologiyaning nazariy va amaliy yo‘nalishlari bo‘yicha tushunchalar berib boriladi. Ayniqsa, har bir tibbiyat xodimining psixologik kompitentligini oshirishga xizmat qiluvchi tizimli va muntazam ravishda tadbirlar o‘tkazib boriladi. Qolaversa, vaqtı-vaqtı bilan har bir xodimni yangi zamonaviy psixologik metodikalar va ularni amaliyotda qo‘llash tartiblari bilan tanishtirib boriladi.

**Ikkinci yo‘nalishda** bemorlarning individual-psixologik imkoniyatlarini o‘rganish va uni korreksiyalash amaliyotini qo‘llash orqali ularga psixologik xizmat ko‘rsatiladi. Bunda har bir bemorga alohida ta’sir etishning optimal yo‘llari ko‘rsatib boriladi.

**Uchinchi yo‘nalishda** esa bugungi tibbiyat psixologiyasining eng yangi yutuqlaridan foydalangan holda psixologik xizmat amaliyoti uchun zarur bo‘lgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi. Bu yo‘nalishga ko‘proq magistrlar, klinik ordinatorlar, ilmiy xodimlar hamda barcha mutaxassisliklardagi doktorantlar bevosita ishtirok etishlari va o‘zlarining amaliy – tatbiqi ishlarini olib borishlari mumkin. Bugungi tibbiyat muassasalari uchun mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha talaygina ishlar qilinmoqda. Jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida psixodiagnostika maxoratini oshirishga qaratilgan qo‘llanmalar ham chop etilmoqda. Bu borada psixolog olim, vrach E.M. Muxtorovning “Vrach kasbiy mahorati va psixodiagnostika samaradorligi” nomli monografiyasida (Toshkent, 2016- yil) qayd etilgan ko‘rsatmalarga tayanish mumkin. Unga ko‘ra, psixodiagnostika mahorati o‘rganilayotgan ob’ekt-bemorning xastaligi etiologiyasi, kechishi, terapiyasi va profilaktikasi bilan bog‘lik psixik jarayon va xodisalar to‘g‘risida vrach yetarli bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi taqozo qilinadi.

Vrachlik amaliyotida psixodiagnostikannng ob’ektlari shaxsda kasallik keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan, kasallikning kelib chiqishiga ko‘maklashadigan kasallikning kechishini og‘irlashtiradigan, kasallikning surunkali shaklga o‘tishiga sabab bo‘ladigan psixologik xususiyatlar hamda xulq-atvordagi o‘ziga xosliklar hisobga olinadi.

Hozirgi zamon meditsinasi inson xastaliklarining ko‘pchiligi psixosomatik xususiyatga ega ekani to‘g‘risida yetarli dalillarga ega bo‘ldi. Kasalliklarning

psixosomatik xususiyatga ega ekani insonning salomatligi o‘z qo‘lida ekanini, xastaliklar uchun asosan o‘zi mas’ul ekanini anglatadi Insoning kasallanishi ham, sog‘ayishi ham ko‘p jihatdan uning o‘ziga bog‘lik ekani ayon bo‘la boshladi.

Inson xarakteridagi qaysi xususiyatlari va qaysi emotsiyalari holatlar qanday kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin ekani to‘g‘risida ko‘p vrachlar, ayni damda psixologlar bosh qotirishdi, hozir ham bosh qotirishmokda. Mazkur yo‘nalishlarda olib borilgan tadqiqotlar yurak qon-tomir kasalliklarining inson xarakteri bilan bog‘likligini aniqlash imkonini berdi. Bu kasalliklar badjahl, jizzaki, havotirlanuvchi va emotsiyalni jihatdan yopik odamlarda ko‘prok yuzaga kelishi aniqlandi<sup>2</sup>.

Binobarin, tashkil etilgan psixologik xizmat jarayonida kommunikativ kompetentlik vrachning fakatgina muayyan psixologik bilimlarga egaligini emas, shuningdek, unda muayyan ko‘nikmalar: muloqotga oson kirishish, tinglash, bemorlarning noverbal belgilarini tushunish, savollarni aniq va to‘g‘ri qo‘ya olish kabi ko‘nikmalarga egaligini ham taqozo qiladi. Ayni paytda, vrachning o‘z his tuyg‘ularini jilovlay bilishi, o‘ziga ishonchi, o‘z xulk- atvorini va emotsiyalarini nazorat qila bilishi ham bemor bilan muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, bemor har qanday ruhiy holatda bo‘lsa ham, (jaxl, g‘am, xavotirlik, umidsizlik, daxshat kabilar) vrach u bilan muloqotga kirishish yo‘lini topa olishi va kasbiy vazifalarini bajarishga kirisha olishi zarur.

Vrachning bemorlar bilan muloqotga kirishishida yukori samaradorlikni ta‘minlashi mumkin bo‘lgan sifatlardan biri empatiya hisoblanadi. Psixologiyaga oid adabiyotlarda bu sifat tuyg‘udoshlik, hamdardlik, bemorning tuyg‘ulariga sheriklik sifatida izohlanadi. Tibbiy psixologiyada empatiyaning bir qator turlari farklanadi: kognitiv empatiya (intellektual jarayonlar - qiyoslash va analogiyaga asoslanadi), emotsiyal empatiya (aynanlashtirish (identifikatsiya) mehanizmiga asoslanadi), predikativ empatiya (intuitsiyaga asoslanib, bemor to‘g‘risida bashorat qila olishga asoslanadi). Emotsional tuyg‘udoshlik bemor bilan mustahkam

<sup>2</sup> Э.М. Мухторов. Врач касбий маҳорати ва психодиагностика самарадорлиги. Монография. Тошкент, 2016 й.

psixologik aloka o‘rnatishga xizmat qiladi va u xaqda, holati, kayfiyati to‘g‘risida to‘larok ma’lumot olish imkoniyatini, shu tufayli vrachning kompetentligiga o‘tkazilayotgan terapiyaning to‘g‘riliqiga ishonch hosil qilish uchun yordam beradi.

### **3.6. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari**

Hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlar kang ma’noda oila bilan bog‘liq psixologik muammolarni chetlab o‘ta olmaydi. Chunki, oila sir-sinoatlarga to‘liq ijtimoiy makondir. Uning farovon, fayzli va barokatli bo‘lishini istamagan insonning o‘zi yo‘q. Fozil inson va uning jamiyati paydo bo‘libdiki, oila deb atalmish muqaddas dargohga asos solingan. Yaratganning o‘zi uni nurga, ilmga, sir- sinoatga to‘ldirgan, erkak va ayolning dastlabki muqaddas nikohini o‘qigan, farishtalar esa bu buyuk uyushmaga guvoh bo‘lgan.

Oila ilmi, aniqrog‘i, nikohga kirib, oila qurib, fazilatli, yurtparvar, aqlli va solih farzandlar o‘strib, kamolga yetkazish ilmi, XXI asr odami uchun naqadar zarur va egallanishi mushkul bu ilm barcha boshqa ilmlar kabi igna bilan *quduq* qazigan kabi qiyin, bilganing sari bilishga ishtiyoqni orttiradigan ilmlardan. Kelinlik yoki kuyovlik, onalik yoki otalik, buva yoki momo bo‘lish ilmi – sharqona qadriyatlarimiz asrlar mobaynida e’zozlab, ardoqlab kelayotgan ilmlar majmuidir.

Oila ilmini egallah zarur. Chunki oila va nikoh zamiridagi barcha ezgu niyatlar har bir fuqaroning qalb turidagi ezgu niyatlarigina bo‘lib qolmay, shu yurt, shu muqaddas tuproqni asrash, uni gullab-yashnashiga bevosita aloqador. Demak, Vatan istiqboli, mahalla obodligi, xonardonlar farovonligi bir-biriga bog‘liq, uyg‘un va mushtarak tushunchalardir. Bu maqsadlar oddiy istaklar, orzu-havas bilangina amalga oshib qoladi. Ular zaxmatni, izlanishni, o‘rganishni, fikran mushohada qilish, eng avvalo, odamiylik, go‘zal xulq va fe’l-atvorni nazarda tutadi. Mashaqqatsiz, zahmatsiz rohat bo‘lmaganidek, oila ilmini egallamay turib, uning muqaddas ostonasini bosib bo‘lmaydi, inson zotining baxti to‘kis bo‘lmaydi.

Sog‘lom va oqila ona, tadbirkor va ibratli ota bo‘lish, to‘rt muchasi sog‘, aqli zukko farzandni tarbiyalash, unga hayotning barcha saboqlarini berish, yomonliklardan, turli baloyu qazolardan, xavf-xatardan, yot mafkuralardan asrashning o‘zi bo‘lmaydi.

### **Oilaga psixologik xizmatning zarurligi**

Ma’lumki, mutaxassisga murojaat etgan oilali odamlarning aksariyati turmush o‘rtog‘i yoki farzandlarining fe’l-atvori o‘zgarishini istaydi. Ular bu istagini odatda quyidagicha ifodalaydi: “O‘g‘lim (qizim, erim yoki xotinim) bilan gaplashib qo‘ysangiz, chunki u o‘zgarmasa yashash qiyin bo‘lib qoldi!” Ammo vaziyat biz o‘ylaganchalik oson emas. Chunki atrofimizda paydo bo‘layotgan barcha hayotiy vaziyatlarda bizning xam ulushimiz, ta’sirimiz borligini tushunish, ya’ni turli muammolarning paydo bo‘layotganiga o‘zimiz ham sababchi ekanimizni anglash zarur. Ba’zan nojo‘ya fe’l-atvorimiz, hatti- harakatimiz bilan anglab yoki anglamagan holda noxush vaziyatlarni keltirib chikaramiz va okibatda uzoq vaqt iztirob chekib yuramiz. Psixolog xizmatiga murojaat qilishdan oldin ayrim kishilar mavjud muammolarni mustakil ravishda hal etishga urinib, ba’zan qaltis yo‘l tutishi, deylik, uydan bosh olib chikib ketadi, boshqa ish joyiga o‘tadi, farzandlariga “urush e’lon” qiladi, arazlab, kunlab, oylab turmush o‘rtog‘i bilan gaplashmay yuradi. Lekin har safar hafsalasi pir bo‘lib, hatti-harakatini samarasiz deb topadi. Chunki yuzaga kelgan yangi vaziyat ilgarigisidan ham *chigalroq* ekanini anglab yetadi. Natijada odam o‘zini baxtsiz his eta boshlaydi, vaziyatni o‘zgartirishga kuch topa olmaydi, uni qiyayotgan muammolar chigallashib boraveradi.

Har qanday ijtimoiy guruh jumladan, oiladagi munosabatlar muayyan bosqichda yangicha qirralar kasb etadi. Masalan, deyarli xar bir oilada ota-onan va ulg‘ayayotgan farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda anglashilmovchilik va ziddiyatlar ko‘payib borishini kuzatish mumkin. Bir tarafda — nazorat qilishga o‘rganib qolgan ota-onan, boshqa tarafda - hali hatti-harakati va qarorlari uchun ma’suliyatni to‘liq **his** eta olmaydigan farzand turadi. Masalaning chigalligi shundaki, farzandlar ota-onalaridan mustaqil bo‘lish va ular nazoratidan qutulish

maqsadida ba'zan, hatto hayoti uchun xavf soladigan harakatlarni ham sodir etishi mumkin. Qalbi mehrga to'lik ota-onasiga esa farzandlarni nazorat etish bilan ularni qiyin ahvolga solayotgani va baxtsiz qilayotganini anglab yetmaydi.

Tabiiyki, insonni o'rabi turgan muhit uning shakllanishida yetakchi o'rin tutadi. Ulg'aygan sari insonda unga xos bo'lgan, yon-atrofidagilarda ham ma'noda namoyon bo'ladigan (demak, o'zgalar ham qo'llab-quvvatlaydigan) hatti-harakatlar ko'zga tashlanadi. Psixologiyada stereotip deb atalgan bunday hatti-harakatlar ko'pincha anglanmagan holda amalga oshiriladi. Stereotip atrof muhitga, turli vaziyatlarga moslashish xamda ortikcha zo'riqish-larsiz qaror qabul qilishga imkon beradi. Biroq ayrim hollarda stereotip shaxs kamoloti yo'lidagi to'siqqa aylanishi va buning asorati shaxslararo munosabatlarga ham ta'sir etishi mumkin. Inson botiniy olamida bunday holat ichki ziddiyat, stress va diskomfort sifatida aks etsa, tashqi fe'l-atvor va hatti-harakatda ishonchsizlik, befarqlik, tushkunlik yoki jahl, asossiz tajovuz kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bu hol insonning aqliy salohiyatiga salbiy ta'sir etib, uning ijodiy imkoniyatlarini cheklaydi.

Shunday qilib, yuqorida tilga olingan holatlar shaxs rivojini cheklashi va tabiiyki, oilaviy munosabatlarda ham muayyan muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ko'p hollarda stereotiplarning salbiy ko'rinishi yosh er-xotinning o'z oilasidan olgan tasavvur va tushunchalarida namoyon bo'ladi. Bu stereotiplar angangan ham, anglanmagan ham bo'lishi mumkin. Xususan, xar qanday oilaviy nizoni, er yoki xotin nazarida, biron bir sababga asosan oqlash mumkin. Eng qiziqarli shundaki, bunday hollarda er yoki xotin o'zi anglamagan holda ota-onasining oiladagi axloqiy timsoliga murojaat etadi. Masalan, yangi kelindan "bizning oilamizda axlatni erkaklar olib chiqardi" yoki yosh kuyovdan "hamma oilalarda tugmani ayollar qadaydi" degan e'tirozlarni eshitish mumkin. Xuddi shunday e'tirozlar ovqatlanish, kiyinish, do'stlar bilan munosabatlar, bolalar tarbiyasi kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Ilgarigi hayotiy tajribasiga o'ziga xos

omil sifatida murojaat qilgan er-xotin boshqa minglab imkoniyatlarni qo‘ldan chiqaradi va haqligini isbotlash yo‘lida qattiq ruhiy iztirob chekadi, asabi qaqshaydi.

Oilaviy hayotning dastlabki pallasida yangicha hissiyotlar to‘lqini turmushda paydo bo‘ladigan muammo va ziddiyatlarni yumshatib turadi. Bu davrda oiladagi noxush vaziyat, er yoki xotin o‘rtasidagi ichki nizo tashqi munosabatlarda deyarli namoyon bo‘lmaydi. To‘planib borayotgan zo‘riqishning oldini olmaslik natijasida ikki juft orasidagi o‘zaro tushunish, ishonch, tayanch nuqtalarida o‘zgarish paydo bo‘la boshlaydi va vaqt o‘tishi bilan bu keskin nizoni keltirib chiqaradi. Shu ma’noda, boshqalar oldida er-xotin o‘zlarini baxtli qilib ko‘rsatishi psixologik nuqtai nazardan xatarlidir, chunki ichki norozilik, ikkiyuzlamachilik, aybdorlik hissi ertami kechmi, samimiylilik, ishonch, sevgi, o‘ziga ishonch, quvonch kabi hislardan ustun kelishi va asta-sekin bu yuksak insoniy tuyg‘ularning so‘nishiga sabab bo‘ladi.

Demak, fe’l-atvor va hatti-harakatni o‘zgartirish orqaligina vaziyatga, atrofdagilarga ta’sir etish va ular bilan o‘zaro munosabatlarni sog‘lomlashtirish mumkin. Shundagina har qanday keskin vaziyatni hal etish, yangi oilaga xos psixologik muhitni sog‘lomlashtirishni e’tiborga olib, mavjud muammolarning oqilona yechimini topish mumkin bo‘ladi, oilada o‘zaro hurmat, bir – birini qo‘llab – quvvatlash, tushunishga intilish, ishonch va muhabbat tuyg‘usi shakllanadi. Oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishda esa ushbu holatga jiddiy e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi.

### **3.7. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya**

**Mehnat** – bu ma’lum bir ijtimoiy foydali (yoki hech bo‘lma ganda jamiyat tomonidan iste’mol qilinadigan) moddiy yoki ma’naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan insonning faoliyatidir.

Kishi mehnat jarayonida bajariladigan harakatlar biologik ehtiyoj bilan emas, balki ilgari surilgan ishlab chiqarish maqsadi va bu maqsadni ro‘yobga chiqarish

jarayonida uning boshqa odamlarga nisbatan munosabatlari bilan belgilanadi. Bu xildagi harakatlarni bajarish va boshqarish uchun axborotni qayta ishlashning oliv jarayonlaridan foydalanish va avvalo, tasavvur va tafakkurni ishga solish zarurdir.

Mehnat psixologiyasi shaxsning maqsadga yunaltiril-ganligini, ijtimoiy tajribasi, xarakteri, qobiliyati, psixik holatlari, diqqati, tasavvurlari, xotirasi, fikrlashdagi, emotSIONalligi, iroda kuchi va psixomotorikasi kabi sifatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

U yoki bu mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs mehnat haqida ko‘pgina psixologik bilimlarni egallaydi va muayyan tizimga keltiradi. Bu tizim shaxsning o‘zini – o‘zi boshqarish asosida faoliyat unumdarligini ta’minalashga xizmat qiladi. Shu ma’noda psixologik xizmat jarayonida mehnat faoliyatiga alohida e’tiborni qaratish talab qilinadi.

### **Mehnatning psixologik vazifalari**

Mehnat psixologiyasining **birinchi vazifasi** — kasb tanlashga yo‘naltirish, konsultatsiya berish, kasbga layoqatli yoshlarni tanlash, hamda yoshlarda kasbiy kobiliyat va qiziqishni shakllantirishni o‘rganish va tavsiflashdir. Bu vazifa mehnat psixologiyasi bo‘limlaridan biri bo‘lgan psixologik professiogramma talablari asosida hal qilinadi.

**Ikkinci vazifa** — u yoki bu kasbda ishlashni mo‘ljallayotgan yoki ishlayotgan, lekin hali uni to‘la egallamagan kishilarning yoki yuqori darajada kasbiy qobiliyatning namoyon bo‘lishdagi imkoniyatlarini o‘rganishidir. Kasbni egallamagan kishilarning mehnat malakalarini ishlab chiqarish talablariga mos kelishini aniqlash hamda faoliyatining mazkur turi uchun yetarli darajada rivojlanmagan qobiliyatlarini rivojlantirishga doir choralarini izlash yoxud uni qobiliyatiga mos boshqa kasbga ko‘chirilishini ta’minalash. Bu vazifa mutaxassis psixologlar va vrachlar kuzatuvi asosida hamda mehnat ekspertizasi (xususan, kasbiy konsultatsiya) yordamida hal qilinadi.

Kasbiy qobiliyat kasbiy ta’lim va o‘zlashtirilayotgan ixtisos bo‘yicha amaliy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida shakllanadi. Zarur bilim, malaka va ko‘nikmani muvaffaqiyatli shakllantirmay turib kasbni egallah va kasbiy

kobiliyatni rivojlantirish mumkin emas. Demak, mehnat psixologiyasining **uchinchи vazifasi** — kasbiy bilim, malaka va ko'nikmaning shakllanish jarayoni bilan bog'liq psixologik qonuniyatlarini aniqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Mehnat psixologiyasining bu vazifasi asosan psixologlarning maslahatlari asosida hal qilinadi.

Mehnat psixologiyasining **to'rtinchи vazifasi** — xato harakatlarni o'rganish, ularning oldini olish va bartaraf etish orqali mehnat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Xato xarakatlarning oldini olish va ularga barham berish kasbiy ta'limgostodikasini takomillashtirishda, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatidagi nuqsonlarning oldini olishda o'ziga xos muhim psixologik ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy qobiliyatni muvaffaqiyatli rivojlantirish, binobarin, ish harakati sifatini yanada oshirish ko'p jihatdan ishchilarning psixik holatiga bog'liq. Shuning uchun ham mehnat psixologiyasining **beshinchи vazifasi** — psixik holatlarni boshqarishning eng qulay metodlarini ishlab chiqish maqsadida shichilarning o'kuv va ishlab chikarish faoliyati jarayonidagi psixik holat va kayfiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Mehnat psixologiyasining **oltinchи vazifasi** — shaxslar o'rtasidagi munosabat hamda o'quv va ishlab chiqarish faoliyati jarayonidagi sotsial-psixologik munosabatlarni o'rganish va shaxsning faoliyati va mehnat unumdarligini oshirishga samarali ta'sirini kuchaytirish buyicha tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Mehnat psixologiyasining **yettinchи vazifasi** — mehnat layoqatini saqlash va mehnat unumdarligini oshirish maqsadida charchash va toliqishning oldini olish choralarini izlashdan iborat.

Mehnat psixologiyasining **sakkizinchи vazifasi** ishlab chiqarish texnika vositalarini inson omiliga moslashtirishdan iborat bo'lib, bu vazifa mehnat psixologiyasining yaqinda vujudga kelgan, biroq tez rivojlanayotgan bo'limi — injenerlik psixologiyasi tomonidan hal qilinadi.

Mehnat psixologiyasining **to'qqizinchи vazifasi** qilib mehnat ekspertizasi tizimida bajariladigan ishlar ko'lamini olish mumkin.

Demak, mehnat ekspertizasi — bu mutaxassislar tomonidan insonning aniq kasbga yaroqliliginini aniqlashdir.

Mehnatning u yoki bu turiga yaroqlilik (kasbga yaroqlilik) quyidagilar bilan belgilanadi: kishining yoshi, sog‘ligi, tayyorlik darajasi; zarur bilim, malaka va ko‘nikmaga egaligi; kerakli kasbiy layoqatlar yigindisi sifatidagi talant va mazkur kasb bo‘yicha ishlash istagi va hokazolar.

Mehnat ekspertizasi kuyidagi umumiy masalalarni bajaradi:

1) mazkur kishi muayyan ishni boshlay oladimi; 2) u o‘zi egallagan vazifa lavozimida ishlab keta oladimi; 3) mazkur kishidan qaysi ishda foydalansa yaxshiroq bo‘ladi; 4) agar baxtsiz hodisa yuz bersa, u ishchining xususiyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lgan hamda xususan, uni ishga qo‘yilganda xato qilinmaganmi.

Ushbu masalalar mehnat ekspertizasining mazkur kasb vazifalarini o‘rganishga va tadqiq qilishga yo‘naltirilgan psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi asosida amalga oshiriladi. Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, bugungi amaliyotchi psixologlardan mehnat psixologiyasining o‘ziga xos nazariy, amaliy va ilmiy- tatbiqiylar jihatlari haqida muayyan bilim va malakalarni puxta egallah talab qilinadi. Chunki, mehnat faoliyati va shaxsning o‘ziga xos psixologik tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlamay turib yuksak muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmaydi.

### **Mehnat jamoalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi.**

Mehnat jamoalarida ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish va uni rivojlantirish muammosiga bag‘ishlangan ishlar mazmuni haqida bat afsil mulohaza yuritadigan bo‘lsak, mehnat jamoalarida tashkil etilishi lozim bo‘lgan psixologik xizmatning ijtimoiy qimmati va undan kelib chiquvchi asosiy yo‘nalishlari haqida, shuningdek, ayrim mehnat jamoalarida olib borilgan psixologik xizmat natijalari xususida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi

Shunga muvofiq, mehnat jamoalarida tashkil etilgan psixologik xizmatning ayrim yo‘nalishlariga ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy jihatdan e’tibor qaratish o‘rinlidir.

Psixologik xizmat tizimi tadbiq etilishining ilmiy-tashkiliy yo‘nalishi turli mamlakatlarda turli tartibdagi mazmunga ega ekanligi bilan xarakterlidir. Masalan, aksariyat g‘arb mamlakatlarida psixologik xizmat ko‘rsatish tizimi maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan psixologlar yoki psixologiya Markazi a’zolari tomonidan amalga oshiriladi. Binobarin, AQSh da psixologiya Ittifoqlarining 15000 dan ortiq, Niderlandiyada 3150 dan ortiq, Italiyada 2500 dan ortiq, Buyuk Britaniyada 1972-dan ortiq rasmiy a’zolari aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini tashkil etish ishiga jalb etilganlar.

Markaziy Hamdo‘stlik Davlatlarida esa psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy yo‘nalishi 2 turdagি model asosida amalga oshirilib keladi:

1.Hududiy psixologik xizmat markazlari tomonidan (maxsus kelishilgan vaqtinchalik shartnoma asosida);

2.Yirik sanoat va ishlab chiqarish muassasalarida maxsus bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lgan doimiy ishlovchi amaliyotchi sotsiolog-psixologlar tomonidan.

Ta’kidlash joizki, bu borada Boltiqbo‘yi davlatlari juda boy tajribaga ega. Mustaqillik sharofati tufayli kundan kunga rivojlanib borayotgan O‘zbekiston davlatida ham psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy faoliyatida oz bo‘lsada ma’lum ijobiy siljishlar namoyon bo‘lmoqda. Bu esa O‘zbekistonda rasmiy tarzda keng quloch yozayotgan psixologik xizmatning ko‘lамини yanada takomillashtirish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistondagi psixologik bilimlarning amaliyotda (mehnat jamoalarida) tadbiq etilishini yaqqol ifoda etuvchi psixologik xizmatning ilmiy-tashkiliy mazmunini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

**1-model.**Mehnat jamoalariga maxsus shartnoma asosida psixologik xizmat ko‘rsatish.

Bunda yirik ishlab chiqarish va mehnat jamoalari ma’muriyati bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzilib jamoadagi barcha sotsiolog-psixologik xususiyatlar va imkoniyatlar chuqr o‘rganiladi, tahlil qilinidi va tegishli tavsiyalar beriladi. Bu borada Respublikamizda talaygina tajribalar to‘plangan. Masalan, Toshkent davlat universiteti psixologiya kafedrasи a’zolari tomonidan E. G‘oziev

va Z. Dushaboevlar rahbarligida 1974-1996-yillar davomida o‘nlab yirik korxonalarda ijtimoiy psixologik xizmat joriy qilindi va ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatildi. Shuningdek, Buxoro davlat universiteti “Psixologik xizmat markazi” xodimlari tomonidan Respublikadagi o‘nlab mehnat jamoalarida ijtimoiy- psixologik xizmat ko‘rsatildi va ko‘rsatilmoqda.

Ayni paytda, bugungi kunda mamlakatimizdagi ilg‘or psixologlar va psixologiya labaratoriyalari, kafedralari tomonidan qator mehnat jamoalariga u yoki bu darajada psixologik xizmat ko‘rsatish ishlari olib borilmoqda.

**2-model.** Bevosita muassasaning o‘zida mutaxassis tomonidan psixologik xizmat ko‘rsatish.

**I.** Mazkur model o‘zining qulaylik va samaradorligi jihatidan nihoyatda keng ko‘lamli ekanligi bilan xarakterlidir. Chunki, mehnat jamoasida yuz berayotgan har bir vaziyat bevosita psixologning ko‘z o‘ngida sodir bo‘ladi. Shuningdek, jamoadagi har bir shaxsning o‘ziga xos psixologik tuzilishini (shaxsning bilish jarayonlari, hissiy – irodaviy sifatlari, individual-psixologik xususiyatlari) va uning kasbiga mos psixologik imkoniyatlarini muntazam o‘rganib borish uchun muhim zamin hozirlandi. Bu esa, tabiiyki, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yanada yaxshilashga, har bir ishchi xodimning potensial imkoniyatlaridan unumli foydalananishga va shular asosida jamoadagi mehnat rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda mazkur model asosida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning (masalan: Toshkent Aviatsiya zavodi, “Malika” ip-yigiruv birlashmasi, “Yulduz” birlashmasi, Toshkent va Buxoro-1 temiryo‘l lokomotiv deposi va v.h) faoliyati o‘rganilganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, psixologik xizmatning tashkiliy tomonlarini korxona rahbari o‘z zimmasiga olgan. Bu esa barcha ishchi xodimlarning “psixologik ko‘rikdan” o‘tishini ta’minlashga xizmat qiladi. Masalan, Buxoro-1 lokomotiv deposida har bir ishchi xodim uchun ishga qabul qilinishdan oldin ma’muriy tarzda tibbiy ko‘rikdan tashqari alohida “psixologik ko‘rikdan” o‘tish va ma’lum ijtimoiy-

psixologik ko'rsatmalar asosida o'z ish faoliyatini tashkil etishi qat'iy tadbir sifatida qabul qilingan va bunga to'la- to'kis amal qilinadi.

O'z- o'zidan ma'lumki, bu tadbir bir tomondan psixolog mas'uliyatini oshirsa, ikkinchi tomondan esa jamoadagi psixologik xizmat tizimi joriy qilinishining ilmiy-tashkiliy jihatdan mustahkamlanishi va istiqbolini belgilashga yordam beradi.

Albatta, mazkur model asosida psixologik xizmat tashkil etilishining samaradorligi beqiyosdir. Lekin, Respublika miqyosida olinadigan bo'lsa mutaxassislarining nihoyatda taqchilligi mazkur model asosida psixologik xizmatni yoppasiga joriy etishda juda mushkullik tug'dirmoqda. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda talaygina mehnat jamoalarida hududiy psixologik xizmat ko'rsatish Markazlari orqali maxsus shartnomalar asosida ish olib borilmoqda.

Demak, O'zbekistondagi mehnat jamoalarida psixologik xizmat tashkil etishning ilmiy-tashkiliy yo'nalishlari yuqorida qayd etilgan ikkala model asosida tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

### **3.8. Iqtisod va biznes sohasida psixologiya**

Iqtisod va biznes psixologiyasi — jahon mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lib, tijorat ta'sirining psixologik negizlari, ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarini, ehtiyojning individual, yoshga, jinsga oid va boshqa xususiyatlarini, xaridorlarga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydigan soha. Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta'sir o'tkazish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'onish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishontirish, qiziqtirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etish ham mazkur sohaning tekshiruv predmetiga kiradi.

### **3.9. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi**

Mehnat qiluvchi insonni ongli ravishda ilmiy o‘rganish o‘tgan asrdan boshlandi. Tashkilot menejmentini o‘rganuvchi olim V.A. Spivak boshqaruva nazariyalarining rivojlanish tarixini quyidagi davrlarga ajratgan holda tadqiq etadi. Ilmiy boshqaruv maktabi yoki mehnatni ilmiy tashkil etish maktabi.

Ushbu yo‘nalish asosida amerikalik olim F.U. Teylor nomiga qo‘yilgan "teylorizm" ta’limoti yotadi va bu sohada olib borilgan AQShdagi izlanishlar 1885-1920-yillarni o‘z ichiga oladi. F.U. Teylor o‘sha davrdagi malakasiz ishchilardan samarali foydalanish maqsadida, murakkab va malaka talab etuvchi mehnat turini mayda operatsiyalarga ajratdi.

Mehnat jarayonini maxsus operatsiyalarga ajratish natijasida, Rensom Olds 1902-yilda konveer usulini yaratdi va avtomobil’ yig‘ish zavodiga tatbiq etdi. Yangi uslub bo‘yicha ishlab chiqarish natijasida yillik mahsulot 425 donadan 2500 taga ko‘paydi. Genri Ford esa bu uslubni yanada takomillashtirish orqali, avtomobil’ ishlab chiqarishga ketadigan vaqtini 20 martaga kamaytirdi va nafaqat Amerika, balki keyinchalik butun jahon avtomobil bozorini ishg‘ol qildi.

Ma’muriy boshqaruv maktabi. Ushbu yondoshuv A. Fayol nomi bilan bog‘liq bo‘lib, 1920-1950- yillarda bunga oid g‘oyalar boshqaruvda keng miqyosda tatbiq etila boshlandi. A. Fayol alohida mehnat elementlarini emas, balki tashkilotni yaxlit tuzilma sifatida qaraydi va tashkilotni ratsional boshqarish tamoyillari, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv tizimi kabilarni takomillashtirgan holda mehnat samaradorligini oshirishga erishdi.

1924-yildan boshlab insoniy munosabatlar maktabi ham rivojlana boshladi. Bu yondoshuvning asosi va birlamchi manbalari amerikalik psixolog Elton Meyoning "Xotorn tajribalari"ga borib taqaladi.

"Western Electric" kompaniyasida o‘tkazilgan tajribalarda, sex ishchilariga e’tiborli bo‘lish, ularning manfaatlari haqida g‘amxo‘rlik qilish natijasida mehnat unumdarligini oshirishga erishilgan. Bunday munosabat ishchilar tomonidan rag‘batlantiruvchi omil sifatida qabul qilingan va ijobjiy munosabatlarni shakllantirish asosida mehnat unumdarligi oshgan.

Zamonaviy yondoshuvlardan biri— inson resurslarini rivojlantirish konsepsiyasi bo‘lib, bunda tashkilot manfaati yo‘lida xodimning o‘z tashabbusi bo‘yicha samarali mehnat kilishi uchun yaratiladigan sharoitlar markaziy masala, deb qaraladi. Tashkilot personalini rivojlantirish omili sifatida xodimlarning ehtiyojini aniqlash va qondirish, ularning kasbiy va shaxsiy kamolotga erishishi uchun shart-sharoit yaratish g‘oyasi yotadi. Aniqlangan ehtiyojlar majmuasiga har tomonlama ta’sir etish natijasida ishchining mehnatga ijobiy yondoshuvi va samarali mehnati ta’minlanadi.

Dunyo mamlakatlarining taraqqiyot tajribasi shundan dalolat beradiki, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eski jamiyatdan demokratiya tamoyillariga asoslangan yangi tuzumni shakllantirishga kirishgan har qanday mamlakat uchun boshqa strategik masalalar qatori kadrlar masalasi ham o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Buni ozod Vatanimiz — mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li ham yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zini rahbar deb biladigan shaxs, avvalo odamlarni yaxshi ko‘rishi, ular bilan hamdard, hamfikr bo‘lishi, ardoqlashi, xalqning tashvishlarini yuragidan o‘tkazib, ularning dardiga darmon bo‘lishi lozim. Rahbar bo‘lmoqchi bo‘lgan odam uzoqroqni ko‘rishi va chuqurroq anglashi kerak. Rahbar bo‘ldingmi, endi senga talab ham, mas’uliyat ham boshqacha bo‘ladi. Oldinda yuradigan odam ziyrak bo‘lishi, oldinni ko‘rishi, bilishi kerak. Ertangi kunimiz qanday bo‘ladi? Qanday muammolarni hal qilishimiz kerak? Bu savollarga aniq puxta javob topish uchun rahbar odam sezgir bo‘lib, oldindan chuqur o‘ylashi lozim.

Yurtboshimiz oldimizda turgan muammolar haqida gapirar ekan, islohotlarni izchil amalga oshirishda ayrim rahbar kadrlarda uchrayotgan quyidagi sifatlarni tanqid qildi: loqayd munosabat, lavozimni suiiste’mol qilish, zamon talablarini tushunmaslik, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik, mas’uliyatsizlik, rasmiyatchilik, o‘zibo‘larchilik, malaka va bilim sayozligi, xo‘jako‘rsinchilik, ma’muriy buyruqbozlik, to‘rachilik, tadbirlarni nomigagina o‘tkazish, poraxo‘rlik, ta’magirlik, byuroqratik idoraga aylanganlik, qonunni oyoq osti qilish, sustkashlik, «menden ketguncha, egasiga yetguncha» qabilida ish tutish. Bu esa islohotlarga

to'siq bo'layotgan illatlar sababini rahbar kadrlar ma'naviyatidan ham qidirish kerak, degan to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

Rahbar kadrlar muammosini o'rganish psixologiya tarixida sezilarli darajada o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi sotsiologiya, ijtimoiy-psixologiyaning tarixiy etyudlarida rahbarning ijtimoiy turmushdagi roli, mamlakat, xalq taqdiridagi mas'ulligi, taraqqiyot (progress), farovonlik, baxtli turmush ko'p jihatdan uning shaxsiy-kasbiy sifatlariga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga bog'liq ekanligi bayon qilingan.

Mutafakkir ajdodlarimiz ta'limotlarida, xalq ijodiyotida adolatli vaadolatsiz shoh to'g'risidagi ma'lumotlar haddan ziyod ko'p. Abu Rayhon Beruniy asarlarida, al-Forobiy qo'lyozmalarida rahbar insonlarning shaxsiy fazilatlari, ularning oldida turgan murakkab, ma'lumotli vazifalar, ayrim illatlarning oldini olish va bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari bo'yicha ibratli fikrlar bildirilgan. Ayniqsa, rahbarning shaxsiy-kasbiy sifatlari va uning kasbiy kamolotlari ilmiy-amaliy namunalar asosida ta'kidlab o'tilgan.

Jumladan, buyuk alloma Ahmad Donishning ilmiy merosi, o'lmas ta'limoti hozirgi davrda ham o'z qimmatini mutlaqo yo'qotgan emas, aksincha, alloma ilgari surgan ilg'or g'oyalar huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda beqiyos ahamiyatga ega. Ahmad Donish o'zining eng yirik asari «Navodirul-vaqoe»da yozishicha, hukmdor bo'lish, mamlakatni boshqarish, fuqaro ustidan hukmronlik qilish insoniyat jamiyatida eng ulug' vazifalardandir. Lekin, shu bilan birga, juda murakkab va mas'uliyatli ish hamdir. Bu murakkab va mas'uliyatli xizmatni har bir davlat boshlig'i yuksak ilmiy ma'rifat, teran aqlu tafakkur, boy tajriba sohibi bo'lganda ham adolatni o'z faoliyatining asosiy mezoniga aylantirgandagina uddalay oladi.

Xalq manfaatini o'ylaydigan, unga shafqat va mehribonlik ko'rsatuvchilar yuksak darajalarga erishadilar, ayniqsa, davlat boshliqlarining oldida adolatli hukumatdan ortiq martaba yo'qdir, - deb uqtiradi Ahmad Donish.

Asosiy mulohazalarimizni ilmiy psixologiyaga munosib hissa qo'shgan rus psixologlari asarlarining tahlilidan boshlaymiz.

S.L.Rubinshteyn o‘zining keng qamrovli qarashlarida nafaqat psixologiya fanining prinsiplari bo‘lmish determinizm, ong va faoliyat birligi, taraqqiyot, monizm kabilardan tashqari shaxs kamoloti muammosiga ham alohida e’tibor bergen.

***Uning fikricha rahbarning eng asosiy xususiyati – bu atrof muhitning subsensor tarzda aks ettira olishdir.*** Irodaviy sifatlar negizi motivatsion hissiy, kognitiv va regulyativ jabhalarning harakatlantiruvchi ekanligi, shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish imkoniyatidan kelib chiqib bildirilgan fikridir. Rahbarning regulyativ xususiyati jamoa faoliyati va uni maqsadga muvofiq ravishda yo‘naltirish tufayli ijobiy natijalar, mahsullarga erishish mumkinligi ta’kidlab o‘tiladi.

S.L.Rubinshteyn asarlarida shaxslararo munosabat xususiyatlari shuningdek, rahbarning ish uslublari bo‘yicha muayyan fikrlar bildirilgan.

Umuman, rahbarlik uslublari va raxbar psixologiyasi muammolari bo‘yicha ko‘plab psixologlar tadqiqot ishlari olib borganlar. Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda boshqarishning ijtimoiy-falsafiy psixologik-pedagogik jihatlari hamda o‘ziga xos bo‘lgan boshqa muammolari xususida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. R.X. Jo‘raev, J.G. Yo‘ldoshev, R.Sh. Axlidinov, P.T. Magzumov, Sh.E. Qurbonov, U.I. Inoyatov, H.Q. Yuldashev, S. Turg‘unov U.Sh. Begimqulov va boshqalarning tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Ayniqsa, tadqiqotimiz muammosiga yaqin bo‘lgan E. G‘oziev<sup>3</sup>, V. Karimova, N. Boymurodov rahbarligida olib borilgan izlanishlarda boshqaruv usullari, rahbar etikasi va madaniyati, xodim va rahbar orasida kechadigan munosabat jararayoniga e’tibor qaratilgan.

#### **Rahbarlik tushunchasiga quyidagicha ta’riflarni keltirish mumkin<sup>4</sup>:**

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy xarakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.

---

<sup>3</sup> Фозиев Э. Умумий психология. - Т., 2002. - 25-б

<sup>4</sup> Н. Боймуродов “Рахбар психологияси”. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2007

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi.

3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs xisoblanadi.

4. Rahbar mehnati, ayni paytda tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyat xisoblanadi. Unga sarflangan kuch, mablag‘ ba’zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o‘rniga zarar ham ko‘rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko‘ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo‘lganda, faoliyatni qayta boshlashi, o‘zida bunga kuch g‘ayrat topa bilishi lozim.

### **Boshqaruvdagi asosiy funksiyalar**

Boshqaruv bilimlari ko‘p jihatdan davr ehtiyojini aks ettiruvchi asosiy manbaa bo‘lib hisoblanadi. Boshqaruv jarayoni, bir tomonidan, tuzilmaning yaxlitligini ta’minlasa, ikkinchi tomonidan uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Shu o‘rinda **boshqaruvning ikki asosiy funksiyasi** farqlanadi:

Maqsadga yo‘naltiruvchi va tashkiliy funksiyalar.

Maqsadga yo‘naltiruvchi funksiya tuzilmani yanada mukammallashtirish maqsadiga yo‘naltiradi. Tashkiliy funksiya esa tuzilmaning maqsadga erishishdagi ichki tartibi va uning turli qismlari o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi.

Yuqoridagi asosiy ikki boshqaruv funksiyasi qator vazifalar orqali amalga oshadi. Masalan, maqsadga yo‘naltiruvchi funksiyani ado etishda faoliyat tarkibiga:

Natijani prognozlash, maqsad sari faoliyatni rejalash va amalga oshirish motivatsiyalari kiradi.

Maqsadga yo‘nalgan faoliyatni amalga oshirish tashkiliy funksiyalar orqali ta’minlanadi. Bu sohadagi asosiy vazifalardan biri faoliyatni nazorat etish va kuchlarni safarbar etishdir. Umuman olganda nazoratni amalga oshirish boshqaruvning ikkala funksiyasi uchun ham umumiy bo‘lgan universal xususiyat

bo‘lib, u boshqaruvning har qanday jaraènida doimiy qayta aloqani ta’minlab turadi. Boshqaruv fanidagi asosiy tushunchalardan biri qayta aloqa tushunchasi bo‘lib, bu ibora tuzilmaning o‘z maqsadi sari intilishi qay yo‘sinda ketayotgani va qanday jihatlarni o‘zgartirish, yanada mukammallashtirish haqida ma’lumot olishni anglatadi.

**Rahbarlik boshqaruv faoliyati sifatida.** Har qanday boshqaruv ushbu jarayonni mukammal tarzda idora etish ehtiyojini sezadi. Shu maqsadda, tuzilma mas’ul boshqaruvchiga ega bo‘lishi lozim. Tashkilotni tuzilma sifatida qabul qilarkanmiz, uning rahbari boshqaruvning aynan ikki asosiy funksiyasini ta’minlovchi shaxs sifatida tushuniladi.

**Tashkilot miqyosida tahlil qilinganda yuqorida qayd etilgan asosiy funksiyalar quyidagicha ifoda etiladi:**

**Maqsadga yo‘naltiruvchi funksiya** – tashkilotni ma’lum maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtiradi.

**Tashkiliy funksiya** – tashkilot turli bo‘limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo‘lgan asosiy funksiya va vazifalar tasviriy ravishda quyidagicha ifodalangan:

Rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu vazifalar o‘rtasida mutanosiblik va uyg‘unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot butunligini ta’minlashdir.

**Tashkilot boshqaruvining asosiy funksiyalaridan yana quyidagi xususiy funksiyalar kelib chiqadi:**

**-Rejalashtirish funksiyasi** - natija kanday bo‘lishi haqidagi tasavvur, unga erishish bosqichlari va uslublar. Asosiy tamoyili – boshqaruvchi va boshqariluvchi sub’ektlarni muvofiqlashtirish.

**-Nazorat etish funksiyasi** - tashkilot faoliyati, uning faoliyatini ta’minlovchi mablag‘ va rusurslar haqidagi ma’lumotlarni saqlash, boshqaruvning ta’sirchanligi haqidagi axborotlarga ega bo‘lish. Nazoratning asosi – hisob-kitob hamda nazorat jarayonidagi real faoliyatni rejaga solishtirib borishdan iboratdir.

**-Siyosiy-huquqiy funksiya** - tashkilot xodimlarining jamiyatda qabul qilingan qonun va huquqlar doirasida faoliyat yuritishlarini nazorat etadi va ta'minlaydi.

**- Ijtimoiy funksiya** - ijtimoiy hodisalar (turli kasb faoliyati va ularga haq to'lash tafovutlari, ijtimoiy adolatni tatbiq etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xodimlarning mavjudligi.

**-Rag'batlantirish funksiyasi** - ijro harakatlari me'yorda o'tishini ta'minlashdan iborat bo'lib, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish vositalarini o'z ichiga oladi.

Boshqaruv maqsadi va vazifalari boshqaruv munosabatlarini keltirib chiqaradi va boshqaruv psixologiyasi aynan shu munosabatlar tarkibini o'rganadi.

Mehnat sohasidagi sabablar xilma-xil funksiyalarni bajaradi va ular xodim xulq-atvorida ro'yobga chiqadi. Bular quyidagi funksiyalar:<sup>5</sup>

- **yo'naltiruvchi funksiyada** sabab xodimning xulq-atvorini vaziyatdan xulq-atvor variantlarini tanlashga yo'naltiradi;
- **ma'no hosil qiluvchi funksiya**, bunda sabab xodimning mazkur xulq-atvoridagi sub'ektiv ahamiyatini belgilab beradi, uning shaxsiy ma'nosini aniqlaydi;
- **vositali funksiya**, bunda sabab ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar tutashgan joyda vujudga keladi, ularning xulq-atvorga bo'lган ta'sirini vositalaydi;
- **safarbar qiluvchi funksiya**, bunda sabab xodim organizmi kuchlarni o'zi uchun ahamiyatli faoliyat turlarini amalga oshirishga safarbar etadi;
- **oqlovchi funksiya**, bunday holatda shaxsning tashqaridan normalashtiradigan xulq-atvor namunasiga, etaloniga, ijtimoiy va axloqiy normaga munosabati ifodalangan bo'ladi.

Haqiqiy real sabablar bilan e'lon qilinadigan, oshkora e'tirof etiladigan sabablarning farqiga yetish lozim. Haqiqiy sabablar bular undovchi sabablardir.

---

<sup>5</sup> Абдураҳмонов К.Ҳ, Холмўминов Ш. Мехнат ва иқтисодиёт социологияси. Тошкент – 2004 й. 148-149 б.

Ikkinchı sabablar bular mulohazali sabablar bo‘lib, ularning vazifasi o‘zining xulq-atvorini o‘ziga va boshqalarga tushuntirishdir.

Keyingi o‘n yilliklarda mehnat va iqtisodiyot psixologiyasida ijtimoiy xulq-atvor mexanizmini bilishni birmuncha chuqurlashtirish imkonini beradigan g‘oyalarni ishlab chiqmoqda. Bu jihatdan V.V. Yadovning yondashuvi qiziqarli bo‘lib, u shaxs ijtimoiy xulq-atvorini depozitsion konsepsiyasini ifodalab bergen edi. Bu yerda insonning murakkab dispozitsiyalar tizimini (shaxsiy moyillik) egallashi haqida so‘z boradi. Ular inson xulq-atvorini tartibga soladi. Ular murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan qiziqishlar va vaziyatlar tutashgan joyda hosil bo‘ladi. Ehtiyojlar, vaziyatlar va ularga mos keladigan dispoziyalarni to‘rtta darajasi ajratib ko‘rsatiladi:<sup>6</sup>

- ✓ eng oddiy vaziyatlarda, maishiy sharoitlarda, maishiy sharoitlarda biologik ehtiyojlarga bog‘liq yo‘l-yo‘riqlar;
- ✓ odatdagι kundalik sharoitlarda muomalada bo‘lgan ehtiyojlar asosida shakllantiriladigan ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar;
- ✓ shaxsning muayyan mehnat sohasi yoki dam olish sohasidagi qiziqishlari umumiy yo‘nalishini ta’riflab beradi (bular bazaviy ijtimoiy yo‘l-yo‘riqlar);
- ✓ shaxsning qadriyatli mo‘ljallar tizimi.

Sabablar tuzilishi juda moslashuvchan va doimiy ravishda o‘zgaruvchandir (to‘g‘rilanib boradi). Mehnat faoliyati jarayonidagi bunday to‘g‘rilanib borish uchun asos sifatida ishlab chiqarish vaziyatining turli tomonlaridan qoniqish hosil qilishda namoyon bo‘ladi. Xodim vaziyatning barcha elementlarini qanchalik qulaylik bilan qabul qilsa, mehnat xulq-atvori sabablari shunchalik to‘g‘rilangan bo‘ladi. Sabablarni o‘rganishning sotsiologik va psixologik darajalarini farqlash o‘rinli hisoblanadi. Psixologik darajada harakatdan olingan maqsadini bilib olish va qaror jarayoni tekshiriladi, butun sabablarni asoslash jarayoni maqsad qo‘yish bilan tugaydi. Sabablar yo‘l- yo‘riqlarini o‘rganishda shuni nazarda tutish kerakki, ularning mazmuni ko‘proq qadriyatlar va normalar mazmunini, avvalo, shaxsiy

---

<sup>6</sup> Ўша ерда. Б 150.

ehtiyojlar hamda qiziqish yo‘nalishidan ko‘ra, ijtimoiy jihatdan ma’qullangan qadriyatlar va normalar mazmunini aks ettiradi. Bunda sabablar ierarxiyasi qadriyatlar ierarxiyasidan dalolat beradi. Ehtiyojlar va qiziqishlar tuzilishini esa faoliyatning har xil turlariga doir vaqt sarflari aks ettiradi. Turli ijtimoiy guruhlar xodimlari xulq-atvorining sabablari, yo‘l-yo‘riqlari, qadriyatli yo‘nalishlarini, shuningdek, ularning tuzilishini o‘rganish xodim nima sababdan mehnat qilayotganligini aniqlash imkonini beradi. Mehnat faolligiga undovchi ichki sabablarni bilish asosida yaratiladigan rag‘batlar tizimi mehnatga munosabatlarning optimal tipini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Jamiyatda amal qilayotgan rag‘batlar tizimi faqat xodimlarning yetakchi ehtiyojlarini va qiziqishlarini amalga oshirishga yordam bergandagina samarali bo‘ladi. Mehnat motivatsiyaning ichki undovchi kuchlarini shakllantirish mehnat faoliyati sababini asoslash jarayonining mohiyatidir. Sabab omillari sifatida sababning asosi yoki shart-sharoitlarni aytish mumkin. Ular sababining mazmunli tomonini, uning asosiy belgilari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi.

### **3.10. Huquqiy sohasida psixologik faoliyat**

Bugungi kunda barcha tizimlarda bo‘lgani kabi ichki ishlar tizimida ham psixologik xizmat amaliyoti joriy qilingan. Bunda ichki ishlar idoralarida faoliyat yurituvchi xodimlarning ruhiy holati, individual xususiyatlari, stress holatiga moyillik darajalariga vaqtি-vaqtি bilan tashxis qo‘yib boriladi. O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalish bo‘yicha talaygina tajribalar to‘plangan va mazkur ishlar maxsus belgilangan “Nizom” asosida tashkil etilganligini alohida qayd etish lozim.

Ichki ishlar organlarining psixolog lavozimlariga, «psixologiya» yo‘nalishi buyicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar qabul qilinadi. Ma’lumoti va mutaxassisligi to‘g‘ri kelmagan nomzod yoki xodimlar istisno tariqasida lavozimga tayinlanmaydi. Bunday holatga yo‘l qo‘ygan mas’ul rahbar va xodimlar intizomiy jazolanadilar.

Psixologiya xizmat faoliyatining asosiy maksadi- shaxsiy tarkibning psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish hamda kasbiy-psixologik muhim xususiyatlarini yanada takomillash-tirishdir. Bundan tashkari, ichki ishlar organlarining turli xil lavozimlarida xizmat qilayotgan xodimlariga suhbat olib borishning psixologik metodlarini, nizoli, ekstremal vaziyatlarni hal eta olishlari, ichki ishlar organlariga, IIV ta’lim muassasalariga kirish istagini bildirgan nomzodlarning kasbiy layoqatini rahbarlik lavozimlariga tayinlanayotgan rahbar xodimlarning rahbarlik qobiliyatini, ma’naviy ruhiy muhit darajasini aniqlashdan iborat.

Ichki ishlar organlari psixologlari o‘z ishini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Bosh boshqarma, boshqarma, mustaqil bo‘limlari va ta’lim muassasalari boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar hamda Transportdagи Ichki ishlar boshqarmalarining normativ-huquqiy hujjatlarida ko‘rsa-tilgan talablariga muvofiq istiqboldagi va kundalik rejalar asosida amalga oshiradilar.

IIV tizimlarida faoliyat yuritayotgan psixologlar tomonidan qo‘llaniladigan psixologik va psixofiziologik uslublar, metodikalar ro‘yxati vazirlik psixologiya guruxi tomonidan tanlanadi. Psixologlar tomonidan ilmiy asoslanmagan psixologik va psixofiziologik uslublarni hamda tegishli ma’lumot va zarur mutaxassislik darajasiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan psixologik diagnostika usullarini qo‘llash, ijtimoiy-psixologak tadqiqotlarni o‘tkazish, psixologik axborotni qo‘llash taqiqilanadi.

Psixolog o‘zining kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun «Ruhiy yengillashtirish xonasi», o‘quv xonasi, kompyuter, dasturiy ma’lumotlar, audio va videotexnika, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, psixologik testlar va uslubiy qo‘llanmalar, diagnostik va psixokorreksion uskuna va materiallar bilan ta’milanishi, psixolog lavozimi nazarda tutilgan organlarda, har bir psixolog xodimi uchun alohida-alohida xizmat xonasi bilan ta’milanishi shart. Psixolog lavozimi mavjud bo‘lmagan organ rahbarining tashabbusi bilan psixolog

xodimlarning bevosita ishtirokida «Ruhiy yengillashtirish xonalari» tashkil etilishi mumkin.

Psixolog-mutaxassisga tegishli kasbiy masalalarni amalga oshirishni istisno qiluvchi yoki qiyinlashtiruvchi boshqa turdag'i faoliyatni yuklash taqiqlanadi. Ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam bilan bog'liq topshiriqlarni bajarish bundan xoli.

Xodimlar o'rtaida xizmat intizomi va qonunchilikni buzish, o'z joniga qasd qilish (suitsid) holatlari, xizmat faoliyati davomida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar va yo'l qo'yiladigan intizom buzilishi sabablarini o'rganish va ularning oldini olish borasida rahbariyatga takliflar kiritadi;

- psixologlar hududiyligi bo'yicha joylardagi ShTBIX Tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rribbosari raisligida, har chorak yakunida psixologiya yo'nalishi bo'yicha bajarilgan ishlar yuzasidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda qatnashadilar va hisobot beradilar;

- ichki ishlar organlariga hamda IIV o'quv ta'lim muassasalariga kirish istagini bildirgan xodim va nomzodlarni o'rganadi va tegishli xulosalar beradi.

Ichki ishlar organlari tizimlarining o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, Vazirlik psixologiya guruxi faoliyat shakli, metod va metodikalarni ishlab chiqadi, muvofiqlashtiradi, standartlashtiradi, mezonlarni belgilaydi va amaliyotda qo'llashga tavsiya qiladi.

Ichki ishlar vazirligi bosh boshqarmalari psixolog mutaxassislari nomzodlarga ichki ishlar organlari faoliyatiga kasbiy layoqati darajasi to'g'risida xulosa shaklidagi tavsiyalar beradi.

Nomzodlardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish va ularni joy- joyiga qo'yish bo'yicha bevosita rahbariga xizmatda foydalanish uchun psixologik tavsifnama beradi.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi mansabdor shaxsdardan ichki ishlar organlari kasbiy faoliyatini psixologik nuktai nazardan o'rganish bo'yicha zarur ma'lumotlarni talab qilib oladi va ulardan foydalanadi.

Xodimlarga psixologik xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Ichki ishlar organlari sohasida psixologik xizmatni tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rghanadi, umumlashtiradi va tarqatadi.

Kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish masalasida jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi, xodimlarning faoliyatini psixologik ta'minlash natijalarini tahlil qiladi. Ichki ishlar organlari rahbariga psixologik xizmat ko'rsatish bo'linmasini ilmiy-uslubiy, moddiy-texnik va kadrlar bilan ta'minlash buyicha takliflar kiritadi.

### **3.11. Sport sohasida psixologik ish**

Mamalakatimizda o'nlab sport federatsiyalari, assotsiatsiyalari, davlat qo'mitalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning barchasida psixologik xizmat tizimi joriy qilinmoqda. Shuningdek, sport ommalashgan, professional darajaga o'sib o'tgan davlatlarda bu sohada boy individual va ijtimoiy tajribalar umumlashtirilgan.

Futbol, xokkey, voleybol, boks, tennis, shaxmat, chang'ida uchish, sharq yakkakurashlarida inson omili yetakchi rol o'ynaydi, chunki sportchining jangovorligi, kayfiyati, irodasi, xotirjamligi, o'zini – o'zi iroda qila olishligi g'alaba keltiradi, uning aks holati esa mag'lubiyat manbaidir. G'oliblik shohsupasiga ko'tarilish vatanparvarlik tuyg'usining amaliy ifodasi, Vatan shuhratini jahonga tanitish vositasi sanaladi. Ona yurt bayrog'i, ramzi, madhiyasining o'zga mamlakatlar osmonida mavj urishi vatan tuyg'usining oshkora namoyon bo'lishidir. Sport tashkilotlarida psixologik xizmatni zamon talabi darajasida tashkil etish g'alabalar kafolatidir. Jismoniy tarbiya va sport tizimida psixologik xizmat ko'rsatish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Sport maktablariga "Paxtakor", "Dinamo", "Armiya sport klub", va boshqa sport jamoalariga o'quvchilar tanlashga psixodiagnostika metodlari bilan ishtirop qilish.

2.Sport jamoalarida shaxslararo munosabatlar maromini aniqlash va o‘ziga xos xususiyatlarini maxsus metodikalar yordami bilan empirik materiallarga asoslangan holda o‘rganish.

3.Jamoalarda liderlarni topish va ularning muayyan toifalarga aloqadorligini belgilash hamda ular bilan individual ishslash rejasini tuzish.

4.Rahbar, trener va sportchilar o‘rtasidagi munosabatni aniqlash hamda ular o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratishga intilish.

5.Sportchilar bilan turli xususiyatli treninglar yordamida hamkorlik qilish tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish.

6.Sportchilar bilan musobaqadan oldin va undan keyin psixologik ta’sir o‘tkazish maqsadida individual va guruxiy suhbat o‘tkazish, o‘ziga ishonch, jasorat, jangovorlik tuyg‘ularini jonlantirish.

7.Emotsional zo‘riqish holatlarini kamaytirish maqsadida psixologik barqarorlikni vujudga kelishiga puxta ma’naviy negiz hozirlash.

8.Sportchilarning sport qurollari va anjomlariga moslashtirish davrlarni tekshirish va muayyan tavsiyalar, yo‘llanmalar tayyorlash.

9.Musobaqalar davridagi tanaffuslarda qisqa muddatli trening, ta’sir o‘tkazuvchi metodlarni operativ tarzda qo‘llash.

10.Ot sportida “Inson - - jonivor” munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, harakatlar muvofiqligi, fazoviy chamalash imkoniyatlari yuzasidan aniq ma’lumotlar to‘plash.

11.Jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro moslik, o‘zaro tushunish, o‘zaro yordam va hamkorlik faoliyatini tashkil etish.

12.Start, kulminatsiya, finish to‘g‘risidagi nisbatlarni to‘g‘ri idrok qilishga har bir sportchini ko‘nikishga o‘rgatish, frustratsiyaning yengil shakli bilan cheklanish vaziyatini vujudga keltirish.

13.Professiogramma talablariga javob beradigan jismo-niy va ruhiy holatlarni saqlash uchun o‘zini-o‘zi boshqarish uslublari bilan sportchilarni quollantirish.

14.Psixolog xonasida har bir sportchi shaxsi va muayyan guruhlar bilan uzluksiz ravishda mashg‘ulotlar olib borish.

15.Jarohat olgan sportchilar bilan uzluksiz muloqot o‘rnatib turish ularning tezkor jangovorligini tiklash omili ekanligini qat’iy dalillash.

16.Sportchilarga oid radio va televideniyada eshittirish hamda ko‘rsatuvar uyushtirishi, shuningdek, mahalliy matbuot sahifalarida chiqishlarni amalga oshirish.

17.Sportchilarda paydo bo‘ladigan psixologik inqiroz asoratlarini davolash va batamom bartaraf qilish imkoniyati mavjudligi va ularning amaliy ifodasini qaror toptirish.

18.Sportchilarni o‘zini – o‘zi boshqarishga o‘rgatishda quyidagilarni tavsiya qilish(Autogen mashqlar):

- a)muskullarni ruhiy mashqlantirish;
- b)muskulni xarakatlarini dinamik rivojlantirish;
- v)autogen holatiga sho‘ng‘ish, berilish.

19.Sport kasb ekanligini, professional darajaga o‘sib o‘tish mumkinligini uzluksiz ravishda va qat’iy uqtirish.

20.Yutuqlardan esankirab qolmaslik, ushbu darajaga erishish ko‘pchilikning mehnati mahsuli ekanligini doim ta’kidlab turish.

21.Mehnatsevarlik, kamtarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish ham jismonan ham ma’naviy barkamol inson bo‘lib voyagaetishga yo‘naltirish.

Umuman yuqoridagi yo‘nalishlar asosida sport va sog‘lomlashtirish muassasalarida psixologik xizmat amaliyotining tashkil etilishi bir tomondan har bir sport turiga jalb qilinadigan sportchilardagi psixologik imkoniyatlar ko‘lamini ochib berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan sportchining yanada ko‘proq muvaffaqiyat qozonishi uchun muayyan darajadagi yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatadi. Shuningdek, sport murabbiylariga ham tegishli amaliy – psixologik tavsiyalar berilishi orqali sportda yuksak natijalarga erishishi uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Olimpiya qo‘mitasi qoshida sport psixologiyasi bo‘limi ochilgan bo‘lib, ushbu bo‘limda har bir sportchiga alohida psixologik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va bu tadbirlar jismoniy tarbiya va sport tizimida psixologik xizmat amaliyotini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

### **3.12. Konsultativ psixologiya**

Psixologik maslahat deganda mijozning yoki bemorning ruhiy holatini tahlil qilish, psixologik tashxisning turli usullari (suhbat, eksperimental psixologik tadqiqotlar) yordamida unga ob’ektiv ma’lumotlar va ularning natijalarini ilmiy izohlar bilan ta’minlash tushuniladi, bu inson duch keladigan psixologik muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ularni echishga turli yondashuvlar, ularni oldini olish usullari va psixologiya usullari psixologik himoya va kompensatsiya, shuningdek uning psixologik madaniyati va shaxsiy o‘sishini oshirish .

Psixologik maslahat psixologik diagnostik jarayonga asoslanib, qat’iy ilmiy nuqtai nazardan, mijozning ruhiy holatini, bu holatning dinamikasini va mijozning psixologik gomeostaziyasini buzadigan zararli salbiy ruhiy holatlarni shakllantirishda ishtirok etadigan individual psixologik omillarni aniqlashga imkon beradi. Psixologik diagnostika maslahatchiga nafaqat mijozning shaxsiyatining zaif tomonlarini, uning zaif tomonlarini, balki psixologik ish jarayonida ishonish mumkin bo‘lgan kuchli tomonlarini aniqlashga imkon beradi: psixologik resurslar va zaxiralar, shaxsning moslashuvchan va kompensatsion qobiliyatları. Psixologik maslahat vaqtida mijoz o‘zining psixologik resurslaridan samarali foydalanishga o‘rgatiladi,

Ichki psixologik adabiyotlarda "maslahat psixologiyasi" va "psixologik maslahat" tushunchalari aniq ajratilmagan. Ba’zan ular sinonim sifatida ishlataladi. Bizningcha, bunday ajratish kerak. "Maslahat psixologiyasi" bu psixologianing

ma'lum bir sohasini tavsiflash uchun atama, "psixologik maslahat" konsultativ jarayonning eng umumiy jihatlari va uning sub'ektlari - psixolog va mijoz haqida gapirganda yanada to‘g‘ri ishlataladi.

Mavzuni aniq farqlash uchun maslahatning qanday turini aniqlash kerak: individual psixologik, oilaviy, psixologik va pedagogik. Keyinchalik, "psixologik maslahat" atamasi ostida maslahat psixologiyasining bo‘limlaridan biri sifatida individual psixologik maslahat tushuniladi.

Bugungi kunda individual psixologik maslahat maslahat psixologiyasining eng rivojlangan sohalaridan biridir. Har qanday ixtisos bo‘yicha maslahatchi bo‘lish asoslardan boshlanadi, ya’ni. individual psixologik maslahat nazariyasi va amaliyotini o‘rganish bilan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, buning uchun psixologik maslahat mavzusi nima ekanligini aniqlash kerak.

Psixologik maslahatning keng sohasi uning turli xil ta’riflari bilan tasdiqlanadi.

Psixologik maslahat quyidagicha ko‘riladi:

- kasbiy martaba, nikoh, oila, shaxsiy rivojlanish va shaxslararo munosabatlarga tegishli muammolarni hal qilishda va qarorlar qabul qilishda odamga yordam berishga qaratilgan bir qator tadbirlar (AQSh ishchilari va menejerlari uyushmasining litsenziyalash komissiyasi);
- asosiy vazifalari, birinchi navbatda, hozirgi paytda har qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan odamlarga yordam berish uchun mo‘ljallangan fan va amaliyot sohasi; ikkinchidan, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarning oldini olish; uchinchidan, odamlarga o‘z potentsiallarini kashf etish va ro‘yobga chiqarishga yordam berish;
- malakali maslahatchining mijozga bo‘lgan professional munosabati, odatda u shaxs-shaxs tizimida amalga oshiriladi (ba’zida unda ikki kishidan ko‘proq odam qatnashsa ham), ikkinchisiga hissiy va qarorlarni tanlashda ongli tanlovga asoslangan maqsadga mazmunli ravishda erishishda yordam berish. shaxslararo tabiat (H. Burks, V. Stefflre);

- doimiy ravishda yoki vaqtincha ochiq holda va doimiy ravishda maslahatchi rolini o‘z zimmasiga olgan kishi o‘z vaqtini, e’tiborini va vaqtincha uning mijizi sifatida ishlaydigan odamlarga yoki e’tiborini boshqa odamlarga berishga rozi bo‘lgan va rozi bo‘lgan jarayon (Britaniya Konsalting Uyushmasi);

- o‘z muammosini o‘rganishda, qarama-qarshi tomonlarini aniqlashda yordam berish; Vaziyatni engishning yangi, alternativ usullarini izlash, “odamlarga o‘zlariga yordam berish”;

- mijozning shaxsiy hayoti mantig‘ini tiklash va ushbu mantiqqa zid bo‘lman professional ta’sirni ta’minlash.

Ushbu ta’riflarda eng ko‘p uchraydigan so‘zlar "maslahatchi", "mijoz" (shaxs, shaxs sifatida), "muammo", "o‘zaro ta’sir", "yordam", "(bir marta echim)" so‘zları.

Shunday qilib, maslahat berish mijozga quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan yordamni taqdim etadi:

- hozirgi hayot muammolarini hal qilish;
- shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv va o‘zini o‘zi anglash;
- shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni uyg‘unlashtirish orqali yanada to‘liq ichki integratsiyaga erishish;
- muayyan hayotiy vaziyatlarga mos keladigan alternativ xatti-harakatlarning rivojlanishi;
- tanlov qilish va bu tanlov uchun javobgarlikni olish.

Konsultatsiyaning turli xil tushunchalarini tahlil qilish, ulami pozitsiyada turgan ikkita katta guruhgaga bo‘lishimizga imkon beradi:

- 1) mijozga ta’siri;
- 2) mijoz bilan o‘zaro munosabat.

Ta’sirga yo‘naltirilgan maslahat ta’riflari ko‘pincha tibbiyotda bo‘lgani kabi "psixolog siz va bemorning ahvolini yaxshiroq biladi ..." pozitsiyasini aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, shaxsga yo‘naltirilgan amaliyat sifatida maslahatning mohiyati mijozga yo‘naltirilgan terapiya (K. Rogers), dialogik falsafasiga, psixolog va mijoz o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarga asoslangan mijoz va

maslahatchi o‘rtasidagi maslahat aloqasidir ("Men M.Buber terminologiyasida - Siz munosabat).

Bundan tashqari, siz quyidagi ta’rifga rioya qilishingiz mumkin. Psixologik maslahat professional psixologik yordam ko‘rsatish shakli sifatida malakali maslahatchi va mijozning, uning bilim olishiga va shaxsiy o‘sishiga qaratilgan o‘zaro munosabat jarayoni bo‘lib, uning davomida maslahatchi tegishli usul va vositalardan foydalangan holda mijozga o‘zi to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot olishga yordam beradi .

### **3.13. Taraqqiyot psixologiyasi**

Taraqqiyot psixologiyasi — shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatla-rini inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrni, ya’ni ontogenetiki o‘rganadigan psixologiya sohasi. Taraqqiyot psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo‘lib, u fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabiga binoan bolalar psixologiyasi taraqqiyotida qo‘llanilgan. Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o‘smirlilik va o‘spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. U insonning ontogenetika rivojlanish jarayonida psixik holatlarning kechishi, psixik funksiyalarning roli, ularning o‘zgarishi, harakatlantiruvchi kuchlar, mexanizmlar, ta’sir o‘tkazuvchi ob’ektiv va sub’ektiv faktorlar, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot psixologiyasi umr o‘tishi bilan psixologik farqchar, individualpsixologik xususiyatlar o‘rganishini o‘rganadi, tadqiqotlarda madaniy, ijtimoiy- tarixiy, milliy ta’sirni hisobga oladi. Shuning uchun taraqqiyot psixologiyasining ob’ektlari o‘ta murakkab bo‘lib, taraqqiyotlar taraqqiyotini tekshirishni taqozo qiladi. Jahon psixologiyasida to‘plangan barcha nazariy materiallarga, shu jumladan, genetik modellashtirish (L.S. Vigotskiy) metodlariga, egizaklar metodiga va shunga o‘xshash o‘ta murakkab jarayonlarning longevityud (uzluksiz) uslubi yordamida tekshirishga asoslanadi. Taraqqiyot psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri — bolani psixik rivojlanishining ijobjiy shaklda tashkil

etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Taraqqiyot psixologiyasi pedagogik psixologiyaning ilmiy, amaliy, tajribaviy asosi bo'lib hisoblanadi, lekin boshqa sohalari bilan ham uzviy alohida faoliyat ko'rsatadi, inson kamolotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ijtimoiy ahamiyatga molik materiallar to'playdi.

### **3.14. Shaxs psixologiyasi**

Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan ibora bo'lib tuyuladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarning rivojlantirilishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat quollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi va hokazo. Bular bilan chaqaloq o'z imkoniyatlari yig'indisiga binoan odam har qanday holatda ham bu xildagi fazilatlar yigindisining sohibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli o'laroq, hayvon bolasи dunyoga kelishi bilanoq va hayotining oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). «Individ» tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug'ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagи odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin.

Shunday qilib, konkret kishini individ deb ataganda biz juda ko‘p narsalarni aytgan bo‘lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir.

Uning bundan keyingi va hatto juda ham umumiy tarzdagi ta’rifi fazilatlarining bayon etilishi va izohlanishini taqozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga o‘xshamaydigan emas, balki ular kabi harakat qilmaydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a’zosi sifatida, tarixny jarayonning ishtirokchisi sifatida ijtimoiy aloqalarga jalb ham etilmagan real kishi emas, balki demografik ma’lumotnomalardagi jonsiz birlik holida qoladi, xolos Individ sifatida dunyoga kelgan kishi aloxida ijtimoiy fazilat kashf etadi, shaxs bo‘lib yetishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etiladi. U bu tizimni allaqachon tayyor holda uchragandi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarning shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan tizimli tarzdagi ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘zida mujassamlashtirish sub’ekt bo‘lish degan ma’noni anglatadi. Katta yoshdagagi kishilar bilan o‘zaro munosabatlarga jalb etilgan bola dastavval ular faolligi ob’ekti tarzida, lekin unta katta yoshdagilar uning rivojlanishidagi yetakchi omil sifatida tavsiya qiladigan o‘sha faoliyat tarkibini egallagan, masalan, ta’lim olgan holda ish ko‘radi, o‘z navbatida ana shu o‘zaro munosabatlarning sub’ektiga aylanadi.

Ijtimoiy munosabatlar ular sub’ektining allaqanday tashqi mohiyati emas, balki individning ijtimoiy fazilati tarzidagi shaxsning bir qismi, yo‘nalishi, jihat sifatida namoyon bo‘ladi.

Agar boshqa barcha jonli mavjudotlardan farqli o‘larоq, inson nasl-nasabining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat bo‘lsa, u

holda har bir konkret kishining mohiyati, ya’ni shaxs tarzidagi alohida individga xos abstrakt sub’ekt sifatida u jalb etiladigan konkret ijtimoiy bog‘lanishlar va munosabatlar majmuasini tashkil etadi. Ular, o‘sha bog‘lanishlar va munosabatlar, undan tashqaridadir, ya’ni ijtimoiy hayotdadir va shuning uchun ham shaxssiz, ham ob’ektivdir (qul quzdorga batamom qaramdir) va shu bilan birga ular shaxs sifatida uning ichkarisida, uning o‘zida mujassamdir va shunga ko‘ra sub’ektivdir (u quzdorni yomon ko‘radi, unga itoat qiladi yoki unga qarshi isyon ko‘taradi, umuman unga nisbatan munosabat bildiradi, u bilan ijtimoiy jihatdan taqozo etiladigan alokalar o‘rnatadi).

«Individ» va «shaxs» tushunchalarining o‘xshashligi emas, balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o‘rtaga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: shaxs bo‘lib hisoblanmagan individning mavjud bo‘lishi yoki aksincha individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo‘lish fakti ko‘rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham va bunisi ham bo‘lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga yetgan individni hayolan tasavvur qilinadigan bo‘lsa, bu holda u birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik jonzotga xos individual xususiyatlardan bo‘lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy harakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyon qila olmaydi balki tevarak-atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga «torta olishgan» taqdirda ularning paydo bo‘lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo‘ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o‘rganish bu vazifani amalga oshirishning g‘oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi. Qarshimizda hali shaxs sifatida kamolatgaerishmagan individ bo‘ladi. Real individni gavdalantirmaydigan shaxsning paydo bo‘lish imkoniyatlari mavjudligi muayyan istisnolar bilan tan olinishi ham mumkin.

### **3.15. Psixokorreksiya va psixoterapiya**

Psixolog bolalar, o‘quvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ularni psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo‘naltiradi, ijtimoiy o‘sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolatga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi.

Amaliy psixolog bolalar, o‘quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotdagi, xulq-atvor muomalasidagi nuqsonlar va hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tadbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazadi, ijodiy qobiliyatlarni o‘sirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihatni esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o‘tkaziladi va butun mas’uliyat uning zimmasiga tushadi.

Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

- a) amaliy psixologning maxsus ishi,
- b) mashg‘ulot ayrim bolalar, o‘quvchilar, talabalar guruhiga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan bo‘ladi,
- v) ota-onalar pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg‘ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo‘nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun ma’lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlari ba’zi belgilarining ko‘rinishlarini o‘rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar yordamchi xarakterga ega bo‘lib xulq-

atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darjasasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan, darsda o‘quvchi diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to‘plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg‘ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko‘rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari ierarxiyasining (bosqichma-bosqich) o‘zgarishi natijasi bo‘lishi mumkin. Bunda o‘qituvchi shaxs normal holati ko‘rinishlaridan biriga yoki miya yetishmovchiligining funksional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o‘quvchi o‘zlashtirishi va intizomning pasayishi tashqaridan sezilsa-da, psixodiagnostik tadqiqotlarda o‘rganilayotgan o‘zgarishlar manbaalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo‘lishi, psixologik holat belgilari ham o‘rganiladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darjasasi, yosh va ma’lumot bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun ham o‘tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma’lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o‘zgarishini o‘rganish uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash. Agar «ko‘ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma’lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya’ni psixik funksiyalar rivojlanishi dolzarb zonasi aniqlanadigan bo‘lsa, «uzunasiga kesim» (longityud) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida o‘rganiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi mакtabda o‘qishi xaqida masala hal bo‘layotganda tibbiy pedagogik hay’at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolada paydo bo‘lgan yetarlicha o‘rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o‘tkazish. Vazifa bunday qo‘yilganda, tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala bo‘yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o‘tkaziladi. U yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini tahlil qilib, psixologik xizmat doirasida alohida diagnostik ish, alohida korreksion ish haqida gapirish mumkin emas, degan xulosaga kelish mumkin. Psixologik xizmatda diagnostik-rivojlanuvchi yo‘nalishlar ishning yagona yo‘nalishlardir. D.B. Elkoninning ta’kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo‘naltirilgan maxsus diagnostika zarur. Taraqqiyotda bo‘lishi mumkin bo‘lgan chetlashishlarni ertaroq tuzatish uchun psixik taraqqiyotni nazorat qilish zarur. Amaliyotchi psixolog faqatgina diagnoz qo‘yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o‘zi bergen tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlanuvchi ishlarni o‘zi ham olib beradi.

Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo‘lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birga, kam ishlagandir. Bu jarayon birinchi bo‘lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o‘rganishga bag‘ishlangan pedalogik tadqiqotlarda L.S. Vygotskiy tomonidan qo‘llangan. Bu sxema bo‘yicha I.Shvansar shaxs taraqqiyotini diagnostika qilishning bosqichli eksperimental-psixologik nuqtai nazarini taklif etadi.

*Bu bosqichlar quyidagilar:*

- 1)psixologga rasmiy iltimos;
- 2)psixologik muammoni aniqlash;
- 3)tadqiqot metodini tanlash;
- 4)psixologik diagnoz qo‘yish;
- 5)amaliy tavsiyalar.

Psixologning rasmiy iltimosga javob tarzidagi ishini birinchi nuqtai nazar sifatida psixologning yoki bu tarbiyasi qiyin o‘quvchiga nibatan o‘qituvchining ma’lum ijtimoiy talabiga javobini ko‘rsatish mumkin. Bu holda o‘quvchiga «tarbiyasi qiyin» tashxisi o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha nazorat xodimlari tomonidan qo‘yilgan bo‘ladi. Psixologning vazifasi

– qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga mos tuzatish metodlarini topishdan iborat.

Psixoprofilaktik ish – amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktika muammolari ko‘proq amerika adabiyotlarida aks etgan.

*Psixoprofilaktikada uch bosqich ajratib ko‘rsatiladi:*

*Birinchi bosqich* – dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog‘ bolalar bilan ishlaydi yoki mакtabdagi barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Ko‘pchilik mualliflarning ta’kidlashicha, mакtab psixik sog‘liq profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular mакtab psixologlarini dastlabki profilaktikani o‘tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

*Ikkinci bosqich* – profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi – o‘qishdagi va xulq-atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Ikkinci bosqichda ota-onalar va o‘qituvchilarga maslahatni ham o‘z ichiga oladi (bolaning o‘qishi o‘zgarishi uchun ta’lim uslubini o‘zgartirish).

*Uchinchi bosqich* – psixolog o‘qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko‘rinib turadigan muammolari bor bolalarga o‘z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi – jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo‘qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Mакtab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya’ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o‘quvchilarning asosiy qismi psixolog e’tiboridan chetda qolib ketadi.

Hozirgi amerika psixologlari mакtablardagi psixologik xizmatni psixik sog‘lik xizmati sifatida faoliyat ko‘rsatishning tarafdori bo‘lib chiqmoqdalar.

Psixoprofilaktika amaliyotchi psixolog faoliyatining maxsus turi bo‘lib, mакtabdagi barcha o‘quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

*Shunday qilib, psixolog profilaktik ishining asosiy vazifalari quyidagilar:*

1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta’minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish.

2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo‘sag‘asida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o‘z vaqtini oldini olish hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarga individual yondashuv zarurligi hamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda foydalanish asosan ish emas. Bunga maktabda o‘qituvchilarning bola haqida ko‘p gapishlari dalil bo‘ladi. Chunki maktabda o‘quvchining qobiliyatları, shaxsning asosiy xislatları haqida chuqur va har tomonlama ma’lumot beradigan mutaxassis yo‘q.

Ta’lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi.

Bunday diagnostik ishining asosiy maqsadi – o‘quvchi psixik taraqqiyotining umumiyligi bilishdan iborat. Bunday ko‘p qirrali va to‘liq diagnostika natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o‘quvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo‘llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga, kamchiliklarga ham ega.

Birinchidan, bu usulni qo‘llash juda ko‘p vaqt ni olganligi uchun, uni amalga oshirishning har doim ham iloji bo‘lmaydi. Bu usul ko‘p vaqt ni talab qilganligi uchun faqatgina psixolog emas, «tarbiyasi qiyin» o‘quvchi ham charchaydi, tekshiruvda ishtirok etishdan bosh tortadi, topshiriqlarni o‘zi sezmagani holda nomiga bajaradi. Tajribadan ma’lum bo‘lishicha, ayniqsa og‘zaki metodikalar qanchalik to‘liq bo‘lmisin, qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari bunday metodiklar shaxsni to‘liq xarakterlash uchun yetarli bo‘lmaydi.

Rasmiy iltimosga qanday munosabatda bo‘lish kerak? Kollej psixologi javob beradigan birinchi savol mana shu. Rasmiy iltimosga ikki xil munosabat, ikki xilma-xil ish uslubi mavjud.

Birinchisi, rasmiy iltimosga o‘ziga xos bo‘lмаган javob qaytarishdir. Bu ikki usul bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, rasmiy talabga javob tarzida uning mazmuniga bog‘liq bo‘lмаган holda psixodiagnostik metodlar to‘plami qo‘llaniladi.

Ikkinchidan, rasmiy talabga o‘ziga xos javob qaytarishning usuli bo‘lib, mashhur amerikalik psixolog K.Rodgers psixologiya fani va amaliyotiga kiritgan psixologik ish to‘g‘ri hisoblanadi. Uning fikricha, «tarbiyasi qiyin» bola bilan ishslash uchun, rasmiy talabning mazmuni qiyinchiliklar sabablarini tushunishga teng, lekin bu muhim ahamiyatga ega emas. Bola shaxsini rivojlantiradigan shunday sharoit yaratish kerakki, bu sharoit uni xulq-atvorning salbiy shakllaridan voz kechishga va yangi ijobiy shakllarini yaratishga majbur qilsin.

Rasmiy iltimosga o‘ziga xos bo‘lмаган javob qaytarishga teskari uslub – bu rasmiy talabga qat’iy mos tushadigan diagnostik metodikalarni tanlashdan iborat: Masalan: yomon o‘zlashtirish haqida shikoyat tushganda, birinchi navbatda bilish jarayonlarining taraqqiyoti tahlil qilinadi. Bunday diagnostika o‘zlashtirmaslik sabablarini aniqlay olmasagina, boshqa ko‘rsatkichlar qaraladi. Diagnostika natijalariga mos ravishda, ko‘pincha trening turida amalga oshiriladigan tuzatish ishlari olib boriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Bugungi kunda psixolog faoliyatining qaysi ko‘rinishi va sohalari mavjud?
2. Psixologning qanday kasbiy sifatlari mavjud?
3. Ta’lim tizimida psixologik faoliyat.
4. Tibbiyot sohasida psixologik yordam.
5. Ijtimoiy munosabatlar va oila sohasida psixolog faoliyatining xususiyatlari.
6. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiyaning o‘zaro aloqadorligi.
7. Iqtisod va biznes sohasida psixologik imkoniyatlar.
8. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi.
9. Huquqiy sohasida psixologik faoliyat.
10. Sport sohasida psixologik ishning ahamiyati.
11. Konsultativ psixologiya muammolari.

- 12.Taraqqiyot psixologiyasining shaxs rivojlanishidagi roli.
- 13.Shaxs psixologiyasi muammolarining psixologiyadagi o‘rni.
- 14.Psixokorrreksiya va psixoterapiyaning imkoniyatlari.

## **IV BOB. PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATI VA PSIXOLOGIYA METODLARI**

**Tayanch tushunchalar:** *metodologiya, metod, ilmiy tadqiqot tamoyillari, metodologik funksiyalar, klassifikatsiya, ob'ektiv metodlar, tadqiqot metodlari, kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnama, test, faoliyat mahsulini o'rghanish metodi, biografiya, sotsiometriya, statistik metodlar.*

### **4.1. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o'rni**

Ma'lumki, har qanday fan o'z predmetiga ega. Psixologiyaning predmeti psixika bo'lib, u obektiv olamni psixik hodisalar asosida aks ettirib, yuzaga kelgan va shakllangan obraz sub'ekt faoliyatini, xulq-atvorini maqsad sari yo'naltiradi.

Bundan tashqari har qanday fan qandaydir hodisa qonuniyatlarini bilish uchun malum bir metodlardan foydalanadi. **I.P. Pavlov** "Metodning qo'lida tadqiqot taqdiri yotadi" degan edi. Metodlar tizimi fanning umumiyligi metodologiyasiga birlashadi.

Metodologiyani keng ma'noda oladigan bo'lsak, u ma'lum tizimiga ega bo'lgan va bilimlarni izlab topishga qaratilgan, mantiqan ketma-ketlikka ega bo'lgan metodlardir. Ko'pchilik olimlar bu atamani ilmiy metod tushunchasiga mos tarzda tushunadilar va foydalanadilar, metodologiya faqat ilmiy tarzda qabul qilinishi deb takidlaydilar.

**Metodologiya** (yunoncha methodes – bilish, tadqiq qilish, izlanish yo'li, logos – tushuncha, ta'limot) amaliy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari, usullari tizimi hamda ushbu tizim haqidagi talimotdir. **Metodlar** – psixologiyani o'rghanish usullari va yo'llari yig'indisi, "**Metod**" bu bilish, anglash yo'li bo'lib, bu usul orqali fanning predmeti aniqlanadi. (S.L. Rubinshteyn).

**Metodologiya** – uslubiyot deb ilmiy tadqiqot tamoyillari tizimiga aytildi. Aynan, metodologiya to'plangan faktlar bilimning real va ishonchli asosiga qaydarajada xizmat qilishi mumkinligini aniqlaydi.

Rasmiy nuqtai nazardan, metodologiya real hayot haqidagi bilimlar mazmuni bilan bog‘liq bo‘lmay, balki bilimlarni tashkil etish borasidagi jarayonlar bilan ish ko‘radi. Shuning uchun “metodologiya” termini, odatda, tadqiq etilgan protsedura, texnika, usullar majmuini va ma’lumotlar to‘plash, ularni qayta ishlashni anglatadi.

Metodologiyani mohiyatan tushunish tadqiqot predmeti doirasidagi evristik (ya’ni, izlanayotgan) funksiyani amalga oshirish asoslanadi. Har qanday nazariy bilimlar tizimi nafaqat predmet doirasidagi tasvirlash va tushuntirish mazmuniga ega bo‘ladi, balki, bir vaqtning o‘zida yangi bilimlar izlanishida quroq hisoblanadi.

Predmet doirasidagi ob’ektiv hayotni aks ettiruvchi nazariya qanchalik tamoyil va qonunlarni shakllantirsa u shunchalik voqe’likning o‘rganilmagan qirralariga kirish usullarini ko‘rsatadi. Gegelning ta’kidlashicha: “*Har qanday fan amaliy mantiqdir*”.

A.N. Kupriyan nazariyaning 3 ta asosiy metodologik funksiyalarini ajratib ko‘rsatadi: *mo‘ljallangan, bashoratlangan, klassifikatsiyalangan – tasnify. Birinchisi*, tadqiqotchi harakatini ma’lumotlar olishga yo‘naltirsa; *ikkinchisi*, ba’zi maxsus sohalarda o‘ziga xos bog‘liqlikni tiklashga suyanadi; *uchinchisi* esa xususiyat va aloqalarni namoyon qilish yo‘li orqali faktlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

#### **4.2. Psixologiya metodlari**

Har bir fan taraqqiyotining asosiy sharoitlaridan biri uning ma’lum darajada mumkin qadar ob’ektiv, aniq ishonchli uslublarga ega ekanligidir. **Metod** – uslubning ma’nosи biror narsaga borish yo‘li demakdir. Umuman psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilishda metodlarning turli tasnifi mavjuddir. Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi B.G. Ananev mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikasiya qilgan.

B.G. Ananev psixikani o‘rganish metodlarini turli guruhga ajratib, o‘rgangan:

A) taskiliy guruhga – qiyoslash, longityud, kompleks metodlari kiradi;

- B) empirik guruhga – kuzatish, eksperiment, suhbat, so‘rovnama, test, faoliyat mahsulini o‘rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;
- V) natijalarni qayta ishslash yoki statistik metodlar;
- G) sharhslash guruhiga genetik va donalash metodlari kiradi.

B.G. Ananev tomonidan ajratilgan klassifikatsiyaga ko‘ra, tadqiqot ishlarida foydalaniladigan asosiy metodlar empirik guruh metodlari hisoblanadi. Shunday bo‘lsada boshqa guruh metodlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Tadqiqot metodlarining birinchi tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb ataladigan turlarni qamrab oladi.

**Qiyoslash metodidan** umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o‘zaro taqqoslash uchun, tibbiyot psixologiyasida – sog‘lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o‘quvlilagini va ishchanligini o‘zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari shaxs xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirish, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o‘ziga xosligini o‘rganishda qo‘llaniladi. Psixolog olimlardan L.S. Vygotskiy, P.P. Blonskiy, A.A. Smirnov, B.G. Ananev, D.B. Yelkonin, P. Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go‘daklik, ilk bolalik, kichik mакtab yoshi, o‘smirlilik, o‘spirinlik yosh davrlarini o‘zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan.

**Longityud metodining** boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o‘n yillab tekshiriladilar. Longityud metodidan nemis psixologi V. Shtern, fransuz psixologi R. Zazzo, rus psixologlari N.A. Menchinskaya, A.N. Gvozdev, N.S. Leytes, V.S. Muxina va boshqalar ko‘p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima-Zuhra yoki aralash jinsli Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida sub’ektiv omillarning o‘ziga xosligini ob’ektiv shart-sharoitlari va

ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o'xshashligi va tafovuti, ta'sirlanishi, his-tuyg'uni o'zgarishi kishilar o'rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazo) bo'yicha ma'lumotlar olish longityud metodi orqali amalga oshiriladi.

**Kompleks metodi** yordamida o'rganilgan ob'ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai-nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish, uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarini qayta ishslash bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi.

Ilmiy tadqiqot metodlarini sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir.

**Genetik metod** bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif va tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, holatlarga qo'shimcha sharhlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligi ildizi aniqlanadi.

Donalash metodi tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlardagi o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining usuli ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Empirik metodlar guruhi o‘z navbatida ikkiga, ya’ni asosiy va yordamchi metodlarga bo‘linadi. Asosiy metodlarga kuzatish va eksperiment metodlari kirma, yordamchi metodlarga *suhbat*, *so‘rovnoma*, *test*, *sotsiometriya* va *faoliyat mahsulini tahlil qilish* kabi metodlarni kiritish mumkin.

### **4.3. Kuzatish metodi**

Kuzatish metodi – ikki xil bo‘lib, ob’ektiv (tashqi) va sub’ektiv (ichki) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- a) kuzatishning maqsad, vazifasi belgilanadi;
- b) kuzatilayotgan ob’ekt tanlanadi;
- v) tadqiqot o‘tkazish vaqtি rejalashtiriladi;
- g) kuzatish qancha davom etishi qat’ylashtiriladi;
- d) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o‘qish, o‘yin, mehnat, sport) amalga oshirilishi aniqlanadi;
- e) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa) tanlanadi;
- yo) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon) tayyorlab qo‘yiladi. Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, asab tizimining tashqi ifodalari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati kabilar o‘rganiladi. Ammo o‘ta murakkab ichki kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkonini yetmaydi.

Masalan, o‘siprin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg‘usining o‘zgarish xususiyatlari, talabga intilish, o‘z harakatini idora qila olish yuzasidan materiallarni yig‘ish mumkin.

Tashqi kuzatishda ba’zan tafakkur bo‘yicha ham ma’lumotlar olish mumkin. Ish ustidagi kayfiyatni, chehrasidagi tashvish va iztirobni, sinchkovlik kabi ruhiy holatlarni kuzatib, tafakkurdagi o‘zgarishni aniqlash mumkin. Bundan tashkari qo‘lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi ham insonning ruhiyatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha ma’lumotlar beradi. Psixologiyada o‘z-o‘zini kuzatish, ya’ni

interospeksiya metodidan ham foydalaniladi, lekin bu psixologiyaning ilmiy bo‘limgan metodi hisoblanadi.

#### **4.4. Eksperiment metodi**

Tajriba yoki eksperiment metodi – o‘z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy tajriba metodlarining ilmiy asoslarini 1910- yilda rus psixologi A.F. Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o‘rganish maqsadida ushbu metodni qo‘llagan. Tabiiy metoddan ishlab chiqarish jamoalari a’zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o‘qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o‘zgarishlari, o‘zaro munosabatlari, ish qobiliyatları, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish jarayonida foydalanish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o‘rganishdan sinaluvchilarning o‘zlari bexabar bo‘lishi, ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagи odamlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish, kundalik mehnat doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Tabiiy eksperiment metodi sirdan kuzatish metodidan keskin farq qiladi. Sirdan kuzatish metodida biror psixik jarayon kuzatilayotgan kishi o‘sha jarayon qanday yuz bersa, shu holicha tekshiraveradi, lekin bu jarayonning namoyon bo‘lishiga aralashmaydi, ya’ni psixik jarayonni yuzaga keltiruvchi sharoitni o‘zgartirmaydi. Tabiiy eksperiment metodidan foydalanganda esa tekshiruvchi o‘rganilayotgan biror psixik jarayonni o‘zi vujudga keltiradi, lekin uni tekshirilayotgan odam uchun tabiiy bir sharoitda va unga sezdirmasdan o‘tkazadi.

**Laboratoriya (klinika) eksperimenti** metodining (1879-yili V. Vundt kiritgan) asosiy xususiyati, shundan iboratki bunda o‘rganilishi lozim bo‘lgan psixik jarayonlarning (masalan idrok, diqqat, xotira kabi) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o‘tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga soladi. Bundan tashqari laboratoriya eksperimenti sharoitida eksperimentator o‘rganayotgan har bir psixik jarayonni

xohlagan marta, ya’ni takror-takror yaxshilab sinab ko‘rishi mumkin. Bu murakkab psixik jarayonlarning tabiatini o‘rganishda katta qulaylik tug‘diradi. Birinchidan, istalgan psixik jarayonni hohlagan paytda yuzaga keltirish vaqtni tejash imkonini bersa, ikkinchidan har bir psixik jarayonni takror-takror yuzaga keltirib, sinchiklab o‘rganish bu jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi kunda odamdagи ayrim psixik jarayonlarning yuz berish tezligini, diqqatning barqarorligi va kengligini, xotiraning xususiyatlarini ўquv hamda malakalarning qonuniyatlarini aniq va puxta tekshira oladigan ko‘plab maxsus asboblar mavjuddir. Masalan, elektron xronoskop orqali ayrim psixik (aks ettirish, ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri sezgilar kabi) jarayonlarning yuzaga kelish tezligini aniq o‘lchash mumkin. Elektron taxistoskop orqali diqqatning xususiyatlarini belgilash mumkin, perseptometr orqali idrok qilish xususiyatlarini o‘rganish mumkin, audiometr orqali eshitish xususiyatlarini o‘rganish mumkin va boshqalar. Umuman, hozirgi kunda texnikaning ildam taraqqiyoti munosabati bilan laboratoriya eksperimentining imkoniyati ortib bormoqda.

Laboratoriya eksperimenti metodi eng aniq metod sifatida psixologiya fanining taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Lekin laboratoriya eksperiment metodining ham ma’lum kamchiligi mavjud. Bu kamchilik shundan iboratki, laboratoriya sharoitida o‘tkazilayotgan tekshirish hech vaqt ma’lum sun’iylikdan xoli bo‘lmaydi. Tekshirilayotgan odamga hech narsa deyilmasa ham, bari bir laboratoriya sharoitining o‘zi tekshirilayotgan odamning tabiiy psixik holatiga ta’sir qiladi. Binobarin, bu narsa o‘z navbatida tekshirish natijalariga salbiy ta’sir qiladi. Ana shuni nazarda tutib laboratoriya eksperimenti yordami bilan qo‘lga kiritilgan natijalarni ba’zan boshqa metodlar yordami bilan tekshirib ko‘rish lozim bo‘ladi. Laboratoriya eksperimenti metodi maxsus xona va turli asboblar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli bu metoddan ayrim sharoitlarda foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi. Shuning uchun psixologiya fanida laboratoriya eksperimenti bilan bir qatorda tabiiy eksperiment metodidan ham keng foydalaniladi.

#### **4.5. Suhbat- intervyyu**

**Suhbat** metodi bilan inson psixikasini o‘rganishda foydalanildi. Uning maqsadi va vazifasi belgilanadi. Suhbatning ob’ekti va sub’ekti tanlanadi, mavzu o‘tkaziladigan vaqtinani aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o‘tkazish rejalashtiriladi, o‘rganilayotgan narsa bilan bog‘liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi ma’lum bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdag‘i odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, bilim saviyasi, e’tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinadi. Suhbat chog‘ida o‘zaro izchil bog‘langan savollar beriladi.

Suhbat metodidan to‘g‘ri foydalanish va undan kutiladigan natijaga erishish suhbat o‘tkazish uchun puxta tayyorlanishga bog‘liqdir. Suhbat metodi quyidagi shartlarga rioya qilishni talab etadi.

O‘tkazilgan suhbatning mavzusi va mazmuni sinaluvchining taraqqiyot darajasi hamda yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak.

Suhbat paytida sinaluvchilarga berilgan savollar mazmunan yaxshilab o‘ylab olinishi lozim.

Suhbat paytida berilgan savollarga “ha”, “yo‘q” kabi qisqa tarzda emas, balki batafsil javob olishga erishish kerak.

Sinaluvchilar zerikib yoki toliqib qolmasliklari uchun suhbat haddan tashqari cho‘zilib ketmasligi lozim.

Suhbat metodining yuqorida ta’kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Takrorlangan so‘zlar, “g‘aliz” iboralar nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarliligi, muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi sinaluvchida o‘ziga xos ishlash uslubi oshkorlikning yetishmasligi, iymanish, uyalish atroficha ma’lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

**So‘rovnama metodi** – psixologiyada keng qo‘llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdag‘i odamlarning psixologik xususiyatlari narsa

va hodisalarga munosabatlari o‘rganiladi. So‘rovnama odatda 3 xil tuzilishda bo‘ladi. Ularning birinchisi anglangan motivlarni aniqlashga mo‘ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinci xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi turida sinaluvchiga yozilgan to‘g‘ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. So‘rovnomadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o‘ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlashda foydalaniadi.

#### **4.6. Psixodiagnostik metodlar**

Psixodiagnostika metodlari klassifikasiyasi bo‘yicha yondashuvlar ancha keng bo‘lib, ularning har bir masalani o‘ziga xos tarzda yoritishga erishgan.

##### ***Y. Shvansar bo‘yicha metodlar klassifikatsiyasi:***

Y. Shvansar psixodiagnostik metodlarni quyidagi asoslarga ko‘ra birlashtirdi:

1. Foydalanimadigan materiallarga ko‘ra (verbal, neverbal, manipulyatsion, “qog‘oz va qalam”) testlari.
2. Olingan ko‘rsatkichlarning miqdoriga ko‘ra (oddiy va kompleks)
3. “To‘g‘ri” javobli testlar va har xil javobli testlar.
4. Tekshiriluvchilarning psixik faolligiga ko‘ra:
  - introspektiv (tekshiriluvchining shaxsiy tajribasi va munosabatlariga ko‘ra ma’lumotlar): anketalar, suhbat;
  - ekstrospektiv (har xil ko‘rinishlarni kuzatish va baholash);
  - proektiv. Tekshiriluvchi shaxsning anglashilmagan xususiyatlarini kam strukturalashgan, har xil ahamiyatli stimullarni proeksiyalaydi (ichki nizolar, yashirin mayllar va boshqalar);
  - ijrochilik. Tekshiriluvchi shaxs xislatlari va intellekt ko‘rsatkichlaridan iborat miqdoriy darajalar va sifatiy xususiyatlarni biror bir harakat orqali (perseptiv, aqliy, motor) amalga oshiradi.

##### ***V.K. Gayda va V.P. Zaxarovning psixodiagnostik metodlari klassifikatsiyasi:***

Mualliflar klassifikatsiyalarida psixodiagnostik metodikalarni quyidagi asoslar bo‘yicha birlashtirganlar:

1. Sifatiga ko‘ra: standartlashtirilgan , standartlashmagan.
2. Belgilanishiga ko‘ra:
  - ❖ umumdiagnostik (so‘rovnama tipidagi shaxslik testlari (R.Kettell yoki G. Ayzenk so‘rovnomalari), umumiyl intellekt testlar);
  - ❖ kasbga yaroqlilik testlari;
  - ❖ maxsus qobiliyat testlari (texnik, musiqiy, uchuvchilar uchun testlar);
  - ❖ yerishganlik testlar;
  - ❖ tekshirilichuvlarning o‘rganish materialiga ko‘ra:
    - ❖ blankli;
    - ❖ predmetli (Koss kubiklari, Vekslerning to‘plamidan “figurani yig‘ish”);
    - ❖ apparaturali (diqqat xususiyatlarini o‘rganish uchun moslama va boshqalar);
3. Tekshiriluvchilarning miqdoriga ko‘ra: individual va guruhiy.
4. Javoblar shakliga ko‘ra: og‘zaki va yozma.
5. Yetakchi yo‘nalishiga ko‘ra: tezlik testlari, kuchni o‘rganish testlari, aralash testlar. Kuch testlarining vazifalari murakkab va yechish vaqtি cheklanmagan; tadqiqotshi muvaffaqiyat sifatida qiziqadi, masalalarni yechish usullariga ham qiziqadi.
6. Topshiriqlarni bir xillik darajasiga ko‘ra: gomogen va geterogen (gomogen topshiriqlar bir biriga o‘xashashligi hamda shaxslilik va intellektual xususiyatlarni o‘lchashda qo‘llanilishi; geterogen testlarning topshiriqlari har xil bo‘lib, intellektning turli xil xarakteristikasini o‘rganishi bilan tafovutlanadi).
7. Kompleksligiga ko‘ra: ajratib qo‘yilgan testlar va test to‘plamlari (batareyalar).
8. Topshiriqlarning javobiga ko‘ra: javoblari bilan berilgan testlar, erkin javobli testlar.
9. Psixika xususiyatlarini qamrab olish sohasiga ko‘ra: shaxslik testlari va intellektual testlar.
10. Aqliy harakatlarning xarakteriga ko‘ra: verbal, noverbal.

**A.A. Bodalev, V.V. Stolinlar bo'yicha psixodiagnostika metodlari klassifikasiyasи**

Mualliflar psixodiagnostika metodlarini turli xil asoslar bo'yicha birlashtirdilar:

1. Ushbu usulning asosiga to'rgan metodik prinsipning xarakteriga ko'ra:
  - ob'ektiv testlar (topshiriqni to'g'ri bajarilishiga ko'ra to'g'ri javob berish imkoniyatli);
  - standartlashgan o'zini-o'zi baholash (hisobotlash);
  - test-so'rovnomalar, ochiq so'rovnomalar;
  - shkalali texnikalar (Ch. Osgudning semantik differensial so'rovnomasи), sub'ektiv klassifikasiya;
  - rolli repertuar texnika tipining individual- yo'naltirilgan texnikalar (ideografik);
  - proaktiv texnikalar;
  - dialogik texnikalar (suhbat, intervyu, diagnostik o'yinlar).

Psixodiagnostning diagnostik proseduraga jalb etish me'yoriga va uning psixodiagnostika natijalariga ta'siri darajasiga ko'ra:

ob'ektiv va dialogik.

Birinchisi psixodiagnostning diagnostik proseduralarda, natijalarni qayta ishslash va talqin etishda jalb etilish darajasi past, ikkinchisida jalb etilish darajasi yuqoridir. Jalb etish me'yori eksperimentatorning shaxsi, kasbiy malakalari, tajribasining ta'sirini va uning diagnostik jarayondagi boshqa xususiiyatlarini tavsiflaydi.

Quyida psixodiagnostik metodlarning ob'ektivlik qutbidan dialogik qutbgacha bo'lgan kontiniumiga joylashgan shkalasi keltirilgan:

OB'EKTIVLAR	DIALOGIKLAR
test	suhbat
ko‘pgina so‘rovnomalar shkalali	intervyu
texnikalar	diagnostik o‘yinlar
	patopsixologik eksperiment
	bir qator proaktiv metodikalar

#### 4.7. Proaktiv metodikalar tavsifi

Proaktiv testlar (oldinlab, ilgarilab namoyon etish ma’nosini bildiradi): proeksiya natijalarini psixologik talqin qilishga asoslangan shaxsni yaxlit o‘rganishga qaratil-gan metodlar majmuasi proaktiv testlar deyiladi. Psixologik himoyalanishdan tashqari, favquloddagi vaziyatda individualligini o‘ziga xos namoyish etish kabilarda mujassamlashadi. Bunday testlar turkumi assotsiativ (tugallanmagan gaplar yoki hikoya), ekspressiv (psixodrama, o‘yinlar, ishbilarmandlik o‘yinlari, sostrening, erkin mavzuda rasm chizish) turlariga ajratiladi. Shaxsning ichki dunyosi mohiyatini sub’ektning shaxsan o‘zi to‘laroq namoyish etishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, testlar qatoriga yutuqqa (maqsadga) erishish testlari (ular darsliklarda berilgan bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (akliy taraqqiyot daraja-sini o‘lchashga mo‘ljallangan), shaxslilik testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va hulqini baholashga yo‘naltirilgan diagnostik metodlardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proaktiv) testlari (savollarga bitta aniqjavob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib, shaxs xususiyatlarining «loyihasi» ishlab chiqiladi), qobiliyat testlari, xotira testlari kiradi.

Endi testga ayrim misollar keltiramiz.

Ortiqcha so‘zni chiqarib tashlang:

A) Yenisey, Dnepr, Sirdaryo, Amur (javob: Dnepr - u Yevropada joylashgan);

B) Petrozavodsk, Ijevsk, Siktivkar, Abakan (javob: Abakan - u Osiyoda joylashgan).

#### **4.8. Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi**

Psixologik testlar va shaxs so‘rovnomlaridan foydalanishda ularning yutuq va kamchiliklari to‘g‘risida yaqqol tasavvurga ega bo‘lish mutaxassis faoliyati samaradorligini ta’minlashning muhim shartlari hisoblanadi.

Psixologik testlarning qadr-qimmati quyidagi sifatlari bilan belgilanadi:

1. *Testni tadbiq etish sharoitlari va ularning natijalarini standartlashtirilganligi.*
2. *Test metodikalarni o‘tkazishda foydalanuvchilarning ma’lumotlik darajasiga bog‘liq bo‘lmagan holda tayyorlab qo‘yish mumkin.* Bu esa test batareyalari bo‘yicha kompleks xulosalar tayyorlashda yuqori malakali psixologni jalg etish kerak emas, degan ma’noni bermaydi;
3. *Operativlik va tejamkorlik.* Tipik testlar qisqa topshiriqli seriyalardan tashkil topadi. Ularni bajarish uchun esa juda kam vaqt ni oladigan bo‘ladi va odatda testlar bir soatdan oshib ketmaydi. Ba’zi shaxslilik testlari bunday chegaradan chetga chiqishiga ham to‘g‘ri keladi.
4. *Baholarning miqdoriy differensiallashgan xarakterga egaligi.* Test shkalalari va standartlashganlik uning aniqlovchi instrumenti sanaladi, hamda o‘lchanayotgan xususiyatni miqdoriy baholash imkonini beradi (bilim, ko‘nikma, malaka). Yaxshi test o‘quvchilarni uch toifaga ajratib beradi. A’lochi, o‘rta va qoloq. Qutbli xarakterda esa qobiliyatli va talantli, ishonchlilikning yo‘qligi bilan o‘ta ishonchsizlik (mutlaqo tayyor emaslikni) ajratishga olib keladi. Bundan tashqari test natijalarining miqdoriy testlarning yaxshi ishlab chiqilganligi imkoniyatlarini baholab beradi.
5. *Optimal maqbul murakkablik.* Professional tarzda tayyorlangan test topshiriqlari optimal murakkablikka ega bo‘ladi. Bunda o‘rta sinaluvchi maksimal

miqdordagi ballning 50 foizini to‘play olishi kerak. Bu dastlabki, psixometrik eksperiment vaqtida aniqlanadi.

6. *Ishonchlilik.*

7. *Adolatlilik.* Yaxshi test barcha tekshiriluvchilar uchun bir xil shart-sharoit qo‘yiladi.

8. *Kompyuterlashtirish imkoniyati.* Ommaviy test tadbirlarini o‘tkazishda uning natijalarini qayta ishslash va vaqt tejamkorligini oshirishga yordam beradi. Testlarni kompyuterlashtirish axborot xavfsizligini ta’minlashning eng maqbul yo‘li sanaladi.

9. *Psixologik adekvatlik.* Bu optimal murakkabligini muhim psixologik sababi hisoblanadi. M: Stressga chidamlilik.

***Testlarni qadr-qimmati bilan bir qatorda ularning kamchiliklarini ham sanab o‘tish lozim bo‘ladi.***

1. «*Ko‘r-ko‘rona*» xatoga yo‘l qo‘yish xavfi. Yuqori ma’lumotli bo‘lmagan mutaxassislarga ishonib qo‘yish, ya’ni testlarni avtomatik tarzda ishlatish ba’zida bir qator oqibatlarga olib kelishi mumkin. M: Yo‘riqnomalarni tushunmasdan javob berishga to‘g‘ri kelib qolishi.

2. *Profanatsiya xavfi.* Bu so‘zning ma’nosini ifodalashda hosil bo‘ladigan effekt. Masalan, mutaxassislar saralash sharoitida MMPIni qo‘llaganda, testning sakkizinch shkalasidagi maksimal ball «Shizofreniya»ni aniqlashga mo‘ljallangan. Bu original tafakkurni baholovchi tushuncha sanaladi. To‘rtinchi shkalada «psixopatiya-impulsivlik» tarzda ifodalangan. Testning savollari sog‘lom shaxsni ancha tahlikaga solib qo‘yadi.

3. *Individual yondashuvning yo‘qligi* (Stressga chidamlilik). Test yoppasiga o‘tkazishga ancha qo‘l kelganligi sababli, unda individual xarakterdagi jihatlar e’tibordan chetda ham qolib ketadi.

4. *Ishonchlilik sharoitlarining bo‘lmasligi.* Test proseduralarining rasmiylik xarakteriga ega ekanligi, psixologni uning muammosiga shaxsan qiziqishiga nisbatan ishonchsizlikni olib keladi.

5. *Noadekvat murakkablik individual yondashuvning yo‘qolishi.* Ba’zan yuqori ma’lumotli darajasida tuzilmagan testlarda haddan ortiq murakkablik yosh xususiyatlariga ta’sir etadi.

**Nazorat savollari:**

1. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o‘rni.
2. Psixologiyada metod va metodologiyaning o‘zaro aloqadorligi.
3. Psixologiya metodlari to‘g‘risida umumiyl tushuncha.
4. Kuzatish metodi va uning variantlari.
5. Eksperiment metodining ijobiy va salbiy tomonlari.
6. Suhbat- intervyyu metodining ahamiyati.
7. Psixodiagnostik metodlar va ularga tasnif.
8. Test metodining bugungi imkonitlari.
9. Proaktiv metodikalar tavsifi.
10. Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi.

## **V BOB. PSIXOLOG FAOLIYATINI NAZORAT QILUVCHI AXLOQIY ME'YORLARI VA ETIK TAMOYILLAR**

**Tayanch tushunchalar:** *xodimlarni tanlash va uning psixologik imkoniyatlari, kasbiy yo‘nalishlar, qaror chiqarish, kasbiy vakolat, ijtimoiy tarbiya, diagnostik va korreksion faoliyat, psixologik tadqiqotning maqsadi va mohiyati, pedagogik kengash, pedagogik odob, psixolog statusi, psixologik xizmat.*

### **5.1. Psixologning majburiyatlari, maqsad va vazifalari (tadqiqotchi, amaliyotchi, o‘qituvchi)**

Mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini taminlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi O‘zbekiston psixologlari oldiga amaliy psixologiya bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas’uliyatini yukladi:

- aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish;
- har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimi O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologik tamoyillariga moslashtirilgan eng ilg‘or testlar, metodikalar, asosida o‘rganish, tahlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish;
- xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo‘naltirishda ma’muriy tashkilotlarga ko‘maklashish, shuningdek barcha bo‘limdagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot talabiga mos psixologik savodxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli “ijtimoiy psixologiya” kurslarini tashkil etish;
- fuqarolarning kasbiy yo‘nalishlarini aniqlash va mehnat birjalari faoliyatini rejashtirishda faol yordam ko‘rsatish.

*Amaliyotchi psixologning faoliyatidagi vazifalar quydagilarni o‘z ichiga  
oladi:*

1. Psixolog o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hukumatining xalq ta’limi sohasi bo‘yicha qabul qilingan normativ va instruktiv hujjatlariga amal qilgan holda amalga oshirishi shart.
2. Oliy o‘quv yurtining psixologiya sohasini bitirganligini yoki amaliyotchi psixologlar tayyorlovchi qisqa muddatli (qo‘sishimcha mutaxasislik beruvchi) maxsus kurslarni (kamida 1000 soatlik) bitirib, psixolog mutaxassisligini olganligini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo‘lishi kerak.
3. Psixologiya fanining eng so‘nggi yutuqlardan xabardor bo‘lishi, bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiyani, amaliy psixologiyani chuqur bilish shart. Diagnostik, psixoprofilaktik, rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarining hozirgi zamon ilmiy asoslangan metodlari bilan qurollanishi, xalq ta’lim tizimida doimo o‘z malakasini oshirib borishi kerak.
4. Muomolarni muhokama qilishda va qaror chiqarishdan kasbiy vakolat chegarasidan aslo chiqmaslik kerak.
5. Shu sohaning mas’ul mutaxasislari tomonidan ishlab chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda ko‘rsatmalar va tavsiyalarni qat’iy bajarish shart.
6. Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o‘quvchi manfaatidan, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.
7. Olingan ma’lumotlar sinaluvchining shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a’zolari tahlikaga tushmasliklari uchun diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash.
8. Ma’muriyat o‘qituvchilar ota-onalar bilan uzviy aloqada faoliyat ko‘rsatish.
9. Bog‘chada, mактабда o‘tkaziladigan tadqiqot maqsadi mohiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedagogik kengash, ma’muriyatga ma’lumot berish maqsadga muvofiq.
10. Ma’muriyatga, pedagogik kengashga o‘quvchilarga individual yondashishni ta’minlovchi imkoniyat, ularni hal qilishning psixologik shartlari, ta’lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olishning omillari, yo’llari yuzasidan zarur yordam ko‘rsatish.

11. Bolalar va o‘quvchilarning alohida muamolarini hal qilishda yordam berish.
12. Ota-onalarni tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda maslahatlar berish, muayyan holatlarini birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.
13. Ota-onalarga farzandlarining tibbiy yordamga muhtojligi yoki boshqa muassasalarga murojat qilish lozim ekanligini yuksak pedagogik odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko‘rsatmalarga ularni ishontirish.
14. Barcha qoidalarga va tasdiqlangan hujjatlarga rivoja qilgan holda o‘tkaziladigan barcha ishlarni qayd qilish va belgilash.
15. O‘z faoliyatini natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o‘z muddatida axbarot berish, qabul qilingan hisobot shakllariga hech og‘ishmasdan rivoja qilish.
16. Barcha maktablarda maxsus talablarga javob beradigan darajada jihozlangan psixologik xizmat xonasi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir .
17. Amaliy psixologlar seminarlari, anjumanlarida faol ishtirok etish.
18. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ijtimoiy psixologik axloq-odob qoidalariga zid bo‘lgan tekshirishlar o‘tkazmaslik.
19. Bolalar, o‘quvchilarni tanlash komissiyasida ishtirok etish.
20. Ijtimoiy psixologik holatlarni o‘rganishda mahalliy hokimiyatga yordam berish va ommaviy barqarorlashtirishda oldingi safda bo‘lish.

## **5.2. Psixolog faoliyatini etik muammosi, kasbiy me’yorlarning o‘ziga xosligi**

Amaliy psixolog statusiga ega bo‘lishni istagan insonna bir qator talablar qo‘yiladi ularning birinchisi u oliv ma’lumotli psixolog bo‘lishi zarur. Bunday diplom oliv o‘quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan habardor bo‘lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan habardor bo‘lishi lozim. Amaliy psixolog albatta hamma

sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo‘ladi va shu bilan birga u hammaga hamdard bo‘la oladigan inson bo‘lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotgan albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta’minlashi zarur bo‘ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishslash vaqtida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o‘ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo‘ladi. U o‘zida ishonch uyg‘ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza olishi zarur bo‘ladi. Demak bo‘lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o‘z ma’naviy qadriyatlari ega bo‘lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin momalada bo‘lishi talab qilinadi. Ularning axloqiy jihatlari quydagilarni hisobga olishi kerak:

1. Professional faoliyatda amaliy psixolog albatta hamma uchun mas’uliyatli bo‘lishi zarur.
2. Amaliy psixolog o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozim, u atrofdagilarning so‘zlariga qarab o‘zgarmasligi zarur.
3. Psixologning vazifasi mustaqil va avtonom tarkibga ega, u hech kimga bo‘ysunmaydi. Uning psixologik nuqtai nazardagi qarori yakuniy natijaga ega bo‘lishi zarur.
4. Psixologning qarorini inkor qilish huquqiga faqat maxsus komissiya ega ular yuqori malakali mutaxassislar hisoblanib ularga bunday huquqlar berilgan.
5. Psixolog haqqoniy va samimiyligi bo‘lishi zarur.
6. Unda kasbiy mas’uliyat hissi bo‘lishi lozim.
7. Psixolog himoyachi sifatida ham ishtirok etishi mumkin, u o‘z mijozlarining psixologik holatlarini himoya qiladi.

8. U psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirayotgan vaqtida ehtiyotkor bo‘lishi zarur.

9. Agar psixolog mijozining haq- huquqlar poymol qilinayotgan bo‘lsa, u buni yuqori tashkilotlarga yetkazish imkoniyatiga egadir.

10. U siyosiy g‘oyalardan, ijtimoiy g‘oyalardan, falsafiy fikrlardan xoli bo‘lishi zarur.

11. Amaliy psixolog psixodiagnostik, psixokorreksion, psixterapevtik natijalarini mutaxassis bo‘lmaganlarga ko‘rsatish huquqiga ega emas.

12. U insonlarga zarar ko‘rsatadigan holatlardan uzoqroq bo‘lishi talab qilinadi.

13. Psixolog o‘zining qila olmaydigan ishlari haqida mijozga va’da bermasligi kerak.

14. Psixolog ota-onaga, yoki yuqori mansabdagi insonlarga mijoz haqida tafsilotlarni bermasligi zarur.

15. U o‘rganilmagan metodikalarni mijozlarida qo‘llash huquqidani mahrummdir.

16. Psixolog albatta sir saqlashni bilishi zarur, u mijozining sirini xech kimga aytmasligi zarur.

17. Psixologik maslahatda albatta o‘z me’yorlariga amal qilishi talab qilinadi.

18. Agar psixolog shu me’yorlarni buzsa albatta uning hatti-harakatlari amaliy psixologlar kollegiyasida ko‘rib chiqiladi va tegishli jazo qo‘llaniladi.

### **5.3. Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional turg‘unlik(stagnatsiya)**

Hozirgi kunda shaxsga sub’ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun: odam- inson- shaxs-individuallik- sub’ekt-komillik ierarxiyasiga rioya qilish; -shaxsga sub’ektiv munosabat, yani unda robot sifatida barcha xususiyatlarini bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, "sub’ekt-sub’ekt" aloqasini vujudga keltirish;

-har qanday sub'ekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs sub'ekt emasligi muammosini yechish;

-shaxs sub'ekt bo'lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozisiya, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish" kabi muammolarning bartaraf etilishi shaxsning ijtimoiy munosabatlar majmuasini kamol toptirishga xizmat qilishi tayin. Zero, inson munosabatlari uning xulq - atvorida ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhim boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. (V.N. Myasishev-1957). Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan psixologik himoyalanish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Demak, munosabat psixologiyasi bo'yicha qayd etilgan yuqoridagi mulohazalarning o'ziga xos metodologik asoslari (tadqiqotlar)."Munosabatlar tizimini" psixologik xizmat jarayonida jiddiy o'rghanish va uni har bir shaxsda takomillashtirish lozim bo'lgan ijtimoiy psixologik muxofaza omili (ko'rsatkichlari) sifatida amaliy jihatdan tadqiq qilishga da'vat etadi. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining 2-yo'nalishiga individual-tipologik xususiyatlarga asoslangan harakatlarning namoyon bo'lishi kiradi. Chunki, har bir inson u yoki bu ijtimoiy topshiriqni bajarar ekan, avvalo ushbu topshiriqni qanchalik tez, oson va sifatli qilib bajarish imkoniyatiga ega bo'lsagina mazkur topshiriq shaxs kamolotiga xizmat qila olishi mumkin. Mazkur yo'nalishdagi psixologik muhofazaning mohiyati shundaki, har bir shaxsning faoliyatga nisbatan keragidan bir necha barobar ortiq kuch sarflashga va osongina turli muvaffaqiyatsizliklarga uchramaslikka qarshi o'laroq shaxs istiqbolini ko'zlashga qaratilgan tadqiqotlar va tadbirlar ko'lami oldindan belgilanadi. amaliy jarayon bilan bog'liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining uchinchi yo'nalishi esa faoliyatga nisbatan faol ijobiy munosabatning tarkib topishi va namoyon bo'lishidir. Bunda shaxsning faoliyatdan qoniqishi, xulq-atvoridaagi motivatsion tizimning ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan boshqaruvchilikka taalluqli sifatlarini yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi. Zero, har jihatdan ijtimoiy faollikka xizmat qiluvchi sifatlar namoyon etilmagan joyda

shaxs va jamiyat uyg‘unligining ta’minlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha imkoniyatlar qo‘ldan boy beriladi. Vaholangki, bunday "imkoniyatlar"ni hamisha "muhofaza" qilish nafaqat ijtimoiy tashkilotlarning, balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan mazkur fikr- mulohazalar psixologiya fanining quyidagi amaliy- tatbiqiy yo‘nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

1. Amaliyotchi psixolog har bir shaxsning faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim.
2. Amaliyotchi psixolog shaxsning faoliyat jarayonidagi o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatga bo‘lgan munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog‘liq izlanishlar ko‘lamini o‘z ichiga oladi.
3. Amaliyotchi psixolog jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy muhim ko‘rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustakovkaning qaror toptirilishini o‘rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.
4. Amaliyotchi psixolog ijtimoiy jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma’lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Psixologiyada etnik muammolarning qayta ko‘rib chiqilishi shartlari.
2. Psixologiyada ilmiy-tadqiqotlar olib borishdagi etnopsixologik imkoniyatlarning o‘rni.
3. Psixolog faoliyatining muhim etnik tamoyillari nimalardan iborat?
4. Psixolog faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar qanday ahamiyatga ega?
5. Amaliyotchi psixologning vazifalari.

6. Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional stagnatsiya.
7. Psixolog shaxsning faoliyat jarayonidagi muammolar.
8. Amaliyotchi psixologiya jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy muhim ko‘rsatkichlarning tahlili.
9. Amaliyotchi psixolog ijtimoiy jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi.
10. Amaliyotchi psixologning burchlari.

## GLOSSARY

**Adaptatsiya** (lot. adaptaro—moslashmok) sezgi a'zolari (analizatorlar) ning ta'sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi A. xodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta'sirdan kuchsiz ta'sirga o'tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta'sir kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. A.qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. U fiziologik, ijtimoiy – psixologik va kasbiy moslashishga bo'linadi.

**Anesteziya** (yunon anaesthesia –sezgisizlik, sezmaslik)—nerv tizimining kasallanishi oqibatida sezgirlikning yo'qolishi.

**Asteniya** (yunon. asthenea-xolsizlik) kuchli toliqish, sezgirlikning susayishi, kayfiyatning beqarorligi, uyquning buzilishi bilan ifodalanuvchi ruhan sustlik, ojizlik xolati. Unga uzoq muddat spirtli ichimlik ichish natijasida xosil buladigan ruhiy sustlik misol buladi.

**Attraksiya** – (fran.attraktion –qiziqmok, intilmok)- kishini boshqa kishi tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi tushuncha, ya'ni bir kishini ko'rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

**Audometr**-(lot.audire-eshitmok, yunon.metrio- ulchayman) eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan asbob.

**Agglyutinatiya** (lot.agglutinare –yopishtirmok) bir necha narsalarning ayrim xar xil qismlarini olib birlashtirilib, yangi narsa va xodisalarning obrazlariga yaratilgan iborat xayol faoliyati.Mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga «yopishtirib» qo'shish asosida yuzaga keladi. Mas. suv parisi obrazi.

**Antipatiya** (yunon. antipotheia-ko'ngilsizlik, xushlamaslik, yoktirmaslik) - biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatdan kelib chikadigan va uni ifodalaydigan yokimsiz hissiyot.

**Apatiya**- charchash, og'ir his-tuyg'u yoki kasallik oqibatida qiziqishning so'nishi, atrofdagilarga nisbatan befarq bo'lish, ma'yuslik kabi ruhiy holatlar.

**Affekt-** (lot. affektus –ruhiy xayajon, ehtiros)-kuchli, tez va jo‘shkin kechuvchi, nisbatan qisqa muddatli, his-xayajonli, irodaviy nazorat yo‘qotilgan ruhiy xolat.

**Afaziya-** (yunon.a –i. yuk. phasia-nutq)- eshitish a’zolarining sog‘lom bo‘lgani xolda nutq faoliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlari pustlogining shikastlanishi natijasida paydo buladi.

**Bevosita esga tushirish-** narsa va xodisalar, fikrlar, xarakatlarni idrok kilgandan keyinok, oradan vakt utkazmay,esga tushurishdan iborat xotira protsessi.

**Gallyusinatsiya-**(lot.hallucinatio-alaxlash, bosinkirash)-sezgi aldanishi yo‘q narsani bor deb idrok etish. Odatda muayyan tashqi ta’sirlarsiz vujudga keladi. Asosan, ko‘rish, eshitish galllyusinatsiyalari mavjud. U psixik kasallarda uchraydi. Real voqeilikdagi narsa va xodisalarning analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bulishi.

**Deduksiya-** (lot.deductio-keltirib chiqarmok) bilish jarayonida umumiylardan xususiy xukmlarga utish orkali mantikiy xulosa chiqaruchi tafakkur turi.

**Diqqat**-individning hissiy,aqliy va xarakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini takozo etadigan tarzda ongning yo‘naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligi. Diqqat ongning bir nuqtaga to‘planib,muayyan bir ob’ektga faol qaratilishidir. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatlar mavjud.

**Diqqatning barqarorligi** – diqqatni uzoq vakt bir ob’ektga muttasil, kuchli qarata olishdan iborat ijobiy xususiyati.

**Diqqatning ko‘lami**-bir vaktning uzida diqqatning bir qancha ob’ektga qaratilishi imkoniyati.

**Diqqatning to‘planganligi**-diqqatning muayyan ob’ektlar doirasida tez xamda kuchli to‘plana olishdan iborat xususiyati.

**Diqqatning taqsimlanishi** – bir paytning uzida diqqatning bir necha ob’ektlarga yoki faoliyatga qarata olish imkoniyati.

**Diqqatning ko‘chuvchanligi**-faoliyat protsessida diqqatning ongli ravishda bir ob’ektdan ikkinchi ob’ektga kuchirilishi.

**Ixtiyoriy diqqat**-ongimizning ob'ektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilsa-da, uning ustida ma'lum vakt barkaror xolda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi.

**Ixtiyorsiz diqqat** – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat diqqat turi.

**Parishonxotirlik**- kishining maqsadga qaratilgan, yo'naltirilgan faoliyatining funksional yoki organik buzulishi, diqqatni ma'lum ob'ektga qarata olmaslik.

**Zavklanish**- biror-bir mufakkiyatli ijodiy ishni ko'rish, eshitish, yoki sezish orkali paydo buladigan ruhiy xolat.

**Instinkt** (lot.instinctus-ichki mayl, intilish)-organizmning tashqi yoki ichki ta'sirotlar natijasida paydo buladigan murakkab tug'ma xarakatlari majmui, murakkab shartsiz refleks (ovkatlanish,ximoyalanish,jinsiy instinkt va b.). Odamda instinkt uning ongi bilan boshqariladi.

**Idrok-sezgi** a'zolariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi narsa va xodisalarning kishi ongida yaxlit xolda psixik aks etirishdan iborat psixik jarayon.

**Idrok aniqligi**- idrok obrazlarini idrok qilinayotgan narsalarga qanchalik muvofik kelish darajasi.

**Idrokning konstantligi**-(lot.constantis-o'zgarmas, doimiy)-idrok qilinayotgan narsalarning o'lchami, shakli va rangi ungacha bo'lgan masofani o'zgartirganda xam nisbatan turgunlik xolatining o'zgarmasligi.

**Idroklik**-idrokning tulikligi, aniqligi va tezligi kabi ijobiy xususiyatlardan tashkil topgan akl sifati, zexn tezligi.

**Idrok tezligi**- idrok qilinayotgan narsaning sezgi a'zolariga ta'sir kila boshlagan paytdan to bu narsaning obrazini anglab olgunimizgacha o'tgan vakt.

**Illyuziya** (lot.illusio-aldash)- borliqning, voqelikning noto'g'ri idrok etilishi, idrokning chalgishi. Sezgi a'zolari takomillashganmaganligi natijasidagi qo'rquv.

**Induksiya**-(lot. industio- keltirib chiqarish) juz'iy yoki yakka xollarda umumiyya, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur formasi.

**Iste'dod**- shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon buladigan tug'ma layokatlari yoki boshqacha aytganda shaxsning tabiiy va muayyan ijtimoiy muxit ta'sirida erishgan noyob hislatlari. Biror sohada yuksak darajadagi qobiliyat.

**Iste'dodli bolalar**—uzini umumiyy yoki maxsus iste'dodini namoyon kilgan bolalar. Iste'dodli bolaning aqliy rivojlanishini tashxis qilinib aniqlanadi.

**Ixtiyoriy esda olib qolish**-maxsus mnemik xarakatlar, ya'ni asosiy maqsad esda olib qolishdan iborat bo'lgan xarakatlar mahsuli.

**Ixtiyorsiz xotira**- biror narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bulmagan xolda esda olib qolish va qayta esga tushirish

**Iroda** – kishining uz oldiga kuyilgan maqsadlarga erishishi uchun kiyinchiliklarni yengib utishiga qaratilgan faoliyati va xulk -atvorini ongli ravishda tashkil kilishi va o'zini –o'zi boshqarishidir.

**Istak**- intilishning maqsadi aniq bulmagan xolat. Bu maqsadga erishuvning yuli va vositalarini to'la anglab yetmaslikdan iborat irodaviy xolat.

**Ishonchlik**-ob'ektiv voqeilikdagi narsa va xodisalarni fikran to'g'ri, shak-shubxasiz aks ettirishdan iborat mantikiy kategoriya.

**Ishontirish**-shaxsga muayyan ta'sir utkazish;buning natijasida kishi irodasi va ongidan qat'iy nazar, unda muayyan xolat, hissiyot, munosabat vujudga keltiriladi.

**Individuallik**-muayyan shaxsning boshqa shaxslardan ajratib turuvchi, shaxsning uziga xos hislatlari.

**Kayfiyat**-inson his-tuyg'usining yaxlit shakli, kechinmalarining umumiyy xolati. Kayfiyat doirasi xar hil; u insonning umumiyy kechinmalaridan to'zerikish, qo'rquv, xafalik yoki quvnoqlik, umid va qiziqish kabilargacha bo'lgan barcha shakllarni uz ichiga oladi.

**Kinestezik sezgi** (yunon.kineo-xarakatta keltirmok)- proprioretseptorlar kuzgalishi natijasida uz tana a'zolari xarakati va xolatini sezish.

**Ko'ruv sezgisi** –ko'ruv analizatori bevosita ta'sir etib turgan ranglar va yorug'likni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Kuzatish-** shaxsni qiziqtirgan narsalar va tevarak atrofidagi xodisalarni bilish uchun maqsadli va rejali tarzda idrok etish .

**Kuzatish metodi**-faoliyat mahsulini tahlil etish, erkin tavsifnomalarni umumlashtirish usuli.

**Layokat** –individning ma'lum faoliyatning bajarishga undovchi saylanma yo'nalganligi. Nerv tizimining ba'zi irsiy determinlashgan anatom-fiziologik xususiyati.

**Longityud** tadqiqot- (ing.longitude-uzoq muddat) insonning yosh va individual o'zgarishlar ko'lamini o'rganish maqsadida yashash davri fazalari o'zgarmas bo'lgan guruhnini uzoq va uzlusiz tekshirish usuli.

**Lyusher testi-** ruhiy xolatni aniqlovchi rangli test.

**Metod** (yunon.methodos-tadqiqot,tekshirish)-bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

**Mexanik xotira-** (yunon.mechane-kurol,mashina)- muayyan material ma'nosini, mazmunini, ichki moxiyatini, ichki mantikiy bog'lanishlariga tushunmagan xolda takrorlashga asoslangan xotira turi.

**Model** (fr.modele-namuna)- ilmiy tadqiqotlarni tuzish, ishga tadbik etish, idrok etishga qaratilgan tuzilma.

**Mexnatsevarlik** – insonning mexnat faoliyati jarayoniga ijobiy shaxsiy munosabatidan iborat bo'lgan xarakter xususiyati.

**Melanxoliya** (yunon.melas-kora, chole-ut,safro)-temperament turlaridan psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchilik, xatto arzimagan narsalar uchun xam juda chuqr ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

**Melonxolik-** Gippokrat ta'limotiga ko'ra, temperamentning bir turi. Yuksak darajadagi ta'sirchanlik va hissiyotning zoxiran nisbatan sust ifodalanganligi.

**Maza sezgilari**- suvda yoki sulakda erigan moddalarning ta'mini aks ettirishdan iborat sezgi turi.Tilning yuza qismi va yumshok tanglay m.s. ning organidir.

**Orzu**- shaxsning uzi uchun yokimli bo'lgan istikbol obrazlarini ongida yaratishdan iborat xayol turi.

**Oltinchi sezgi**- oadamdag'i asosiy besh sezgidan tashqari xar xil xolatlarda namoyon buladigan sezgi.

**Obrazli xotira** -tasavvur, tabiat va xayot manzaralarini, shuningdek, tovush, hid, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat bo'lgan xotira.

**Operativ xotira** (lot.operatio-xarakat)- xotira turi. Kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan zaruriy xatti-xarakatlar, shularga xizmat kiluvchi mnemik jarayonlar.

**Proprioretseptiv sezgilar** (lot.proprius-xususiy,maxsus, recipere-qabul kilmok) tana turli qismlari, xolatlari va ularning xarakatlari haqida darak beruvchi sezgilar.

**Proektiv metod** (lot.projektus-oldinga tashlangan, yunon.methodos-tadqiqot)-shaxsni tadqiq kilish metodlaridan biri. Bu metodda mas. tajriba vaziyatlarida tasvirlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

**Psixodiagnostika** (yunon. diagnostikos-bilishga qodir)- shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va ularni o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli

**Psixologik test**-qisqa muddatli, yozma savolli topshiriq bo'lib u orqali kishilar qobiliyati, ko'nikma, bilim va malakalari, kasbga layoqati va shu kabilar aniqlanadi.

**Psixologiya metodlari**-psixik xodisalar va ularning qonuniyatlarini o'rGANADI. Mas. Kuzatish, tajriba, lab-ya tajriba, tabiiy kuzatuv, o'z-o'zini kuzatish, biografiya.

**Psixologik tadqiqot usuli**-u 4 bosqichga bo'linadi. 1.Tayyorgarlik bosqichi.  
2. Tajriba-sinov bosqichi. 3.Tadqiqotga ishlov berish.

4.Olingen natijalarni izoxlash bosqichi.

**Psixologik metodikalar**- jamoa yoki alohida kishini psixologik o‘rganish maqsadida tuzilgan savollar to‘plami.

**Psixologik tahlil**-inson psixik faoliyatining psixologik shart-sharoitlari va tarkibini olib berishdan iborat ilmiy-tekshirish metodlaridan biri.

**Psixik jarayonlar** -bu faoliyatning hozir ta’sir etadigan (sezgi, idrok) yeki kachonlardir yuz bergen kuzgatuvchiga javob tarikasida ruy beradigan shu ta’sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur xayol) oldindan ko‘ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta’sirotlar natijasida faoliyat; (his-tuyg‘u)ni kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yoki sekinlashtiradigan, odamlar xulk-atvoridagi tafovutlarni aniqlaydigan boshqaruvchilaridir.

**Psixik reaksiya**- tashqi yoki ichki ta’sirotga javob sifatida paydo buladigan xar qanday psixik jarayon.

**Psixologik test**- psixologik standart mashqlar. Bu mashqlarning bajarish natijalariga ko‘ra tekshirilayotgan kishining psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek bilim, malaka va ko‘nikmalarini to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

**Rang sezish**- kuzning idrok qilinayotgan narsa va xodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati.

**Refleks** (lot.reflexus-aks etish)- organizmning retseptorlar kuzgalishiga javob reaksiyasi. Vujudga kelgan kuzgalish markaziy nerv sistemasiga uzatilgach, u xam kuzgalish bilan javob qaytaradi. Qo‘zg‘alish efferent nervlar orkali turli a’zolarga uzatiladi.

Sh a r t l i r ye f l ye k s-orttirilgan, sh a r t s i z r ye f l ye k s – tug‘ma refleks hisoblanadi.

**Refleksiya (in’ioks,tajalliy)** (lot.reflexus-aks ettirish) -sub’ektning u bilan muloqotga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishi.

**Retseptor** (lot.recipere-qabul kilmok) -tashqaridan yoki organizm ichki muxitidan taassurotni qabul kilib va uni nerv impulslariga aylantirib, markaziy

nerv sistemasiga utkazib beradigan sezuvchi nerv tolalari uchlari yoki maxsus xujayralar ( kuz tur pardasi, ichki qulqoq va b.).

**Raddiya-tafakkurning** turli operatsiyalari xamda formalaridan foydalangan xolda biror fikrning yolgon ekanligini isbotlashdan iborat bo‘lgan mantikiy operatsiya.

**Sub’ekt** (lot.subgestum-odam, kishi)- ob’ektiv dunyoni biluvchi, uni uzining extiyoj va qiziqishlariga moslab o‘zgartiradigan ongli mavjudot.

**Sotsializatsiya** (lot.societas-jamiyat)- o‘zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikngi aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

**Sotsiometriya usuli** – o‘zaro munosabatlari va psixologik moslashuvini aniqlash, guruh, jamoani shaxslararo munosabatlarini psixologik tekshirish va tahlil kilish usuli (A.Moreno).

**Statistik** metod (lot. status-xolat, yunon.methodos-tadqiqot,)- o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini mikdoriy hisoblab chikish usuli.

**Suhbat-** psixologyaning og‘zaki muloqot kilish yuli bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bavosita ma’lumot olish jarayonidir. S. yordamida shaxsning qiziqishlarini, dunyoqarashini, e’tiqodini, nutqiy xususiyatlarini va boshqa sifatlarini o‘rganilishi mumkin.

**Sezgilar** – ob’ektiv reallik xossalaring inikosi, ana shu xossalarning sezgi organlariga ta’siri va bosh miya nerv mexanizmlarini kuzgatishi natijasida vujudga keladi. Sezgi- dunyoning bilishning boshlangich nuqtasi. Sezgi turlari xar xil: tuyish, eshitish, silkinish, hid bilish va b. Sezgining sifat xususiyatlari uning modalligi deyiladi.

**Sezgi a’zolari** – sezuvchi nerv xujayralari va qo‘srimcha tuzilmalardan tuzilgan ko‘rish, eshitish, gravitatsiya, hid bilish, ta’m bilish a’zolari.

**Sezgi chagarasi-** minimal kuchga ega bo‘lgan qo‘zg‘ovchining bilinar-bilinmas ta’sirini sezishning kuyi chegarasi, eng yuqori kuchi ta’sirni sezishi (maksimal) yuqori chegarasi deyiladi.

**Senzitivlik** (lot.sensus-hissiyot)-sezgilarning turli xil ta'sirotlarga nisbatan kuchli va tez kuzgalishi

**Senzitiv yosh davrlari**-bunda ma'lum yosh davri xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi hisoblanadi.

**Sensibilizatsiya** (lot.sensibilis-sezuvchan, ta'sirchan)-ichki omillar kuzgatgich ta'sirida nerv analizatorlari sezgirligining oshishi.

**Sentimentalizm** (fr.sentimentalisme-sezuvchanlik)-sensor sezgirlikdan farq kiluvchi xaddan tashqari emotsional sezgirlik, narsa va xodisalarga uta emotsional munosabatda bulishi.

**Sensor sezgilar** (lot.sensus-sizgi, his) -sezgi a'zolariga tegishli bo'lgan sezgilar.

**Sensor buzilish** – sezgi a'zolari faoliyatining buzilishi.

**Sensorika** – sezgi va idrokning birgalikda umumlashtiruvchi tushuncha.

**Stress** (ing.stress-zurikish) - tusatdan va kuchli ta'sirot natijasida xosil buladigan ruhiy zurikish xolati.

**Sangvinik** – (yunon.sanguis-qon) ruhan kuchli, faol, xarakatchan, tez va yorkin kiyofali, hissiyoti o'zgaruvchan, nutqi tez, ba'zan e'tiborsiz va shoshiluvchan bo'lgan temperament turi.S. inson dilkash va mexribon buladi.

**Sangvinik temperament** (lot.sanguis-qon, temperamentum-qismlarning zaruriy nisbati)-shaxsning tez, kuchli lekin beqaror emotsional kuzgaluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

**Temperament (mijoz)** (lot.temperamentum-korishma, aralashma)- individning psixik faoliyati (sur'ati, ritmi, psixik jarayon va xolatlar jadalligi)dagi dinamik xususiyatlar jixatidan uning tavsifi. Asosiy komponentlari individning umumiy xarakatchanligi, motorikasi (xarakatlar kurinishi) va emotSIONALLIGI.

**Taktil sezgilar**-teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks ettirishdan iborat turi.

**Ta'm-sezgi** turi.(shirin, achchik, chuchuk, tuzli). Analizatorlar til uzagidagi nerv tugunlari xamda bosh miya pustlok qismidagi T. markazidir.

**Tabiiy eksperiment** (lot.experimenum-sinov, tajriba)- o‘yin, mexnat va o‘quv faoliyatini tekshiriluvchiga sezdirmasdan psixologik o‘rganish usuli.

**Tahlil**-tafakkur kilish usuli, bunda murakkab ob’ektlar qismlarga bo‘lib o‘rganiladi

**Test** (ing.test-tekshirmok)- psixologik standart sinov. Bu sinov natijalariga ko‘ra sinalayotgan shaxsning to‘liq yoki ayrim psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, bilim, malaka, ko‘nikmalarini to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

**Tasavvur**- oldin shakllangan manzaralar asosida tuzilgan obrazlarning psixik akslanish shakli. Tasavvur fakat insonga xos.T. sezgi va idrok bilan uzviy bog‘lik, lekin, ulardan farq kilib, ancha umumlashgan xarakterga egadir.

**Talant**-(yunon.talanton-kimmatbaxo, kimmat narsa) qobiliyatlar, ayniqsa maxsus qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasi. Talantli kishi ishga ijodiy yondashadi. Muayyan faoliyatning muvaffakiyatli va ijobiy ravishda bajarilishini ta’minlaydigan qobiliyat xamda iste’dodlar yig‘indisidan iborat, t. li kishilar, odatda, yuksak ijodiy, keng mazmunli, tankidiy va mahsuldor akl egalari buladilar.

**Tafakkur**-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavvurlar orkali bevosita bilib bulmaydigan narsalarni ongli ravishda aks etish mumkin. Fikr yuritish, uylash, jiddiy ravishda yangilikni kidirish va ochishga ijtimoiy jixatdan bog‘lik, aloqador psixik jarayon. Shuningdek, uning tahlili va sintezida vogelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo buladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chikib ketadi. Intuitiv, ko‘rgazmali-obrazli, amaliy, so‘zli-mantikiy , ijodiy ,nazariy tafakkur turlari mavjud.

**Tafakkur**- inson aqliy faoliyatining yuksak bosqichi. Sezgi, idrok, va tasavvurlar orkali bevosita bilib bulmaydigan narsa va xodisalar T. da ongli ravishda aks etadi.

**Tush (odam uqlaganida)** -bosh miya yarim sharlari pustlogida xosil bo‘ladigan xayolning ixtiyorsiz faoliyati, ong bilan tashqi muxit o‘rtasidagi aloqa ma’lum darajada uziladi.

**Unutish-oldin** xotirada bo‘lganni qayta tiklanmaslik, ya’ni esga koldirgan narsa va xodisalarning zarur paytda aytib bera olmaslik jarayoni.

**Fenomenal xotira-idrok** qilingan narsa va xodisalarini, ularning bog‘lanishi munosabatlarini favqulotda tez xamda aniq esda koldirish va esga tushirishdan iborat nodir xotira qobiliyati.

**Fazoni idrok kilish-** voqeilikdagi narsa va xodisalarining fazoda tutgan urnini, shaklini, mikdorini uch o‘lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlik) bevosita aks ettirish.

**Fenomenal xotira-idrok** qilingan narsa va xodisalarini, ularning bog‘lanishi munosabatlarini favkulotda tez xamda aniq esda koldirish va esga tushirishdan iborat nodir xotira qibiliyati.

**Flegmatik** (yunon. flegma –balgam, shilimshik modda)- yuragi keng, barkaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuyg‘ularga, xatti –harakatlari va nutqi bir xil maromda bo‘lgan, ruhiy xolati tashqi tomonda ifoda etiluvchi temperament turi.

**Flegmatik temperament-** sekin, kuchsiz, va bekaror emotsiyal kuzgaluvchanlik bilan xarakterlanadigan xususiyat.

**Xotira-utmish** tajribalarini esga tushirish qobiliyati, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlab ong va xatti –harakatlar soxasiga ko‘p martalab joriy eta olishdan iborat nerv tizimining xususiyatlaridan biri.U esda qolish,esda saqlash va esga tushirish jarayonlariga ajratiladi. U ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, bevosita va bavosita xotira, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga ajratiladi.X. ning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari kobida muvakkat nerv bog‘lanishlarining xosil bulishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvigidir.

**Xarakter**(yunon.charakter-nishon,hislat belgi)-kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning induvidual birligi. Odamning xatti-harakatlari va atrof-muxitga munosabatida namoyon buladigan shaxsiy psixik xususiyatlari yig‘indisi. Xarakterni tashkil kiluvchi xususiyatlar xarakter hislatlari deyiladi.

**Xarakter aksentuatsiyasi** (yunon. charakter-xususiyat, nishon, belgi, akcentus-urgu)- xarakterning alohida xususiyatlariiga ortiqcha urg‘u berilishi.

**Xarakterning ma’naviy sifatlari**-odamshavandalik, samimiylilik, rostguylik, gumanizm,mehribonlik, adolatlilik, mexnatsevarlik, o‘z qadr qimmatini bilishlik kabilardan iboratdir.

**Xarakter hislatlari**-ijtimoiy muxit ta’sirida tarkib topgan, shaxsning xattiharakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlari yig‘indisi.

**Xolerik** (yunon.chole-safro, sarik ut) -temperament turi, u hissiyotning jushkinligini, kayfiyatning birdaniga tez o‘zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

**Xudbinlik**- kishining fakat o‘z manfaatini ko‘zlovchi salbiy xarakter hislati, boshqalar manfaati bilan hisoblashmaslik.

**Xayol**-mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol va tasavvur xayol turlariga ajraladi.

**Xayolparast** (yunon.phantasia-tasavvur,xayol)- kishining voqeа, dalillarini asta-sekin buzib,ularni uz xoxishiga qarab fikri -xayoliga moslab tasvirlab berishi.

**Eksperiment** (lot.experimentum-namuna, tajriba)- ilmiy tajriba, biror maqsadni kuzlab qilinadigan sinov.

**Eksperiment metodi** – yangi psixologik bilimga ega bulish uchun obektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi. U laboratoriya va tabiiy E. metodlarga bo‘linadi.

**Empirik metod** (yunon.empeiria-tajriba,methodos-tadqiqot) tekshiriluvchi haqidagi ma’lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

**Eksteroretseptiv sezgilar** –tashqi olamdagи narsa va xodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi, tana sirtida joylashgan retseptorlar, sezgilar.Masalan, ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilishdan iborat tashqi sezgilar.

**Esga olib qolish**- yangi qabul qilingan ma’lumotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog‘langan xolda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

**Esga tushirish** – o‘tmishda idrok qilinganlarni (narsa, his-tuyg‘u, fikr, ish, xatti-harakat) ongimizda qayta tiklashdir. Xotira jarayonlaridan biri.

**Eshitish xotirasi-** tovush qo‘zg‘ovchilarini sezish, idrok kilish natijasida hosil bo‘lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

**Emotsiya** (lot.emovere- uygotish, tulkinlashtirish)- his tuyg‘u, kechinma, xayajon (g‘azab, qo‘rquv, quvonch). Odam yoki hayvonlarning sub’ektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo‘zg‘ovchilar ta’siriga javob reaksiyasi.

**Emotsionallik** – kishining his-tuyg‘u va emotsiya dinamikasi, mazmunini xarakterlovchi sifatlari.

**Eshitish sezgisi** – tovush tebranishlarini eshitish a’zolari yordamida sezish turi. Eshituv analizatorlariga bevosita ta’sir etayotgan shovqinli xamda musiqali tovush to‘lqinlarining alohida belgi va sifatlarini aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Egoist**-faqat o‘z manfaatini o‘ylovchi, bu jamiyatda o‘zidan tashqari boshqani «tanimaydigan», o‘zining extiyojlarini qondirishni ko‘zlovchi kishi.

**Egoizm** (lot.ego-men)- xudbinlik bo‘lib, shaxsning o‘z qiziqishlari va extiyojlarini boshqa shaxs bilan qiziqmay, uning extiyoj va qiziqishlaridan ustun kuyish

**Qobiliyatlar** – u yoki bu unumli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarini egallay olishni ta’minlaydigan shaxsning individual – psixologik xususiyatlari.

# **ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI**

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Абрамова Г.С.Практическая психология. М. 2015.
2. Атватер И., Даффи К.Психология для жизни. М. 2008.
3. Буякас Т.М. Основания и условия профессионального становления студентов-психологов. М. МГУ. 2005.
4. Вачков И.В., Гриншпун И.Б., Пряжников Н.С. Введение в профессию «психолог» Москва, Воронеж, 2002-2007 г
5. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. - Worth Publishers. 2010. - 910 p.
7. Philip J. Corr, Gerald Matthews. Personality Psychology. Cambridge University Press 2009.-906 R.
8. Psychology as the Behaviorist Views it John B. Watson (1913) First published in Psychological Review, 20, 158-177.
9. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Magistrlar uchun darslik. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2018. – 344 b.
10. Баротов Ш.Р. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно-методичекое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017-172 с.
11. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya T; “Universitet” nashriyoti, 2012. 490b.
12. Avezov O.R. va boshq. Psixologiya nazariyasi va tarixi. T: “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti, 2019.
13. Avezov O.R. va boshq. Shaxs psixologiyasi. B; Durdona, 2019.
14. Avezov O.R. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. – B. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ nashriyoti”, 2019. 494 b.
15. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T; Fan va texnologiyalar, 2010. - 450 b

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017 .
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahdil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2017.
3. Буякас Т.М. Становление стойкого интереса к профессиональной деятельности. М, 2010.
4. Григорович І.А. Введение в профессию "психолог". М, 2004.
5. Карандашев В.Н. Психология: Введение в профессию. М, 2009.
6. Ковалева А.И. Носкова О.Г. Моя профессия психолог. МГУ, 2007.

## **Internet saytlari**

1. <http://textshare.tsx.org>
2. <http://www.mgimo.ru/fileserver/>
3. [http://www.ssu.runnet.ru/...](http://www.ssu.runnet.ru/)
4. [http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch\\_I4.htm](http://www.philol.msu.ru/~rlc2001/ru/sch_I4.htm)
5. <http://www.voppsv.ru>
6. <http://flogiston.ru/arch>
7. <http://psuchol.ras.ru>
8. <http://psuberia.ru>

## XOTIMA O'RNIDA

Ushbu darslik bugungi zamonaviy psixologiya fanining nazariy-metodologik va amaliy-tatbiqiy imkoniyatlaridan kelib chiqib tayyorlangan bo'lsa-da, bugungi psixologiya fani hali yechimini kutayotgan muammolari mavjudligini alohida ta'kidlash joiz. Chunki mazkur sohaning boshqa sohalarga qaraganda nisbatan yangi fan ekanligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, fanning dolzarbliji, maqsadi va vazifalarini belgilashda turli davlatlarda turli xil yondashuvlarning mavjudligini ham inobatga olishga to'g'ri keladi.

Shu nuqtai nazardan psixologiyaning xorijda, Rossiyada va O'zbekistonda tashkil yetilishiga xos tashkiliy ishlar ko'lami haqida ham muayyan ma'lumotlar taqdim etildi. Zero psixologik xizmat, eng avvalo, insonga uning ijtimoiy psixologik taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan qimmatlidir. Ayni paytda aholining turli qatlamlariga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining e'tirof etilishi psixologiya fanining bugungi amaliyatda nihoyatda zarur ekanligini taqozo etmoqda.

Haqiqatda esa psixologik bilim va yondashuvlarsiz har qanday shaxs va uning ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog'liq uyg'unlikni ta'minlab bo'lmaydi. Uyg'unlik bo'lmanan joyda esa bugungi ijtimoiy islohotlarni ta'minlashga xizmat qiluvchi yuksak muvaffaqiyat va zafarlar ham bo'lmaydi. Shu ma'noda mazkur darslik barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar uchun muhim dasturil amal bo'lib xizmat qilsa ajab emas.

## **ILOVALAR**

**ILOVA 1**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING**

**QARORI**

### **O‘QUVCHILARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO‘LLAB- QUVVATLASH ISHLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida o‘quvchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda ta’lim muassasalari deb ataladi) o‘quvchilarini psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilansin:

-ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

-o‘quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish;

-turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’lim-tarbiyatagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;

-o‘quvchilar ta’lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

-pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

-iste’dodli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

-axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta’siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

-pedagog xodimlar, o‘quvchilar hamda ota-onalarining psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash.

### 3. Quyidagilar:

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ikki oy muddatda:

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda ta’lim muassasalari psixolog kadrlarining lavozim majburiyatlari hamda ularga qo‘yiladigan malaka talablarini qayta ko‘rib chiqsin;

ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat xonalarini jihozlash me’yorlarini ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda tasdiqlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ushbu qaror ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun zarur mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida «Ta’lim» sohasiga ajratilgan mablag‘lar doirasida ajratilishini ta’minlasin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri Sh.X. Shermatov hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,

2019 yil 12 iyul,

577-son

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagи 577-son qaroriga

1-ILOVA

## **Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda ta’lim muassasalari deb ataladi) psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Psixologik xizmatning faoliyati:

xalq ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalarida — O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (keyingi o‘rinlarda Respublika tashxis markazi deb ataladi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda hududiy xalq ta’limi boshqarmalari deb ataladi) hamda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda xalq ta’limi bo‘limlari deb ataladi) tomonidan;

-akademik litseylarda — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda idoraviy mansubligiga ko‘ra tegishli oliy ta’lim muassasasi (keyingi o‘rinlarda oliy ta’lim muassasasi deb ataladi) tomonidan;

-kasb-hunar ta’limi muassasalarida — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari tomonidan muvofiqlashtiriladi.

3. Psixologik xizmat o‘z faoliyatini ta’lim muassasalarida pedagog va tibbiyot xodimlari, o‘quvchilarning ota-onalari va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o‘rinlarda ota-onalar deb ataladi), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etadi.

#### **2-bob. Psixologik xizmatning maqsad va vazifalari**

4. Psixologik xizmatning maqsadi o‘quvchilarning ma’naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo‘yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzlusiz ta’lim jarayonida o‘zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

5. Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

-o‘quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to‘g‘ri tanlashlariga ko‘maklashish;

-turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;

-o‘quvchilar ta’lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

-pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

-iste’dodli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

-axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog‘ining salbiy ta’siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;

-pedagog xodimlar, o‘quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash.

### **3-bob. Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari**

6. Quyidagilar psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

- psixologik ma’rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo‘naltirish.

7. Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni nazarda tutadi:

*a) psixologik ma’rifat va tashviqot yo‘nalishida:*

-pedagogik jamoa, sinf rahbarlari va ota-onalarning psixologik savodxonligi va kompetentligini oshirishda dastlabki psixologik-pedagogik bilim va tushunchalar, har bir o‘quvchiga individual yondashuv orqali oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush bo‘yicha tavsiyalar berish;

-o‘quvchilar, pedagog xodimlar, ota-onalar bilan yakka va jamoaviy shakldagi suhbatlar, maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etish, turli xil yig‘ilishlarda ma’ruzalar bilan chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni berib borish;

*b) psixologik-pedagogik tashxis yo‘nalishida:*

-o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ishtiroki, ularning har bir holat, voqeа va hodisaga munosabatini psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodikalar asosida o‘rganish, tahlil etish va zarur ko‘rsatmalar berish;

-o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, iste’dodi va iqtidoridagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlash;

-ta’lim muassasasiga qabul qilingan o‘quvchilarning psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini, o‘quvchilarning o‘qishga tayyorgarlik holatlari, o‘zlashtirishi va rivojlanishiga to‘sinqilik qilayotgan omillarni aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

-ta’lim muassasasining keyingi bosqichlariga o‘tgan o‘quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o‘quv faoliyati, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash dinamikasi, shaxs sifatlari, shaxslararo munosabatlar shakllanishini kuzatib borish, tahlil etish, korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etish;

-psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalar, suhbatlar orqali o‘quvchilarning kasbiy qobiliyatları, qiziqishlari va fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan moyilliklarini aniqlash, ularning ongli ravishda kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish uchun o‘quvchilar va ota-onalarga tavsiyalar berish va yo‘naltirish;

-ijtimoiy-psixologik muammolari mavjud hamda fanlarni o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan psixologik-pedagogik tashxislar, so‘rovnomalar, suhbatlar o‘tkazish orqali muammo turini aniqlash, guruhash va ular bilan korreksion ishlarni olib borish;

v) *psixologik profilaktika yo‘nalishida:*

-o‘quvchilardagi barcha salbiy holatlar va moyilliklarning oldini olish bo‘yicha pedagog xodimlar va ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

-o‘quvchilarning tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishda yordam ko‘rsatish;

-o‘quvchilar o‘rtasidagi huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha olib boriladigan profilaktika ishlarida ishtiroy etish;

-o‘quvchilar xulq-atvoridagi salbiy holatlarning oldini olish, ruhiy zarba, nizo, salbiy emotsiyonal kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish;

-salomatligi jihatidan imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari, sog‘liqni saqlash, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, ota-

onalar bilan uchrashuvlar, suhbatlar, seminar-treninglar, munozaralar va ochiq muloqotlar tashkil etish, taqdimotlar va videofilmlar namoyishlarini o'tkazish;

*g) psixologik korreksiya yo 'nalishida:*

-ta'lim olish va kasb-hunar tanlashda qiynalayotgan o'quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida individual va jamoaviy korreksiya ishlarini olib borish;

-yetim va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning psixologik reabilitatsiyasini ta'minlash;

-mutaxassis sifatida o'quvchining psixologik holatiga oid ma'lumotlarga munosabat bildirish, tarbiyasida salbiy holatlar mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish;

-ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlanТИRISH, ularning intellektual passivligini korreksiyalash;

-individual yoki jamoaviy tartibda ota-onalar va pedagog xodimlarni jalgan holda o'yin, muloqot, suhbat, trening, mashq va mashg'ulotlar shaklida tadbirlar tashkil etish;

*d) psixologik maslahat yo 'nalishida:*

-o'quvchilarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo'yicha barcha ta'lim jarayoni qatnashchilariga maslahatlar berish;

-o'quvchilarga ta'lim olish, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va yoshi kattalar bilan munosabatlaridagi muammoli holatlar yuzasidan maslahatlar berish;

-o'quvchilarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, shaxslararo munosabat maqomi, ularning yosh, jins, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha amaliy maslahatlar tashkil etish;

*ye) kasb-hunarga yo 'naltirish yo 'nalishida:*

-o'quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo'lgan ta'lim muassasalari hamda kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo'yadigan talablari haqida ma'lumotlar berish;

-o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;

-o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablarini, ta’lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda kasb va ta’lim muassasasini tanlashga ko‘maklashish;

-o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik va mas’uliyatni shakllantirish hamda rivojlantirish.

#### **4-bob. Psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish**

8. Ta’lim muassasasida psixologik xizmat muassasa rahbarining buyrug‘iga muvofiq o‘quvchilar sonidan kelib chiqib 1 — 3 ta shtat birligidan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Psixologik xizmatning psixolog kadrlari (keyingi o‘rinlarda psixolog kadrlar deb ataladi) soni bir nafardan ortiq bo‘lganda ulardan biriga psixologik xizmat rahbarligi yuklanadi.

9. Psixolog kadrlar lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari tegishli ravishda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

10. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatining nazorati bevosita ta’lim muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Psixolog kadrlar o‘z faoliyati doirasida bevosita ta’lim muassasasi rahbariga bo‘ysunadi.

Psixolog kadrlar ta’lim muassasasining pedagog xodimlari bilan birgalikda o‘quvchilarning psixologik holati, muassasaning psixologik muhiti, korreksion-rivojlantiruvchi va profilaktik tadbirlarning amalga oshirilishi, kasb-hunarga yo‘naltirish va tashxis qo‘yish faoliyati uchun mas’ul hisoblanadi.

11. Psixolog kadrlar o‘z faoliyatini ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga hamda o‘quv dasturi va o‘quv rejasida belgilangan dars mashhg‘ulotlari o‘tkazilishini inobatga olgan holda amalga oshiradi.

12. Ta’lim muassasalarida psixolog kadrlar uchun haftasiga 36 soatli ish tartibi joriy etiladi.

13. Ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan psixolog kadrlarning faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi.

14. Psixolog kadrlar malakasini oshirish muvofiqligi bo‘yicha tegishli muassasalarda har uch yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

15. Psixolog kadrlarning vazifalari va funksiyalari ta’lim muassasasi ustavida belgilanadi.

16. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning faoliyati tegishliligi bo‘yicha Respublika tashxis markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy ish reja asosida tashkil etiladi.

17. Psixolog kadrlarning ish rejasi ta’lim muassasasining pedagogik kengashi qarori asosida namunaviy ish rejaga muvofiq tasdiqlanadi.

18. Psixologik xizmatning tashkiliy, ilmiy-metodik va dasturiy ta’mnoti tegishli ravishda Respublika tashxis markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

## **5-bob. Psixolog kadrlarning huquq va majburiyatları**

19. Psixolog kadrlar quyidagi huquqlarga ega:

-ta’lim muassasasini boshqarishda qatnashish;

-ta’lim muassasasi pedagog xodimlari uchun belgilangan barcha kafolatlar va imtiyozlardan foydalanish, jamoat birlashmalariga saylash va saylanish;

-o‘quvchilar, ularning ota-onalari, shuningdek, ta’lim muassasasi pedagoglari bilan olib boriladigan ishlarning muayyan yo‘nalishlarini mustaqil shakllantirish;

-ta’lim muassasasi rahbariyatidan o‘zining faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishini talab qilish;

-ta’lim muassasasi rahbariyati bilan kelishgan holda sinfdagi va sinfdan tashqaridagi mashg‘ulotlarda hamda boshqa tadbirdarda o‘quvchilarning xulq-

atvori hamda individual xususiyatlarini, ularning o‘qishga va pedagog xodimlarga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish maqsadida ishtirok etish;

-dars mashg‘ulotlari, ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar va sport musobaqalarini kuzatish, tahlil qilish, o‘quvchilarining shaxsiy hujjatlari bilan tanishish, zarur taklif va maslahatlar berish;

-ta’lim muassasining pedagogik va metodik kengashlarida ishtirok etish, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha takliflar berish;

-ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olib psixologik-pedagogik tashxisga oid yangi metodik dasturlarni ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o‘tkazishda qatnashish, ularni amaliyatga joriy etishda ishtirok etish;

-ta’lim muassasasi rahbariyatining qonun hujjatlariga zid ravishda berilgan topshiriq va ko‘rsatmalarini bajarmaslik;

-o‘quvchilarining hayoti va faoliyatiga doir turli ishchi guruhlar va komissiyalar ishida o‘z ixtiyoriga ko‘ra qatnashish, fikrlar bildirish, ularda qabul qilingan qarorlar ustidan yuqori turuvchi tashkilotlarga murojaat qilish;

-davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga o‘quvchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan iltimosnomalar berish.

Psixolog kadrlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

## 20. Psixolog kadrlar:

-ta’lim muassasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish va o‘quvchilarini psixologik ta’sirlardan himoya qilishga;

-o‘zining kasbiy ko‘nikmalari va mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish hamda belgilangan muddatlarda o‘z malakasini oshirib borishga;

-psixologik-pedagogik tashxis natijalarini to‘g‘ri rasmiylashtirish, tashxis natijalari bo‘yicha asoslangan tavsiyalar berishga;

-faoliyatini ish rejasi asosida tashkil etishga, amalga oshirishga, ish rejasining ijrosi bo‘yicha hisobotlar tayyorlashga;

-psixologik ma'rifat, tashxis, psixologik profilaktika, korreksion-rivojlantiruvchi, maslahat tadbirlarini sifatli tashkil etish va muddatlariga rioya qilishga;

-ta'lism jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlari hamda tashxis natijalariga oid ma'lumotlarini oshkor etmaslikka majbur.

Psixolog kadrlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

## **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

21. Psixolog kadrlarga ish haqi miqdorlari (lavozim maoshlari) qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Ta'lism muassasasi rahbari psixolog kadrlarni rag'batlantirish maqsadida ustamalar, qo'shimcha haq belgilashi mumkin.

22. Psixologik xizmatning samarali tashkil etilishi va faoliyat yuritishi bo'yicha javobgarlik ta'lism muassasasi rahbariga yuklanadi.

23. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 12- iyuldaggi 577-son qaroriga

## **2-ILOVA**

### **Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lism muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida**

#### **NIZOM**

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lism muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini (keyingi o'rinnarda psixolog kadrlar deb ataladi) attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Psixolog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda ularning O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi hamda tasarrufida ta'lism muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan psixolog kadrlarga qo'yiladigan malaka

talablariga (keyingi o‘rinlarda malaka talablari deb ataladi) muvofiqligi o‘rganiladi.

3. Quyidagilar psixolog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-mutaxassisligi bo‘yicha malakasi va psixologik yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik tashxis metodikalarining natijaviyligiga ega bo‘lgan, trening o‘tish mahorati, mehnati samaradorligi hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan psixolog kadrlarni rag‘batlantirish;

-malaka talablariga muvofiq ularning kasbiy mahorati darajasini aniqlash va malaka toifalarini berish (o‘zgartirish);

-kasbiy mahorati darajasining malaka talablariga muvofiqligini aniqlash;

-kompyuter savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishning majburiyligini ta’minlash.

4. Majburiylik, davriylik, oshkorlik hamda xolislik attestatsiyaning asosiy prinsiplari hisoblanadi.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi, tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda Hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari deb ataladi), tegishli oliy ta’lim muassasalari hamda Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari psixolog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish jarayonini tashkil etishga mas’ul hisoblanadi.

6. Attestatsiya umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari psixolog kadrlari uchun har besh yilda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (akademik litseylar va kasb-hunar ta’limi muassasalari) psixolog kadrlari uchun har uch yilda bir marta o‘tkaziladi.

7. Malaka oshirish kursini tugatganlik to‘g‘risidagi sertifikatga ega bo‘lgan oliy ma’lumotli psixolog kadrlar belgilangan muddatda attestatsiyadan o‘tkazilishi shart.

8. Attestatsiya o'tkazish muddatlari attestatsiyadan o'tuvchilarga uning boshlanishidan kamida bir oy oldin Hududiy xalq ta'limi boshqaruvi organlari, tegishli oliy ta'lim muassasalari hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari orqali xabar qilinadi.

9. Ishga yangi qabul qilingan psixolog kadrlar ishga qabul qilinganidan boshlab bir yildan so'ng, oliy ta'lim muassasalarini bitirib birinchi bor ishga kirganlar kasbiy faoliyatiga uch yil to'lgandan so'ng attestatsiyadan o'tkaziladi.

10. Ta'lim muassasalari psixolog kadrlarining tashabbusi bilan ular o'z arizasi va ta'lim muassasasi rahbarining tavsiyasiga asosan navbatdan tashqari birinchi yoki oliy malaka toifasini olish uchun attestatsiyadan o'tkazilishi mumkin.

Psixolog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish oxirgi attestatsiya o'tkazilganidan boshlab kamida ikki yildan keyin amalga oshiriladi.

11. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan holda attestatsiya o'tkazish davri mobaynida davolanayotgan, homiladorlik, tug'ish hamda bola parvarishlash ta'tilidagi psixolog kadrlar ish faoliyatiga qaytganiga bir yil to'lgandan so'ng attestatsiyaga jalb etiladi.

12. Psixolog kadrlarning malaka toifalari bir ta'lim muassasalaridan boshqasiga ishga o'tganda saqlanadi.

13. Psixolog kadrlar oliy ma'lumoti, qayta tayyorlash kurslaridan o'tganligi haqidagi diplomda (keyingi o'rnlarda diplom deb ataladi) ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassislik yoki ixtisosliklarga mos keladigan mutaxassisligi bo'yicha attestatsiyadan o'tadi.

14. Ta'lim muassasalari psixolog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish, muvofiqlashtirish va attestatsiya komissiyalari ish natijalarini tahlil qilish va baholash:

-xalq ta'limi tizimidagi muassasalar uchun — O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (keyingi o'rnlarda Respublika tashxis markazi deb ataladi);

-akademik litseylar hamda kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun — O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

## **2-bob. Psixolog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi**

15. Attestatsiya har yili mart-iyun oylarida o‘tkaziladi.

16. Psixolog kadrlarning attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish ushbu Nizomiga 1-ilovaga muvofiq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

17. Psixolog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish quyidagi tartibda tashkil qilinadi:

-oxirgi ikki yil davomidagi ilmiy va metodik, amaliy psixologik xizmat faoliyatining natijaviyligi, tadbirlarda faol ishtirok etishni o‘rganish;

-psixologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi va kasbiy bilim ko‘nikmalari yuzasidan malaka sinovlarini o‘tkazish;

-xorijiy tillar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy-siyosiy bilimlarni egallaganligi bo‘yicha suhbat.

Suhbat jarayonida berilgan savol va javoblar maxsus (sahifalangan, tikilgan, muhrlangan) jurnalga qayd etiladi.

18. Attestatsiyadan o‘tuvchi psixolog kadrlar o‘tkazilishi belgilangan attestatsiyadan bir oy oldin ta’limning tegishli boshqaruv organiga va ta’lim muassasasi rahbariga quyidagi hujjatlarni topshirishi kerak:

-ma’lumotnomalarini tarjimai hol;

-mehnat daftarchasi, ma’lumoti, malaka toifasi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni to‘g‘risidagi (agar bo‘lsa), malaka oshirganligi va qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

-nashr etilgan ilmiy ishlari, maqolalari, psixologik yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik tashxis metodikalarining natijaviyligi, maslahat tadbirlarida faol ishtirok etganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar va hisobot (ta’lim muassasasi muhri bosilgan);

-psixologik xizmatni rivojlantirish bo‘yicha istiqboldagi rejalarini to‘g‘risidagi qisqacha ma’lumot.

Noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar uchun attestatsiyadan o‘tuvchi javobgar hisoblanadi.

### **3-bob. Attestatsiyani tashkil etish va attestatsiya komissiyalarini tuzish tartibi**

19. Psixolog kadrlar asosiy ish joyi bo‘yicha attestatsiyaga jalg etiladi. Ta’lim muassasalarida o‘rindoshlik asosida ishlayotgan va asosiy ish joyi bo‘yicha psixologik faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan psixolog kadrlar (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi boshqaruv idoralaridagi psixolog kadrlar bundan mustasno) o‘rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasasida attestatsiyadan o‘tadi.

20. Ta’lim muassasalari rahbarlari attestatsiyadan o‘tuvchilarning har biri uchun alohida hujjatlar yig‘majildini tayyorlaydi.

Hujjatlar yig‘majildida attestatsiyadan o‘tuvchining pasporti, diplomi, attestatsiyadan o‘tganligi to‘g‘risidagi va amalda foydalanayotgan sertifikati (agar mavjud bo‘lsa), malaka oshirganligi haqidagi sertifikati nusxalari, so‘nggi bir yil davomidagi psixologik yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik tashxis metodikalarining natijaviylici, trening mashg‘ulotlari, o‘qituvchilar darslarining psixologik tahlillari, o‘z faoliyati yuzasidan amalga oshirgan ishlari, erishgan yutuqlari (agar mavjud bo‘lsa) haqidagi ma’lumotlar to‘planadi.

21. Attestatsiya Respublika tashxis markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti attestatsiya komissiyalarini (keyingi o‘rinlarda attestatsiya komissiyalarini deb ataladi) tomonidan psixolog kadrlarning malaka talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

22. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarining oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor psixolog kadrlar attestatsiyasini o‘tkazish uchun Respublika tashxis markazida attestatsiya komissiyasi tuziladi va komissiya tarkibi O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

23. Oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o’tkazish uchun O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi attestatsiya komissiyasi tuziladi hamda komissiya tarkibi O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

24. Kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi psixolog kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish uchun Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti attestatsiya komissiyasi tuziladi va komissiya tarkibi O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

25. Quyidagilar attestatsiya komissiyalarining vazifalari hisoblanadi:

-oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor psixolog kadrlarni attestatsiyadan o’tkazish;

-oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali psixolog kadrlarga sertifikatlar olish uchun O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasiga buyurtma berish hamda attestatsiya o’tkazilgandan so‘ng bir oy muddatda psixolog kadrlarni ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq shakldagi sertifikatlar bilan ta’minlash;

-attestatsiya komissiyasining oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga talabgor psixolog kadrlarning attestatsiyasi yakunlari bo‘yicha hisobotlarini tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish.

26. Attestatsiyadan o’tuvchi psixolog kadrlar attestatsiya komissiyalari tarkibiga kiritilmaydi.

27. Komissiyalar raislari va a’zolari attestatsiya jarayonining ushbu Nizom talablari va tasdiqlangan jadvalga muvofiq o’tkazilishi uchun mas’ul hisoblanadilar.

28. Attestatsiyani o’tkazish attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Attestatsiya komissiyasi qoshida 5 kishidan iborat ekspert guruhi tuziladi. Ekspert guruhining asosiy vazifalari taqdim etilgan ma’lumotlar asosida attestatsiyadan o’tuvchi psixolog kadrlarning kasbiy faoliyatini baholashdan iborat.

Ekspert guruhi a'zolari attestatsiyadan o'tuvchilarga qo'yilgan baholar uchun javobgardirlar.

Ekspert guruhining tarkibi:

-Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari psixolog kadrlari uchun — hududiy xalq ta'limi boshqarmalari;

-akademik litseylar psixolog kadrlari uchun — tegishli oliv ta'lim muassasasi;

-kasb-hunar ta'limi muassasalari psixolog kadrlari uchun — Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalarining rahbarlari buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

#### **4-bob. Attestatsiyadan o'tkazish, sertifikatlar berish hamda ta'lim olganlik**

##### **to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'yilgan talablarni belgilash tartibi**

29. Attestatsiya quyidagi ikki bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich — attestatsiyadan o'tuvchining trening mashg'ulotini o'tish mahorati, mehnati samaradorligi va mutaxassisligi bo'yicha malaka sinovi natijalari ekspert guruhi tomonidan o'rganiladi hamda tegishli tavsiyalar tayyorланади;

2-bosqich — attestatsiya komissiyalari tomonidan psixolog kadrlarning xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini aniqlash yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayoni videotasvirga olinadi hamda berilgan savollar va javoblar maxsus (sahifalangan, tikilgan va muhrlangan) daftarda qayd etiladi.

30. Attestatsiya quyidagi baholash mezonlari bo'yicha o'tkaziladi:

-trening-mashg'ulot ishlari — o'qituvchi darslarining psixologik tahlillari, ochiq trening mashg'ulotlari o'tganligi, ta'lim oluvchilarining xulqidagi o'zgarish ko'rsatkichlari, trening o'tish vositalari hamda shakllarini maqbul ravishda tanlashi, tavsiya etilgan ilg'or psixologik metodika va texnologiyalarni qo'llashi;

-mehnati samaradorligi — attestatsiyadan o'tuvchining ta'lim muassasasida psixologik yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilgan psixologik tashxis metodikalarining natijaviylici, o'quvchilarining tuman (shahar), viloyat, respublika va xalqaro ko'rik-

tanlovlardan, turli musobaqalarda ishtirok etishida ularni psixologik tayyorlashda qo'shgan hissasi hamda erishgan yutuqlari;

-mutaxassisligi bo'yicha malaka sinovlari — diplomida ko'rsatilgan ta'lim yo'naliishi, mutaxassisligi yoki ixtisosligi bo'yicha o'tkaziladigan test sinovi natijalari;

-xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan suhbat yakunlari.

Psixolog kadrlarning attestatsiya natijalarini baholash mezonlari Nizomga 2-ilovaga muvofiq bo'yicha amalga oshiriladi.

31. Oliy va birinchi malaka toifalariga talabgor psixolog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazganlik uchun eng kam oylik ish haqi (2019- yil 1 sentabrdan boshlab bazaviy hisoblash miqdori)ning bir baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Attestatsiyadan o'tkazganlik uchun undiriladigan yig'im tegishliligi bo'yicha Respublika tashxis markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining maxsus hisobraqamiga o'tkaziladi.

Ariza beruvchi berilgan arizadan voz kechgan taqdirda hamda psixolog kadrga nisbatan «Attestatsiyadan o'tmadi, tegishli malaka toifasiga muvofiq emas» qarori qabul qilinganda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

Psixolog kadrlar attestatsiyaning biror bosqichida uzrli sababga (mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organi yoki ta'lim muassasalari rahbarlari ma'lumotnomasi) ko'ra qatnashmagan bo'lsa, ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chirilgan taqdirda yig'im summasi takroran undirilmaydi.

32. Oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifali hamda mazkur malaka toifalariga talabgor psixolog kadrlar uchun test materiallari mazmunini shakllantirish, nashr etish va mazkur jarayonni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi

Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

33. Attestatsiya komissiyasi psixolog kadrlarning trening mashg‘ulotini o‘tish mahorati, mehnati samaradorligi hamda mutaxassisligi bo‘yicha malaka sinovi natijalarini tahlil qiladi, xorijiy tillar, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilishi hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini aniqlash yuzasidan suhbat o‘tkazadi va tegishli qaror qabul qiladi.

34. Attestatsiya komissiyasi a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etgan yig‘ilish vakolatli hisoblanadi.

35. Attestatsiya komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) oliv malaka toifali psixolog kadr baholash mezonlarining har biridan:

75 foiz va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tdi, oliv malaka toifasi saqlansin»;

74 foiz va undan past ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tmadi, birinchi malaka toifasiga tushirilsin»;

b) birinchi malaka toifali psixolog kadr baholash mezonlarining har biridan:

75 foiz va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tdi, oliv malaka toifasi berilsin»;

74 foizdan 65 foizgacha ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tdi, birinchi malaka toifasi saqlansin»;

64 foiz va undan kam ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tmadi, ikkinchi malaka toifasiga tushirilsin»;

v) ikkinchi malaka toifali psixolog kadr baholash mezonlarining har biridan:

65 foiz va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tdi, birinchi malaka toifasi berilsin»;

64 foizdan 60 foizgacha ko‘rsatkichga ega bo‘lsa — «Attestatsiyadan o‘tdi, ikkinchi malaka toifasi saqlansin»;

59 foiz va undan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis malaka toifasiga tushirilsin»;

g) mutaxassis-psixolog kadr baholash mezonlarining har biridan:

60 foiz va undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, ikkinchi malaka toifasi berilsin»;

59 foizdan 55 foizgacha ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tdi, mutaxassis lavozimi saqlansin»;

54 foiz va undan kam ko'rsatkichga ega bo'lsa — «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis lavozimiga muvofiq emas».

36. Attestatsiya komissiyalari psixolog kadrlar bo'yicha «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis lavozimiga muvofiq emas» qarorini qabul qilsa, ular navbatdan tashqari malaka oshirish kurslariga yuboriladi hamda keyingi yilda qayta attestatsiyaga jalgan etiladi.

Attestatsiya komissiyasi qayta attestatsiyaga jalgan psixolog kadr bo'yicha «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis lavozimiga muvofiq emas» qarorini qabul qilsa, ish beruvchi tomonidan ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mehnat haqidagi qonunlarda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

37. Baholash mezonlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich chiqarilmaydi hamda baholash mezonlarining birortasi bo'yicha belgilangan ko'rsatkichdan past baholansa «attestatsiyadan o'tmadi» degan qaror qabul qilinadi.

38. Psixolog kadrlar attestatsiyaning biror bosqichida uzrli sababga (mehnatga layoqatsizlik varaqasi, ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organi yoki ta'lim muassasalari rahbarlari ma'lumotnomasi) ko'ra kelmagan bo'lsa, attestatsiya komissiyasining qarori bilan ularning attestatsiyasi boshqa muddatga ko'chiriladi.

39. Psixolog kadr uzsiz sababga ko'ra attestatsiyaning biror bosqichida ishtirok etmagan bo'lsa attestatsiyadan o'tmagan hisoblanadi hamda unga nisbatan «Attestatsiyadan o'tmadi, tegishli malaka toifasi tushirilsin» yoki «Attestatsiyadan o'tmadi, mutaxassis lavozimiga muvofiq emas» qarori qabul qilinadi.

40. Attestatsiya komissiyasi qarori ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi hamda komissiya raisi, rais o‘rinbosari va kotib tomonidan imzolanadi.

41. Attestatsiya komissiyasi qarori asosida ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakldagi attestatsiya varaqasi rasmiylashtiriladi hamda attestatsiya komissiyasi raisi, rais o‘rinbosari, yig‘ilishda ishtirok etgan a’zolar va kotib tomonidan imzolanadi.

Attestatsiya varaqasi ikki nusxada to‘ldiriladi va bir nusxasi psixolog kadrning ish joyidagi shaxsiy hujjatlari yig‘majildida, ikkinchi nusxasi attestatsiya komissiyasida saqlanadi.

42. Psixolog kadrning attestatsiyasiga oid hujjatlari to‘plangan yig‘majildi navbatdagi attestatsiyagacha ta’lim muassasasida saqlanadi.

43. Attestatsiya komissiyasi qaroriga ko‘ra oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan psixolog kadrlarga ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq shakldagi psixolog kadrning attestatsiyadan o‘tganligi to‘g‘risida sertifikat attestatsiya o‘tkazilganidan so‘ng bir oy muddat ichida topshiriladi.

Sertifikatlarning xatosiz to‘ldirilishi uchun attestatsiya komissiyasi raislari mas’ul hisoblanadi.

44. Sertifikat qat’iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, unda hisob seriyasi, raqami va himoya darajasi bo‘ladi. Sertifikat blankalari Respublika tashxis markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti buyurtmasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi «Davlat belgisi» davlat-ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan tayyorlanadi.

45. Respublika tashxis markazi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rahbarlari sertifikatlarning hisobga olinishi, saqlanishi hamda maqsadli ishlatalishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

46. Attestatsiya komissiyalari sertifikatlarning psixolog kadrlarga tarqatilishini ro'yxatga olish uchun maxsus daftar (sahifalangan, tikilgan va muhrlangan) yuritadi va unda quyidagilarni qayd etadi:

- tartib raqami;
- psixolog kadrlarning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- sertifikatning seriyasi va tartib raqami;
- sertifikat berilishiga asos bo'lgan komissiya qarorining sanasi va tartib raqami;
- sertifikatni bergen komissiyaning nomi;
- sertifikatning amal qilish muddati;
- sertifikat nusxasi (dublikati)ning berilishi asosi va sanasi.

47. Psixolog kadrlarning mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdori ularning malaka toifasi sertifikati asosida belgilanadi.

48. Sertifikatning amal qilish muddati tugagan psixolog kadrlarga mutaxassis lavozimi bo'yicha haq to'lanadi.

Homiladorlik, tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tilida bo'lgan psixolog kadrlarga ish faoliyatiga qaytganida ta'tilga chiqish sanasiga qadar amalda bo'lgan malaka toifasi bo'yicha bir yil davomida haq to'lanadi.

49. Sertifikatning amal qilish muddati tugab, mutaxassis lavozimi bo'yicha haq to'lanayotgan psixolog kadrlar navbatdagi attestatsiyaga oxirgi sertifikatida ko'rsatilgan malaka toifasi bo'yicha jalb qilinadi.

50. Attestatsiyadan o'tganligi to'g'risida sertifikatga ega bo'lмаган исга янги қабул қилинган ўксуд олий та'лим музассаларини битирib, биринчи бор исга кирган psixolog kadrlarga quyidagi tartibda malaka toifasi:

- bakalavr darajasiga — mutaxassis lavozimi;
- magistr darajasiga ega, shuningdek, олий ма'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan олий ма'lumotli psixolog kadrlarga — ikkinchi malaka toifasi (ushbu malaka toifasi attestatsiya natijasiga ko'ra o'zgarishi mumkin);

-falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki psixologiya fanlari doktori (Doctor of Science Psihology (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan psixolog kadrlarga — oliy malaka toifasi (ushbu malaka toifasi attestatsiya natijasiga ko‘ra o‘zgarishi mumkin) beriladi.

### **5-bob. Attestatsiya natijalari yuzasidan murojaat qilish tartibi**

51. Attestatsiya komissiyalari qaroridan norozi bo‘lgan psixolog kadrlar attestatsiya natijalari e’lon qilingan kundan boshlab o‘n kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) berishlari mumkin.

52. Apellyatsiya komissiyasi attestatsiya boshlangandan keyin uch kun ichida psixolog kadrlarning arizalarini ko‘rib chiqish uchun tegishliligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i bilan besh kishidan iborat tarkibda Respublika tashxis markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligida tashkil etiladi.

53. Apellyatsiya komissiyasining ish tartibi apellyatsiya komissiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi buyruqda belgilanadi.

54. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga attestatsiya komissiyalari tarkibidan a’zo kiritilmaydi.

55. Apellyatsiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish maqsadida jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

56. Apellyatsiya komissiyasi yig‘ilishida komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, uning qabul qilgan qarori qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

57. Ariza (shikoyat) ro‘yxatga olingan kundan boshlab o‘n besh kun muddatda ko‘rib chiqiladi.

58. Murojaat etuvchi psixolog kadr apellyatsiya komissiyasi tomonidan arizasi (shikoyati) ko‘rib chiqilishi jarayonida ishtirok etishi mumkin.

59. Apellyatsiya komissiyasi attestatsiya komissiyasi qarorini o‘zgartirishsiz qoldirish yoki uni bekor qilib, qayta attestatsiya tashkil etish haqida qaror chiqaradi.

60. Apellyatsiya komissiyasi qarori nusxasi murojaat etuvchi psixolog kadrga va tegishli attestatsiya komissiyasiga apellyatsiya komissiyasi qarori chiqqan kundan e'tiboran besh kun muddatda taqdim etiladi.

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

61. Attestatsiya komissiyasi yoki apellyatsiya komissiyasi qarori yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

62. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga

### **1-ILOVA**

#### **Psixolog kadrlarning attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish**

##### **SXEMASI**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Sub'ektlar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddatlari</b>
1-bosqich	Hududiy xalq ta'limi boshqarmalari, tegishli oliy ta'lim muassasalari, Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari	Keyingi yilda attestatsiyadan o'tish muddati keladigan psixolog kadrlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishliligi bo'yicha Respublika tashxis markaziga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga hamda Pedagogik	Har yili 15- dekabrga qadar

		innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutiga taqdim etadi.	
2-bosqich	Respublika tashxis markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Attestatsiyadan o‘tish muddati kelgan psixolog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga kiritadi.	Har yili 10- yanvarga qadar
3-bosqich	Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi	Attestatsiyadan o‘tkazish jadvalini tasdiqlaydi.	Har yili 20- yanvarga qadar

4-bosqich	Respublika tashxis markazi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi	Attestatsiya komissiyalari tarkibini tasdiqlaydi.	Har yili 25 -yanvarga qadar
5-bosqich	Attestatsiya komissiyalari	Psixolog kadrlarning faoliyatini tahlil qiladi, xorijiy tillar, kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalarini bilish hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarini aniqlash yuzasidan suhbat o‘tkazadi va tegishli qaror qabul qiladi.	Har yili mart-iyun oylarida
6-bosqich	Attestatsiya komissiyalari	Attestatsiya komissiyalarining qaroriga ko‘ra oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifasiga ega bo‘lgan psixolog kadrlarga sertifikat topshiradi.	Attestatsiya o‘tkazilgandan so‘ng bir oy mobaynida

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasasidagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga

## 2-ILOVA

## Psixolog kadrlarning attestatsiya natijalarini

### BAHOLASH MEZONLARI

T/r	Baholash ob'ekti	Ball
1.	<b>Trening-mashg'ulot ishlari</b>	<b>jami 100 ball</b>
	<b>Darslarning psixologik tahlillari uchun (o'quv yili davomida):</b>	<b>30 ball</b>
	34 ta va undan ortiq darslarning psixologik tahlili	30 ball
	21 tadan 33 tagacha darslarning psixologik tahlili	20 ball
	11 tadan 20 tagacha darslarning psixologik tahlili	10 ball
	<b>Trening mashg'ulotlarini o'tganligi uchun (o'quv yili davomida):</b>	<b>30 ball</b>
	to'rt va undan ortiq trening mashg'ulotlari o'tgan bo'lsa	30 ball
	uch marta trening mashg'uloti o'tgan bo'lsa	20 ball
	ikki marta trening mashg'uloti o'tgan bo'lsa	10 ball
	<b>Ilg'or va interfaol usullardan foydalangan holda ixtiyoriy trening mashg'ulotini o'tish:</b>	<b>40 ball</b>
2.	Ekspert guruhi tomonidan trening mashg'ulotlari tahlil etiladi hamda ilg'or va interfaol usullardan to'liq foydalanib, maqsadga erishilgan mashg'ulotga maksimal (40) balgacha baholanadi. Ushbu shartlar to'liq bajarilmaganda maksimal ball qo'yilmaydi.	
	<b>Mehnat samaradorligi</b>	<b>jami 100 ball</b>
	Seminarlar (2 ta va undan ortiq seminar mashg'uloti o'tilganda)	10 ball
	Davra suhbatlari (3 ta va undan ortiq davra suhbat o'tilganda)	5 ball

	O‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan olib borilgan individual ishlar	10 ball
	Psixologik-pedagogik tashxis, psixokorreksiya va kasbhunarga yo‘naltirishga oid amalga oshirilgan ishlar	20 ball
	Konferensiyalardagi ma’ruzalar bilan ishtiroki, ish faoliyatiga kiritgan yangiliklari	10 ball
	Mualliflik ish qo‘llanmalarining mavjudligi	20 ball
	Malaka va mahoratini oshirganligi	10 ball
	Psixologik xizmat yo‘nalishidagi hujjatlarning mavjudligi	15 ball
3.	<b>Mutaxassisligi bo‘yicha malaka sinovi</b>	<b>jami 100 ball</b>
	<b>40 ta savoldan iborat test savollariga javob berganligi uchun</b>	<b>100 ball</b>
	har bir savolga berilgan to‘g‘ri javob uchun	2,5 ball
4.	<b>Xorijiy tillar, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish hamda ijtimoiy-siyosiy bilimlarni aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan suhbat yakunlari</b>	<b>jami 100 ball</b>
	<b>Xorijiy tillarni bilganligi uchun:</b>	<b>30 ball</b>
	tinglab tushunganini og‘zaki bayon eta olsa, og‘zaki erkin muloqot qila olsa	30 ball
	tinglab tushunsa va tinglab tushunganini og‘zaki bayon eta olsa	20 ball
	sodda matnlarni o‘qiy olsa, o‘zi haqida ma’lumot bera olsa	15 ball
	<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilganligi uchun:</b>	<b>30 ball</b>
	Internet resurslari, multimedia vositalari va mahsulotlaridan maqsadli foydalana olsa va ofis dasturlari yordamida o‘quv-metodik, ko‘rgazmali materiallarni	30 ball

tayyorlay olsa		
ofis dasturlari (matn muharriri, elektron jadval, taqdimot) yordamida o‘quv-metodik, ko‘rgazmali materiallarni tayyorlay olsa	20 ball	
kompyuter tuzilishi va imkoniyatlarini bilsa, ofis dasturlaridan (matn muharriri, elektron jadval, taqdimot) foydalana olsa	15 ball	
<b>Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni egallaganligi uchun:</b>	<b>40 ball</b>	
jahonda va respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘lgan muhim voqeliklardan, so‘nggi voqeа-hodisalardan xabardor bo‘lsa hamda ularning ijobiy va salbiy jihatlarini erkin tarzda tahlil qila olsa	40 ball	
respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘lgan muhim voqeliklardan, so‘nggi voqeа-hodisalardan xabardor bo‘lsa hamda ularga nisbatan o‘z munosabatini bildira olsa	30 ball	
respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo‘lgan muhim voqeliklardan va so‘nggi voqeа-hodisalardan xabardor bo‘lsa	20 ball	

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT  
XONASINI TASHKIL ETISH BO'YICHA  
YO'RIQNOMA**

**I .Umumiy koidalar**

Psixologik xizmat xonasi O'zbekistan Respublikasi umumta'lismaktablarida barkamol insonni shakllantirish, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual jihatdan rivojlanishini tashxis qilish, ta'lismarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniklash, o'quvchilarning intellektual rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarni o'z vaqtida oldini olish, shuningdek, o'quv jarayonida o'quvchining qobiliyatları, imkoniyatları, o'ziga xos (individual) xususiyatlarını o'rganish, kasb-xunarga moyilliklari, qiziqishlari va ko'nikmalarini xisobga olgan xolda, ularga akademik litsey yoki kasb-xunar kollejlaridagi ta'lismalishini tanlashda ko'maklashish, oilada, jamoada uning a'zolari o'rtaida sodir bo'ladigan turli nizolar sababli shaxsdagi ruhiy kechinmaparni yengillashtirish, stress xolatlarni bartaraf etish, maktab pedagogik jamoasini hamda o'quvchilar va ota-onalarni psixologik bilimlarni egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirishga qaratilgan turli mashg'ulotlar, o'quvlar, ma'ruzalar, treninglar, individual suhbatlarni yetarli jihozlar bilan ta'minlangan qulay sharoitda amalga oshirish maqsadida tashkil etiladi.

**II. Psixologik xizmat xonasining asosiy vazifalari**

O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga psixologik maslahat berish, psixologik tashxis, psixologik korreksiyaga oid tadbirlarni o'tkazish, tarbiya va axloq masalalarida o'qituvchilar va murabbiylar bilan hamkorlikda kechalar, davra suxbatlari, ko'rik-tanlovlar, korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, psixologik treninglar va o'quvchilar orasida tushuntirish ishlarini tashkil etish, shaxs va jamoaga faol ruhiy ta'sir o'tkazishga oid ruhiy muvozanatlashtirish treninglarini olib borish, o'quvchilarning layoqati, qiziqishi va qobiliyatlarini tashxis qilish hamda ularning qobiliyatlariga mos kasb-xunarlarni ongli tanlashlariga ko'maklashish uchun qulay sharoit yaratish.

### **III.Psixologik xizmat xonasiga qo‘yiladigan talablar**

Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida psixologik xizmat xonasining tashkil etilishi, o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bilan shaxsning har tomonlama kamol topishi, ma’naviy hamda aqliy rivojlanishi, o‘zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun tegishli sharoitlar yaratishga imkon beradi.

Psixologik xizmat xonasining faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlar doirasida talablar qo‘yiladi.

- 1.Pedagogik talablar.
- 2.Psixologik-fiziologik talablar.
- 3.Texnika xavfsizligi va gigienik talablar.
- 4.Estetik talablar.

#### **Pedagogik talablar**

Psixologik xizmat xonasida korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, psixologik tashxis, psixotreninglar, individual suhbat, psixologik maslaxatlar bilan bir qatorda turli psixologik o‘quvlar o‘tkaziladi, psixologik va kasb-hunarga yo‘naltiruvchi bilimlar beriladi.

Yukoridagi vazifalardan kelib chiqib, psixologik xizmat xonasining jihozlanishida pedagogik muhit yaratish, shaxsning ruhiyatiga xonaning ijobiyligini ta’sir o‘tkazishi inobatga olinib, u barcha pedagogik mezonlar va me’yorlarga mos kelishi kerak.

#### **Psixologik-fiziologik talablar**

Psixologik xizmat xonasini jihozlashda xonaning ta’mirlanishi, jihozlari va materiallarining barchasi psixologik-fiziologik qonuniyatlarga amal qilingan, qo‘llashda qulay bo‘lishi, ulardan foydalanganda o‘qituvchi va o‘quvchilarda qanoatlanish hissiyotlarini uyg‘otishi nazarda tutiladi.

#### **Texnika xavfsizligi va gigenik talablar**

Xonaga o‘rnatilgan barcha elektrotexnika jihozlari, jumladan, shaxsiy kompyuterning elektr tarmoqlariga ulanishi texnika xavfsizligi qoidalariga javob berishi kerak;

Psixologik xizmat xonasini yoritgichlar bilan ta'minlashda ularning zamonaviyligiga, butun xonani me'yorida yoritishiga va xavfsizligiga e'tibor qaratiladi;

Psixologik trening mashg'ulotlari, psixologik tashxis qilish va individual suhbat o'tkazish jarayonlarida texnika vositalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilinishi lozim.

### **Estetik talablar**

Psixologik xizmat xonasidagi jihozlar, axborot beruvchi vosita va materiallarning umumiy ko'rinishi estetik talablarga mos kelishi, did bilan jihozlanishi hamda ularning zamonaviy bo'lishiga e'tibor qaratilishi, bu o'quvchilarning go'zallikka bo'lgan ijobiy intilishini tarbiyalashiga ahamiyat berilishi lozim.

### **Xonaning o'kuv va moddiy -texnik ta'miioti**

Umumta'lim maktablaridagi psixologik xizmat xonasi, mакtab binosining birinchi qavatida, kasb-hunarga yo'naltirish va tibbiy xizmat xonasi bilan yonma – yon, ya'ni bitta binoda bo'lishi maqsadga muvofiq. Mazkur xona uchun kamida 36 kv.m, maydondagi xona ajratiladi.

Psixologik xizmat xonasining o'ng tomoiidagi burchagining 5 kv.m, joyi individual suhbat o'tkazish burchagi uchun, 16 kv.m, esa shkaf, stol-stul, doska va boshqa jihozlar uchun, 15 kv.m, joy o'quvchilarning erkin harakatlanishlari uchun qoldiriladi.

### **Xona jihozlari va ularga qo'yiladigan talablar**

	<b>Jihozlar nomi</b>	<b>Soni</b>	<b>Tavsiya etiladigan sifatlari</b>
	Shkaf (burchakli)	1 ta	Yog'och raigida
	Stol (individual) va stullar	15 ta	Och yashil yoki yogoch rangida

	Psexolog uchun stol-stul (2 ta tortmali stol)	1 ta	Yog‘och rangida
	Doska (kuchma)	1 ta	Ok yoki to‘q yashil
	Kichik jurnal stoli (individual suhbat burchagi uchun)	1 ta	Oynali
	Kreslo (individual suxbat burchagi uchun)	2 ta	Oq yoki yashil rangda
	Xona deraza tokchalariga tuvakli tabiiy gullar	10 ta	Turli nom va navlardagi
	Pardalar (jalyuz) derazalar soniga karab		Oq rangda
	Gilam	2 ta	Jigar rang
0	Akvarium (balıklari bilan)	1 ta	-
1	100x70 sm ulchamdagи ko‘zgu (ruhiy yengillashtirish uchun)	1 ta	Tryumo ko‘rinishida
2	Kompyuter, printeri bilan	1 ta	Oq yoki kul rang
3	Yoritgich (stol lampasi)	1 ta	Oynali
4	Gul qog‘oz (Fotooboi) - tabiat manzarasi	1 ta	Moviy, och yashil
5	Alohida kitob javoni (psixologik adabiyotlar uchun)	1 ta	Moviy, och yashil

### Xonadagi jihozlarning tavsifi

Jihozlarning rangi, tuzilishi, dizayni, qulayligi shaxs psixologiyasiga katta ta’sir ko‘rsatishini inobatga olib, psixologik xizmat xonasini ta’mirlashda va jihozlarni tanlashda ularning rangiga, joylashtirish uchun qulayligiga, biriiing ikkinchisi bilan uyg‘unlashib ketishiga ahamiyat berilishi lozim.

Och yashil rangning shaxsni tinchlantiruvchi hususiyati inobatga olinib, psixologik xizmat xonasi devorlarining rangi och yashil bo‘lishi tavsiya etiladi.

Polning jigar rangda bo‘lishi esa shaxsda o‘ziga ishonch va kat’iyatlilik hislarini uyg‘otadi. Xonaning shifti oq rangda bo‘lishi, shaxsda yengil kayfiyat hissini uyg‘otib, diqqatini jamlashga yordam beradi.

Psixologik xizmat xonasida o‘quvchilar uchun 15 ta individual stol, 15 ta yumshoq stul va psixolog uchun 1 ta stol, 1 ta stul bo‘lishi lozim. Xonada o‘tkaziladigan mashg‘ulotlariing shartlariga ko‘ra stol va stullar turlichayoylashtiriladi. Individual stollarni tanlash va turli shakllarda joylashtirish, psixolog uchun o‘quvchiga individual yondoshish imkoniyatini beradi va o‘quvchilar orasidagi oraliq masofa buzilmaydi. Oraliq masofaning buzilmasligi esa, xar bir shaxsning ruhiyatiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatib, ularning erkin va mustaqil fikrashi hamda o‘zida ishonch tuyg‘ularini shakllantirishda yordam beradi.

Imkoniyat darajasida psixologik xizmat xonasiga burchaklilarini, ya’ni burchaklari aylana shakldagi jihozlarni tanlash va to‘g‘ri joylashtirish tavsiya etiladi. Xona jihozlaridagi qirra va to‘g‘ri burchaklar aqliy mexnat jarayonida fikrlar izchilligi, mantiqiy bog‘liqlik va shaxsning ong osti faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xonadagi jihozlarning rangi devor rangi bilan uyg‘unlashishi makon kengligi va psixologik shinamlikni vujudga keltiradi. Shuning uchun jihozlarning rangini tanlashga alohida e’tibor bilan qarash kerak.

Psixologik xizmat xonasidagi shkaf xonaning chap tomoniga joylashtirilib, uning bir tomonida me’yoriy xujjatlar, diagnostika natijalari, ish xujjatlari, ikkinchi tomonida ko‘rgazmali quollar, didaktik materiallar, psixodiagnostik test va uslubiy qo‘llanmalar, jurnal va boshqa psixologik adabiyotlar joylashtiriladi.

Psixologik xizmat xonasida internet tizimiga ulangan personal kompyuter va printer bo‘lishi, psixologga internet tarmog‘iga chiqish, multimediyadan unumli foydalanish, o‘qituvchi va o‘kuvchilar o‘rtasida turli psixologik hamda intelektual testlarni o‘tkazish, barcha psixodiagnostik ma’lumotlar banklarini to‘plash imkoniyatini beradi.

Amaliyotchi psixolog maktabda psixologik ma’rifat va tashviqot, psixologik profilaktika, korreksiya, maslahat va kasb-xunarga yo‘naltirish ishlarini olib borish

bilan birga, maktabda o'tkaziladigan tadbirlarga psixologik xulosalarini berib boradi. Bunday hajmdagi ishlarni olib borish uchun albatta, kompyuter bo'lishi lozim.

Psixologik xizmat xonasining derazalarida oq pardal yoki zamonaviy jalyuzalar bo'lishi shaxsda jo'shqinlik hissini uyg'otadi, mehnat faoliyatining samaradorligini ortishiga olib keladi.

Xonaning o'ng tomonida individual suhbatlarga mo'ljallangan psixologik burchak tashkil etilib, ikkita kreslo, jurnal stoli, stol lampasi, tuvklarda xonaki gullar joylashtiriladi. Kreslo suhbat vaqtida bemalol o'tirishga imkoniyat yaratadi, xonadagi tabiiy gullar shaxsning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda xona havosini yangilaydi. Psixologik xizmat olib borishda akvariumning bo'lishi shaxsga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, undagi diqqat turg'unligini oshiradi.

Xona poygagidagi devorning 6 kv.m. ga tabiat manzarasi aks ettirilgan gulqog'oz yopishtiriladi. Gulqog'ozni tanlashda albatta tabiat manzarasi bo'lishi va unda tabiatning eng chiroqli manzaralaridan tog', sharshara, yaylovlar, gulzorlar, daryo va dengizlarning bo'lishiga e'tibor qaratish zarur. Eng ahamiyatli jihatlardan biri esa gulqog'ozdagi ranglarning xona rangiga uyg'un, ya'ni, tabiat manzaralarida moviy, och yashil ranglar ko'proq bo'lib, ochiq havo manzarasi bo'lishi kerak. Bunday ranglarni tanlash xonada psixologik muhitni yaratishga, shaxs tasavvurini rivojlantirishga imkoniyat beradi va psixotrenenglarni o'tkazishda ko'rgazmali material sifatida ham xizmat kiladi.

Tabiat manzaralari rasmini tanlashda qo'rqinch, xavotir hislarini paydo kiluvchi to'q rangli qalin o'rmonlarni, cho'l va sahrolarni, qiyalik va tog'utoshchlarni tanlamaslik kerak. Bunday tabiat manzaralari shaxsda qo'rqish, tushkunlik, ta'sirchanlik hayolarini paydo qilib, xonadagi psixologik muhitni buzadi va individual suhbat, psixotrening hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xonada xarakatlanuvchi ko'chma doska bo'lishi, trening targ'ibiga ko'ra mashg'ulotlarni olib borishda, joyni xohlagan tartibda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Doskaning oq rangda bo'lishi turli rangdagi markerlardan foydalanish

uchun qulaylik yaratib, trening jarayonida o‘kuvchilarning e’tiborini tortishga, mashg‘ulotlarni rang-barang va qiziqarli o‘tishiga yordam beradi.

Pol va gilamning jigar rangda bo‘lishi shaxsda ishonch va kat’iyatlilik xislarini uyg‘otadi. Xonada gilam-palosning bo‘lishi shinamlikni ta’minalash bilan birga korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar va treninglarni o‘tkazishda o‘qituvchi va o‘kuvchilarning erkin xarakatlanishlari uchun xizmat kiladi.

Psixologik xizmat xonasiga kirishdagi yo‘lakda «Ishonch qutisi» joylashtiriladi. Ishonch qutisining eni 25 sm va buyi 35 sm o‘lchamda (qulf-kalitli) bo‘ladi. Qutining yuza qismiga «Ishonch qutisi» deb yoziladi. «Ishonch qutisi» o‘kuvchilarning sirli savol va muammolari paydo bo‘lganda psixolog bilan ilk muloqotga kirishish vositasi hisoblanadi.

«Psixologik maslahatlar», «Psixologik monitoring» stendlari va «Ishonch qutisi» yo‘lakka psixologik xizmat xonasining eshigi yoniga joylashtiriladi.

«Psixologik maslahatlar» burchagi qizikarli psixologiya, psixologiya yo‘nalishidagi yangiliklar, umumiy yo‘nalishidagi psixologik maslahatlar, g‘aroyib xodisalarga oid ma’lumotlar, risolalar, qo‘llanmalar va testlar bilan jihozlanadi. Mazkur burchakdagi ma’lumotlarni boyitib borish va ularni tez-tez yangilab turish o‘kuvchi, o‘qituvchi hamda ota-onalarning psixologik bilimlarini, psixologiya faniga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

«Psixologik monitoring» burchagida psixologik xizmat yo‘nalishida olib borilayotgan ishlarning monitoringi natijalari aks etishi kerak.

## **V.Psixologik xizmat xonasida yuritiladigan va saqlanadigan xujjatlar**

Psixologik xizmat xonasida quyidagi ish xujjatlari bo‘lishi va o‘rnatilgan tartibda yuritilishi lozim.

### **Psixologik xizmat xonasining pasporti**

O‘quv yili\_\_\_\_\_

Xonaga javobgar shaxs\_\_\_\_\_

Sentabr oyi holatiga mavjud jihozlar\_\_\_\_\_

Yanvar oyi holatiga mavjud jihozlar\_\_\_\_\_

Iyun oyi holatiga mavjud jihozlar\_\_\_\_\_

Psixologik xizmat ko‘rsatish xonasidagi rasmiy va me’yoriy ish hujjatlariga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

Amaliyotchi psixologlar mакtabda psixologik xizmatning 6 ta (psixologik ma’rifat, psixologik-pedagogik tashxis, psixologik profilaktika, psixologik korreksiya va rivojlan-tirish, psixologik maslahat, kasb-hunarga yo‘naltirish) yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat olib boradi va ulardan mazkur yo‘nalishlar doirasidagi ish xujjatlarining yuritilishi talab etiladi.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida psixolog tomonidan yuritilgan xar bir xujjat birinchidan, psixologning uzi uchun o‘quvchi shaxsining barcha jihatlari, uning oilaviy muhiti, atrofdagilarning ta’siri, xatti-xarakati hamda hulq-atvoridagi o‘zgarishlar, buzilishlar va boshqalar xususida to‘plangan ma’lumotlar tizimining yaratilishiga, ushbu ma’lumotlarni birini ikkinchisi bilan taqqoslashdan olingan xulosalarning to‘planib borishiga imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, ish xujjatlarining mavjudligi psixolog faoliyatining bosqichma-bosqich, tizimli ravishda borishini va yuqori natijalar olishga erishilishini ta’minlaydi.

### **Rasmiy va me’yoriy xujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’limga, voyaga yetmaganlar huquqlarini muxofaza qilishga oid qonun xujjatlari, Respublika Prezidenta va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmon va farmoyishlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi muassasalarida psixologik xizmat to‘g‘risida Nizom.

3. O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi yoshlarni kasb-xunarga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiysi.

4. Me’yoriy xujjatlar to‘plami (buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar, bayonnomalar).

5. «Maktab va hayot» jurnalining to‘plamlari.

6. «Psixologiya» ilmiy jurnalining barcha sonlari

## 7. Xisobotlar.

Shuningdek, yuqori tashkilotlardan kelgan xujjatlar ijrosini nazorat kilish daftari yuritiladi.

### **Tarqatma (didaktik) materiallar**

1. Testlar
2. So‘rov varaqalari
3. Javob varaqalari
4. Trening dasturlariga doir turli tarqatma materiallar
5. Korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga doir tarqatma materiallar.
6. Psixologik tashxis qilishga doir tarqatma materiallar

### **Xonaning o‘quv metodik ta’minoti**

1. Psixologik-pedagogik tashxis metodikalari majmuasi.
2. Kasb-hunarga yo‘naltiruvchi tashxis metodikalari majmuasi.
3. Korreksion mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘llanmalar.
4. “Psixologik salomatlik maktabi” korreksion mashg‘ulotlar to‘plami (2002, 2005, 2007- yillar)
5. 6 yoshli bolalarii maktabga tayyorlik darajasini aniqlash bo‘yicha metodikalar to‘plami.
6. Trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha metodikalar majmuasi.
7. Iqtidorli va iste’dodli bolalarni aniqlash hamda ular bilan ishslash bo‘yicha test savollari, uslubiy qo‘lanmalar.
8. Tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishslash, individual suhbat bo‘yicha metodikalar.
9. Iqtidorli va iste’dodli, shuningdek, tarbiyasi og‘ir, pedagogik qarovsiz bolalar, ularning oilalari to‘g‘risida ma’lumotlar banki.
- 10.CD disklari (testlar, ko‘rgazmali materiallar, metodikalar).

## **Psixologik ma'rifatga doir xujjatlar**

1. Pedagogika kengashi, seminar, metod birlashma, ota-onalar majlislari uchun tayyorlangan psixologik materiallar va ma'ruzalar.
2. Pedagog xodimlarning psixologik bilimlarini oshirish bo'yicha tadbirlar materiallari.
3. O'kuvchilarning psixologik bilimlarini oshirish bo'yicha tadbirlar materiallari.

### **Psixologik-pedagogik tashxisga doir xujjatlar**

1. Psixologik tashxis metodikalari:
  - iqtidorli bolalarni aniqlashga doir metodikalar;
  - pedagog xodimlar bilan ishlashga doir metodikalar;
  - 6 yoshli bolalarning maktabga moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganishga doir metodikalar; o'zlashtirishi past, ruhiy og'ish va kechikishlarni tashxis etishga doir metodikalar; jamoada ijtimoiy muhitii o'rganishga doir metodikalar; o'kuvchilarni kasb-hunarga qiziqishi, qobiliyati, layoqatini tashxis qilish bo'yicha metodikalar.
2. 6 yoshli bolalarni hisobga olish jurnali.
3. Tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish natijalari.
4. Psixologik tashxisning kayta ishlangan natijalari, rasmiylashtirilgan xulosalar, berilgan tavsiyalar.
5. Guruxiy psixologik tashxisning kayta ishlangan natijalari, rasmiylashtirilgan psixologik xulosalar.
6. "Psixologik-pedagogik tashxis daftari"

## **Psixologik profilaktikaga doir xujjatlar**

1. Pedagoglar uchun ma'ruza, suhbat va trening materiallari.
2. Darslarning psixologik tahlili va beriladigan tavsiyalar.
3. Psixologning maktabda psixologik muhitni o'rganish va uni barqarorlashtirish xususida olib borgan tadbirlari materiallari.

#### 4. Pedagogik konsiliumlar materiallari.

#### **Psixologik korreksiya va rivojlantirishga doir xujjatlar.**

##### 1. Korreksion va rivojlantiruvchi metodikalar:

Fanlarni sust o‘zlashtirayotgan yoki o‘zlashtira olmayotgan bolalar bilan individual va guruxdashtirilgan korreksion mashg‘ulotlar; ziddiyatli va nizoli vaziyatlarni yumshatish bo‘yicha korreksion mashg‘ulotlar; o‘kuvchilarining psixik rivojlanishida sodir bo‘ladigan salbiy o‘zgarishlar, ruhiy og‘ish va kechikishlarning oldini oluvchi korreksion mashg‘ulotlar ishlanmalari.

#### **Psixologik maslahatga doir xujjatlar**

1. Psixologik maslaxat daftarlari: o‘kuvchilar bilan olib boriladigan individual suxbatlar; o‘qituvchilar bilan olib boriladigan individual suxbatlar; ota-onalar bilan olib boriladigan individual suxbatlar; rahbar xodimlar uchun individual suxbatlar.

#### **Kasb-hunarga yo‘naltirishga doir xujjatlar**

1. Tashxis xaritalari
2. Kasb-xunarga yo‘naltirish bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar
3. Kasb-xunarga yo‘naltiruvchi treninglar dasturlari
4. Kasb-xunarga yo‘naltirish komissiyasining bayonnomalari
5. Tavsiyanomalar berilishini qayd qilish jurnali
6. Respublikada, viloyatda va xududda faoliyat ko‘rsatayotgan akademik litseylar va kasb-xunar kollejlari to‘g‘risida axborotnomalar, o‘quv filmlari, video roliklar.

To‘plangan barcha ma’lumotlar maxsus papkalarda psixologik xizmat xonasida saqlanadi.

O‘kuvchilar, ota-onalar, muassasa raxbarlari, o‘qituvchilar shaxsi bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar psixolog tomonidan sir saklanishi va qulflanadigan shkaflarda jamlanishi shart.

## TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING TASHKIL ETILISHI

### **Ta'lismuassasalarida psixologik xizmat amaliyotiga qo'yilgan talablar.**

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to'la-to'kis javob bera oluvchi ta'lismizining muvaffaqiyatli tadbiqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ta'lismizning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o'quv faoliyatining har bir o'quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas'uliyatlari vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, bolalarni maktab ta'limga tayyorlashda, o'quv topshiriqlarini takomillashtirishda, o'quvchilarni u yoki bu kasbga yo'naltirishdagi o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini va qiziqishlarini aniqlashda, ularni o'z-o'zini anglashlarida, o'quv jarayoni, o'quvchilar jamoasi, o'quvchi-o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq barcha muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlashdagi psixolog -olimlarning bugungi yutuqlari haqida yetarli dalillar mavjud. Masalan, I.V.Dubrovina tadqiqotlarida maktabda psixologik xizmatni tashkil etishdagi nazariy va amaliy jihatlarning asoslanishi, L.I.Bojovichning o'quvchi shaxsi va uning maktab yoshidagi shakllanish bosqichlarini psixologik tasniflovchi empirik ma'lumotlari, A.G.Asmolov-ning o'quvchi faoliyati va ustamovka uyg'unligini izohlab beruvchi tadqiqotlari, D.I.Feldshteynning ontogenezda rivojlanuvchi shaxs ijtimoiy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqiy ko'rsatmalari, Ye.A.Klimovning o'quvchini kasbga yo'naltirishdagi individual uslubni o'zida mujassamlashtirgan psixologik ishlanmalari, V.S.Merlinning o'quvchi shaxsidagi individual va sotsial tipik xususiyatlar psixologiyasini izohlab berishga qaratilgan asarlari, E.G'.G'ozievning ta'lismuassasalaridagi psixologik xizmat vazifalarini qayd etishga bag'ishlangan

ko‘rsatmalari, M.G.Davletshinning O‘zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holati va vazifalarini talqin qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, G‘.B.Shoumarovning Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bilan bog‘liq yangiliklar, muammolar va yechimlarga bag‘ishlangan nazariy-ilmiy va ijtimoiy-amaliy ahamiyatga molik fikr-mulohazalari, Sh.R.Barotovning ta’limda psixologik xizmat amaliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari, B.R.Qodirovning O‘zbekistondagi iqtidorli va iste’dodli bolalarni tanlash va tarbiyalashga qaratilgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy asarlari shular jumlesi-dandir.

Ayniqsa, bugungi kunda o‘zbekistonlik psixologlar guruhi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta’limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi Nizom”ning ishlab chiqilishi va uni Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O‘zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda “jonlanishi” va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu “Nizom” ta’lim muassasalarida tadbiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari haqida yetarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun o‘ziga xos qo‘llanma va yo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Xuddi ana shu “yo‘llanma” asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta’lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o‘quvchi shaxsini har tomonlama tushunish tahlil qilish va rivojlantirish borasida o‘ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero hamma rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalinish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o‘quv maskanlaridagi har bir o‘quvchi shaxsiga, o‘quvchilar jamoasiga bo‘lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan psixologik xizmat tizimi uchun mo’ljallangan “Psixologik xizmat Nizomiga” kiritilgan barcha vazifalar ma’noda o‘quvchisining psixologik himoyalanishini shakllantirishga qaratilgan vazifalar sifatida talqin qilish mumkin. Chunki, psixologik xizmat jarayonida har bir o‘quvchini o‘zini-o‘zi anglashga, o‘zidan-o‘zi unumli foydalanishga, o‘z individual imkoniyatlarini namoyon qilishga va rivojlantirishga, faoliyat jarayonida sodir etilishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarga va ayrim tanglik holatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan tadbirlar ko‘lami muntazam ravishda amalga oshirilib boriladi. Bularning barchasi esa ayni paytda, psixologik muhofaza imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan uslubiy vositalar bilan ham xarakterlanadi. Shunga muvofiq, bugungi kunda maktab amaliyotchi psixologlari o‘quvchi faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik muhofazani takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirmoqdalar.

1.Har bir sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitning har bir o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sirini tarkib toptirish.

2.Har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatiga nisbatan o‘z-o‘ziga adekvat baho bera olishini ta’minalash.

3.Har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini bilishi, anglash, idora qilish va o‘z-o‘zidan ijtimoiy ma’noda muvaffaqiyatli qoniqish hosil qilishi uchun shart-sharoitlarni hozirlash.

4.Har qanday o‘quv faoliyati talablarini bajarish jarayonida o‘quvchining meyoriy-hissiy holat chegarasidan chiqib ketmasligi uchun barcha tadbirlarni qo‘llash.

5.O‘quvchining faoliyat talablariga va aksincha, faoliyat talablarining o‘quvchi shaxsiga moslasha olishlarini ta’minalash.

6.O‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-jamoa o‘rtasi-dagi hamkorlik faoliyati uchun muhim muvaffaqiyatli munosabatlar o‘rnatila borishni muntazam nazorat ostiga olish.

7.O‘quv faoliyati talablarini muvaffaqiyatli bajari-lishini ta’minlashga xizmat qiluvchi o‘quvchi shaxsi faolligi bilan bog‘liq individual uslub imkoniyatlarini o‘rganish va qaror toptira borish.

8.Har bir o‘quvchini maktabga qabul qilishda u yoki bu fan bo‘yicha chuqr o‘zlashtiruvchi sinflarga jalb etish orqali kasb tanlashga yo‘llashda tegishli ilmiy amaliy tavsiyalar berib borish.

9.K.K.Platonovning “Shaxs strukturasi” usuli asosida va unga Sh.Barotov tomonidan ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan holda qayta ishlab chiqilgan “Shaxs kartasi” ustida ish olib borish (har bir o‘quvchi bilan albatta )

10.Ye.A.Klimovning kasblarni tanlashga oid ishlab chiqqan metodikasini Sh.Barotov tomonidan o‘zbek tiliga moslashtiril-gan variantini qo‘llash asosida har bir o‘quvchi uchun tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish.

11.E.G‘.G‘oziev tomonidan tavsiya etilgan “Ta’lim muassasalari psixologining vazifalari” asosida ilmiy-amaliy ish faoliyatini rejalashtirish.

12.Umumiy psixologik xizmat Nizomi asosida psixo-profilaktik, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish.

Maktab amaliyotchi psixologlari faliyati muayyan talab asosida ishlb chiqilgan tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar va ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida tashkil etiladi.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri haqida qisqacha izoh berish mumkin:

**I Ilmiy – nazariy faoliyat yo‘nalishlari** bo‘yicha amaliyotchi psixologning quyidagi vazifalarni bajarish talab qilinadi:

- psixologik xizmatning metodologik asoslari haqida bilim, tushuncha va tassavurga ega bo‘lish;
- o‘quvchi shaxsiga psixologik yondashuv uchun samarali foyda bera oluvchi psixologik usullar, prinsiplar va metodikalarni ajrata olish;
- umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, tibbiy psixologiya fanlari bo‘yicha tegishli bilimlarni o‘zlashtirish;
- O‘zbekistondagi psixologik xizmat konsepsiysi haqida axborotga ega bo‘lish;

— o‘z-o‘zini ilmiy nzariy jihatdan takomillashtirish bilan bog‘liq kunlik, haftalik, oylik va yillik ish rejalarini tuzish va bajarish.

## **II.Ilmiy – tashkiliy foliyat yo‘nalishlari** quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z ichiga oladi:

- har kunlik, haftalik, oylik va yillik taqvimiyl ish rejasi tuzish, uni hududiy psixologik xizmat markazi tomonidan tasdiqlatish;
- psixologik xizmat xonasini kerakli jihozlar, ko‘rgazmalar va boshqa barcha materiallar bilan to‘ldirish; - Maktabdagi har bir o‘quvchi uchun “Shaxs psixologik kartasi”ni tuzish va shu ma’lumotlar (ko‘rsatkichlar) asosida tegishli psixologik tadbirlarni belgilash;
- ota – onalar, sinf rahbirlari, fan o‘qituvchilri va mакtab rahbarlari bilan bajarildigan ishlar rejasini tuzish;
- har bir sinfdagi o‘quvchilar guruhi, alohida referent, rasmiy va norasmiy guruhlar, liderlar va ayrim “ajralib qolgan ” o‘quvchilar bilan individual ish olib borish rejasini tuzish;
- o‘quvchilarni maktabga qabul qilish va kasbga yo‘llash bilan bog‘liq psixologik ishlar ko‘lamini belgilash;

## **III.Ilmiy – tadqiqiy yo‘nalishlari** bo‘yicha quyidagi vazifalarning bajarilishi nazorat qilinadi:

- maktab amaliyoti uchun zarur psixologik usullarni qo‘llash va olingan ma’lumotlarni qayta ishlash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqara olish;
- psixologik qonuniyatlarni bilish va shu asosda namoyon bo‘luvchi yosh xususiyatlari, individual xususiyatlar va o‘quv mativlariga xos jihatlarning muntazam o‘rganib borish, tadqiq qilish fikr-mulohzalar yuritish;
- o‘quvchi faolligiga, o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish orqali o‘z-o‘zini himoya qilishga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta’sir etuvchi omillarni obdon o‘rganish , tadqiq qilish va tadbirlarni belgilash;

- o‘quv faoliyati samaradorligini aniqlashga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash v tadqiq qilish;
- psixologik yondashuv samaradorligini aniqlashga xizmat qiluvchi mavzular, kuzatishlar asosida izlanishlar olib borish , u yoki bu o‘quvchida yuz berayotgan o‘zgarishlar sababini o‘rganib borish;
- o‘z kuzatishlari va amaliy faoliyat natijalari bo‘yicha ilmiy-amaliy anjumanlar uchun ma’ruzalar taylorlash.

**IV.Ilmiy – uslubiy yo‘nalish vazifalarini quyidagi tartibda belgilash ko‘zda tutiladi:**

- psixologiya fanida tan olingan va muayyan talablar asosida modifikatsiya qilingan usullarni qo‘llay olish va ulardn ilmiy maqsadlar yo‘lida umumiy foydalanishni ta’minalash;
- har bir o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos individual-psixologik imskoniyatlariga mos yondashuv yo‘llarini to‘g‘ri belgilay olish;
- shaxs va shaxslararo munosabtlar qaror topishi bilan bog‘liq ijtimoiy psixologik muhitni to‘g‘ri tashkil qilish va yo‘naltira olish;
- psixodiagnostik, psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlar ko‘laminini ilmiy jihatdan puxta va samarali tarzda rejalashtirish.
- qo‘llanilgan va qo‘llanilishi lozim bo‘lgan usullar samaradorligini muntazam nazort qilish;

**V.Ilmiy - amaliy yo‘nalishdagi vazifalar ko‘lami quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- bolalarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish;
- har bir bola iqtidorini aniqlash va unga mos ta’lim tarbiya yo‘nalishlarini belgilash;
- o‘quvchining kasbga yo‘nalaishini belgilash va maqsadli psixologik yondashuv asosida uni rivojlantirish.

- har bir sinfdagi shaxslararo munosbtlarni tahlil qilish va tegishli tavsiyalar berish;
- har bir bolaning yosh, individual-psixologik , hissiy – irodaviy xususiyatlarini aniqlash asosida tegishli tadbirlar belgilash va uni amalga oshirish;
- differensial (tabaqalashgan) ta’limga, to‘garaklarga jalb qilinuvchi o‘quvchilarni belgilashda faol ishtirk etish;
- darsning psixologik tahlili asosida ayrim o‘quvchilarga, sinf rahbarlariga va fan o‘qituvchilariga tegishli maslahatlar berish;
- ota-onlarning psixologik savodxonligini oshirishida faol ishtirok etish;
- aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bor bolalar bilan individul ishlar olib borish;
- maktab tomonidan qabul qilingan qo‘sishimcha o‘quv dastur-larini tuzishda faol ishtirok etish;
- har bir o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashi asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga nisbatan namoyon bo‘luvchi individual ish uslubini o‘rganish va rivoj-lantira borish;
- o‘quv faoliyati jarayonida namoyon bo‘luvchi har bir o‘quvchidagi me’yoriy hissiy holatning yaratilishini ta’minalash va uni nazorat qila borish;
- o‘quvchining o‘z-o‘ziga o‘zgalarga va faoliyatning ijtimoiy qimmatiga nisbatan muvaffaqiyatli munosabatlarning o‘rnatalishini nazorat qila borish;
- sub’ektiv ijtimoiy ehtiyojlarning anglanishi va qondirilishini nazorat qila borish;
- har bir o‘quvchidagi faoliyat va individual imkoniyatlar mutanosibligining ta’minalishini kuzatib borish;
- faollik va ijtimoiy ustanovka adekvatligining ta’minalishini nazorat qila borish.

Xullas, yuqoridagi yo‘nalishlarning barchasi maktabda psixologik xizmat tizimini amalga oshiruvchi amaliyotchi psixologlar faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ayni paytda, ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning bajarilish jarayoni “Nizom” da belgilangan umumiyl amaliy vazifalar – psixodiagnostik, psixologik

maorif, psixoprofilaktik, psixokorreksion va psixologik maslahat kabi amaliy ishlar ko‘laming yuqori saviyada olib borilishini ham taqozo etadi. Bu vazifalarning to‘liq mazmuni va matni “Nizom”da batafsil bayon etilgan. Ushbu “Nizom”dagi vazifalarga qo‘shimcha ravishda “psixologik himoyalanishni yanada mustaxkamlash bilan bog‘liq ayrim ishlarni ham kiritish tavsiya etiladi. (Sh.Barotov - 1997)

Masalan: Psixodiagnostik ishlar ko‘lamni bo‘yicha “NIZOM”da ko‘rsatilgan 18 ta vazifaga (“Nizom” ning 6-9 betlariga qarang) qo‘shimcha qilib, yana quyidagi 3 ta vazifa (ya’ni 19-20 va 21 vazifalarni) bajarish amaliyotchi psixologlarga yuklatiladi: o‘quv faoliyatining tashkil etilishi va o‘quvchining individual imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro adekvatlikning qay darajada qaror toptirilayotganligini aniqlash (1-qo‘shimcha topshiriq).

Har bir o‘quvchining o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish bilan bog‘liq individual uslubini anqlash (2-qushimcha topshiriq). O‘quv faoliyati jarayonida xar bir o‘quvchining o‘z-o‘zini muvaffaqiyatli idora qilishning ta’milanishi bilan bog‘liq me’yoriy hissiy faollik ko‘rsatkichlarini aniqlash. (3-qo‘shimcha topshiriq).

“Nizom”dagi psixologik maorif ishlar. (3-4 betlarga qarang ) qatoriga esa qo‘shimcha 2 ta vazifani kiritdik. Ya’ni “Nizom”da jami 7 ta vazifa qayd etilgan bo‘lsa, 8-vazifa qilib ota-onalar, fan o‘qituvchilarini va sinf rahbarlariga psixologik muhofaza imkoniyatlari va istiqbollari xususida maxsus ma’ruzalar tashkil qilish; 9-vazifa qilib esa, maktab devoriy ro‘znomasida “O‘z-o‘zini o‘rganish” rukni ostida muntazam ravishda turli tavsiyalar berib borish topshirig‘i yuklatiladi.

“Nizom” da qayd etilgan 17 yo‘nalishdan iborat psixoproflaktik ishlar (4-5 betlar) qatoriga 18-qilib “Psixologik himoyalanish ko‘rsatkichi nihoyatda past o‘quvchilarining o‘zları, ota-onasi, sinf va fan o‘qituvchilariga alohida ko‘rsatmalar berish; 19-vazifa qilib esa “har bir o‘quvchiga beriladigan o‘quv topshiriqlarining, o‘quv yuklamalarining, dastur va darsliklardagi ko‘rsatmalarining o‘quvchini hissiy zo‘riqishlarga (stress holatlariga) olib kelmaslik nuqtai nazaridan tahlil qilish, kerak bo‘lsa tavsiyalar, yo‘llanmalar berish” kabi maxsus yo‘naltirilgan topshiriqlar kiritiladi.

IV “Nizom”da belgilab berilgan “Rivojlantiruvchi va korreksion ishlari” (9-11-betlar) qatoriga esa, 9-ish sifatida “Har bir o‘quvchi uchun xarakterli bo‘lgan faoliyatdan ijtimoiy qoniqishga nisbatan psixologik muhofaza me’yorlari asosida tarkib toptirish lozim bo‘lgan rivojlantiruvchi va korreksion tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish” vazifasi kiritiladi.

“Nizom” dagi V-psixologning konsultativ (psixologik maslaxat ) ishlari (11-12 betlar) qatoriga 9-10 ish qilib, “Har bir o‘quvchi faoliyatida namoyon etilgan psixologik muhofaza ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda tegishli individual maslahatlar berib borish va o‘qituvchilarga o‘quvchi individual uslubini (o‘quv faoliyatiga nisbatan, albatta) tushunish, tahlil qilish va rivojlantirib borishga qaratilgan tavsiyalar berib borish” vazifasini yuklatish mumkin.

Demak, ta’lim muassasalarida yuqoridagi vazifalarni muntazam ravishda bajarib borish uchun qo‘yilgan talablardan kelib chiqib amaliyotchi psixologlar tegishli darajada psixologik bilim va tajribalarga ega bo‘lishlari shart va zarurdir.

### **Umumta’lim maktablarida psixologik xizmat amaliyoti.**

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e’tibor berish masalasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o‘smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o‘ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o‘taydi. Ushbu “tamoyil” ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishni maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yuqorida takidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, har bir davlat o‘zining imkoniyatlaridan kelib chiqib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo‘lga qo‘yanligini ko‘ramiz. Shunday bo‘lsada, mazmunan ushbu jarayonga yondashuv mezoni bir xil ekanligini kuzatish mumkin. U ham bo‘lsa o‘quvchilar bilan tizimli tarzda olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik,

psixokorreksion va psixokonsultativ ishlar ko‘laming mavjudligidir. Maktabda tahsil olayotgan har bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ushbu yo‘nalishlarning barcha avvalo o‘quvchi shaxsi tarbiyasiga hamda taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umumta’lim mакtablarida psixologik xizmatning tashkil etilishi uning mazmuni va asosiy vazifalari haqida Xalq ta’limi vazirligi tomonidan chop etilgan “Psixologik xizmat Nizomi”da bat afsil ko‘rsatmalar berilgan. Ushbu ko‘rsatma va tavsiyalar asosida bugungi kunda maktabda psixologik xizmat amaliyoti olib borilmoqda. (mazkur “Nizom”ga qaralsin).

Umumta’lim mакtablarida psixologik xizmatning zarurligi har bir o‘quvchining o‘ziga xos “betakror olam”ga adekvat bo‘lgan tarbiya usullarini qo‘llay bilish, har qanday vaziyatda o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish, o‘quvchini mакtab ta’limiga qabul qilishda va uni kasbga yo‘nalganligini belgilashda to‘g‘ri yo‘l tuta bilishda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Chunki, guruh rahbari yoki fan o‘qituvchisi o‘quvchining psixologik tabiatini va imkoniyati haqida to‘laqonli bilimga ega emasligi tabiiy. Bu ishni esa mukammal psixologik bilim va malakalarga ega bo‘lgan professional mutaxassislar amalga oshirishi mumkin. Qolaversa, shaxs taqdiri bilan hazillashib bo‘lmaydi. Birgina aytilgan noo‘rin so‘z yoki noto‘g‘ri harakat o‘quvchining butun hayotini, xulq – atvorini yoxud hayotga, odamlarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Psixolog umumta’lim maktabida xizmat ko‘rsatar ekan, avvalo undan har bir yosh davriga xos bo‘lgan psixologik qonuniyatlarni to‘g‘ri baholay olishi va shu qonuniyatlarga tayangan holda o‘quvchi faoliyatini boshqarishi talab qilinadi. Har qanday psixologik xizmat u yoki bu o‘quvchidagi psixologik zaxiralarni o‘rganib uni ta’lim va tarbiya samaradorligini ta’minlashga yo‘naltira olish shart. Shuningdek, psixologik xizmat bolalardagi iqtidor kurtaklarini oldindan anglab uni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib bera olishi kerak bo‘ladi.

Qolaversa, har bir bolaning taqdiri to‘g‘ri tarbiyasi va o‘ziga xos psixologik taraqqiyoti uchun barcha ta’lim muassasasi rahbarlari qatori eng avvalo mакtab

psixologiga ham alohida mas’uliyat yuklatilganligini esdan chiqarmaslik kerak bo‘ladi.

Demak, maktab psixologi har bir yosh davri va uning o‘ziga xos psixologik imkoniyatlari, qiyinchiliklari, muammolari va istiqbollari haqida ham to‘g‘ri fikrlay olishi zarur.

Endi, ushbu yosh davrlarining psixologik mohiyati va unga mos bo‘lgan psixologik xizmat yondashuvuning muayyan imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz.

### **Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga psixologik xizmat:**

Dunyo psixologik amaliyotida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni nazariy–ilmiy va amaliy–uslubiy jihatdan o‘rganish va shu asosda ularga psixologik xizmat ko‘rsatish borasida talaygina ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalarni amaliyotda qo‘llash orqali ta’lim–tarbiya tizimida ma’lum yutuqlarga erishilmoqda. Endi, bevosita kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik imkoniyatlari asosida psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritishga o‘tamiz.

Ma’lumki, bola mакtab оstonasiga qadam qo‘yishi bilan undagi o‘z–o‘ziga, hayotiga va odamlarga bo‘lgan munosabatlarida bir muncha o‘zgarishlar yuz beradi. Bu o‘zgarishlar albatta uning faoliyat doirasi kengayganligi, yosh inqirozlarining ta’siri hamda jismoniy va intellektual jihatdan bir qator yuksalishlarning namoyon etilishi bilan bevosita bog‘liq holda namoyon etiladi.

Chunonchi, endigina maktabga qabul qilingan bola mакtabdagi muayyan qoidalarga amal qilish uchun o‘zidagi barcha irodaviy to‘sirlarni yengib o‘tishiga to‘g‘ri keladi. Lekin uning shu paytgachadagi hulq – atvoriga xos bo‘lgan o‘yinqaroqlik, serharakatlilik, taqlidchanlik kabi xususiyatlarning batamom bartaraf etilmaganligini ko‘ramiz. Shuning uchun bu yoshdagi bolaga psixologik xizmat ko‘rsatishda bolalardagi faollik, taqlidchanlik, o‘yinqaroqlik, o‘ta qiziquvchanlik va o‘ta harakatchanlik kabi sifatlarni cheklab qo‘yilgan holda ish tutish kerak bo‘ladi.

Bu davrdagi bolalarning miyasi faqat hajm va miqdor jihatdangina emas, balki ichki tuzilishi, sifat jihatdan ham murakkablashib boradi. Maktab psixologi shuni unutmasligi kerakki, kichik mакtab yoshidagi bola bosh miyasi po'sti qismidagi ko'p markazlarni bir-biriga tutashtiruvchi asab tolalari mielin moddasi bilan qoplangan bo'lib, bu modda qo'zg'alishni asab tolalaridan tez o'tkazish imkonini beradi. Bu esa bola miyasidagi differensiatsiya funksiyasining ancha takomillash-ganligidan dalolat beradi.

Psixologik xizmat jarayonida bolaning maktab ta'limga aqliy jihatdan tayyorgarligini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ko'p hollarda ota – onalar tomonidan har qanday bolaning yetti yoshgato'lishi bilan maktabga o'qishi kerak degan tushunchaga urg'u beriladi va ular nima bo'lsa ham yetti yoshga to'lgan bolasini maktabga olib keladilar va "buni baribir o'qitasan" deb maktab rahbariyatiga tayinlaydilar. Holbuki har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xos tarzdagi individual – psixologik jihatlari bo'ladiki, bu jihatlarni inobatga olish juda muhimdir. Masalan, 7 yoshga to'lgan bolaning jismoniy yoshi yettiga to'lgan bo'lsada, u aqlan hali besh, olti yoshlar doirasida qolib ketgan bo'lishi mumkin. Agar uni shunday holicha maktabga qabul qilinsa, u psixologik jihatdan bir muncha to'siqlarga uchraydi, ya'ni o'ta injiq, keragidan ortiq asabiy, tunlari alahsirab chiqadigan, odamovi, o'z kuchiga ishonmaydigan, jizzaki va shu kabi qator salbiy xislatlarni o'zida shakllantirib boradi. Bu salbiy xislatlar psixolog tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmas ekan, albatta kelajakdagi bola taqdiri muayyan darajadagi psixologik xavf ostida qolishi shubhasizdir. Bu xavf kichik maktab yoshidagi o'quvchini keyinchalik "past o'zlashtiruvchi", "xulqi og'ir", "maktabdan qochuvchi" va "dezadaptatsiyalashgan o'quvchi" kabi nomlar bilan turli toifalarda "namoyon" bo'lishiga sababchi bo'ladi. Albatta psixolog tomonidan olib boriladigan korreksion dasturlar amaliyoti bunga yo'l qo'ymasligi kerak. Psixologiya fanida bolaning maktab ta'limga tayyorgarligini aniqlovchi juda ko'plab testlar mavjud. Masalan, maktab psixologik xizmat amaliyotida keng qo'llanib kelayotgan Kern – yirosek testi shular jumlasidandir. 6-7 yoshga kirgan bolada ushbu testni qo'llash orqali uning maktab ta'lmini olishga qabul qilish

uchun intellektual jihatdan tayyor yoki tayyor emasligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Umuman, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi:

**I.**Maktab psixologining shaxsan o'zi o'z bilim va ko'nikmalariga asoslanib har bir o'quvchi bilan individual tarzda psixodiagnostik, psixokorreksion va psixoprofilaktik ishlarni olib borish, hamda bu boradagi muayyan psixotrening dasturlarini qo'llab borish.

**II.**Maktab psixologining o'qituvchilar, guruh rahbarlari, maktab rahbarlari va ota – onalar bilan hamkorlikda ish olib borish.

**III.**Maktab psixologining profilaktika nozirlari, mahalla faollari, tuman xalq ta'limi bo'limi tashxis markazi xodimlari, yirik mutaxassislar, olimlar, tibbiyot xodimlari, diffektolog va logopedlar bilan hamkorlikda ish olib borishi.

Demak mактабдаги psixologik xizmat amaliyoti yuqоридаги barcha yo'nalishlari bo'yicha vazifalarni o'zida qamrab olgan holda va bu vazifalarni kompleks tarzda amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha olib boriladigan barcha ishlarining mazmun – mohiyati O'zbekistondagi barcha ta'lim muassasalari uchun amaliyotda qo'llanib kelinayotgan "Psixologik xizmat nizomi"da bat afsil bayon etilgan.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'lim jarayoninig psixologik tahliliga bag'ishlangan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi hal qilishi va bartaraf etishi lozim bo'lgan quyidagi muammolar mavjud:

## **1. Bolalarni psixologik va intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish muammosi:**

Muayyan psixologik tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, yetti yoshga kirgan barcha bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylanib bormoqda. Psixologlar esa hech qachon bunga yo'l qo'yagan bo'lar edilar. Sababi: har bir bola ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega. Ba'zi bolalar olti, yetti, hatto sakkiz yoshga to'lsalarda maktab

ta’limini boshqa o‘z tengdoshlari qatori o‘zlashtirishga hali tayyor bo‘lmaydilar. Biz esa ularni maktab rejasiga qarab, ba’zan ota-onasining hohishiga qarab maktabga qabul qilaveramiz, ta’limiy mashg‘ulotlarda esa bolani majburlab o‘qitamiz. Natijada, bola psixik jihatdan turli kasalliliklarga yo‘liqib, keyingi o‘quv faoliyati bosqichlarida muvaffaqiyatsizliklarga uchrashi mumkin. Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiiy rivojlanish ildiziga ataylab bolta urish demakdir. Bunday holatlarga zudlik bilan barham berish, ya’ni har bir maktab ta’limiga ilk bor qadam qo‘ygan bolani maxsus va mukammal ishlab chiqilgan psixologik testlardan o‘tkazish va uning natijalari asosidagina bolani maktabga qabul qilish haqida jiddiyroq va o‘ta mas’uliyat bilan o‘ylashga to‘g‘ri keladi. Qolaversa, bunday testlar yordamida allaqachon rivojlangan mamlakatlar – AQSh, Yaponiya, Germaniyada ba’zi bolalar 9 yoki 10 yoshdan, ba’zilari esa hatto 4 yoki 5 yoshdan ham maktabga qabul qilinadi va tegishli sharoitlar yaratilgach, ta’lim jarayonida bunday bolalarning barcha shaxsiy va ruhiy imkoniyatlaridan to‘liq va unumli foydalanish uchun zamin hozirlanadi.

### **Boshlang‘ich ta’limda kuni uzaytirilgan guruhlarni to‘g‘ri tashkil etish muammosi:**

Ko‘pgina maktablarda bolalar, aksariyat 1-2- sinf o‘quvchilari darsdan so‘ng yana 4 yoki 5 soatlab maktabda kuni uzaytirilgan guruhlarda qolib o‘qishi kerak. Bu bilan biz 6-7 yoshli bolani 7-8 soatlab maktabda ushlab turamiz. Savol beraylikchi, bola shuni xohlaydimi?, aniqrog‘i bola psixikasi uchun shu tadbir yaxshi samara bera oladimi? Albatta yo‘q. Chunki, hatto biz kattalar muntazam ravishda har kuni 7-8 soatlab maktabda qolib o‘qish imkoniyatiga ega emasmiz. Axir bolaning ehtiyojlari hali ko‘proq o‘yinga va uqlashga moslashganku. 7-8 soatlab o‘qish jarayonida bola zerikadi, psixik jihatdan toliqadi, maktabdan beziydi va yuksak darajada ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan o‘quv qiziqishlari so‘nadi. Eng achinarlisi, ko‘p hollarda mazkur bolalar uyg‘a borib, hatto ovqatini ham yemay uqlab qoladi.

### **Baholashning psixologik mezoniga rioya qilish muammosi:**

Tegishli psixologik-pedagogik adabiyotlardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng birinchi motiv bu- yaxshi baho olish va baho orqali o'z "MEN" ligini ilk bor his etish, o'z ota-onasining va kattalarning hurmatiga sazovor bo'lishdir. Shuning uchun hamma boshlang'ich sinf o'quvchilari yaxshi baho olishga intiladilar. Lekin, ko'p hollarda baholash mezonining buzilishi o'quvchi psixikasiga, ayni paytda shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi baholashning psixologik mezonlarini ham chuqurroq o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi.

### **Bola shaxsini to'g'ri tushunish va tahlil qila olish muammosi:**

"Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir", - degan edi buyuk fiziolog I.P.Pavlov. Qolaversa, har bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniylar ham o'z zamonlarida alohida qayd etib o'tganlar.

Demak, ta'lim olayotgan har bir individ o'ziga xos bir betakror olamdir. O'qituvchi esa ushbu shaxsni tarbiyalash uchun dastavval uning "betakror olamiga" kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog'i va qo'llamog'i lozim.

Zero, ko'pgina maktablarda har bir o'quvchining butun psixologik qiyofasini ifodalovchi ma'lumotlar yo'q. Holbuki, ta'limning dastlabki kunlaridan oq har bir bola uchun xos bo'lgan iqtidor va qiziqishlarni diagnostika qiluvchi testlar ishlanmasining zarurligiga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu ehtiyojni qondirish uchun esa respublika miqyosida yanada ko'proq psixolog-mutaxassislar tayyorlash muammosi hal qilinmog'i darkor.

Umuman, psixologik xizmatga asoslangan ta'lim jarayoni har bir o'quvchi kamolotiga, undagi barcha iqtidor qirralarini ochishga va rivojlantirishga xizmat qila olishi L.S.Vygotskiy ta'biri bilan aytganda, taraqqiyotdan ilgarilab ketgan ta'limgina samara berishi mumkin. Bugun bola kattalar yordamida amalga

oshirayotgan ishni ertaga o‘zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o‘rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o‘sib borishiga imkon yaratadigan tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan ta’lim va tarbiyada, pedagogik usullarga, psixologik xizmat tizimiga ega bo‘lingan taqdirdagina erishish mumkin.

### **O‘smirlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlari.**

Ma’lumki, o‘smirlarda psixologik xizmat ko‘rsatish uchun, eng avvalo, o‘smirlarning jismoniy jihatdan sog‘ligi bilan bog‘liq bo‘lgan fiziologik va psixofiziologik bilimlarga ega bo‘lish kerak bo‘ladi. Maktab amaliyotchi psixolog esa ushbu bilimlarga tayangan holda har bir o‘smir bilan alohida ishlar olib boradi. Binobarin, o‘smirlik davrida o‘g‘il bolalarning bo‘yi 25-30sm, qiz bolalarniki 18-20sm o‘sadi. Ayni paytda bo‘yiga o‘sish naysimon suyaklar va umurtqa pog‘onasining uzayishi hisobiga ro‘y beradi. Bu davrda naysimon suyaklarning oxirgi tayanch qismlari hali yetarli darajada suyaklashmagan yumshoq bo‘ladi. Bu xususiyatlarni nazarda tutish orqali o‘smirning sportning murakkab, og‘ir turlari bilan shug‘ullanishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Aks holda, bolaning umurtqa pog‘onasi qiyshayib, bo‘yi o‘smay qolishi mumkin. Bu jarayon esa keyinchalik bola psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari yurak va qon aylanish tizimining o‘sishidagi nisbat o‘ziga xos xarakterga ega. O‘smirlik yoshining birinchi davridayoq yurak o‘sib borishining hamma sikllari asosan tugallangan bo‘ladi. Qon aylanish tizimi yurak o‘sishidan birmuncha orqada qoladi. Natijada o‘smirlarda, ayniqsa qizlarda yurak urish tartibi buziladi, yurak harakatida to‘xtalish va aritmiya (ritmsizlik) ro‘y beradi. Shu sababli o‘smirlar boshlari og‘riganidan tez-tez nolib turadilar. Suyak, muskul, qon aylanish sistemasi va yurak faoliyatidagi o‘ziga xos ana shunday xususiyatlar o‘smirlar bilan olib boriladigan barcha o‘quv, mehnat va sport mashg‘ulotlarida doimo nazarda tutilishi kerak.

Miya va asab tizimining o‘sishi 16-18 yoshlarda tugallanadi. O‘smirlik yoshining ikkinchi yarmida miyaning eng murakkab psixik jarayonlar sodir

bo‘ladigan peshona qismida nerv tolalari mielinizatsiyalashib bo‘ladi. Bu yoshda hujayralar ichidagi murakkab o‘zgarishlar natijasida bosh miya ilon izi chiziqlari asosan shakllanib bo‘ladi. Bosh miya po‘stining ayrim qismlarini va miya yarim sharlarini birlashtirib turuvchi assotsiativ tolalar ham o‘sadi (ko‘payadi). Bu anatomik–fiziologik o‘zgarishlar o‘smirlarning tez ulg‘ayishi va ularning butun psixik hayotining murakkablashuvida asos bo‘ladi. O‘smirlilik yoshida qo‘zg‘alish protsessi tormozlanishga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. O‘smirlarning o‘zini idora qila olmasligi, shiddatliligi, ta’sirlanuvchanligi, qiziqish va havaslarining beqarorligi, aktiv faoliyatdan birdaniga passivlikka tushishining boisi ham ko‘p jihatdan ana shunda. Maktab va oilada ta’lim-tarbiya ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasa, o‘smirning yosh fiziologik xususiyatlari hisobga olinmasa, uning xulq-atvorigagi salbiy sifatlar ortib borib, bola xarakterining tarkib topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va keyingi hayoti davomida ham o‘zgartirishi qiyin bo‘lgan chuqur iz qoldirishi mumkin.

O‘smirlarda hissyotlar alohida tarzda taraqqiy qiladi. O‘smir hissiyotlari juda beqaror bo‘lib, tez-tez almashinib turadi. O‘smirlar kayfiyati kichik yoshdagi o‘quvchilar kayfiyatiga nisbatan keskin o‘zgaradi. O‘smirlar goh tetik, shod, tashabbuskor va ishchan, goh o‘ychan, passiv, xayolga cho‘mgan bo‘ladilar. Ba’zan ular birdaniga hamma ishni bajarmoqchi bo‘lib, surunkasiga o‘qiydilar, bir qancha to‘garakka qatnashadilar, bir vaqtida sportning bir necha turlari bilan shug‘ullanadilar, kolleksiyalar tuzadilar, goho **“sovib”, bu mashg‘ulotlarni tashlab qo‘yadilar**, hatto dangasalik qiladilar. O‘smir kayfiyatining o‘zgarib turishi ma’lum darajada jinsiy balog‘at bilan ham bog‘liqdir. O‘smirlarga psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida ko‘pincha ulardagi qattiq hayajonlanish-nafrat va tajovuzkorlikni ko‘rish mumkin. Tajovuzkorlik o‘g‘il bolalarda tegajaklik va urishqoqlikka aylansa, qizlarda takabburlik va jiizzakilikka aylanadi. O‘smirlar odatda bunday xulqning yaramasligini tushunadilar. Biroq, manmanlik ustun chiqib, tan olishni xoxlamaydilar. Kattalar bu toifa o‘smirlar xulqini jiddiy koyisalar, ular beadablikka o‘tib oladilar. Bu holatda esa o‘smirlarga psixologik xizmat ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi.

Normal oilaviy sharoitda tarbiyalangan bolalarning juda ko‘pi mehribon, dilkash va itoatli bo‘ladilar. Ular kattalar iltimosini bajonu dil bajaradilar.

O‘smirlar intizomli va itoatkor bo‘lish zarurligini yaxshitushunadilar. Lekin keskin suratda buyruq qilinganda o‘zлari-ni kansitilgan, deb bilib, bor kuchlari bilan o‘z mustaqilliklari uchun kurashadilar.

Agar ko‘pgina o‘g‘il bolalar va qizlar ilgari ota-onalarining iltimosini bajonu dil bajarsalar, o‘smir bo‘lganlaridan keyin kattalarning iltimosini keskin va qo‘pol ravishda qaytarishlari mumkin. Kattalarning ranjiganini, ko‘rib, nohaq ekanliklarini anglaydilar. Lekin kechirim so‘rab, o‘zlarini «yerga urmaslik» uchun, iltimosni bajarishga rozi bo‘lib: «Mayli, keling, qila qolay!» deydilar. O‘smirlar xulqining bu xususiyatlari oila a’zolarining: «O‘g‘limga (qizimga) nima bo‘ldi? Tamoman boshqacha bo‘lib qoldi», deb nolishlariga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, o‘smirlar uzundan-uzoq pand-nasihatlarni ham yoqtirmaydilar. O‘zlarining salbiy munosabatlarini «Obbo, rosa cho‘zildi-ku!.. Obbo yana boshlandi!. Yana eski gap!» deb oshkora bayon qiladilar yoki ichda o‘ylab qo‘yadilar. Ular pand-nasihatlarni sirdan diqqat bilan tinglab o‘tirishlari va ichlarida esa qachon tamom bo‘lar ekan deb, zerikib o‘ylashlari mumkin.

**Oliy ta’limda psixologik xizmat amaliyoti.**

Hozirgi davrda psixologik xizmatni tashkil qilishning turli shakl va vositalari ijtimoiy turmushga tatbiq qilinmoqda: mакtab psixologik faoliyati, ruhiy kasalliklar shifoxonalari va nevrologik markazlar xodimlari xizmati, oila psixoterapiyasi, ijtimoiy psixologik vazifalari, psixologik ekspertiza, ommaviy davolanish maskanlarida psixologik yordam, sud jarayonidagi psixologik holatni kuzatish, mehnat tuzatish koloniyalari va yordamchi mакtablarda psixologik xizmatni amalga oshirish va boshqalar. Ana shular qatorida oliy mакtabda psixologik xizmatni joriy etish va uni boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy mакtabda psixologik xizmatni uyushtirish bo‘yicha Qozon, Sankt–Peterburg, Boltiq bo‘yi mamlakatlari universitetlarida ayrim tajribalar to‘plangan. Respublikamizda esa taniqli psixolog-olim E.G‘.G‘oziev tomonidan Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat amaliyoti bilan bog‘liq talaygina ilmiy va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va tegishli ko‘rsatmalar berilgan. Ushbu ishlanmalardan ayrimlarini qayd etamiz:

**Ma’muriyat qoshidagi psixologik xizmat:**

- 1) rahbar kadrlarni kasbga yarog‘ligini ilmiy asosda tekshirish va aniq tavsiya berish;
- 2) buyruq, hujjat va ish yuritish faoliyatini tahlildan o‘tkazish, maqsadga muvofiqligi yoki nomutanosibligini dalillab muayyan qarorga kelish;
- 3) o‘qituvchilar va xodimlarni ishga olish va ishdan bo‘shatish bo‘yicha ilmiy-amaliy psixologik tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- 4) yosh xodimlarning adaptatsiya (Sinov) muddatini o‘rganish va amaliy ko‘rsatmalar berish;
- 5) universitet jamoasidagi shaxslararo munosabat va spixologik muhitni tadqiq etish hamda olingan natijalarni umumlashtirish;

- 6) saylov, tanlovoldi kompaniyalari bo'yicha prognoz qilish, ilmiy faraz yaratish, oldindan bashorat qilib, psixologik holatdan ma'muriyatni ogoh etish;
- 7) oliy maktabda faoliyat ko'rsatayotgan barcha xodimlarni (texnikdan tortib, to professor tizimigacha) attestatsiyadan o'tkazishda faol ishtirok qilish;
- 8) abiturientlarni qabul qilish mavsumida bevosita ishtirok qilish, sinov materiallarini psixologik nuqtai nazardan tahlil etish, talabga javob bera olishligi yoki bera olmasligi oldinroq qabul hay'ati a'zoriga, predmet komissiyasi raisiga yetkazish;
- 9) tayanch doktorantura va mustaqil ilmiy tadqiqotchilik tizimida faoliyat yuritayotgan ilmiy xodimlarning intellektual imkoniyati, saviya, tayyorgarlik darjasini aniqlashda ishtirok qilib, oqilona qarorga kelishda rahbarlarga yordam berish;
- 10) professor o'qituvchilar va talabarni chet el safariga tanlovida qatnashish va ularning yetuklik darajasini ilmiy asosda dalillab ko'rsatish;
- 11) yosh mutuxassislар bilan aloqa o'rnatish va ularni bevosita nazorat ostiga olishga ko'maklashish;
- 12) ijtimoiy talab va byurtmalar yuzasidan sotsial –psixologning axborot toplashi va ularni qayta ishslash;
- 13) oliy maktab to'g'risidagi taassurot va mish-mishlarga oid materiallar toplash va ularni tartibga keltirib, bu holatdan ma'muriyatni ogoh qilish;
- 14) chet ellik xodimlar va talabalar bilan ishslash faoliyati bilan tanishish, uzluksiz amaliy tavsiyalar berib borish,
- 15) oliy maktab ilmiy potensialini o'rganish va ulardan maqsadga muvofiq, to'g'ri foydalanish bo'yicha rektoratga tavsiyanoma berish,
- 16) ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish muammolari bilan shug'ullanish;
- 17) kadrlar malakasini oshirish muammosini hal qilishda ishtirok etish va aniq ko'rsatmalar ishlab chiqish;
- 18) ilm-fan rivojini ta'minlash faoliyati va jarayonida maslahatchi sifatida qatnashish;

- 19) o‘quv qo‘llanmalari, yuzasidan kitobxonalar qarashlarini o‘rganish va ularning sifatini oshirish ishiga o‘z hissasini qo‘shish;
- 20) kitobxonlik, mustaqil faoliyat, kutubxona o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tekshirish;
- 21) oliy maktab xodimlari, o‘qituvchilari va talabalari bilan xalq mulkini asrash va undan foydalanishni o‘rganishda hamkorlikda bo‘lish;
- 22) yotoqxonalarda yoshlar bilan ishlashning sotsiaal –psixologik xususiyatlri o‘rganish va ularni talab, ehtiyoj, qiziqishlarini hisobga olgan holda muayan tadbir-choralar ishlab chiqish;
- 23) oliy maktab a’zolarida ekologik bilim darajasini tekshirish va boyitish;
- 24) mustaqillikni mustahkamlash va Vatan mudofaasiga tayorgarlik darajsini aniqlash, yuksak his-tuyg‘ularni shakllantirishga zarur shart – sharoitlar yaratishda faol ishtirok qilish.

## **ICHKI ISHLAR SOHASIDA PSIXOLOGLAR GURUHINING ASOSIY VAZIFALARI**

Xodimlar o‘rtasida xizmat intizomi va qonunchilikni buzish, o‘z joniga qasd qilish (suitsid) holatlari, xizmat faoliyati davomida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar va yo‘l qo‘yiladigan intizom buzilishi sabablarini o‘rganish va ularning oldini olish borasida rahbariyatga takliflar kiritadi;

- psixologlar hududiyligi bo‘yicha joylardagi ShTBIX Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari raisligida, har chorak yakunida psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda qatnashadilar va hisobot beradilar.

- ichki ishlar organlariga hamda IIV o‘quv ta’lim muassasalariga kirish istagini bildirgan xodim va nomzodlarni o‘rganadi va tegishli xulosalar beradi.

### **Ijtimoiy-psixologik faoliyatni tashkil qilish va o‘tkazish sohasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:**

\* xodimlar bilan ijtimoiy-psixologik tadqiqotni amalga oshirish, xnzmat jamoalarida psixologik muhitni o‘rganish, uni yaxshilash borasida tavsiyalarni ishlab chiqish shuningdek, nizoli vaziyatlarni oldini olish va hal qilish;

\* xodimlarning individual - psixologik xususiyatlari hamda tezkor xizmatni samarali bajarishda psixologik mosligini xisobga olgan holda xizmat jamoalarini shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

\* rahbar lavozimlariga zahirani shakllantirish faoliyatida ishtirok etish, xodimlarni yuqori lavozimga o‘tkazishda psixodiagnostik ishlarni tashkil etish va kadrlar bilan ishslash bo‘limiga tavsiyanomalar berish;

\* shaxsiy tarkib bilan ishslash samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha kadrlar bo‘limi rahbarlari va xodimlariga psixologik maslahat berishni tashkil qilish.

### **Kasbiy-psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish sohasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:**

\* xodimlar bilan kasbiy tayyorgarlik tizimida tezkor-xizmat vazifalarini bajarishda chidamlilik va bardoshlilik va boshqa irodaviy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha psixologik mavzularda suhbat va mashg‘ulotlar o‘tkazadi;

\* ichki ishlar organlari xodimlariga operativ qidiruv faoliyatining psixologik jihatlari bo‘yicha maslahatlar berish, muzokara o‘tkazish strategiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish, terroristik harakatni amalga oshirish va odamlarni garovga olish, sodir etilishi xavfi bo‘lgan holatlarda muzokaralar o‘tkazilishini psixologik ta’minlash, jinoyatlar sodir etishda metod va usullardan foydalanish, qo‘llash va o‘tkazish tartibi ShTBIX tomonidan yuborilgan ko‘rsatmalar bilan belgilanadi.

\* Ichki ishlar organlari raxbar xodimlari va kadrlar bo‘limi uchun xodimlar bilan ishslashda ijtimoiy-psixologik, shaxsiy-tarbiyaviy va reabilitatsiya mazmundagi tavsiyalarni ishlab chikadi;

\* maxsus malakaga va mutaxassislik darajasiga ega psixologlarga operativ-qidiruv bo‘linmalari xodimlarining operativ-kidiruv xizmatining psixologik jixatlari bo‘yicha faoliyatini muvofikqlashtirish yuzasidan maslahatlar beradi.

**Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (bundan buyon matnda YHXX deb yuritiladi) va Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasi (bundan buyon matnda PPXvaJTSB deb yuritiladi) psixologlarining qo‘shimcha vazifalari:**

\* psixologlar yuqoridagi umumiyl vazifalardan tashqari, xodimlarning o‘ziga biriktirilgan hududini yaxshi o‘rganish uchun kasbiy kuzatuvchanlik xususiyatini oshirish, o‘z hatti-xarakatlari uchun yuqori darajadagi mas’uliyat hissini, arzimas tuyulgan narsalarni ham nazardan qochirilmaslik kabi shaxsiy xislatlarni, hududdagi jinoiy harakatlarga moyilligi mavjud fuqarolar bilan munosabatga kirishishda nutk va oxangdagi o‘zgarishlarga, diqqat barqarorligini va uning teng taqsimlash xislatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish.

#### **Qo‘riklash xizmati psixologlarining qo‘shimcha vazifalari:**

**a)** xodimlarning kuzatuvchanlik va diqqat xususiyatlarining yaxshi shakllanganligi, mayda tafsilotlarga e’tiborlilik, sabr-qanoat, mas’uliyat hissini yuqoriligi, kommunikativ xususiya-tlar, kuchli xotira (odamlarning qiyofasi, tashqi

ko‘rinishi, hatti-harakatlarini oson eslab qolish, ko‘rish va harakat xotiralarining yaxshi shakllantirish) kabi xususiyatlarni rivojlantirish hisoblanadi.

### **Jazoni ijro etish muassasalari psixologlarining qo‘shimcha vazifalari:**

a) JIEM shaxsiy tarkib bilan ishlash psixologlari xizmat jarayoni joylardagi psixologlardan farq qiladi. Bular xodimlarning kuchli iroda, qat’iylik, matonat, sabr-qanoat, insonparvarlik, kirishimlilik, mahbuslarning ruhiyatini chuqr his qila olish, hamdardlik, odillik, rivojlangan xotira, kasbiy kuzatuvchanlik xususiyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri.

### **Yong‘in xavfsizligi xizmati psixologlarining qo‘shimcha vazifalari:**

a) YoXX xodimlarining faoliyati muayyan qaltis vaziyatlar, yong‘inga qarshi kurashishda xodim har doim oldingi qatorda bo‘lishi, emotsional zo‘riqish kabi og‘ir sharoitlar bilan bevosita bogliq psixolog xodimlarning xushyorlik, gumon qilinayotgan shaxslarning psixologik tasvirini tuzishda, turli psixologik ekspertizalarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

## **V.Psixologning vakolatlari**

Ichki ishlar organlari tizimlarining o‘ziga xos tomonlarini hisobga olib, Vazirlik psixologiya guruxi faoliyat shakli, metod va metodikalarni ishlab chiqadi, muvofiq-lashtiradi, standartlashtiradi, mezonlarni belgilaydi va amaliyotda qo‘llashga tavsiya qiladi.

Ichki ishlar vazirligi bosh boshqarmalari psixolog mutaxassislari nomzodlarga ichki ishlar organlari faoliyatiga kasbiy layoqati darajasi to‘g‘risida xulosa shaklidagi tavsiyalar beradi.

Nomzodlardan kasbiy faoliyatda samarali foydalanish va ularni joy- joyiga qo‘yish bo‘yicha bevosita rahbariga xizmatda foydalanish uchun psixologik tavsifnoma beradi.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi mansabdor shaxsdardan ichki ishlar organlari kasbiy faoliyatini psixologik nuktai nazardan o‘rganish bo‘yicha zarur ma’lumotlarni talab qilib oladi va ulardan foydalanadi.

Xodimlarga psixologik xizmat ko'rsatishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Ichki ishlar organlari sohasida psixologik xizmatni tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rghanadi, umumlashtiradi va tarqatadi.

Kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish masalasida jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni amalga oshiradi, xodimlarning faoliyatini psixologik ta'minlash natijalarini tahlil qiladi. Ichki ishlar organlari rahbariga psixologik xizmat ko'rsatish bo'linmasini ilmiy-uslubiy, moddiy-texnik va kadrlar bilan ta'minlash buyicha takliflar kiritadi.

Xodimlar kasbiy faoliyatini psixologik ta'minlash masalalari buyicha seminarlar va ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etadi.

Raxbaryatga yozma ravishda xodimlarning xizmat faoliyatiga vaktinchalik o'zgartirish kiritish va qiska muddatli ta'til berish to'g'risida tavsiyalar beradi.

## **VI. Psixologlar guruxining majburiyatları**

O'zining kat'iy kasbiy vakolati va tamoyillari doirasida psixologik muammolarni ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish. O'z ishida tibbiy va boshqa malakani talab qiluvchi usullarni qo'llamaslik (gipnoz, meditativ, texnika, farmakologik vositalar v.b.) faqatgina ilmiy asoslangan psixologik usullarni qo'llash. Diagnostik, rivojlantiruvchi, psixologik-korreksiya va maslahat berish ishlarida zamonaviy va maqsadga muvofiq uslublarni qo'llash. Barcha masalalarni hal etishda murojaat etgan shaxsning manfaatlaridan, to'laqonli psixik va psixologik rivojlanish bo'yicha oldiga qo'yilgan masalalarni yechish nuktai nazaridan kelib chikiladi. Ushbu yuqorida bo'limlar asosida Ichki ishlar tizimida psixologik xizmat tashkil etiladi va boshqariladi.

## **Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatining xususiyatlari**

Ichki ishlar organlari xodimlari o'z kasb vazifalarini bajarishlari jarayonida muayyan shart-sharoitlarda, qiyin vaziyatlarda ishda ayrim kamchilik va nuqsonlarga yo'l qo'yishlari ham extimoldan holi emas. Kasbiy faoliyatda bunday holatlarning yuzaga kelishi ichki ishlar organlari xodimlarining turli shaxslar bilan

bevosita va bilvosita muloqot jarayonidagi individual psixologik xususiyatlariiga bog'liq bo'lib, bu ularda muayyan malaka va ko'nikmalarining hali yetarli darajada shakllanmaganligi bilan tushuntiriladi. Shu bois bugungi kunda ichki ishlar organlarining har qanday xodimi jamoat xavfsizligi va farovonligini ta'minlashda psixologik jihatdan yetuk va jismoniy tayyor bo'lishi davr takozosidir.

Bir qator rus psixologlari (L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev) kasb psixologiya-sining metodologik asoslarini ishlab chiqishni insonning amaliy ish faoliyatini psixologik tahlil qilishdan boshlash kerak degan xulosaga kelganlar. Chunki aynan shu jabhada psixik hayotning eng muhim qonuniylari mujassam. Bugungi kunda bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan va shaxsga turli-tuman talablar qo'yadigan murakkab intellektual mehnat faoliyati talab darajasida o'rganilmagan. Bu ichki ishlar organlari xodimlarining kasb mahoratini oshirish, ish samaradorligini ta'minlash kabi amaliy masalalarni hal etayotganda ko'zga tashlanadi.

Psixologik xizmat jarayonida ichki ishlar xodimi o'zini tuta bilishi, boshqa shaxslarni ham qo'llab-quvvatlashi, o'z faoliyatini amalga oshirishda aholi yordamidan unumli foydalanishi, ularda o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini uyg'otishi zarur hisoblanadi. Masalan, xodim profilaktika inspektori bo'lsa ko'proq tashkilotchilik qilishi, kimga, qachon, qanday yordam berishni bilishi kerak. Bu jarayonda ish vaqtি, kuni, soatini samarali tashkil etish, reviziya, ekspertiza, ko'zdan kechirish va tintuv ishlarini tashkil eta olish, biron jinoyat ishi yuzasidan to'plangan hamkor guruhlar ishini uyushtirishda faol bo'lish talab etiladi.

Ishonarli faoliyatda xodim o'zaro kelisha olmaydigan qo'ni-qo'shni, er-xotinlar to'g'risida oladigan ma'lumotlarni qayd etib qolmay, balki ularga alohida e'tibor bilan yondashishi kerak. Fuqarolar bilan tarbiyaviy profilaktika ishlarini olib borishda asosiy vositalardan biri qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishdir. Shuningdek, bilim va madaniy saviyani oshirishga intilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan faoliyat bunda

muhim hisoblanadi. Xodim o‘z xizmat vazifasini bajarish vaqtida aytgan har bir so‘zi, harakati bilan xalq ongida davlat siyosatini targ‘ib qiladi, fuqarolarda davlat, uning siyosatiga, ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan ishonch hissini uyg‘otish, fuqarolarning muammolariniadolatli hal qilish, diqqatni to‘play olish, kuzatuvchanlik, vaziyatga moslashishda muhim hisoblanadi. Binobarin, psixologik xizmat jarayonida ichki ishlar xodimning kommuni-kativ faoliyat — odamlar bilan muloqot o‘rnatish va uni mustahkamlashga asoslanadi. Xodim o‘z hududidagi fuqarolar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga, ularda yaxshi taassurot uyg‘otishga intilishi kerak. Bu albatta oson emas. Chunki insonlar turlicha dunyoqarashga va har xil xususiyatga (do‘stona, talabchanlik, hushyorlik, g‘alamislik, tajovuzkorlik) ega bo‘ladilar. Ular bilan aloqa o‘rnatganda iliq munosabatda bo‘lish, hurmat, e’tibor qozonishga harakat qilish kerak. Chunki xodim o‘z hududida ro‘y beradigan barcha xush-nohush vaziyatlar ishtirokchisi bo‘ladi, turli-tuman fuqarolar bilan to‘qnash keladi. Samarali ishslash, faoliyat yuritish uchun esa xodim ularning yashash sharoiti, o‘zaro munosabatlari, qiziqish va hatti-harakatlarini o‘rganishi joizdir. Kommunikativ faoliyatda xodimning nutq va muloqot xususiyatlarining yaxshi rivojlanganligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu xususiyat xodimning hissiyotlarini boshqara olish, samimiyl muloqot o‘rnata olish, tabiiylik, hamsuxbatining hissiyotlarini nazorat etish, kirishimlilik, kerakli ma’lumotlarni ola bilish, muammolarida namoyon bo‘ladi.

Konstruktiv faoliyat deganda, sodir etilayotgan jinoyat-larni ochish, ularning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik ishlarni rejalashtirish borasidagi tafakkur faoliyati tushuniladi. Agar muayyan vazifani bajarish uchun qo‘srimcha nimani aniqlash va topish kerak, degan savollarga javob berishga harakat qilinsa, konstruktiv faoliyatda bilish faoliyatining bosqichlari rejalashtiriladi, ya’ni no narsani qanday ketma-ketlikda izlash kerakligi haqidagi masalaga javob izlanadi. Boshqacha aytganda, ichki ishlar xodimining izlanish va konstruktiv faoliyati yaxlit bir fikrlash jarayonining turli bosqichlarini ifodalovchi

ikki tomonidir. Konstruktiv faoliyatning muvaffaqiyati shaxsdagi perseptiv jarayonlarning (idrok, tasavvur, hayol) rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Psixologik xizmat jarayonida ichki ishlar xodimining izlanuvchanlik faoliyatini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Binobarin, izlanuvchanlik faoliyat jinoyatchini izlashda, janjal, kelishmovchilik vaziyatlarida ayblanuvchilarni qidirish va olingan axborotni tahlil qilish uchun mavjud ma’lumotlarni tekshirib, o‘rganib, xulosa chiqarib hal qilish jarayonida qo‘l keladi. Izlanuvchanlik faoliyati xodimdan o‘z ustida tinimsiz ishslashni, yangiliklardan, ilm-fan taraqqiyotidan xabardor bo‘lish, kasbiy mahoratini yanada oshirib, tajriba orttirishini talab qiladi. Protsessual hujjatlarni tuza olish, og‘zaki nutqni tez yozib olish, kompyuter, yozuv mashinasida ishslash, texnik vositalardan foydalana olish ko‘nikmalarining rivojlanganligida namoyon bo‘ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida axloq, iroda, emotsional intellektual (aqliy) xususiyatlarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida muhim hisoblanadigan ruhiy-asab xususiyatlaridan unumli foydalanish faoliyat samaradorligini oshiradi.

Ular: **sensitivlik** — tashqi muhit ta’sirlariga yuqori ruhiy-asab sezgirligi; **hissiy turg‘unlik** — hadik, xavfsirash darajasining pastligi, xavfli vaziyatlarda hissiy qo‘zg‘alish jarayonini susaytirish; **rezistentlik** — tashqi va ichki ruhiy shikastlanishga qarshilik ko‘rsata olish; **tolerantlik** — ruhiy-asab zo‘riqishlariga bardosh berishdan iborat.

Psixologik xizmat jarayonida ichki ishlar organlari xizmatiga kelgan yosh xodimlar xizmat jarayonida boshqarma, uchastka bo‘linmalari, mahallalar, maktablar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, qo‘riqlanadigan ishlab chiqarish ob’ektlarida, vazirliklar, bojxonalar, avtomobil va temir yo‘llarda yakka tartibda, bir-birlari bilan hamkorlikda ish yuritishlarini inobatga olib ularning faoliyati unumdorligida quyidagi psixologik shartlar alohida o‘rin egallaydi.

**Samaradorlik ko‘rsatkichi** — aniq maqsadga erishish, kuch va vositalarni unumli ishlatishdan iborat. Shaxs faoliyatining samaradorligi va ishonchliligi uning fikri qat’iyligi, xizmatda benuqsonligi, noto‘g‘ri hatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi va mehnat faoliyatida uzilishlarning yo‘qligi bilan belgilanadi.

Faoliyat samaradorligi va ishonchliliginin psixik shartlariga maqsadni aniq anglash, kasbiy mahorat, irodaviy sifatlar hamda yaxshi rivojlangan psixik jarayonlar kiradi. Jamoa faoliyatining samaradorligi va ishonchliligi deganda, uning uyushganligi, bir-birini tushunishi, a’zolar malaka-sining mosligi tushuniladi.

Nizoli vaziyatlarning kelib chiqishi, bir-biriga gumon bilan qarash, umumiyligida o‘z o‘rni va rolini aniq anglamaslik faoliyat unumdarligini pasaytiradi.

**Irodaviy ko‘rinishlarda** (irodani namoyon etish sharoitlari bo‘lgan) axloqlilik, vazifani bajarish uchun harbiy, tashkiliy va to‘liq yo‘naltirilganlikning ahamiyati yuqoridir. Harbiy kasb egalari faoliyatining yuqori darajada bo‘lishida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun ularning dunyoqarashlari, e’tikod, ehtiyoj, hissiyot va istak-intilishlari hamda manfaatlarining mushtarakligi muhimdir. Favqulodda holatlarda **emotsional-irodaviy tayyoragarlikning** mustahkam emasligi, tashqi ta’sirlarga salbiy munosabat hatti-harakat-larning noaniqligi xatolarga olib keladi.

Xodimlarni harbiy kasbga tayyorlashda ular xizmat qilayotgan jamoada ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimi vujudga keltirish zarur. Chunki ana shu psixologik muhit (yoki isixologik iqlim) ularning umumiyligini samaradorligi, o‘zaro uyushqoqligi, ishdagi intizomi, ya’ni faoliyatidagi axloqiy-xulqiy sifatlarga ta’sir etadi. Ularning umumiyligini faoliyatida xamjihatlikning ahamiyati katta bo‘lib, o‘zaro kelishuv shartlariga esa bo‘linma a’zolarinig kayfiyati, tetikligi, ishonchlilik, o‘zaro bir-biriga hurmat, talabchanlik, muloyim, samimiy muomala, o‘rtoqlik, do‘stlik kabi psixologik munosabatlar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bunda psixologik moslashuv jarayoniga e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. **Moslashish jarayoni** inson atrof-muhitning har qanday o‘zgarishlariga ko‘nikishiga bo‘lgan ichki imkoniyatidir. Inson o‘z psixik holatlari bilan iroda kuchi va organizmi imkoniyatlaridan kelib chiqib, atrof-muhitdagi sezilarli

o‘zgarishlarga ham moslasha oladi. Moslashish: avvalo inson organizmi xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u bilan muhit o‘rtasidagi tenglikni, o‘zgaruvchan muhitga moslashishi, mavjud jarayon hamda inson — muhit tizimida hosil bo‘lgan o‘zaro aloqaning natijasidir.

Bundan tashqari ichki ishlar xodimlarida o‘z imkoniyatlarini hisobga olmaslik, noto‘g‘ri tasavvur qilish, moslashish jarayonini buzadi bu esa nizoli, qaltis sharoitni keltirib chiqaradi. Shaxsning o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olmasligiga, ish qobiliyatining pasayishiga, organizmning kasallikka beriluvchanligini oshirishga sabab bo‘ladi. Moslashish jarayonining jiddiy buzilishi, kasalliklarning tez rivojlanishiga, kasb faoliyatida uzilish hosil bo‘lishiga, jamiyatga zarar keltiruvchi turli xarakter illatlarining tug‘ilishiga asos bo‘ladi. Shu boisdan ham psixologik xizmat jarayonida amaliy psixolog psixogigiena va psixoprofilaktika talablaridan kelib chiqib har xil tushunmovchiliklar, ruhiy zo‘riqishlar va o‘zaro munosabatlardagi muammolarni bartaraf etishga va shu yo‘l bilan xodimlarning ruhiy va ma’naviy sog‘lom bo‘lishlarini ta’minlashga qaratilgan ishlarni olib borishi lozim bo‘ladi.

### **Ichki ishlar xodimlarida zo‘riqish va stress holatlarini oldini olishning psixogigienik asoslari**

Xozirgi zamonda mavjud moddiy-texnika vositalarining takomillashuvi, ularning murakkabligi, uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terroristik harakatlarga qarshi jipslashgan holda jamoa bo‘lib kurashish yo‘lida doimiy izlanish, kuchaytirilgan tartibda xizmat olib borish har bir xodimda bir psixologik zo‘riqish holatlarini keltirib chiqaradi. Turli axborotlarni tahlil qilish, aniq, tez harakatlanish uchun aloqa vositalaridan yuqori darajada malakali ravishda foydalana olish jarayoni jamoa rahbarlarini doimiy fikrlash holatida bo‘lishga majbur qiladi.

Har qanday sharoitda, jangovar shay turish, xavfli vaziyatlarni nazarda tutib faoliyat kechirish shaxsni muayyan ruhiy beqarorlikka (stressga) olib keladi. Demak, ichki ishlar xodimlarida o‘ziga xos ta’sir o‘tkazuvchi omillar ko‘p bo‘lib,

bu kasbga oid bilimlar boshqa ijtimoiy bilimlardan o‘ziga xos taraflari bilan ajralib turadi.

Ichki ishlar organlarining har bir xodimi individual ish tajribasi bilan bir-biridan farq qilsada, ular birgalikdagi faoliyatda umumiy ruhiy holatlarga asoslanadilar.

Birgalikdagi xizmat mobaynida xodimlar o‘rtasida bir-biriga ta’sir o‘tkazish taqlid, talabchanlik, o‘rnak olish, musobatlarda qatnashish, tajriba almashish va turli psixologik holatlar (kayfiyat, stress, asabbuzarliklar) ro‘y beradi va ularning ayni vaqtdagi psixologik holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Bundan tashqari har bir amaliy psixolog stressning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

**Stressda** insonning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga jismoniy, kimyoviy va psixologik aks ta’sirlar kuzatiladi. Bunda atrof-muhitdagi salbiy hodisalar insonning fiziologik va psixologik funksiyalari muvozanatini izdan chiqaradi. Stress holatini jismoniy, psixologik omillar majmui, ya’ni stressorlar keltirib chiqaradi. Hayotimizda stresslarning bo‘lib turishi tufayli ularni boshqarish, ular keltirishi mumkin bo‘lgan zararni kamaytirishni bilish zarur. Insonda stresslarga ko‘nikishning bir necha usullari mavjud. Ichki ishlar xodimi esa bu usullarni bilishi shart. Jumladan,

**Birinchi usul** — tashkilot darajasidagi usul bo‘lib, masalan, ishlab chiqarish korxonasida xodimlarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish jarayonida, ular faoliyatiga baho berishda o‘zgarishlar ro‘y berishi natijasida vujudga keladi. Bunday o‘zgarishlar stressli vaziyatlar manbaini bartaraf etadi.

**Ikkinci usul** stresslarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus dasturlardan foydalananib, stresslarni boshqara bilishdir. Bunday dasturlar meditatsiya, trening, mashqlar, parxez va ba’zan ibodat qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Xayotdagi turli kechinmalar ta’sirida tez xafa bo‘lish, kayfiyatning o‘zgaruvchanligi, yetakchilikka (liderlikka) moyil-lik, muvaffaqiyatga erishishda tirishqoqlikning kuchayishi insondagi shaxsiy xususiyatlarning salbiy tarafga o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun ham xodimlarni ishga qabul qilishda tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish ularning kelajakdagi ish faoliyatida mavjud psixik xastaliklarga moyilligi bo‘lgan taqdirda ularning rivojlanishining oldini oladi. Shundan kelib chiqqan holda ishga qabul qilishda bo‘lajak xodimlarning sog‘ligini qat’iy tartibda nazoratdan o‘tkazish psixogigiena va psixoprofilaktikaning asosiy vazifasiga kiradi va ichki ishlar organlari tibbiyot xodimlari tomonidan nomzodning sog‘lomligi, uning psixik va jismoniy xususiyatlarini talab darajasida ekanligiga ishonch hosil qilish uchun batafsil va mukammal o‘rganiladi. **Psixogigiena** - insonning ruhiy sog‘lomligini saqlash maqsadida, uning psixik xususiyat-larining optimal (maqbul) rivojlanishiga sharoit yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, o‘zaro shaxsiy munosabatlar o‘rnatishda psixologik mo‘tadil iqlimni vujudga keltirish, inson psixikasini atrof muhitdagi zararli ta’sirlarga chidamlik darajasini oshirish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqadi.

**Ichki ishlar tizimidagi psixoprofilaktik** tadbirlar ruhiy-asab kasalliklarining oldini olish, kasallikning residiv belgilarini aniqlash, davolash-profilaktika, rehabilitatsiya ishlarini yuritish, noxush ijtimoiy oqibatlar va nogironlikning oldini olish ishlari bilan shug‘ullanadi. Ichki ishlar xodimlari bilan olib boriladigan psixoprofilaktika ishlarida quyidagi vazifalarini bajarish talab qilinadi:

- xodimlarda ruhiy-asab kasalliklari belgilarining kelib chiqishi, sababi va sharoitlarini aniqlash hamda oldini olish;
- ishga olinayotgan xodim yoki shaxsda ruhiy-asab tizimining ahvoli, psixik sog‘lomlik darajasini aniqlash, rivojlanib ketishining oldini olish, patologik xususiyatlarini belgilash;
- xodimlarda paydo bo‘layotgan sezilar-sezilmas psixik o‘zgarishlarni nazorat ostiga olish, kuzatish va ambulatoriya sharoitida davolash;
- ichki ishlar organlari boshliqlar tarkibiga xodimlarning sog‘ligini hisobga olgan holda ishning xususiyatiga qarab kerakli bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqish;

- xodimlarni kasbiy faoliyati davomida haddan ziyod ruhiy -emotsional holatlarda qanday vositalardan foydalanish mumkinligiga oid tavsiyalar bilan ta'minlash;
- umumiy gigienik tadbirlar o'tkazish, ovqatlanish, damolish vaqtida sharoitlarni hisobga olib, psixoprofilaktik tadbirlarini o'tkazish;
- xodimlar o'rtasida psixogigiena va psixoprofilaktika masalalari bo'yicha tibbiyot va harbiy psixologiya doirasida psixotreninglar o'tkazish.

Psixogigiena va psixoprofilaktika ishlarini amalga oshirishda ichki ishlar organlari tibbiyot va tibbiy-psixologik markazlari xodimlari o'z vazifalariga sidqidildan yondashib, kasbiy kompitentlik imkoniyatlarini namoyon etishi.

Ichki ishlar tizimida yuqoridagi vazifalarning bajarilishi psixologik xizmat amaliyotida muayyan natijalarni qo'lga kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MUNDARIJA

<b>SO‘Z BOSHI</b>	3
<b>I BO‘LIM (MODUL). MUTAXASSISLIKKA KIRISH</b>	5
<b>I BOB. PSIXOLOGIYA FAN SIFATIDA</b>	5
1.1. Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob’ekti va ahamiyati	5
1.2 . Psixologik bilimlar olami	8
1.3. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi	15
1.4. Psixologik maktablar	21
1.5. Psixologiya rivojiga hissa qo‘shgan ulug‘ olimlar	32
1.6. Psixologiya tarmoqlari	40
1.7. Psixologiya fani rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	44
<b>II BOB. PSIXOLOGIYA KASB SIFATIDA</b>	49
2.1. Psixologiya kasb sifatida	49
2.2. Psixologlarning kasbiy faoliyat turlari	51
2.3. G‘arb mamlakatlari va MDHda mutaxassis psixologlarni tayyorlashni sifatini oshirish jihatlari	53
2.4. Psixologlarni tayyorlash bosqichlari	59
2.5. Psixologlar jamiyati va assotsiatsiyalarini shakllanishi	60
2.6. Ilmiy tadqiqotlar psixologlar faoliyati turi sifatida	62
2.7. Amaliy psixologik ish psixologlar faoliyat turi sifatida	66
2.8. Psixologik bilimlarni o‘rgatish psixolog faoliyati turi sifatida	67
<b>III BOB. PSIXOLOGIYA TARMOQLARI VA PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATI</b>	70

3.1. Psixolog faoliyatini ko‘rinishi va sohalari	70
3.2. Kasbiy muhim sifatlar	71
3.3. Psixologning faoliyat ko‘rinishlari	75
3.4. Ta’lim tizimida psixologik faoliyat	80
3.5. Tibbiyot sohasida psixologik yordam	82
3.6. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari	87
3.7. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya	90
3.8. Iqtisod va biznes sohasida psixologiya	96
3.9. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi	97
3.10. Huquqiy sohasida psixologik faoliyat	105
3.11. Sport sohasida psixologik ish	108
3.12. Konsultativ psixologiya	111
3.13. Taraqqiyot psixologiyasi	114
3.14. Shaxs psixologiyasi	115
3.15. Psixokorreksiya va psixoterapiya	118
<b>IV BOB. PSIXOLOG KASBIY FAOLIYATI VA PSIXOLOGIYA METODLARI</b>	125
4.1. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o‘rni	125
4.2. Psixologiya metodlari	126
4.3. Kuzatish metodi	129
4.4. Eksperiment metodi	130
4.5. Suhbat- intervyu	132
4.6. Psixodiagnostik metodlar	133
4.7. Proaktiv metodikalar tavsifi	136
4.8. Psixodiagnostik metodlar imkoniyatlarining chegaralanganligi	137
<b>V BOB. PSIXOLOG FAOLIYATINI NAZORAT QILUVCHI AXLOQIY ME’YORLARI VA ETIK TAMOYILLAR</b>	140
5.1. Psixologning majburiyatları, maqsad va vazifalari (tadqiqotchi, amaliyotchi, o‘qituvchi)	140

5.2. Psixolog faoliyatini etik muammosi, kasbiy me'yorlarning o'ziga xosligi	142
5.3. Psixolog kasbiy faoliyatida proffessional turg'unlik	144
<b>GLOSSARIY</b>	148
<b>ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b>	161
<b>ILOVALAR</b>	164

## CONTENTS

<b>Preface</b>	3
<b>SECTION- I (MODULE). INTRODUCTION TO THE SPECIALTY</b>	5
<b>CHAPTER I. PSYCHOLOGY AS A SCIENCE</b>	5
1.1. Subject, tasks, object and significance of psychology	5
1.2. The world of psychological knowledge	8
1.3. The formation of psychology as an independent science	15
1.4. Psychological schools	21
1.5. Great scientists who contributed to the development of psychology	32
1.6. Branches of psychology	40
1.7. Modern trends in the development of psychology	44
<b>CHAPTER II. PSYCHOLOGY AS A PROFESSION</b>	49
2.1. Psychology as a profession	49
2.2. Types of professional activities of psychologists	51
2.3. Aspects of improving the quality of specialist psychologists training in West countries and the CIS countries	53
2.4. Stages of training psychologists	59
2.5. Formation of the Society and Association of Psychologists	60
2.6. Scientific research as a type of activity of psychologists	62
2.7. Practical psychological work as a type of activity of psychologists	66
2.8. Teaching psychological knowledge as a type of activity of a psychologist	67
<b>CHAPTER III. NETWORKS OF PSYCHOLOGY AND PROFESSIONAL ACTIVITY OF PSYCHOLOGIST</b>	70
3.1. Appearance and spheres of psychologist's activity	70
3.2. Professionally important qualities	71
3.3. Activities of the psychologist	75
3.4. Psychological activity in the education system	80

3.5. Psychological support in the field of medicine	82
3.6. Characteristics of psychologist activity in the field of social relations	87
3.7. Occupational Psychology and Organizational Psychology	90
3.8. Psychology in Economics and Business	96
3.9. Psychology of personnel selection and management	97
3.10. Psychological activity in the legal field	105
3.11. Psychological work in sports	108
3.12. Counseling psychology	111
3.13. Developmental Psychology	114
3.14. Personality Psychology	115
3.15. Psychocorrection and psychotherapy	118
<b>CHAPTER IV. PROFESSIONAL ACTIVITIES OF A PSYCHOLOGIST AND METHODS OF PSYCHOLOGY</b>	125
4.1. The role of psychology methods in the professional activity of a psychologist	125
4.2. Methods of psychology	126
4.3. Observation method	129
4.4. Experiment method	130
4.5. Interview	132
4.6. Psychodiagnostic methods	133
4.7. Description of projective methodologies	136
4.8. Limited capacity of psychodiagnostic methods	137
<b>CHAPTER V. MORAL NORMS AND ETHICAL PRINCIPLES CONTROLLING THE ACTIVITIES OF A PSYCHOLOGIST</b>	140
5.1. Responsibilities, goals and objectives of the psychologist (researcher, practitioner, teacher)	140
5.2. Ethical problems of psychologist's activity, specificity of professional norms	142

5.3. Professional stagnation in the psychologist's professional activity	144
<b>GLOSSARY</b>	148
<b>LIST OF USED LITERATURE</b>	161
<b>APPLICATIONS</b>	164

**O.R. AVEZOV**

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH**

*Muharrir:* *A. Qalandarov*  
*Texnik muharrir:* *G. Samiyeva*  
*Musahhih:* *Sh. Qahhorov*  
*Sahifalovchi:* *M. Ortiqova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 04.05.2021. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog'oz. Bosma tobog'i 13,7. Adadi 100. Buyurtma №117.

**"Sadiddin Salim Buxoriy" MCHJ**  
"Durdon" nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadiddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45



ISBN 978-9943-7082-9-7

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 708297